This power is mainly manifested within the framework of the motivational block specific to each person. For example, the motivation block of athletes is formed by the needs, goals, and motives of sports activities. A need or a person's need for something means that the balance with the environment is broken. Psychologically, it is always related to the occurrence of internal tension, one or another level of discomfort, and the need to satisfy the necessary need to get rid of them. It is for this reason that such a need increases search activity, which is directed towards finding a way to satisfy it. Research in this area shows that any need can be met in a variety of ways. A person can choose any of the ways he knows, but in reality his choice may be limited by the concrete conditions of life. The psychological importance of coping is that in order for a person to effectively adapt to the demands of the situation and master it, he must weaken or soften these demands, avoid them or try to get used to them, and thus gradually lose the stressful effect of the situation. Coping behavior serves two functions: focusing attention on stressful disruptions between the individual and the environment in a problematic situation, and focusing attention on emotions aimed at managing emotional distress. Thus, the main task of coping is to ensure and support human success, physical and mental health, and social relationships.

There are several approaches to examining coping strategies in psychology. In particular, I.M. Nikolskaya and R.M. Granovskaya explain that the coping strategy consists of three important components:

- behavior;
- emotional;

- to know

The first content (component) includes various behavioral strategies to overcome the focus of tension caused by internal and external factors.

The second component includes emotional release in order to cope with the source of stress or to seek social support.

The third content includes strategies that allow to neutralize the state of stress by changing the subjective assessment of the situation and change the level of control accordingly.

In her research, L.I. Antsiferova distinguishes the following strategies based on qualitative constructivism:

Having made a decision about the possibility of a positive change in the situation with a changeable strategy of coping, the subject formulates it as a problem: he determines the final and intermediate goals, determines the methods of achieving the goal, makes a solution plan, and sometimes uses "cognitive rehearsal". Constructive change strategy considers that practical actions are not necessary, they can be replaced by verbal reaction forms. In situations where resources and reserves are almost lost, restructuring occurs in the content-spiritual and energetic-dynamic spheres of consciousness. A person tries to form a new system of psychic self-control. As changing strategies, the following are distinguished: "downward comparison", in which a person compares himself with people who are worse off than him; "upward comparison" in which a person remembers his successes in other areas, "anticipatory coping" allows psychological preparation for difficult trials that are likely to be overcome.

Coping methods, these types of methods include positive thinking, such people try to find positive aspects from unpleasant and emotionally difficult experiences. Adaptation methods also include role behavior, in which a person assumes a certain role and behaves in accordance with it to the best of his ability. A person does not identify himself with this role, he considers all failures not to himself, but to his chosen character. This technique helps to constructively cope with difficult experiences. A common form of adaptive behavior is often self-identification with those who are more fortunate.

In stressful situations, the athlete's self-preservation methods include techniques for dealing with emotional disturbances. For example, getting out of a difficult situation should be not only practical, but also psychological. Subjects who withdraw and avoid situations are those who have experienced many failures and disappointments. Although they are capable enough, they avoid high promotions and lucrative offers. Avoiding all suspicious situations is characteristic of their personality. It is worth noting that in some cases, avoidance can be a legitimate and constructive life strategy. However, there are times when a person cannot practically

change the problem and avoid the source of danger and failure. In such situations, the individual focuses on emotion-oriented strategies, that is, he chooses (prepares) a strategy to deal with his negative emotions and painful feelings based on his psychological capabilities. These methods are considered non-constructive, because they do not eliminate the problem, but at the same time they are adaptive, whereas they alleviate the psychological state. Non-constructive strategies of behavior include various methods of psychological protection - from pushing the problem out of the mind, including impulsive behavior, emotional tensions, extravagant actions, aggressive reactions.

List of used literature:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On improving the effectiveness of the state policy on youth and supporting the activities of the Youth Union of Uzbekistan." -T.: 2017. -B1-3.

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan". Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan. - T.: 2017. - No. 6 (766). -229 p.

3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 4, 2019 No. PF-5887 "On measures to take football development to a completely new level in Uzbekistan". -T.: 2019. -B.1-2.

4. Concept of development of physical education and mass sports in the Republic of Uzbekistan in 2019-2023. Resolution No. 118 of the Cabinet of Ministers of February 13, 2019./National database of legal documents. 14.02.2019y. No. 09/19/118/2612.

5. Abdurasulov R.A. The role of sports training in the formation of a student's personality. Monograph. -Tashkent.: Science and Technology. 2013. -204 pages.

6. Alyoshkov I., Dzhanuzakov K. Individual preparation-problem No. 1. //Football-hockey. - M.: 1994. - No. 32. - S. 12-13.

7. Barotov Sh. R. Psychological service. -T. 2018. -346 p.

8. Gazieva F.E., Socio-psychological features of the formation and development of group cohesion in sports: dissertation auto-abstract prepared for obtaining the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in psychology. -Tashkent.: 2019. -55 pages.

9. Gozman L. Ya. Psychology emotsionalnyx otnosheniy. -M.: 1997.-272 p.

10. E. Mironov. Stress. -Moscow.: Saint Petersburg. 2003. Page 10

11. Zagainov P.M. Psychologist and commander. -M.: Fis. 1994. -144 p.

САҲНАВИЙ ОБРАЗ ЯРАТИШДА АКТЁРНИНГ МУШКУЛОТЛАРИ

Абдуқодирова Шодия
ЎзРФА, Санъатшунослик институти тадқиқотчиси

Аннотация: мақолада театр актёрининг саҳнавий образ яратиш жараёнидаги ижодий изланишлари, фаолиятидаги ўзига хосликлар ҳақида сўз боради. Театр актёрининг образ яратишда ижодий изланишлари Бертолд Брехтнинг “Шаддод она” спектакли мисолида очиб берилган.

Калит сўзлар: актёр, характер, образ, рол, талқин, маҳорат, саҳна, ижро, режиссёр, феномен, фигура.

Театр санъати учун актёр ҳамиша марказий ва асосий феномен бўлиб келган. Лекин ўз ўрнида режиссёр ҳам саҳнавий образ яратилишида муҳим аҳамиятли шахслардан биридир. Демак, саҳнавий образ яратилишида актёр ва режиссёрнинг ижодий ҳамкорлиги масаласига тўхталамиз.

Тарихан бутун дунёда театр санъати учун актёр марказий ва асосий фигура бўлиб келган. Театр санъатининг ривожида актёр ва режиссёрнинг ўзаро ҳамкорлиги муҳим рол ўйнайди. Бугун дунё миқёсида саҳнада ижро этилаётган роллар (қаҳрамон қиёфаси)нинг бир хиллиги, қидирилаётган қаҳрамон масаласи, образ яратишдаги ечимсизлик, актёрлик маҳоратининг нўноқлиги театр санъатида улкан муаммолардан саналади. Демак, актёр режиссёрнинг томошабинга айтмоқчи бўлган фикрини саҳнадан туриб етказиб берувчи асосий ва марказий фигурадир. Зотан, режиссёр актёр орқали ўзининг шууридаги фикрларини томошабинга етказади. Бундай кенг кўламли соҳа кишиларининг ишларига баҳо бериш ёҳуд улар яратган ижод маҳсулини ва шахсини омухталаштирган ҳолда портрет яратиш катта масъулият талаб этади.

Театр тарихидан муносиб жой олган А.Ҳидоятов, С.Эшонтўраева, З.Ҳидоятова, М.Кузнецова, Ш.Қаюмов, М.Мироқилов, кейинчалик, О.Хўжаев, Ш.Бурхонов, Н.Раҳимов, Т.Султонова каби иқтидорли актёрлар саҳнавий образ яратишда ўзларининг йўналишларига эга бўлди.

Бугун саҳнавий образ яратиш ва спектаклнинг бадиий яхлитлиги масаласи ўрганилиши лозим бўлган масалалардан биридир. Зеро, актёр яратган ролнинг характери образ даражасига кўтарилмас экан, спектаклнинг бадиий яхлитлиги борасида якуний фикр билдириб бўлмайди. Актёр асар ғоясини очиш учун персонажга берган характерни бадиий образ даражасига олиб чиқолмаса, ёрдамчи воситалар – декорация, мусиқа ижрочининг хатоларини яшириб турган ямоқдай хис қилинади.

Саҳнавий образ сажиясининг ҳаётийлиги спектаклнинг умрбоқийлигини таъминловчи асосий омилдир. Саҳнавий образ яратишга қодир иқтидор эгаси, тажрибасидан келиб чиқиб, қаҳрамонининг сажиясини яратади. Демак, қаҳрамон сажиясини яратиш иқтидори ҳамма актёрга ҳам насиб этавермайди, у акёрнинг қобилияти билан боғлиқ ҳодисадир. Иқтидорли актёр қаҳрамони ҳаётидаги тафсилотлардн энг зарурларини танлаб олиб, ягона қизил ипга териб олади ва шу орқали характер яратишга муяссар бўлади.

Актёр саҳна яратган қаҳрамонининг характерида ижрочининг шахсий фазилатлари ҳам аксланиши мумкин. Бу эса ҳар бир ижодкорнинг ўз ижро манерасини белгилайди. Лекин шуни айтиш керакки, саҳнавий образ яратишда актёрнинг шахсиятига тегишли ранглар унинг қаҳрамони характерига қанча кам аралашса, персонажнинг табиийлиги ва ҳаётийлиги шунча ёркин бўлади.

Куни кеча ўзбек миллий академик драма театрининг саҳнасида режиссёр Т.Исроиловнинг “Шаддод она ва унинг болалари” асари чиқди. Саҳнада урушнинг фожеалари, халқ кўз ёшлари, етим, бева, фарзанд доғида қолаётган болалар, аёллар, оналарнинг аламлари Онаизор Анна Фирлингни саҳналарда баралла кўрсатилмоқда. Спектакль Анна Фирлинг атрофида содир бўлаётган воқеаларни акс эттирувчи эпизодлар занжиридан иборат.

Спектакль воқеалари Анна Фирлинг-М.Иброҳимова, ўғиллари Эйлиф-, Швейцарийлик- ҳамда қизи Катрин-Ш.Абдуқодирова атрофида содир бўлади. Анна Фирлинг жуда мураккаб, зиддиятли образ. Уни Малика Иброҳимова ақлни шошириб қўярли даражада тасвирлайди. Бир пайтда қатиятли ва ожиза, манфаатлари йўлида тап тортмас ва болажон, очкўзлик ва қизининг бахти учун касалликка-да бош эгмаётган шадод она қиёфасида намоён бўлди. Дарди-дунёси фарзандларини урушдан асраб қолиш, уларни фаровон келажаккача саломат олиб чиқиш, ягона қизи Катринни турмушга узатиш бўлган олиб сотар она сийрати М.Иброҳимова талқинида очиқланди. Актрисанинг Аннаси урушдан моддий манффат кўргани ҳолда уни лаънатлайди-ю лекин тугашини ҳам истамайди. Қўринқинчли, аянчли фалсафа, тўғри эмасми....

М.Иброҳимова Аннадаги нафсга тобелик ҳиссини оналик меҳри билан қарши қўяди. Қаҳрамонининг қатъиятли, жасур табиатини чуқур ички қувват билан ижро қилди. Урушга айланиб бораётган Анна Фирлингни нафснинг қули эмас, балки очкўзлиги бадалини фарзандларининг ҳаёти билан тўлаётган онаизор, қадди кун сайин букилиб бораётган, шаддодлигидан асар қолмаган муштипар қиёфасини жонлантирди.

М.Иброҳимованинг Аннаси урушнинг мафкуравий асосларини тушунмайди. Урушга шунчаки прагматик – бойиш усули сифатида қарайди, холос. У ҳатто аравасига қайси байроқни илиб қўйиб савдо қилиши ҳам аҳамиятсиз. Асосийси болалари урушга кетмаса, савдоси эса юришиб турса бас.

Фирлинг фарзандларига ҳам тадбиркорликни ўргатади. Урушдан ўз манфаатлари йўлида фойдаланаётган Анна болаларини ҳар қанча асраб қолишга урунмасин бефойда эди. Уруш Аннанинг болаларини бирин-кетин ҳалок қилди.

Анни Фирлингнинг тўнғич фарзанди Эйлиф жасурликни, кенжатойи Швейцариялик адолат, ҳақиқатни, ягона қизи Катрин меҳрибонликнинг тимсоли эди. Бу билан Брехт томошабинга уруш инсониятдаги барча эзгу фазилатларни ўлдиради, демоқчидек.

Саҳнавий образ яратиш масаласи актёрнинг янги имкониятларини очадиган, ижодий фаолиятида кескин бурилиш содир қиладиган театр санъатидаги энг ёркин ҳодисадир. Зеро, актёр яратган характерлар инсонни фаол ва гўзал ҳаёт тарзига эришмоқ учун курашиш, эртанги кунга ишончини рағбатлантириш, унга ато этилган умрни тўлақонли идрок этишга кўмаклашиш ва вужудга келиши мумкин бўлган тўсиқларни матонат ва заковат билан енгишга ўргатиш каби бир қанча вазифаларни бажаради.

Ижоднинг бирон турида актёрдек характер хилма-хиллигини кўрсатиб бера олувчи касб вакиллари йўқ бўлса керак. Актёрлар донишмандлар, қироллар, фақирлар, ўғрилар, тўғрилар, жаллодлар, гўрковлар, телбалар, доҳийлар, қўйингки барча қатламни бирдек коллорит билан кўрсатиб бера олади. Актёр ўзининг қувончи, ғазаби, ташвишлари, орзу-умидлари ва улуғвор фикрларини персонажининг ҳаракатлар чизиғига мос равишда тақсимлаб чиқади.

Ўзбек миллий академик драма театрининг саҳнасига турли даврларда, турфа актёрлар томонидан олиб чиқилган ёркин характерга эга Эдип, Медея, Отелло, Гамлет, Фердинанд, Луиза, Лир, Хлестаков, Катерина, Навоий, Улуғбек, Бобур, Фармон биби, Сулаймон ота каби ўнлаб персонажлар ҳамон томошабинлар хотирасида. Уларнинг ютуғи актёрларнинг индивидуал топилмасида, яратилган саҳнавий образлар сажиясининг кўп қиррали эканида, ҳаракатлар чизиғининг аниқлигида, ижрочиларнинг фикрларидаги салмоқдадир.

Хулосавий фикр, саҳнавий образ яратиш масаласи актёрларни ҳамиша ўйлантириб келган. Улар саҳнада қаҳрамонининг характерини яратар экан бу ҳодиса уларнинг майлида ниманидир бўртиброқ намоён қилиш ёки қайсидир қирраларни бошқасидан афзалроқ билиш билан белгиланади. Ижро этилаётган қаҳрамон аниқ ҳаракат қилмас экан, фикрини қилмишлари орқали аниқ ифодаламаса характер гавдаланмайди.

Саҳнавий образ яратишда актёрда тўртта мақсад бўлиши лозим. Қаҳрамонининг олижаноблиги, қандайдир мақсадга интилиши, ҳаётийлик ва ҳаққонийлик бўлиши лозим. Шунингдек, характерлар ўзига хос изчилликка эга бўлиши талаб қилинади. Қаҳрамон сажиясидаги изчиллик ҳамиша зарурат ёки

эҳтимоллардан келиб чиқади. Саҳнавий образ яратишнинг назарий ва амалий жиҳатларини етарлича ўзлаштирган, ўз ролларини образ даражасига олиб чиқа олган актёрларгина тугал спектакллар яратилишига, бундай асарлар миллатнинг маънавий ва маданий мулкига айланишига умид уйғотади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мухтаров И. Театр и классика. – Ташкент: издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма,1988. -176 с.,
2. Мухтаров И. Театр и его актёры. – Ташкент: Фан, 1989. - 146 с.,
3. Мухтаров И. Узбекский театр: страницы истории и современности.– Ташкент: San’at, 2014. - 240 с.

REWRITING - МАТНЛАРНИ САМАРАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ВА ЯРАТИШ УСУЛИ СИФАТИДА

Наргиза Мирзаева
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси
ф.ф.ф.д. (PhD)б доцент в.б.

Бугунги кунда интернет оммавий ахборот воситалари орқали шиддат билан тарқалаётган янги ахборот манбаларининг пайдо бўлиши, журналистика йўналишида турли хил янгиликлар билан ишлаш имкониятларини яратмоқда. Жумладан, рерайтинг – матнга янгича ишлов бериш техникасининг пайдо бўлиши тарқалаётган янгиликларга, жуда қисқа вақт ичида қайта ишлов бериб, аудиторияга узатилишида муҳим аҳамият касб этмоқда. Мазкур мақолада рерайтинг усули оммавий ахборот воситаларининг интернет платформаларида замон талабига мос янги контент яратишнинг замонавий йўналишлари, рерайтинг техникасининг медиамаконни бойитишдаги роли, аҳамияти, ютуқлари, муаммоси, журналистик қайта ишлов беришда технологик хатолар ёритилган ва уларни бартараф этиш чоралари ишлаб чиқилган. Тажрибали қайта ёзувчи журналист қандай бўлиши кераклиги, унинг ишига, яъни қайта ёзилган ишнинг ўзига хослиги қандай хусусиятларга эга бўлишлиги билан бирга ёш ёзувчиларга мазкур усул бўйича тавсиялар берилган, шу билан бирга, узатиладиган янгиликларнинг ишончлилик даражасининг пасайишида ёлғон, сохта ахборотларнинг ўрни ва уларни қандай аниқлай билиш мумкинлиги асосланган. Чунки илмий адабиётларда рерайтенг технологиясида фаолият олиб борувчилар учун фейк янгиликларни фактчекинг орқали верификация қилишнинг ижобий томонлари ҳақидаги тадқиқотлар мавжуд эмас. Мавзунинг долзарблиги ва илмий аҳамияти шундаки, миллий ахборот воситалари ва хориж онлайн нашрлари фаолиятида рерайтинг технологиясидан фойдаланиш тажрибаси, қайта ишлов берилган матннинг ўзига хослигини қандай таъминлаш йўллари берилган.

Мазкур мақолада келтирилган янги маълумотлар, интернет нашрлари фаолиятида рерайтинг технологиясидан тўғри фойдаланишга, ёлғон-сохта ахборотларни верификация қилишга ва ёш рерайтерлар билимларини янада бойитишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: рерайтер, копирайтер, интернет, матн, самарали матн, қайта ишланган ахборот.

REWRITING – EFFICIENT TEXT PROCESSING AND AS A METHOD OF CREATION

Nargiza Mirzaeva
University of Journalism and Mass Communication of Uzbekistan
Department of Uzbek language and literature
f.f.f.d. (PhD) associate professor

Today, the emergence of new sources of information that are rapidly spreading through online media creates opportunities for working with various news in the field of journalism.In particular, rewriting is gaining importance in the news - the emergence of a new text processing technique that is distributed, processed and transmitted to the audience in a very short time. This article highlights the rewriting method, modern trends in creating new content on online media platforms, the role, significance, achievements, problems of the rewriting method in enriching the media space, technological errors in journalistic processing and measures to eliminate them. Recommendations on this method are given to young writers, as well as what an experienced journalist-rewriter should be, what are the features of his work, i.e. the originality of the rewritten work, at the same time it is based on the role of lies, fake information and methods of identifying them in reducing the reliability of transmitted news. Because there is no research in the scientific literature about the positive aspects of checking fake news through fact-checking for rewriting technology operators. The relevance and scientific significance of the topic lies in the fact that the experience of using rewriting technology in the activities of domestic media and foreign online publications, and ways to ensure the originality of the processed text are provided.

The new information presented in this article serves for the correct use of rewriting technology in the activities of online publications, for checking false information and further enriching the knowledge of young rewriters.

Keywords: rewriter, copywriter, Internet, text, effective text, processed information, fake news checks.

REWRITING – ЭФФЕКТИВНАЯ ОБРАБОТКА ТЕКСТА И КАК МЕТОД ТВОРЕНИЯ

Наргиза Мирзаева
доктор филологических наук (PhD), доцент кафедры узбекского языка и литературы Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Сегодня появление новых источников информации, которые стремительно распространяются через интернет-СМИ, создает возможности для работы с различными новостями в сфере журналистики. В частности, в новостях приобретает значение рерайтинг - появление новой техники обработки текста, которая в очень сжатые сроки распространяется, перерабатывается и передается аудитории. В данной статье освещены метод рерайтинга, современные направления создания нового контента на интернет-платформах СМИ, роль, значение, достижения, проблемы метода рерайтинга в обогащении медиапространства, технологические ошибки в журналистской обработке и меры их устранения. Даны рекомендации по этому методу молодым писателям, а также то, каким должен быть опытный журналист-рерайтер, каковы особенности его творчества, т. е. оригинальность переписанного произведения, в то же время оно основано на роли лжи, фейковой информации и способов их выявления в снижении достоверности передаваемых новостей. Потому что в научной литературе нет исследований о положительных сторонах проверки фейковых новостей посредством фактчекинга для операторов технологии рерайта. Актуальность и научная значимость темы заключается в том, что приводятся опыт использования технологии рерайтинга в деятельности отечественных средств массовой информации и зарубежных интернет-изданий, способы обеспечения оригинальности обрабатываемого текста.

Новая информация, представленная в данной статье, служит для правильного использования технологии рерайтинга в деятельности интернет-изданий, для проверки ложной информации и дальнейшего обогащения знаний молодых рерайтеров.

Ключевые слова: рерайтер, копирайтер, интернет, текст, эффективный текст, обработанная информация, проверки фейковых новостей.

Кириш

Ҳозирда интернет журналистика бўйича янги ахборот манбаларини тезда топиш имкониятлари кенгайиб, бунинг натижасида, янги ахборот матнларини қайта ишлаш учун янги усуллар вужудга келмоқда. Жумладан, қайта ёзиш каби янги ахборот матнлари билан ишлаш усулларининг пайдо бўлиши матнга жуда қисқа вақт ичида қайтадан ишлов бериб, аудиторияга етказилишида катта аҳамиятга эга бўлмоқда.

Янги ахборотни қайта ёзиш бўйича гап кетганда, америкалик ёзувчи, эссеист, комедиячи Девид Седариснинг сўзларини ёдга олиш муҳимдир: “Сиз ўз кучингизга қараб қўлингиздан келганини қилишингиз керак, кейин эса нима қила олишингизга қараб, энг яхшисини олиб уни қайта ёзинг, қайта ёзинг, қайта ёзинг ва яна қайта ёзинг”[Седарис, 1998]. Қайта ёзиш санъатини эгаллаш янги

ёзувчилар ва профессионал ёзувчилар учун ҳам жуда муҳимдир. [https://spravochnick.ru, 2017]

Замон талабига мос, ахборотни самарали қайта ёзиш, ривожланаётган воқеа контекстида, қайта ишланган ахборотни электрон шаклда тўлиқ ва турли кўринишдаги маълумотларни умумлаштирилган кўринишини тақдим этишга қаратилган. Шу билан бирга, мультимедиали матнни таҳрирлашда, медиа конвергентацияси вазифалари ҳам, ҳар хил турдаги контентдан фойдаланиш нуқтаи назаридан ҳам, жанрларнинг яқинлашуви нуқтаи назаридан ҳам, ушбу соҳа учун жуда долзарбдир. Матнларни самарали қайта ёзиш йўналиши Интернет, мобил алоқа ва бошқа рақамли оммавий ахборот воситалари томонидан тақдим этилган замонавий техник имкониятлардан максимал даражада фойдаланиш имконини беради. Интернетга уланган компьютердан фойдаланиб, қайта ёзувчи, матн сифатида тақдим этилган турли хил воқеалар, масалан, расм ва видео материаллар ҳақида маълумотларни тезда топиши, самарали қайта ишлаши билан бир қаторда, чоп қилиши мумкин.

Усуллар ва манбалар

Рерайтинг (инг. rewriting) – асл ахборот матнини ёки асл қораламани, кейинчалик улардан фойдаланиш мақсадида қайта ишлаш деган маънони билдиради. Рерайтингда копирайтингдан фарқли ўлароқ, аллақачон ёзилган матн асос қилиб олинади ва “мутахассис” ўз сўзлари билан қайта ёзади. Ёки яна ҳам бошқача айтадиган бўлсак, ахборот, янгилик, мақола ёки бошқа бирор матнни ёзувчи ўз сўзлари билан қайта ёзиши, қайта жихозлаши тушунилади. (https://www.masterclass.com., 2018) Асл матнларни лексик ўзгартириш бўйича мутахассислар “Қайта ёзувчилар” деб аталади.(https://ru.wikipedia.org, 2022)

Ҳозирда веб-сайтнинг қуйидаги усуллари қўлланилади(Агратин, 2018):

1. Тўлақонли журналистика. Ушбу жанр ўзининг фойдалилигини йўқотди, деган фикр бор, лекин аслида у гуллаб-яшнамоқда, фақат бу сафар Интернетда. Бу ерда матнларнинг юқори даражасига шуҳба йўқ: улар қизиқади, муҳим мавзуларни кўтаради ва ташриф буюрувчиларни жалб қилади;

2. Копирайтерлик. Баъзида яширин, кўзга ташланмайдиган рекламани ўз ичига олган муайян мавзудаги мақолаларни юқори сифатли ёзиш;

3. Қайта ёзиш. Юқори ўзига хослик билан тайёр матнларни ўзгартириш ва қидириш. Қидирув механизмларининг пайдо бўлиши билан қайта ёзиш янги мақсадни топди. Энди рерайтерлар бошқа одамларнинг мақолаларини ноёб матнларга айлантирадилар. Ушбу ёндашув билан сиз тўлиқ ёки қисман ўзгартиришингиз мумкин. Тўлиқ версияда матн ҳаиқатан ҳам копирайтерни ишлатишдан кўра ёмонроқ бўлиши мумкин. Бироқ, бундай ишни аммалда қила олмайди. Муваффақиятли қайта ёзиш фақат профессионаллар қаламидан вужудга келади. Шунга қарамай, бундай тестлар сифатли муаллифлик ҳуқуқига

тенг эмас. Ахир, қидирув тизимларини биринчи қаторларда сайтни кўрсатишга мажбур қиладиган ягона нарса эмас. Бундан ташқари, қайта ёзиш орқали фойдаланувчиларнинг ишончини йўқотиш мумкин, улар бир қарашда асл манбани топадилар.

Журналистикада яхши қайта ёзиш - контент бўйича мутахассисни танлаш каби мунозарали масалада, ўрта рерайтер-журналистнинг позицияси бўлиши мумкин. Агар кимгадур копирайтер керак бўлса, лекин етарли маблағ бўлмаса, бу ажойиб альтернатив бўлади. Унинг иши оддий рерайтерга қараганда ижодийроқ бўлади. Қайта ёзувчи журналист шунчаки матнни синоним сифатида ўзгартирмайди ва жумлаларни алмаштирмайди. У мавзу бўйича ўз нутқаи назарини қўшади. Бундан ташқари, у маълумотларни чуқур, қайта янги ишлов бериш ва уни ўқувчиларга ижодий тақдим этиш билан шуғулланади. Бу мақоланинг маъносини ўзгартирмайди, лекин у бошқача кўриниш олади. Бундан ташқари, оддий қайта ёзувчининг ишидан сўнг, матнларни кўпинча таҳрирлаш ва хатоларни тутиш керак. (Дўстмуҳамедов, 2008) Масалан, матнни яхшироқ сифатли қайта ёзиш ва янги ишлов беришда, контент бўйича мутахассисни танлаш каби мунозарали масалада ўрта рерайтер-журналистнинг позицияси бўлиши мумкин. Агар сизга копирайтер керак бўлса, лекин пулингиз етарли бўлмаса, бу ажойиб альтернатив бўлади. Унинг фаолияти оддий рерайтерга қараганда ижодийроқ бўлади. Қайта ёзувчи журналист шунчаки матнни синоним сифатида ўзгартириб, гапларни алмаштириб қўймайди. У мавзу бўйича ўз нуқтаи назарини қўшади. Бундан ташқари, журналист маълумотларни чуқур қайта кўриб, қайта-қайта ўқиб, янгича ишлов бериб сўнг уни ўқувчиларга ижодий тақдим этиш билан шуғулланади. Бу мақоланинг маъносини ўзгартирмайди, чунки у бошқа шаклга эга бўлиши мумкин. Журналист-қайта ёзувчи билан муаммолар одатда юзага келмайди. Бу мутахассислар юқори малакали ва юқори маълумотга эга.(https://kpfu.ru, 2019)

Натижалар

Журналистик нуқтаи назардан матн материалига қайта ишлов беришда ёки янгича қайта ёзиш жараёнида қуйидаги кўрсатмалар ва маслаҳатлар фойдали бўлиши мумкин: матнга янгича қайта ишлов беришда яъни, битта мавзуни ўзини қайта ёритиш учун бир неча манбалардан фойдаланган маъқул. Масалан, интернет маълумотларига шу билан бирга, рус, ўзбек ва чет эл бадиий адабиётларига ва ҳ.к. Бунда, қайта ишлов берилиши керак бўлган матн материалини қайта ёзишдан олдин, шу матнни қанчалик долзарблиги, нима сабабдан зарурлиги, қанчалик аҳамиятга эканлигини тушуниш учун уни бир неча марта баланд овозда қайта-қайта ўқиб чиқиш керак. Чунки бундай ҳолат, матнда учрайдиган мураккаб жараёнларни тез тушунишга, умумий маънони ва хулосани сақлаб қолишга ва матнни яна ҳам жилолашга ижобий таъсир қилади.

Албатта, қайта ишлов берилган матн материалида, асл нусханинг маъноси, фактлари, тафсилотлари сақланиб қолиниши шарт. Янгича қайта ишлов берилганда асл қораламада йўқ жумлалар, мос келмайдиган сўзлар, ортиқча шарҳлар, фактлар, шу билан бирга, асл маънони мутлоқ ўзгартирадиган гапларни қўшиш керак эмас. Самарали қайта ёзилган матн, асл муаллифлик матни билан мустаҳкамланиши керак.

Ўз ишини мутахассиси бўлган қайта ёзувчиларнинг фикрларига кўра, қайта ишланиши керак бўлган матннинг биринчи хатбошисини мустақил ўзгартириш мумкин. Чунки асл матннинг бошланиши маъно ва хулосага деярли ўз таъсирини ўтказмайди. Матннинг сарлавҳалари ва сўзлари ўзига хос тарзда ўзгартирилиши керак. Шу ўринда эслатиш зарур, бу ерда қидирув натижаларига кирадиган сарлавҳалар ҳам ҳисобга олиниши керак. Матннинг номи ёки сарлавҳадаги муҳим калит сўзлар сақланган, гапдаги ноёб сўзлар ҳам қайта тартибга солинган ҳолда ўзгартирилади. Матнни ҳикоя қилиш билан келтирилган фактлар, яъни жараённи ўзгартириш мумкин. Агар асл қораламада, муаллиф хусусийдан умумийга ўтган бўлса, матнга янгича ишлов беришда эса, умумийдан хусусийга ўтиш керак бўлади. Матнни асл маъносини сақлаш учун, худди шу мавзудаги қайта кўриб чиқилган бўлаклардан фойдаланган маъқул. Матн қисмлари ва жумлаларининг жойларини ўзгартириш орқали унинг тузилишини ўзгартиришга эришилади. Агар асл матн ажралмас бўлса, уни кичик сарлавҳалар остида бир қанча бўлимларга бўлиш мақсадга мувофиқ. Янги матн аслиданда жилоланиши учун, мураккаб гапларни содда гаплар билан, ёки аксинча, содда гапларни мураккаб гаплар билан алмаштириш мумкин. Бунда, иштирокчилар ва эргаш гаплар, гапнинг бир қисмидан иккинчи қисмига кўчирилиши мумкин, ёки умуман олиб ташласа ҳам бўлади. Матнни мустақил равишда, шахсий усулдан фойдаланиб мослаштирса ҳам бўлади. Бунда матн жумлаларидаги сўзларни алмаштирибгина қолмай, балки сўзларни синонимлар билан алмаштириш лозим. Бунниг учун автоматлаштирилган қайта ёзиш дастурларидан фойдаланмаган маъқул. Чунки улар қайта ишлов берилган ишнинг самарадорлигини камайтиради. Матнда берилган рақамларни сўзлар ёки чизиқчалар билан ўзгартириш билан бирга, тўғридан-тўғри нутқни билвосита нутққа айлантириш мумкин, ёки аксинча. Қайта ишлов берилган матнни ўзига хослигини текшириш учун махсус интернет дастурлардан фойдаланган маъқул. Агар янги ишлов берилган матннинг мазмунан ўзига хослиги қанчалик юқори бўлса, у буюртмачилар ёки аудитория учун шунчалик қизиқарли бўлади. Шунинг учун мураккаб жумлаларни ўзгартиришда хато қилмаслик билан бирга, матн материалини ўқишни қийинлаштирмаслик керак. Махсус қидирув тизимлари дастурлари қайта тайёрланган тақдимотнинг нафақат ўзига хослигига, балки саводхонлигига ҳам эътибор беради. Шу

ўринда саводсиз матнларни кўринишини қуйидагича кўрсатиш мумкин(Мизернов, Гращенко, 2015):

- Қайта ёзув ишини қулайроқ кўринишини таъминлаш учун, матнни жадвалга жойлаштириш керак. Масалан, биринчи устунга асл матн материали, иккинчисига эса қайта ишлов берилган янги матн ёзилади.

- Ҳар бир жумла бирин-кетин қайта ёзилади, бу матннинг ўзига хослиги таъминлайди. Кетма-кет қайта ёзишдан фойдаланиш, усулнинг ўзига хос хусусиятларини билдиради;

Янгича қайта ёзиш ишида, қайта ёзувчи маълум ижобий ва салбий томонларга эга бўлади. Қайта ёзувчи журналист эса ҳар доим ижобий томонларга эга бўлиши керак. Бу ҳолат фаолиятга ҳам, финансга ҳам ўз таъсирини кўрсатади.

Муҳокама

Қидирув тизимини оптималлаштириш (CEO), блогларни ўзгартириш ёки бошқа мақсадлар учун, ахборотни ёки бирор матн материалини қайта ёзиш бугунги кунда кўпроқ талабга айланиб келмоқда.[Белькова, 2022]

Давр талабига мос интернет журналистика йўналишида, янги ахборот манбаларини тезда топиш учун барча шароитлар мавжуд бўлиб, бунинг натижасида, янги ахборотлар ва янгиликлар материалларига қайтадан янгича ишловнинг беришнинг янги усуллари вужудга келмоқда. Жумладан, матн материалига қайта ишлов беришдек ноёб усулларнинг пайдо бўлиши, қайта ишлов берилган самарали матнни, аудиторияга етказилиши учун ижобий хизмат қилмоқда. [https://ru.wikipedia.org› wiki›, 2022]

Бугунги кунда Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларида рерайтинг усулининг ўрни ва аҳамияти чексиздир. Қайта ёзиш - бу муҳим коммуникация ва фикрни қайта ифодалаш воситаси ҳисобланиб, бу усул ёзувчи томонидан мунтазам равишда янгиликларни оммавий ахборот воситалари орқали етказиш куроли бўлиб хизмат қилмоқда. Бунинг натижасида ўқувчилар янги ахборотлар орқали, дунёни кўра олиш имкониятига эга бўлмоқдалар. Шундай экан шуни алоҳида айтиш муминки, рерайтинг усулининг кенг тарқалиши Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг тармоқлараро фаолиятини ва нуфузини ошишига ҳам ўз ҳиссасини қўшмоқда.[Дўстмуҳамедов, 2008]

Янги ахборотнинг ўқувчига яна ҳам самарали етказилиши, бу рерайтинг усулининг хусусиятини ва қиммати билан белгиланади. Ҳар хил турдаги ёки мавзудаги хар қандай ахборотнинг қиммати, яъни унинг соддалашган маъносини, қанчалик амалга ошира олгани билан боғлиқ. Мана шундай талабларга жавоб берувчи қайта ёзиш усули, оммавий ахборот воситаларига бўлган талабни кўчайтиради.[Мизернов, 2015]

Замонавий ахборот воситалари илм-фан, кўп сонли ва турли-туман ахборотлар бўлмаса, у мавжуд бўла олмайди. Айнан қайта ишлов берилган янгиликларга, турли соҳаларидаги мураккаб жараёнларни соддароқ кўринишига талабнинг юқорилиги оммавий ахборот воситаларини аудитория билан мулоқатини мустаҳкамлайди. Ҳозирги пайтда янги ишлов берилган ахборотга талабнинг ортиши оммавий ахборот воситаларининг қимматини ошириш билан бирга, уни ривожлантирмоқда.[Лащук,2013]

Радио ва матбуот жанрларида, хусусиятлари кўздан кечирилган асарлар сони унчалик кўп эмас. Улар телекўрсатув ва радио эшиттиришларнинг жанрий тузилиши ҳақида аниқ тасаввур ҳосил қилишга имкон беролмайди. [Шереля, 2000]

Кўпгина мутахассислар фикрича, замонавий оммавий ахборот воситалари томонидан узатилаётган ижтимоий қайта ишланган матнларга бўлган эҳтиёж бошқаларига қараганда кучлироқ. Сабаби, айнан шундай матнлар асосида ҳаётий муҳим аҳамиятга эга хулосалар чиқарилади. Бундай ҳолатнинг юзага келишида бадиий адабиёт матнларининг ўрнига оммавий ахборот воситаларининг тақдим этаётган матнларни, глобал миқёсда ўқишга одатланиш ҳоллари ҳам кучли туртки бўлиб хизмат қилмоқда. Барча оммавий ахборот ташкилотлари матн мазмунини яратиш фақат бутун нашр эмас, балки ундаги алоҳида хабарга ҳам тегишли бўлгани учун муаллифлик меҳнатини ахборот агентликлари, журналистлар ва муҳаррирлар ўртасида ажратишади. Ахборот, яъни матн қайта яратишда ҳар бир мамлакатнинг турли маданий анъаналари, яшаш тарзи, миллий менталитетининг ўз ўрни бор. Миллий менталитет муаммосига кейинги пайтлар тобора кўпроқ аҳамият берилаётгани ва бу йўналишда кўплаб илмий изланишлар амалга оширилаётгани бежиз эмас. Бу жараёнда турли тушунчалар ҳар хил маънода қўлланилмоқда. “Замонавий фалсафий луғат” муаллифларининг фикрига кўра, менталитет атамаси одамларнинг катта гурухларига хос дунёни қабул қилишнинг ўзгача ва барқарор усулини таърифлайди, у инсоннинг атроф-муҳитга бўлган муносабатини белгилайди. [Ефремова, 2006]

Оммавий коммуникациялар қайта ишлов берилган янгиликларни ва ахборотларни амалда тарқоқ бўлган кўп сонли ўқувчиларга узатиш жараёнини назарда тутади. Босма маҳсулотнинг ўзини бир неча йирик ҳудудларнинг эҳтиёжларига мослаштирилишида, радиога тематик ва субтематик эшитиришларни киритиш орқали хусусийлаштирилиши, дискли видеоускуналар ва айниқса, мусиқий видеонинг кенг тарқалиши, телевизион каналлар сонининг кўпайишида намоёндир.[https://kun.uz, 2018]

Қайта ёзув ихтиро қилинган вақтдан бошлаб, алоҳида маданий қимматга эга бўлган ахборот, аввалambор, матбуот орқали тарқатилган. Эски инсоний ахлоқни

инкор этувчи глобал адабиётлар ўрнига янги сиёсий ва иқтисодий тузилмалар ва ҳ.к.[https://ru.wikipedia.org wiki, 2019]

Муаллиф ўз овози, унинг образи, у узатадиган янгиликнинг талқини ва энг аввало, тили ва услубида намоён бўлади. Муаллифлар бўлаётган воқеалар ва уларнинг акс эттириш жараёнида ўз фикрларини яхшироқ ифода этадиган чуқур ғояларни, энг тўғри ва таъсирчан сўзларни қидирмай қўядилар. Аввалги даврларда уларга қарашли оммавий ахборот воситалари ёрдамида журналистлар ижтимоий фикрни юқоридан тушган кўрсатмаларга мувофиқ шакллантирганлар. Энди эса социал тармоқлар расмий оммавий ахборот воситалари билан аста-секин тенглашмоқда ва шунинг эвазига уларнинг ёрдамида жамоатчилик фикрини шакллантиришнинг бошқача механизми пайдо бўлмоқда.[Грязнова, 2009] Матнга қайта ишлов беришнинг қоидаларига асосан, асл матннинг камида етмиш беш фоиз ноёблиги сақланиб қолиниши керак.[https://artisan-team.ru›seo-wiki,2022] Махсус нуфузли сайтлар, порталлар ва веб-ресурслар учун мўлжалланган матнларнинг ўзига хослигини юз фоиз таъминлаш катта аҳамият касб этади. Бу қидирув тизимини оптималлаштириш учун хизмат қилади.

Хулосалар

Хулоса ўрнида айтиш мумкин, журналист рерайтер аудитория билан алоқани мустаҳкамлаши учун ва барқарор қилиши учун қайта ишлов берилган ишнинг натижаси шунчаки жилоланган бўлмаслиги керак, балки аслидан мазмунли ва аслидан кучлироқ кўринишга эга бўлиши талаб қилинади. Бу кўриб ўтилганлар ва таҳлил қилинганлар рерайтинг технологиясини тўғри баҳолашга ўз ҳиссасини қўшади.

Рерайтинг технологияси оммавий ахборот воситаларида замон талабига мос янги контент яратишнинг замонавий йўналишлари, медиамаконни бойитишдаги аҳамияти, роли, ютуқлари шу билан бирга ахборотга қайта ишлов бериш муаммоси ва уларни бартараф этиш йўллари кўриб чиқилган. Тажрибали қайта ёзувчи журналистнинг ишига, яъни, қайта ёзилган ишнинг ўзига хослик хусусиятлри қандай кўринишга эга бўлишлиги билан бирга ёш ёзувчиларга амалий, илмий ва назарий тавсиялар берилган. Шунингдек, аудиторияга етказилиши керак бўлган янгиликларнинг ишончлилига путур етадиган, ёлғон, сохта ахборотларни аниқлаш мумкинлиги ёритилган. Сабаби, энг сўнгги илмий адабиётларда, рерайтинг технологияси асосида фаолият олиб борувчилар учун фейк хабарларни фактчекинг орқали верификация қилишнинг ижобий жихатлари бўйича тадқиқотлар, изланишлар олиб борилмаган. Тадқиқотларимизда кўриб ўтилганлар асосида айтиш мумкинки, мавзунинг долзарблиги ва илмий аҳамияти, миллий ахборот воситалари ва хориж онлайн нашрлари фаолиятида рерайтинг технологиясидан фойдаланиш тажрибаси,

қайта ишлов берилган матннинг ўзига хослигини қандай таъминлаш йўллари берилган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Седарис Д. «The Art of Rewriting» Искусство переписывания. 1998.; https://cinnamonnetwork.com› David Sedaris. story – cinnamon network international. 2015.

2. https://spravochnick.ru› Особенности работы рерайтера в СМИ.2017.; https://www.merriam-webster.com. jennabrandon. medium.com., 2019.

3. Белькова Е. Г. Рерайтинг: правовая оценка // Проблемы современного российского законодательства. -М., 2013.С.142–145.; https://ru.wikipedia.org› wiki› Рерайтинг – Википедия 2022.

4. https://ru.wikipedia.org› wiki› Рерайтинг – Википедия 2022.; https://ru.wikipedia.org› Рерайтинг – Википедия. 2022.

5. Дўстмуҳамедов Х.Н. Журналистнинг касб одоби муаммолари. // Назарий-методологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991—2008 йиллар): Филол.фан.д-ри....дисс.автореф. - Т.: ЎзМУ, 2008.; https://www.kommersant.ru› Пустота хуже воровства – Коммерсант.2012.

6. Мизернов И.Ю., Гращенко Л.А. Анализ методов оценки сложности текста // Новые информационные технологии в автоматизированных системах. - №18. - С. 572-581. - 2015.; https: //ru.wikipedia.org› Рерайтинг – Википедия. 2022.

7. Лащук О.Р. Рерайтинг новостных интернет-сообщений в России // (2000 - 2013 гг. диссертация). - М.:МГУ, 2013; https: // uz. drunkentengu. com› Internet – ommaviy axborot vositalari. 2022.

8. Шереля А.А. Радиожурналистика. // Учебник. Под.ред.— М., 2000.; Hannah Snyder. Literature review as a research methodology: An overview and guidelines. //Journal of Business Research, Volume 104., 2019.

9. Ефремова Т. Ф. Копирайтер. // Современный толковый словарь русского языка. В 3 томах. — АСТ, — Т. 1., 2006.; Кубрякова Е.С и др. Краткий словарь конгитивных терминов. // - М., 1996.; Ченки А. Семантика в когнитивной лингвистике // Фундаментальные направления современной американской лингвистики. — М., 1997.; https: // uz. drunkentengu. com› Internet – ommaviy axborot vositalari. 2022.

10. https://kun.uz› Что изменилось в журналистике Узбекистана? - KUN.UZ. 20 апр.2018; https://kun.uz› Что изменилось в журналистике Узбекистана? - KUN.UZ. 20 апр.2018.

11. https://ru.wikipedia.org wiki› – Википедия. 2019.; https://Бакалавр-магистр.ru› newc. расшифровщик аудио и видеозаписей (транскрибер).2020.

12. Грязнова В.М. Понятие инварианта в лингвистике: история вопроса и современное состояние // Вестник Ставропольского государственного университета. - М., - С. 183-190., 2009.; Демьянков В. Н. Семиотика событийности в СМИ // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. — М., -С.68., 2018.

13. https://artisan-team.ru› seo-wiki› Уникальность текста - определение термина. SEO-википедия. 2022.; https://kun.uz›

STUDY OF PAREMIAS IN MODERN LINGUISTICS: AS AN EXAMPLE OF THE ANALYSIS OF LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES

Akbaraliyeva Khurshida Shavkatjon kizi
National University of UzMU scientific researcher (PhD)

Annotation. The article deals with the consideration of the paremic text in the modern linguistic paradigm: approaches to the researches are presented, the text-forming and linguocultural potential of individual units is shown. The direct observation method was used as the main method in this work, followed by the use of descriptive-analytical, comparative, contextual and linguistic and cultural methods. The Study is based on examples from lexicographic sources and illustrations from the Internet. The article provides an overview of the main aspects of the paremiological studies. Paremias are considered as a folklore genre, the thematic and ideographic principle of classifying paremias is presented, the aspects of cultural linguistics (linguoculturological) and translation studies are substantiated, and peculiarities of historical and etymological discursive (functional) analysis are shown. Comparative linguistic and cultural analysis is recognized by the authors of the paper as an integrative aspect of the paremiological material description. The article analyzes the text-forming and linguoculturological potential of the paremiology in different languages. As an example of the realization of the text-forming potential of paremias, the functioning of the proverb Не рой другому яму — сам в нее попадешь (упадешь) (He who digs a pit for others may fall himself therein) is studied as the verbal part of the english and others languages demotivators. The paper provides a linguistic and cultural analysis of paremias with a toponymical component in different languages. Despite the abundance of various toponyms, which are characteristic for different countries, in these proverbs are dominated the international component, which is associated with the universal laws of human thinking, which makes it possible to find their semantic equivalents in various languages. The relevance of this study lies in the fact that paremias are considered in various aspects from the standpoint of modern humanistic education. With the development of social communications in modern society, an intercultural connection is being strengthened, requiring linguocultural commentary.

Key words: paremia, proverb, functional potential, demotivator, linguocultural potential, toponym.

Introduction. Initially, all small paremiological genres (proverb, riddle, sign, etc.) were considered as works of folklore (V.P. Anikin, F.I. Buslaev, A.A. Potebnya). F.I. Buslaev studied how Slavic mythology reflected in proverbs. The

scientist was interested in the range of topics that were touched upon in Russian proverbs, as well as questions about the origin of proverbs and their connections with other genres: "some proverbs are nothing more than harsh expressions, retained in the memory of the people from an epic fable," he considered other proverbs "a whole fable in a small volume". A.A. Potebnya, explaining the essence of proverbs, discovered their connection with fables: "Fable and other poetic works explain to us... a special case, reduce the many different features contained in it to a small number. The same thing, only in to a greater extent, that is, with greater brevity, the proverb makes it". V.P. Anikin defines a proverb as "a short, rhythmically organized, stable in speech, figurative saying of the people", which has "the ability to be used in multiple meanings based on the principle of analogy." "The subject of the statement is considered in the light of generally accepted truth expressed proverb. Hence its ideological and emotional character. Compositional the division of judgment in a proverb, often supported by rhythm, rhytme, assonance, alliteration, coincides with syntactic".

Main Part. Thematic groups of proverb.

The topics of proverbs are quite diverse, but the repertoire is focused on man as the center of the universe, values associated with the human world. The thematic-ideographic aspect is based on the combination of proverbs according to the principle semantic community. Paremiological material is arranged according to the thematic principle in a number of dictionaries there are also separate studies based on the thematic principle analysis. We agree with the opinion of a number of paremiologists (L.B. Savenkova, N.N. Semenenko), that the disadvantage of this principle of analysis is the presence "the subjectivity of attributing a proverb to a specific topic" and also influence of the context in which the proverb is used on its meaning.

Historical and etymological of proverbs

Historical and etymological analysis, substantiated in the works of V.M. Mokienko and representatives of his school, aims to search for the universal and nationally specific. The stages of this analysis include the following:

1) recording all variants and their linguogeographical description within one language;

2) comparison of the collected material with linguistic facts of related languages to determine genetic or typological origins;

3) comparison of the research results with the chronological registration of specific units in specific languages and dialects;

4) study of linguistic facts taking into account cultural, ethnographic, mythological data to decipher the phraseological etymon;

5) comparison of linguistic interpretation with extralinguistic and identification based on the collected material of the original image – etymon.

Historical and etymological analysis allows us to show the national specificity of the paremia under consideration and provide information about the originality of the proverb in its native language.

Study of proverb from a linguocultural point of view

V.N.Telia, founder of the linguistic and cultural direction studying the phraseological resources of a language, considers a proverb as a kind of national "code", or the language of everyday culture, which was formed over centuries and passed on from generation to generation, reflecting all attitudes life position and philosophy of the people of a certain culture. M.L.Kovshova notes that the linguoculturological approach is associated with ethnolinguistic analysis, developed by N.I. Tolstoy. At the core The linguoculturological method states that "cultural information is stored and transmitted in linguistic signs - explaining the past and predicting the future".

Translation aspect

Linguistic and cultural commentary accompanying the lexicographic description of proverbs allows avoid errors when interpreting the corresponding unit. Proverbs, being nationally marked units, often cause difficulties in translation. The translation aspect helps the solution various problems that arise in artistic practice and theory translation. This aspect is associated with the contrastive method, but it is important and a number of factors are distinctive: the competence of the translator, knowledge of the paremiological fund of languages, understanding of the intent of the writer - the author of a work of art. In addition, the translation of proverbs "requires the translator good knowledge of the culture and national specifics of the language, preservation functional dominants, emotional-expressive background, features stylistics". The translation aspect makes it possible to study the techniques and methods of transmitting proverbs from one language to another.

Discourse analysis is an examination of the features functioning of proverbs in texts related to a specific discourse, to identify "their role in the process of cognition and in the process of communication". Analysis of the functioning of proverbs in context captures the metalinguistic information, which makes it possible to establish the formation of the terminological apparatus of paremiology (for more details: as well as to characterize the paremiological concentration of a certain time period.

The pragmatic factor influences the appearance of transformed proverbs - anti-proverbs (V. Mieder). Proverbial transformations are created according to models (formulas) characteristic of traditional proverbs, and the prototype is immediately recognized by native speakers. The recognition effect and the possibility of comparison with a traditional proverb are the main conditions for the popularity of the anti-proverb. Traditionally, the purpose of contrastive analysis has been to compare two or more languages to identify their similarities or differences that relate

Ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватлашнинг ҳуқуқий асоси сифатида бир қанча мисоллар, амалий ҳаракатларни кўрсатиш мумкин. Жумладан, 2021 йил 7 июнда Ўзбекистон БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияни ратификация қилингани ҳам ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилинишида яна бир муҳим қадам бўлди. Мазкур конвенция ногиронлиги бўлган шахсларнинг тенглик асосида барча ҳуқуқларини тўлиқ амалга оширилишини рағбатлантириш, ҳимоя қилиш ва таъминлашга қаратилгани билан жуда аҳамиятли. У мавжуд шароитлардан фойдаланиш имконияти, мустақил ҳаракатланиш, соғлиқни сақлаш, таълим, бандлик, абилитация ва реабилитация, сиёсий ҳаётда иштирок этиш, шунингдек, тенглик ва камситмаслик каби бир қатор муҳим масалаларни қамраб олади. Эндиликда мамлакатимизда ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича қонунчиликнинг ҳам миллий, ҳам халқаро асослари мавжуд. Галдаги долзарб масала – ушбу нормаларда белгиланган вазифаларнинг самарали ижро этилишидан иборат.

Янги таҳрирда қабул қилинган Конституцияда ҳам ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича алоҳида моддалар киритилиб, уларнинг ҳуқуқлари давлат муҳофазасида эканлиги кўрсатиб ўтилган.

57-модда.

Меҳнатга лаёқатсиз ва ёлғиз кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар ҳамда аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд бошқа тоифаларининг ҳуқуқлари давлат ҳимоясидадир.

Давлат аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларининг турмуш сифатини оширишга, жамият ва давлат ҳаётида тўлақонли иштирок этиши учун уларга шарт-шароитлар яратишга ҳамда уларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда таъминлаш имкониятларини кенгайтиришга қаратилган чораларни кўради.

Давлат ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳалар объектлари ва хизматларидан тўлақонли фойдаланиши учун шарт-шароитлар яратади, уларнинг ишга жойлашишига, таълим олишига кўмаклашади, уларга зарур бўлган ахборотни тўсқинликсиз олиш имкониятини таъминлайди.

Мазкур йўналишда амалга оширилган ислоҳотлар самараси ўлароқ, 2020 йилда янги таҳрирдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги қонун қабул қилинди. Мазкур қонун билан ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлашнинг асосий принциплари белгилаб берилди. Шунингдек, тиббий-ижтимоий эксперт комиссиялари фаолияти янада такомиллаштирилди ва имконияти чекланган шахсларни ижтимоий ҳимоя қилиш ва уларнинг ҳуқуқларини кафолатлашга оид қатор масалалар қонун даражасида белгиланди.

Президентимизнинг 2021 йил 22 февралда БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 46-сессиясида сўзлаган нутқида имконияти чекланган шахсларнинг ўз қобилиятини тўла рўёбга чиқариш масалалари бўйича Минтақавий кенгаш тузиш таклифи билдирилган ва Ўзбекистонда алоҳида эҳтиёжга эга бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлашга жиддий эътибор қаратилаётгани таъкидланган эди.

Айтиб ўтиш керакки, Ўзбекистонда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлами ҳуқуқларини мустаҳкамлашга қаратилган самарали ишлар олиб борилмоқда. Хусусан, 2020 йилда “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги қонун, 2023 йил 27 февралда “Ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент қарори қабул қилинди.

Қарорга мувофиқ, 2023 йилда муҳтож шахслар замонавий оёқ протез-ортопедия буюмлари билан, “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри”га киритилган ва I

гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар сон протези, болдир протези ва оёқ камари ортопед аппаратлари билан бепул таъминланади.

2023 йил 1 сентябрдан ногиронлиги бўлган шахсларни протез-ортопедия мосламалари ва реабилитация воситалари билан таъминлашда тиббий хулоса талаб қилинмайди. I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар ва уларга ғамхўрлик қилувчилар давлат хизматларидан навбатсиз фойдаланади, мансабдор шахслар қабулига навбатсиз киради.

2023 йил 1 майдан шифохоналарда даволанаётган ногиронлиги бўлган болага ғамхўрлик қилаётган шахсларга боланинг ёнида бўлиш учун шароит яратилади. Мазкур давр учун меҳнатга лаёқатсизлик варақаси ва бепул овқат берилади.

Педиатрия тиббий-ижтимоий эксперт комиссиялари болани ногиронлиги бўлган шахс деб топганда уларга пенсия тайинлашда қайтадан тиббий-ижтимоий экспертизага юбориш бекор қилинади.

“Юридик ёрдам” ахборот тизимида ногиронлиги бўлган шахсларга бепул ҳуқуқий ёрдам бериш учун алоҳида мурожаат бўлими яратилади. [2]

Рақамларга мурожаат қиладиган бўлсак, “2019 йил 1 августдан бошлаб II гуруҳ ногиронлиги бўлган ёлғиз шахслар – пенсионерларнинг пенсияларига устама миқдори пенсияни ҳисоблаш базавий миқдорининг 50 фоизидан 75 фоизига оширилди. I гуруҳ ногиронлик нафақаси, шунингдек, 18 ёшдан катта болаликдан I гуруҳ ногиронлик нафақаси олувчиларга ҳар ойда базавий ҳисоблаш миқдорининг 25 фоизи миқдорида қўшимча тўлов жорий қилинди.

Қолаверса, болаликдан ногиронлиги бўлганларга нафақаларни 16 ёшдан 18 ёшга қадар тўлаш ҳуқуқи берилди. Бунинг натижасида 2021 йилда болаликдан ногиронлиги бўлган 12,6 мингдан ортиқ ва 2022 йилнинг биринчи ярим йиллигида 16 мингдан зиёд болага нафақа 18 ёшга қадар тайинланган ва тўлаб берилган.

2021 йил 1 июндан ногиронлиги бор шахсларга пенсия ва нафақа тайинлашда тиббий-ижтимоий эксперт комиссиялари маълумотномаларини талаб қилиш бекор қилинди. Бу имтиёз ҳам ногиронлиги бор шахсларни қийнаб келаётган масаланинг ечими бўлди. Ижтимоий йўналтирилган ислоҳотларнинг давоми сифатида Чернобил` ҳалокати оқибатида III гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга пенсия тайинланиши, 18 ёшгача бўлган ногирон болага қараб турилган вақт стажга қўшилиши белгиланди.

Ногиронлиги бўлган шахслар, айниқса, доимий парваришга муҳтож болаларни парваришлаётган оилаларни давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш, ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли даромадларини оширишни таъминлаш мақсадида зарур иш стажига эга бўлмаган меҳнатга лаёқатсиз фуқароларга бериладиган ногиронлик нафақаси

миқдори 440 минг сўмдан 622 минг сўмга етказилди. Бу билан 49,1 минг фуқаронинг ногиронлик нафақаси миқдори ошди. Иш стажи тўлиқ бўлмаган ногиронлик пенсиясининг энг кам миқдори ҳам қўшимча тўловни ҳисобга олган ҳолда 440 минг сўмдан 622 минг сўмга етказилди. Ушбу имтиёз асосида 112,7 минг фуқаронинг ногиронлик пенсия миқдори ўртача 138 минг сўмга ошди.

Ўзгалар парваришига муҳтож ногиронлиги бўлган 18 ёшгача болалари бор оилаларга ҳар ойда 500 минг сўм миқдорида янги турдаги парваришлаш нафақаси жорий этилди. Бу имкониятдан 35,1 минг оила баҳраманд бўлмоқда.

Аҳолига ижтимоий хизматлар кўрсатишни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш, ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамиятга ижтимоий мослашуви учун кенг имкониятлар яратиш мақсадида 2022 йил 1 майдан “Саховат” уйларида яшовчи фуқароларга шахсий сарф-харажатлари учун ҳар ойда тегишли нафақа миқдорининг 20 фоизини тўлаш тартиби жорий қилинди. Бу янгилик ҳам инсон қадрини улуғлаш йўлида бажарилаётган эгзу ишларнинг мантиқий давоми бўлди”. [3]

Маълумот ўрнида, 2023 йил 1 сентябрдан бошлаб ногиронлиги бўлган шахсларни протез-ортопедия мосламалари ва реабилитация қилишнинг техник воситалари билан таъминлашда ногиронлиги бўлган шахслардан тиббий хулоса талаб қилиш бекор қилинди. 2022-2026 йилларда аҳолининг муҳтож қисмини замонавий протез-ортопедия буюмлари ва реабилитация воситалари билан таъминлаш даражасини 60 фоизга етказиш режалаштирилган.

Ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш борасида мамлакатимизда амалга оширилаёган ислоҳотлар ҳақида узоқ сўз юритиш мумкин. Бир сўз билан айтганда, мазкур йўналишдаги ислоҳотлар ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий ҳимоясини янада кучайтириш, аҳолининг эҳтиёжманд қатламини ижтимоий адолат тамойилидан келиб чиқиб қўллаб-қувватлашга мустаҳкам замин яратади. Бу эса юртдошларимизнинг ҳаёт даражасини яхшилаш, халқимизнинг розилигига эришиш, юртимизнинг ижтимоий-иқтисодий салоҳиятини юксалтиришда муҳим омил бўлади.

Фойдаланилган манбалар:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон халқига Мурожаати. president.uz сайти. 03.12.2021

2. Ҳ.Мўминов. “Конституцияда ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари янада мустаҳкамланмоқда.” uza.uz сайти. 20.03.2023 йил.

3. М.Ходжаева. Аҳолининг эҳтиёжманд қатлами ижтимоий адолат тамойилидан келиб чиқиб қўллаб-қувватланмоқда. https://parliament.gov.uz/. 10.01.2023

TEACHING PRAGMATIC SPEECH ACTS OF COMPLIMENTS AND REFUSALS IN ACCORDANCE WITH CONTEMPORARY METHODS

Sadikov Erkin Tursunovich
Certified TESOL/TEFL instructor Bukhara State University
English philology department

Abstract: This article integrally focuses on Multimedia Materials and using technology in the classroom and interprets different stages of language teaching and learning. All these factors may present its tie with other fields which have been vital as a part of TESOL program. Initially, it can be directly connected with SLA concepts because it mentions about the role of the teacher, learners' motivation, learner anxiety and different types of methods. It can be also linked with ESOL, since it demonstrates some notions about productive and receptive skills. Finally, it denominates the significance of using multimedia materials in raising learners' pragmatic competences and teaching speech acts such as compliments, refusals, complaints, invitations and others.

Keywords: ESL classroom, pragmatics, compliments, refusals, speech acts, multimedia materials, bandwagon, SLA concepts, ESOL, TESOL.

Introduction

Jayakaran Mukundan (2008) investigates the latest approach of Multimedia Materials in Developing countries, to be more precise, his studies are based on the outcomes of Malaysian ELT experience. The author prioritizes the article with a glance at bandwagon hypotheses which become pivotal core for exploring the newest trends, such as, lifestyle, fashion, media and computers.

He criticizes the approach of multimedia materials development for remaining too simple even though there was a good range of opportunities to prepare these types of materials through the computers, presentations, CD formats. Thus, aforementioned factors have played an integral role in progressing electronic versions of the reader.

Observations and evaluations

The writer illustrates some specific reasons why Malaysia has accelerated its culmination towards into Multimedia. He lists these reasons by defining their particular features. According to Mukundan (2008) the initial reason for developing Multimedia materials has been the fundamental change in the field of IT and its widespread implementation in business, finance and education. Thus, even traditional material developers and designers have altered their angles and eagerly faced the privileges of IT. This attitude has evolved the idea of smart schools and their establishments throughout the country.

Mukundan clearly tends to show the importance of this trend from another focus, he mentions that this progress has led to activate business into education. For instance, local people have become permanent purchasers of computers and in a consequence, almost each family could afford one computer.

Later this intention has presented one more fruitful outcome, English has become an inseparable part of Math and Science teaching and further language proposals and concepts have been created in accordance with this relationship.

In his further concepts the author commences to introduce some critical ideas about the misconceptions of utilizing Multimedia in ELT. Mukundan vividly points out three misconceptions in this lacking area. Primarily, he depicts the belief which equals the language with laboratories. Secondly, the author defines the term of teaching courseware and explains it as a misunderstood approach by some teachers and material designers. Finally, he decodes the belief which proposes teaching courseware to be appropriate into language educating pedagogy.

In the final part, the author shares his findings about the subdivisions of courseware by stating that they may mislead the educators, but at the same time he suggests some vital remedies to overcome these obstacles.

Discussion: The teacher's role in the classroom

It should be admitted that recent learning and teaching processes cannot be arranged without the use of Multimedia Materials. Even though the author of the article mentions that the implementation of Multimedia Materials into the classroom as a new trend, but my opinions about this view are much more controversial. I clearly remember that in the middle of the 1990s even Uzbek classrooms accepted the Multimedia Materials and they were utilized in traditional classrooms. For example, we were taught with a CD format of materials ("Intercom", "English for Businessmen") and at that time our instructor could show her excellence in using Multimedia Materials during the classes.

According to Browell (1996) the use of Multimedia Materials is not an up to date approach and it should be presented by combining two or three media sources, such as, the tape and projector. He also points out that using Multimedia Materials in the classroom makes easier the task of the instructor's by giving them an opportunity of demonstrating and achieving their goals and objectives more vividly and effectively.

Another claim that I do not subscribe to is Mukundan's denying the belief which may demonstrate language classrooms similar to laboratories. He emphasizes that the role of the teachers will not be the same, even they lose their presence in the classrooms. As a practicing teacher I can assure that the classrooms and teachers will keep their functions in the future. If we implement using Multimedia Materials in the

classroom and provide the internet connection and access to the computers we can develop the learners' skills on IT knowledge.

Although I have presented my contrasting opinions towards the author's concepts, there are some crucial moments where I support his perceptions. For instance, he denominates that if the Multimedia, in particular, the monitor or projector is always on during the class, learners' focus will be driven to this device and they can stop behaving naturally and the importance of negotiation or interaction may be reduced, thus the learners might feel the sense of anxiety and lose their confidence. Guangyang (2019) points out that the negative concerns may arise while using Multimedia Materials during the process of teaching and learning. Learners, even some teachers may be physically dependent on them which can also impact on the academic achievement of the students.

Conclusion

In the final analysis, in order not to lose their role in the classroom the teachers must also know how to use Multimedia Materials inside out. Asthana (2006) mentions that enabling teachers use Multimedia Materials can be an ongoing action, but at the same time this process should be regularly overtaken, because new technologies and novel approaches are entering the teaching and learning procedure abruptly.

References:

1. Mukundan, J. (2008). Multimedia materials in developing countries: the Malaysian experience, Google Scholar

2. Asthana, A. (2006). Multimedia in Education. Encyclopedia of Multimedia. Springer, Boston, MA

3. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). Извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943

4. Rasulov, Z. I.., & Saidov, K. S.. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 8–12. Retrieved from http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/28

5. Rasulov, Z. (2022). ОБ ОБЪЕКТЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ СЕМАНТИКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). Извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4346

6. Rakhmatova, M. M., & Inoyatova, D. I. (2022). Conceptual and Figurative Structure of the Concept of" Ugliness". Open Access Repository, 8(04), 58-61.

7. Sadikov, E. (2022). Noval Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8389

8. Sadikov, E. T. (2021). Teaching pragmatic skills and abilities through activities. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 1139-1141.

9. Sadikov Erkin Tursunovich. (2021). IMPLEMENTING AND ASSESSING PRAGMATIC SPEECH ACT DIVERGENCES IN THE ESL CLASSROOM. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 220–223. извлечено от https://www.inacademy. uz/index.php/ejar/article/view/134

10. Erkin Tursunovich Sadikov (2021). TEACHING PRAGMATIC SPEECH ACTS THROUGH THE RECEPTIVE AND PRODUCTIVE SKILLS. Academic research in educational sciences, 2 (11), 463-476.

11. Tursunovich, S. E.. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. Middle European Scientific Bulletin, 19, 120-122. https://doi.org/10.47494/mesb.2021.19.948

12. Sadikov, E. (2022). TEATEACHING AND ASSESSING SPEECH ACTS IN THE ESL CLASSROOMCHING AND ASSESSING SPEECH ACTS IN THE ESL CLASSROOM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 24(24). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8337

RESEARCH OF LINGUISTIC ASPECTS OF ADVERTISING IN ENGLISH

Sherefetdinova Elvina Rustemovna
Qo'qon Universtiteti Jahon tillari kafedrasi o'qituvchisi

Abstract: This article delves into the linguistic aspects of advertising in English, examining how language choice, persuasive techniques, and cultural references are utilized to effectively convey messages and persuade consumers. By analyzing these aspects, advertisers can create impactful and engaging advertisements that resonate with their target audience. This research aims to provide insights into the strategies employed in English advertising and their influence on consumer behavior.

Keywords: advertising, linguistic aspects, persuasive techniques, cultural references, desire, wordplay, tone, trust, rhetorical devices, repetition, exaggeration, attention, FOMO (fear of missing out), connection, relevance, social issues, campaigns, effectiveness.

Аннотация: В этой статье рассматриваются лингвистические аспекты рекламы на английском языке, исследуется, как выбор языка, методы убеждения и культурные отсылки используются для эффективной передачи сообщений и убеждения потребителей. Анализируя эти аспекты, рекламодатели могут создавать эффективные и привлекательные рекламные объявления, которые находят отклик у их целевой аудитории. Цель этого исследования - дать представление о стратегиях, используемых в англоязычной рекламе, и их влиянии на поведение потребителей.

Ключевые слова: реклама, лингвистические аспекты, методы убеждения, культурные отсылки, желание, игра слов, тон, регистр, доверие, риторические приемы, повторение, преувеличение, внимание, FOMO, связь, актуальность, стремления, социальные проблемы, кампании, эффективность.

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi reklamaning lingvistik jihatlarini o'rganadi, xabarlarni samarali etkazish va iste'molchilarni ishontirish uchun til tanlash, ishontirish texnikasi va madaniy ma'lumotlardan qanday foydalanilishini o'rganadi. Ushbu jihatlarni tahlil qilib, reklama beruvchilar o'zlarining maqsadli auditoriyasi bilan rezonanslashadigan ta'sirchan va qiziqarli reklamalarni yaratishi mumkin. Ushbu tadqiqot ingliz reklamasida qo'llaniladigan strategiyalar va ularning iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'siri haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: reklama, lingvistik jihatlar, ishontirish texnikasi, madaniy ma'lumotnomalar, istak, so'z o'yini, ohang, ishonch, ritorik qurilmalar, takrorlash, mubolag'a, diqqat, FOMO (yo'qolishdan qo'rqish), aloqa, dolzarblik, ijtimoiy masalalar, kampaniyalar, samaradorlik.

Introduction

Advertising is a powerful tool used by businesses to promote their products or services and attract customers. The English language offers a wide range of linguistic tools that advertisers can employ to effectively communicate their messages. This article aims to explore the linguistic aspects of advertising in English, focusing on language choice, persuasive techniques, and cultural references.

Language Choice: One of the key aspects of advertising in English is the careful selection of words and phrases. Advertisers choose words that evoke positive emotions and create a sense of desire or urgency. They utilize catchy slogans, puns, or wordplay to make their advertisements memorable and engaging. For example, McDonald's famous slogan "I'm lovin' it" not only conveys a positive sentiment but also uses informal language to appeal to a younger demographic.

The tone and register of language used in advertising also play a crucial role in shaping consumer perception. Advertisers may adopt an authoritative, persuasive, or conversational tone depending on the target audience and product/service being advertised. The choice of register can affect how consumers perceive the credibility and reliability of the advertised message.

Persuasive Techniques

Testimonials or endorsements from celebrities or satisfied customers are commonly used in advertising to appeal to the consumer's desire for social acceptance and trust in well-known figures. This technique leverages the influence of public figures to persuade consumers to purchase products or services.

Rhetorical devices such as repetition, exaggeration, or emotional appeals are also frequently employed by advertisers. These techniques aim to capture the consumer's attention, evoke emotions, and ultimately convince them to make a purchase. Phrases like "Don't miss out on this once-in-a-lifetime opportunity!" create a sense of urgency and FOMO (fear of missing out) in the consumer.

Cultural References

Incorporating elements of popular culture, such as music, movies, or current events, helps advertisers establish a connection with the target audience. By referencing familiar cultural touchstones, advertisers can create a sense of relatability and relevance, making their advertisements more engaging and memorable.

Advertisements often reflect and reinforce societal norms, values, and aspirations. Advertisers may tap into cultural symbols, traditions, or social issues to resonate with their target audience. By aligning their messages with prevailing cultural trends, advertisers can enhance the effectiveness of their campaigns.

Conclusion

Understanding the linguistic aspects of advertising in English is crucial for advertisers seeking to create impactful and engaging campaigns. Language choice,

persuasive techniques, and cultural references all contribute to the effectiveness of advertisements in conveying messages and persuading consumers. By analyzing these aspects, advertisers can develop more successful campaigns that resonate with their target audience and drive consumer behavior. Further research in this area can provide valuable insights into the evolving nature of advertising language and its impact on consumer responses.

Reference:

1. Hornikx, J., & van Meurs, F. (n.d.). Foreign Language Display in Advertising from a Psycholinguistic and Sociolinguistic Perspective. Advertising and Branding, 952–972. https://doi.org/10.4018/978-1-5225-1793-1.ch043

2. Feng, H. (2009). Different languages, different cultures, different language ideologies, different linguistic models. Journal of Multicultural Discourses, 4(2), 151–164. https://doi.org/10.1080/17447140802283191

3. Words and phrases. (2001). The Discourse of Advertising, 94–113. https://doi.org/10.4324/9780203978153-11

INNOVATIVE APPROACHES OF TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE

Surayyo Abidjanova
Kokand University Teacher of World Languages department

Abstract: This article analyses some innovative and quite interesting methods which have been taught in English classroom. Everybody has their own understanding and conclusions on teaching English language. But this paper portrays combining these two types how we can make our teaching very effective. We have been completely bounded with traditional methods of teaching and understanding where the present-day learners felt uncomfortable a bit. Learner's mind will never be static it is ever growing and ever changing. Whatever the teaching methodology can be, but teaching must be leaner's centred. However, this paper scrutinizes the difference between traditional and practical teaching and thereafter learning.

Key words: Innovative learning, integral, inquisitive, atmosphere, intuitively, evaluated, database, anagram, precautions.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili sinfida o'qitiladigan ba'zi innovatsion va juda qiziqarli usullar tahlil qilingan. Ingliz tilini o'qitish bo'yicha har kimning o'z tushunchasi va xulosalari bor. Ammo ushbu maqolada ushbu ikki turni birlashtirib, qanday qilib o'qitishimizni juda samarali qilishimiz mumkinligi tasvirlangan. Biz hozirgi o'quvchilar bir oz noqulay his qaerda butunlay ta'lim va aql an'anaviy usullari bilan chegaralangan qilindi. O'quvchining aqli hech qachon statik bo'lmaydi, u hech qachon o'sib boradi va o'zgarib turadi. Ta'lim metodologiyasi bo'lishi mumkin baribir, lekin ta'lim ozg'in ning markazida bo'lishi kerak. Ammo, bu qog'oz an'anaviy va amaliy ta'lim va keyin ta'lim o'rtasidagi farqni scrutinizes.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, integral, qiziquvchan, atmosfera, intuitiv, baholangan, ma'lumotlar bazasi, anagram, ehtiyot choralari.

Аннотация: В этой статье анализируются некоторые инновационные и очень интересные методы, преподаваемые на уроках английского языка. У каждого есть свое собственное понимание и выводы о преподавании английского языка. Но в этой статье описано, как мы можем объединить эти два типа тренировок и сделать наше обучение очень эффективным. Мы были полностью ограничены традиционными методами обучения и пониманием того, где нынешние студенты чувствуют себя немного некомфортно. Сознание читателя никогда не бывает статичным, оно никогда не растет и не меняется. Методология обучения может быть любой, но образование должно быть в центре внимания lean. Однако в этой статье тщательно исследуется разница между традиционным и практическим образованием, а затем и самообразованием.

Ключевые слова: инновационное образование, интегральное, любопытное, атмосферное, интуитивное, оцениваемое, база данных, анаграмма, меры предосторожности.

Nowadays, English is taught in a very orthodox manner. The basic teaching is needed. Teaching the alphabets and the formation of the words is essential and a must. But there is something that is even more important. The children must be able to speak the words and understand their meaning before writing them down. The foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. But then teaching only the rules is found to be boring by most students and it is because of this that they lose interest in learning the language. Although there is no way other than the traditional one to teach the basics of the language these methods must be tweaked a bit so as to appeal to the students. When it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics the traditional methods generally tend to yield poorer results that innovative methods. This has already been proven by methods implemented like use of stories, poems, movies, books and newspapers etc. These methods help the students learn the language better without them actually realizing and also it keeps their interest. This paper will provide a few of such methods to teach English Language.

Enacting the stories; Stories form a very integral part of teaching a language. These stories help teach the students about the formation of sentences and how to express their thoughts and a lot of other things and plus they help in keeping the students interest alive as the story's end is something that every student wants to know. It appeals to the inquisitive nature of the students. Any unfinished story always keeps the mind of the reader agitated. Although this method of using stories has been implemented the procedure of teaching the language through it is generally not right. The evaluation procedure of testing the students in their proficiency over the language is through questions based on the story. This is generally not that effective. Due to this the students generally tend to take up the stories as a chapter rather than looking at it as an interesting read. A story is supposed to appeal to the creative part of the brain. It helps us be more imaginative, by trying to visualize the things that are happening inside the story. It should not only teach them the language but it should also help them in extracting a lesson from the story. Keeping questions for evaluation kills the entire idea of imagination for the students look at the story as something that they need to learn for answers.

There is a better way of using the stories to English using stories. The students can enact the stories or the plays. In this way the students are personally engaged with the stories. They can bring their own interpretation of the character to life. It is

interesting for the students to understand the characters and put themselves in their positions. It engages their creativity by allowing them to create the entire set, assign the characters and play it out according to what they had imagined.

The story will help them learn the language as they will be enacting it by dialog which they will themselves extract from the stories and also modifications can be made to the plays to help the students be more interactive and creative. They can add more lines, characters, change the ending, bring in an interesting twist etc. The more creative the modification, more are the points awarded to the team. This also leads to personality development and helps them work as a team player and all the way the student was learning the language.

Teaching through conversations; Conversations are by far the most useful ways of teaching the language. When a child learns his or her mother tongue it is by the conversations that takes place between them and others or by listening to the conversations made by the others. The child is never taught the language but is still able to percept the meaning and learns it automatically to use it in day to day life. No one ever teaches the kid the characters of the language or how to make sentences or the grammar of that language. The conversations alone teach the children. Hence, conversations form a very important part of the teaching process. The sentence construction and the grammar is not something that can be entirely taught by rules. They have to be taught intuitively. That can only happen through a lot of reading and a lot of listening. This can be taken care of easily as every conversation needs a topic. The topic can be given to the students in form of written documents which they have to first read then form an opinion and then have a conversation about it or it can be spoken out and then they can listen, understand and also take part in the conversation.

Teaching through games; Teaching by games is a very interesting method of teaching. Students and children generally tend to like games and want to play them more and more. Traditional methods dictated for study and games to be separate but the fact remains that the students tend to be more interested in playing games rather than sitting down to study. Any logical reasoning would dictate us to combine the two aspects to solve the problem. The games part of learning would help the students keep their interest as the desire to win is very strong. It keeps us going and when included with different aspects of learning the learning process would continue almost throughout the day without the children getting tired or bored of studying.

Word games; The most important part of any language is the vocabulary. To understand the meaning of the words and to use them in day to day life is a very difficult task and games can help the students overcome this difficulty. Games like scrabble, housie etc. have been designed for this specific purpose. These games are just based on words and help the students develop their vocabulary. In addition to these very simple games can be played to help improve the word database of the

students such as simple dictation competitions, synonym competitions, words puzzles, anagrams and hangman. All these games are very addictive and help a lot in improving our vocabulary as whenever the student hears a new word the first question that comes up is "what is its meaning?" and in this way the vocabulary improves and most of the times we don't even have to consult the dictionary.

Competitions; Most of the times competitions like debates and elocutions also help the help the students a lot in learning the language as the aspect of the competitions keep them at the best in conversations. It forces them to use the best possible construction of sentences to put forward their opinions and to use good vocabulary etc. This is a very important tool in helping them learn the language. Also these competitions help them address large crowds which is again is a very important part of personality development.

Multimedia; Multimedia sources like songs, movies, TV series, magazines, newspapers play a very vital role in improving our language. We don't even realize that they have helped us. We just wake up one fine day and realize that we are better than it than we were yesterday. Such sources can be used to help the students improve their language. But great precautions must be taken. This method should be used in the final stages of learning as that is the only place where there is no scope of damage as most of the movies and songs etc. use colloquial English most of the times which is grammatically wrong and it is very important that the students understand that fact so that they do not use that form of the language in their everyday usage.

Apart from that this source is very helpful as it does not feel like education. This is something that the students will do in their spare time. The songs are the best way to communicate how to use a language to express our feelings. Movies are a very common past time but apart from that most of the times they are also very instructional and educational. Also this method appeals to the students as most of the times they are able to connect with the songs and the movies which help them understand the meaning of expressions, usage of tools of the language like comparisons, personifications etc. These sources help them understand why such tools are necessary and also help them understand their usage. Hence this method is again very effective in teaching the language. Traditional methods of reading newspapers and books, novels are also very good methods to teach the language. When the traditional methods are modified along with some innovative ideas the entire learning and the teaching process is enriched and guarantees a success in efficient learning. These are some of the innovative and creative ways of teaching the English Language.

CONCLUSION

The languages play a very important role in our lives. They help us express our emotions. They help us explain what we want. They help us to communicate and

hence are the prime tools to express who we are. Thus the knowledge of a language and its proper utilization is very important as it defines us. If languages were not there to help us communicate there would be no difference in our communications and the way the animals communicate. Hence the ways the languages are taught play a very vital role in a person's life.

Since English is the official language of this world it is of utmost importance that this language has to be taught in such a way that it will help us not just to speak and write and listen but to communicate. That is the purpose of the language and that is what it must be used for. Hence innovative methods help in bringing a change and most of the times for the better. It helps the students learn faster and in an efficient, interesting and an interactive manner and it is the teacher's responsibility to leave the traditional methods and make way for new and better methods for the students benefit.

References:

1. Constance Leuenberger, The New Kindergarten: Teaching Reading, Writing, & More, Publisher: Teaching Resources, August 11, 2003
2. Judith S. Gould, Evan Jay Gould, Judy Mitchell, Mary Rojas, Four Square Writing Method: A Unique Approach to Teaching Basic Writing Skills for Grades 1-3,
3. Martha Bradshaw, Arlene Lowenstein, Innovative Teaching Strategies in Nursing and Related Health Professions; Jones & Bartlett: March 8, 2010 Paul Nation , New Ways in Teaching Vocabulary (New Ways in Tesol Series: Innovative Classroom Techniques); TESOL, January 1, 1995
4. Patrick Solomon, Dia N. R. Sekayi, Urban Teacher Education and Teaching: Innovative Practices for Diversity and Social Justice, Routledge; March 30, 2007
5. Patrick Schwarz, Paula Kluth You're Welcome: 30 Innovative Ideas for the Inclusive Classroom; Heinemann, August 17, 2007
6. Susan Van Zile, Awesome Hands-on Activities for Teaching Grammar, Teaching Resources; December 1, 2003
7. www.teachingenglish.en
8. www.etimoline.ru

ФАРҒОНА ФИҚҲ МАКТАБИ ОЛИМЛАРИНИНГ ФИҚҲ ИЛМИ АСОСЛАРИ СОҲАСИДАГИ АСАРЛАРИ

Қориев Одилжон Аҳмаджонович
тарих фанлари номзоди, доцент
ЎзР ФА ШИ "Исломшунослик ва ижтимоий фикр" бўлими мудири
o.ahmad@mail.ru

Аннотация: Мақолада ўрта асрларда яшаб ижод этган Фарғона фиқҳ мактаби вакилларининг фиқҳ илмининг назарий асослари "усул ал-фиқҳ" соҳасидаги хазматлари ва уларнинг бу йўналиш ривожидаги ўринлари тадқиқ қилинган. Мактабнинг йирик вакиллари Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший ва Ҳусомуддин ал-Ахсикатийнинг фиқҳи илми асосларига бағишланган асарлари мазмун моҳияти ва қўлёзма нусхалари ҳақидаги маълумотлар тарихий манбалар асосида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: илм, мактаб, фиқҳ, манба, қўлёзма, Фарғона, аллома, усул ал-фиқҳ, тадқиқ, хазина, нусха.

Abstract: The article examines the contributions of representatives of the Fergana school of fiqh, who lived and worked in the Middle Ages in the field of "usul al-fiqh," the theoretical foundations of the science of fiqh, and their place in the development of this direction. The main representatives of the school, Mahmud ibn Zayd al-Lamishi and Husamuddin al-Akhsikati, have analyzed the content and manuscript copies of their works on the basics of jurisprudence [fiqh] based on historical sources.

Key words: science, school, direction, Middle Ages, examine, Fergana school, "usul al-fiqh", manuscript, sources.

Ислом илмлари сирасида фиқҳ илми асослари ("усул ал-фиқҳ") муҳим ва етакчи соҳалардан бири ҳисобланади. Чунки айни у ислом шариатининг манбалари ҳақида баҳс юритади. *У*сул ал-фиқҳ – шариатнинг асосий манбаларига таянган ҳолда шаръий ҳукмлар ишлаб чиқиш қоидаларини ўрганади. Фиқҳ асосларининг мавзуси шаръий далиллар бўлиб, унда бу далиллардан амалий ҳукмлар чиқариш йўллари тадқиқ ва таҳлил этилади. Мазкур фан соҳаси тилшунослик, калом, тафсир, ҳадис ҳамда ақлий илмлар, жумладан, мантиқ, фалсафа, тарих, сиёсатшунослик ва жамиятшунослик билан ҳам чамбарчас боғлиқ. Бу соҳада ҳанафий мазҳабида элликка яқин асар ҳамда юздан ортиқ шарҳ ва изоҳлар битилган[1;8]. Улар қатор адабиётларда зикр этилади [2,4,8,9,10]. Илк муаллифлардан бири сифатида Абу Мансур ал-Мотуридий (ваф. 332/944) ва унинг "Маъхаз аш-шаройиъ" ("Шариат қонунлари

манбаси") номли китоби тилга олинади.[19] Абулҳасан Убайдуллоҳ ибн ал-Ҳусайн ал-Кархий (259/873–340/952) қаламига мансуб "Усул ал-Кархий" ("ал-Кархий асослари") ҳам соҳадаги илк манбалардан саналади[20]. Абу Бакр ал-Жассоснинг (305/918–369/980) "ал-Фусул фи-л-усул" ("Асослар борасида фасллар") [5], Абу Зайд ад-Дабусийнинг (367/978–430/1039) "ал-Анвор фи усул ал-фиқҳ" ("Фиқҳ асослари борасидаги нурлар")[21], Али ибн Муҳаммад ибн Абдулкарим ибн Мусо ал-Баздавийнинг (399/1009–481/1089) "Усул ал-Баздавий" ("ал-Баздавий асослари")[22], Шамс ал-аимма Абу Бакр Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Саҳл ас-Сарахсийнинг (399/1009–482/1090) "Усул ас-Сарахсий" ("ас-Сарахсий асослари")[23], Абу Ҳафс ан-Насафийнинг "Таҳсил усул ал-фиқҳ ва тафсил ал-мақолот фиҳа ъала ал-важҳ" ("Усул ал-фиқҳни ўрганиш ва у тўғридаги умумий қарашларнинг тафсилоти") номли асари, у қисқа шаклда "ат-Таҳсил" ("Ҳосил қилиш") – номи билан ҳам аталади [1], Абу Муҳаммад Ҳусомиддин Умар ибн Абдулазиз ибн Умар ибн Моза Ҳусом аш-Шаҳид ал-Бухорийнинг (482/1090-536/1141) "Усул ал-фиқҳ" ("Фиқҳ асослари")[24], Алоуддин Абу Бакр Муҳаммад ибн Абдулҳамид (Аҳмад) ал-Усмандий ас-Самарқандийнинг (489/1096–552/1158) "Мизан ал-усул фи натаиж ал-уқул" ("Ақллар ҳосилалари тўғрисида асос тарозиси")[3], Низомиддин ибн Муҳаммадазиз аш-Шошийнинг (VII/XIII аср) "Усул аш-Шоший" ("аш-Шошийнинг фиқҳ асосларига оид асари")[25], Нажмуддин аз-Зоҳидийнинг (ваф.658/1260) "ас-Сафва фи усул ал-фиқҳ" ("Фиқҳ асослари тўғрисида мусаффолик") ва "ал-Мужтабо" ("Танланган")[26], Музаффариддин Аҳмад ибн Али ибн ас-Саотийнинг (ваф.693/1294) "Бадиъ ан-низом ал-жомиъ байна китобай ал-Баздавий ва-л-Иҳком" ("ал-Иҳком ва ал-Баздавийнинг китоблари

[19] Асарнинг фиқҳ асосларига оид экани манбаларда қайд этилган. Жумладан Абу Ҳафс ан-Насафий (460/1068–536/1142) жамлаган "Матлаъ ан-нужум ва мажмаъ ал-улум" (Юлдузларнинг чиқиш ва илмларнинг тўпланиш жойи) номли тўпламнинг фиқҳ асосларига бағишланган қисмида "Маъхаз аш-шаройиъ"дан иқтибослар келтирилган. Бироқ асарнинг алоҳида тўлиқ матни ҳозиргача топилмаган.

[20] Афсуски бу асарнинг ҳам китоб шаклидаги тўлиқ матни бизгача етиб келмаган. Бироқ Маккадаги "Умм ал-Қуро" ислом университети профессори доктор Ҳусайн Халаф Сулаймон ал-Жубурий ҳанафийлик мазҳабига тегишли китоблардан ал-Кархийнинг фиқҳ асосларига оид фикрларини жамлаб 1989 йил "Ал-Ақвол ал-усулий ли-л-Имом Абулҳасан ал-Кархий" (Имом Абулҳасан ал-Кархийнинг усул ҳақидаги гаплари) номи билан нашр қилган.

[21] Бу асарнинг қўлёзмаси ҳозиргача топилмаган

[22] Асар, шунингдек, "ал-Усул" ("Асослар"), "Канз ал-Вусул ила Маърифат ал-Усул" ("Усулни танишга етказувчи хазина"), "Китоб ал-кабир фи усул ал-фиқҳ" ("Усул ал-фиқҳ тўғрисидаги катта китоб") каби номлар билан ҳам машҳур бўлган. Унга ўндан ортиқ шарҳ ёзилган. Абдулазиз ал-Бухорий (ваф. 730/1330) қаламига мансуб "Кашф ал-асрор" ("Сирларни очиб бериш") номли шарҳи Қоҳира ва Истанбулда нашр этилган.

[23] Бу асар Абу Бакр ал-Жассоснинг фиқҳ асосларига оид китоби асосида яратилгани учун уни "Тамҳид ал-фусул фи-л-усул" ("Асослар ҳақидаги фаслларни осонлаштириш") деб ҳам аталади. Асар 1954 йили Абу-л-Вафо ал-Афғоний томонидан икки жилдда нашр этилган. Кейинчалик у 1973, 1993 ва 1997 йилларда Байрутда қайта нашр этилган.

[24] Тарожим жанридаги кўплаб китобларда зикр этилган бу асар қўлёзмаси ҳозирча топилмаган.

[25] Асар "Китоб ал-хамсин" ("Эллик ёш китоби") ва "ал-Мухтасар фи усул ал-фиқҳ" ("Фиқҳ асосларига оид қисқача асар") номлари билан ҳам аталади.

[26] Бу асарлар ҳозирча топилмаган.

асосида чиройли тартиб берилган тўплам”)[27] номли китоби[28]. Ҳофизиддин Абул Баракот ан-Насафийнинг (629/1232–709/1310) “Манор ал-анвор” (“Нурлар учун машъала”)[29] номли китоби[3], Убайдуллоҳ ибн Масъуд ибн Тож аш-шариъа ал-Бухорийнинг (ваф. 746/1346) “ат-Танқиҳ” (“Тозалаш”) номли асари[12], Камолиддин ибн ал-Ҳумомнинг (788/1386–860/1456) “ат-Таҳрир” (“Таҳрир этиш”) номли асари. Мулла Хусрав Муҳаммад ибн Фиромурз ибн Али ар-Румийнинг (ваф. 884/1480) “Мирқот ал-вусул ила илм ал-усул” (“Фиқҳ асослари фанини ўрганиш пиллапоялари”)[30], Муҳи ибн Абдушукур ал-Баҳорий ал-Ҳанафийнинг (ваф. 1119/1708) “Мусаллам ас-субут” (“Мустаҳкамликка бўйсундирилган”) номли асари [11], Абу Саид Муҳаммад ал-Ходимийнинг (1112/1701–1176/1763) “Мажомиъ ал-ҳақоиқ” (“Ҳақиқатлар мажмуаси”) [31] кабилар усул ал-фиқҳ соҳасида битилган.

Ҳанафий мазҳабида фиқҳ илми асослари соҳасида яратилган асарлар қаторида Фарғона фиқҳ мактаби вакилларининг китоблари ҳам алоҳида ўрин тутади. Булар Абу-л-Сано Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломишийнинг (ваф. тах. 539/1145) “Китаб фи усул ал-фиқҳ” (“Фиқҳ асосларига оид китоб”) ва Ҳусомуддин ал-Ахсикатийнинг (ваф.644/1247) “Мунтахаб ал-Хусомий” (“Ҳусомийнинг танланганлари”) номли асарларидир.

Абу-л-Сано Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший қаламига мансуб “Китаб фи усул ал-фиқҳ” асари таркибий тузилиши жиҳатидан муқаддима, 37 фасл ва 53та масалалар деб номланган қисмлардан иборат. Асарнинг ҳозирча маълум бўлган икки қўлёзманинг 762/1361 йилда кўчирилган нусхаси Марокашнинг Фаъс шаҳрида жойлашган “ал-Қарвийайн” кутубхонасида 633 инвентар рақами остида сақланади.. Умумий ҳажми 156 варақ. Ҳар бир саҳифага 13 қатордан матн битилган. Ёзуви насх хати. Иккинчи қўлёзма нусха хаттот ал-Ҳотимий Абу ал-Ҳасан Али ибн Аҳмад Абд ал-Аллом томонидан 539/1144 йилда кўчирилган ва Лондонда Британия музейида or. 13,018 инв. рақам остида сақланади. Асар 1995 ва 2018 йилда нашр қилинган [8,9.].

Ҳусомуддин ал-Ахсикатийнинг “Ал-Мунтахаб ал-Хусомий» номли асари қўлёзмада 180 варақни ташкил этади[14]. У тўрт боб, 25 фасл ва 9 қисмдан

[27] У яна “Ниҳоят ал-вусул ила илм ал-усул” (“Асослар илмини тўлиқ эгаллаш”) ҳамда қисқача “Бадиъ ан-низом” (“Чиройли тартиб берилган тўплам”) деган номлар билан ҳам аталади.

[28] Асар ҳанафий фақиҳи Али ал-Баздавий (399/1009–481/1089)нинг “ал-Усул” (“Асослар”), ҳамда шофиъий фақиҳи Сайфиддин Али ал-Омидий (550/1156–630/1233) қаламига мансуб “Ал-Иҳком” (“Ҳукм қилиш”) асарлари асосида яратилган. “Бадиъ ан-Низом” асарига ҳанафий ва шофиъий фақиҳлари томонидан ўндан ортиқ шарҳ ва изоҳ ёзилган.

[29] Бу китоб ал-Баздавий, ас-Сарахсий ва бошқа фақиҳлар қаламига мансуб фиқҳ асосларига оид асарлардан олиниб қисқартирилгани, ихчамлаштирилиб бир китобга жамланганлигини муаллиф сўз бошисида алоҳида таъкидлаб ўтади.

[30] Муаллифнинг ўзи бу асарга “Миръот ал-усул” (“Асослар кўзгуси”) номли шарҳ ёзган. У шарҳи билан бирга Истанбулда ўн мартадан кўпроқ нашр этилган. Мулла Хусравнинг “Усул ал-Баздавий” ва “ат-Талвиҳ”га битган изоҳлари ҳам машҳур.

[31] Миср ва Қозонда тошбосма услубида бир неча марта нашр қилинган.

иборат. Ҳар бир боб фиқҳ илмининг асослари ёки асосий манбалари Қуръони Карим, суннат, ижмо ва қиёсдан бирига бағишланган.

ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фондида асарнинг бир нечта қўлёзма нусхалари сақланади. Булар: 10718/1 инв. рақам остида сақланадиган қўлёзма. Ҳажми 76 бет (1b-76b). Ўлчами 25,5x14,5см. Ҳар бир саҳифада 13 сатрдан матн битилган. Қўлёзма 1310/1893 йилда Абдушукур Садр Муҳаммад Шариф ал-Бухорий томонидан кўчирилган. Ёзуви насх. Қўлёзма муқоваси саҳҳоф Миродил Хожа томонидан тайёрланган. Иккинчи қўлёзма 12973/4 инв. рақам остида сақланади. Ҳажми 62 (103a-164b). Ўлчами 21,5x17,5см. Ҳар бир саҳифада 11 сатрдан матн битилган. Ёзуви настаълиқ. Кўчирилган санаси ва хаттоти номаълум. 8396 инв. рақам остида сақланадиган қўлёзма мазкур асарнинг ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фондида сақланадиган учинчи қўлёзма нусхасидир. Унинг ҳажми 109 варақ. Ўлчами 23x14см. Ҳар бир саҳифага 7 қатордан матн битилган. Ёзуви насх хати. Кўчирилган санаси ва хаттоти номаълум.

Асар қўлёзма нусхалари жаҳоннинг қатор мамлакатлари қўлёзмалар хазиналарида ҳам сақланади. Жумладан, Бирлашган Араб Амирликларида (Дубай, Жумъа-л-Мажид маданий мерос маркази инв. №№1089, 1161, 1162 ва 1163), Миср Араб Республикасида (Миср кутубхонаси, инв.№190), Германияда (Берлин давлат кутубхонаси инв.№4858), Саудия Арабистони Қироллигида (“Умм ал-Қуро” университети инв.№106)[32] ва бошқалар.

Бундан ташқари, асарга ёзилган шарҳ ва ҳошияларнинг кўплаб нусхалари ҳам дунёнинг турли қўлёзма хазиналарида сақланади. Масалан, Сурия Араб Республикасида (Димашқ, “аз-Зоҳирийя” кутубхонаси инв.№№ 2868, 5619, 7738), БААда (Дубай, Жумъа-л-Мажид маданий мерос маркази инв. №№ 3466, 399), Мисрда (Миср кутубхонаси инв. №142, Искандарийя кутубхонаси инв. № НЖ 3634), Германияда (Берлин давлат кутубхонаси инв.№ 4588).

“Усул ал-фиқҳ” йўналишида Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший ва Ҳусомуддин ал-Ахсикатийларнинг асарлари қўлёзма нусхалари бизнинг кунларимизгача бир хил даражада етиб келмаган. Бунинг сабабларидан бири Абу-л-Сано Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший юртдоши Ҳусомуддин ал-Ахсикатийдан деярли бир аср аввал яшаб ўтганлигидир. Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломишийнинг “Китаб фи усул ал-фиқҳ” номли асари ўз даврида ҳанафий фиқҳ доирасида эътиборли китоблардан бири бўлган. Шу боисдан унга ҳозир ҳам мурожаат қилинади ва тадқиқотчилар томонидан муҳим манба сифатида қадрланади. Шу билан бир қаторда Ломиший яшаган даврдан ўтган бир асрлик муддат мобайнида ислом илмлари соҳалари ривожланиб, янги даражаларга кўтарилди. Ҳар бир авлод ўз даврида яратилган асарлардан кўпроқ истифода

[32] Бу нусха асарнинг Туркияда “Аҳмад учинчи” кутубхонасида 1009 рақам остида сақланадиган қўлёзма нусхасининг фотонусхаси.

этиши ҳам табиий ҳол. Шу боисдан бугунги кунимизда Ҳусомуддин ал-Ахсикатийнинг “Мухтасар ал-Ҳусомий” номли асари қўлёзма нусхалари кўпроқ сақланиб қолган. Асар 1999 йилда Валиуддин ал-Фарфур томонидан нашр қилинган[7].

Фиқҳ илми манбалари (усул ал-фиқҳ) соҳасида мактабнинг икки забардаст вакили Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший ва Ҳусомуддин ал-Ахсикатийлар етакчи ўрин тутдилар. Уларнинг асосий хизматари сифатида фиқҳ илми манбаларидан фойдаланишда ҳанафия мазҳаби уламолари тутган услуб ва йўналишлар устувор эканлигини далиллар билан исботлаганларини зикр қилиш мумкин. Бу ўз навбатида усул ал-фиқҳ илми ривожига сезиларли ҳисса бўлиши билан бир қаторда, Фарғона водийси ҳудудида асрлар давомида ҳанафий мазҳаби устуворлигини таъминланишида муҳим аҳамият касб этган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абу Ҳафс ан-Насафий. Таҳсил усул ал-фиқҳ / Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Аминов, С. Муҳаммадаминов; масъул муҳаррир О. Қориев; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта-махсус таълим вазирлиги Тошкент давлат шарқшунослик ин-ти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази – Т.: «Noshir» нашриёти, 2015. – Б. 8.

2. Абдулҳай ал-Лакнавий**.** Ал-Фавоид ал-баҳийя фи тарожим ал-ҳанафийя. – Қозон, 1902. – Б. 324.

3. Абдулҳалим ал-Лакнавий. Қамар ал-ақмор. – Байрут, 1985. – 350б.

4. Алоуддин Абу Бакр Муҳаммад ас-Самарқандий. Мизан ал-усул фи натаиж ал-уқул. Таҳқиқ, таълиқ ва нашр дуктур Муҳаммад Закий Абдулбарр. – Қатар, 1984. – 840 б.

5. Ahmet Ozel**.** Hanefi fikih alimleri. – Ankara: Turkiye diyanet vakfi yayinlari, 2006. – 273 б.

6. Аҳмад ибн Али ар-Розий ал-Жассос. Ал-Фусул фи-л-усул. Дираса ва таҳқиқ ли-л-дуктур Ажил Жосим ан-Нашамий. – Кувайт, 1994. – 484 б.

7. Вали ад-дин Муҳаммад Солиҳ ал-Фарфур. Ал-Музҳаб фи усул ал-мазҳаб ала-л-мунтахаб. –Димашқ, 1999. – 1312б.

8. Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший. Китоб фи усул ал-фиқҳ. Нашрга тайёрловчи Абдулмажид Туркий. –Дор ал-ғарб ал-исломий, 1995. – 268 б.; Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший. Китоб фи усул ал-фиқҳ. Нашрга тайёрловчи Муҳаммад ал-Азазий. – Байрут. “Дар ал-кутуб ал-илмия”, 2018. – 278б.

9. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф**.** Усул ул-фиқҳ. – Т.: Шарқ, 2010. – 576 б.

10. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф**.** Фиқҳий йўналишлар ва китоблар. – Т.: Sharq, 2011. – 304 б.

11. Муҳйи ибн Абдушукур ал-Баҳорий ал-Ҳанафий. Мусаллам ас-субут. – Миср, 1907. – 287б.

12. Нодир Набижон ўғли**.** Усул ул-фиқҳ ҳақида сабоқлар. – Т.: Тошкент ислом университети, 2008. – 140 б.

13. Убайдуллоҳ ибн Масъуд ибн Тож аш-шариъа ал-Бухорий. Тавзиҳ фи ҳалли ғавомиз ат-Танқиҳ. – Байрут,1995. –370б.

14. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди инв. 12973-IV.

NAVOIYNING HAYRATUL-ABROIDA INSON SIMOSI
HUMAN IMAGE IN NAVAI'S HAYRATULABROR

Mohammad Ashraf Sharifi
Professor Foryob Universiteti Til va Adabiyot Fakulteti,
O'zbek Tili va Adabiyoti Kafedrasi, Maymana/Afg'oniston
Professor of the Uzbek Language and Literature Department, Language and Literature Faculty of Faryab University, Maymana/ Afghanistan
ashraf.sharifi2023@gmail.com

Abstract: Amirul-Kalam Nizamuddin Alisher Navai, the highest peak of Uzbek classical literature and poetry, is a great poet, writer and thinker who left valuable works in most types of poetry and literature. Khamsa, one of Navoi's most important works, consists of five epics, the first epic of which is Hayratulabror. The main character of this saga is a man. According to Navoi's thinking, a person, who is the master of all creatures, should be decorated with the qualities of faith, honesty, honesty, loyalty, soft tongue, justice, open hand, patience, imagination, gratitude, benefiting others with hands and tongue.

Navoi, in some sections of Hayratulabror, leads the reader to the spectacle of the garden of humanity, justifies good, condemns evil and depravity. The secret of our deep acquaintance with the content of verses where the word "human" is used in the article is the clear image of Navoi's high human thinking.

Key Words: Man, Faith, Word, Perfect, Imperfect.

Annotatsiya: O'zbek Klassik adabiyoti va she'riyatining enk yuksak cho'qqisi-Amirul-Kalom Nizomuddin Alisher Navoiy, she'r va adabiyotning aksar-i turlarida qalam tebratib o'zidan qiymatli asarlar qoldirgan buyuk shoir, yozuvchi va mutafakkir dir. Navoiyning kata va muhim asarlaridan biri Xamsa, besh dostondan iborat bo'lib, birinchi dostonini Hayratulabror tashkil beradi. Ushbu dostonning yetakchi so'jasi insondir. Navoiy'nin tafakkuriga ko'ra, barcha maxluqlarning sartoji bo'lmish inson, imonli, insofli, halol, sodiq, chuchuk til, odil, qo'li ochiq, sabirli, hayoli, shukur qiluvchi, qo'l va til bilan boshqalarga manfa'at yetkizuvchi sifatlar bilan bezalishi kerak.

Navoiy, Hayratulabrorning ayrim bo'limlarida o'quvchini insonlik bog'ining tamoshosiga yetaklab, yaxshini oqlaydi, yamonlik va tubanlikni qoralaydi. Maqolani asosiy o'rin olgan inson so'zi ishlatilgan baytlar mazmuni bilan chuqur tanishib borisgimiz sirri Navoiy'ning yuksak insoniy tafakkurining tiniq tasviri zihnimizda gavdalanadi.

Kalit So'z: İnson, İmon, So'z, Komil, Noqis.

Kirish: O‘zbek mumtoz adabiyotining jahonshumul va ser ejod buyuk simosi-Mir Alisher Navoiy, O‘zbek adabiy tilining yuqori pog‘onalarga ko‘tarib o‘zidan kata adabiy miros qoldirgan buyuk sho‘ir, yozuvchi, tarixchi, lug‘atshunos va din olimidir. O‘zbek she‘riyatida ilkbor xamsachilik ‘an‘anasini asos qo‘ygan Navoiyning ilmiy-adabiy yaratmalari ser hajm va ser mazmun bo‘lgani bo‘is, uzoq o‘tmishlardan buyon keng jahonning har burchagida istiqomat qiluvchi Navoiyshunos ‘olimlarning tavajjuhlarini qozongan va Navoiy haqqida muxtalif tillarda yuzlab va minglab kitob, risola va maqola yaratilishiga munosib zamina yaratgan.

Mutola‘angiz ostida maqola mavzu‘sini Navoiy xamsasining Hayratulabror dostonida haqiqiy inson xususiyatlari bilan tanishish tashkil beradi. Navoiy, o‘z she‘riy tab‘iyning hayratlantiruvchi kuchi bilan inson simosini o‘ta mahorat va hunarmandchilik bilan chizib, doston matnini maroq bilan o‘qish uchun o‘quchining tavajjuh va itiborini qozonadi. Ushbu maqola, Hayratulabror’ning inson haqqidagi hamma baytlarining sharh va tahlili bo‘lmay, faqat dengizdan tomchi deb hisobga olinsa maqsadga muvafiqdir; chunki bu maqolaning o‘quvchisi Navoiy tafakkurining ishxonasida tabi‘iy ishlov berilgan haqiqiy inson bilan boshlang‘ich tanishish tasviriga ega bo‘lishi mumkin.

Tekshiruv Ravushi: Ushbu maqola, kutubxonaiy tekshiruv yo‘l-yuriqlari asosida yozilgan. G‘iyosuddin Kichkina o‘g‘li Mir Alisher Navoiy (M.1441/1501) O‘zbek mumtoz adabiyotining jahonshumul va ser ejod buyuk simosidir. Turk-O‘zbek adabiyotning tengi yo‘q simosi, Amirul-Kalom Amir Alisher Navoiy hazratlari, bukungi Afg‘onistonning muhim shahrlaridan Temurilar imperiyasining ikkinchi poytaxti Hirotda tug‘ilgan. U yerda voyaga yetib ‘umrining katta qismini Hirotda o‘tkazib samarali va ser mahsul ejod etdi. Dunyo bo‘ylab Turk-O‘zbek adabiyoti maqomining ko‘kka ko‘tarilishiga Hazrat Navoiyning qo‘shgan hissasi fan ahliga quyoshdek rushan va ma‘lum. (1:9)

Alisher Navoiy, o‘zining fa‘oliyati va ejodini inson baxtu sa‘odatiga, osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm, ma‘rifat va adabiyot ravnaqiga baxsh etdi. (6:8)

Navoiy, ayrim tekshiruvchilar orqali insonsevar shoir sifatida tan olingan va bu borada ko‘ylab asarlar yozgan. Navoiy, xamsaning birinchi dostoni bo‘lmish Hayratulabror’ning eng muhim mavzusi inson yaratilishi va insoniy xususiyatlarga qaratilgan.

Alisher Navoiy, Hayratulabror isimli asarini milodiy (1482-1483) yillarida yozib tamomlagan. Navoiy bu dostonni Nizomiy Ganjaviy’ning Maxzanul-Asror, Xusrav Dehlaviyning Matla‘ul-Anvor va Abdurramon Jomiyning Tuhfatul-Ahror dostonariga javoban yozgan. Hayratulabror, aruzning sari‘ bahri-musaddas matuy makshuf (Mufta‘ilun, mufta‘ilun fo‘ilun) vaznida masnavi jonari bilan yozilgan. (119:1)

Hayratulabror, 64 bobdan iborat bo‘lib, 21 bobi muqaddima, 40 bobi maqolat va hikoya va so‘ngi 3 bobi xatımadan iboratdir. 7976 misradan tashkil topgan- Hayratulabror, Navoiyning falsafiy, siyosiy, ijtimo‘iy, axloqiy va ta‘limiy qarashlarini o‘ziga mujassamlashtirgan. (586:5) Oldin eslab o‘tganimizdek, Hayratulabror’ning asosiy mavzu’laridan biri- ison va insonga tegishli axloqiy fazilatlar, insonning jami‘atdagi burchi va insonlikka tegishli ayrim xuxusiyatlar sharhidan iborat. Xilqatning oltin burki va Tengri Ashraful-Maxluqot deb atagan inson zoti, Navoiy qoshida aziz va muhtaramdir; anashu sababdan Navoiy, insonlik eskirmas taronasini ko‘ylaydi va insonni ulug‘lab uning shon-sharafini ko‘kka ko‘taradi.

Dengizdan tomchi deganidek, Hayratulabror dengizidan olingan inju kabi necha bayt kuchimizga qadar sharhlash va yoritishga intilamiz. Navoiy, birinchidan insonga bunday xitob qiladi:

Haq senga lutf ayladi ul tarfa mahol Andin uyol yo‘q esa haqdin uyol.

Navoiyga ko‘ra inson o‘ta murakkab va kuchli mavjuddir; shuning uchun Tengri marhamatini unutmasligi kerak. Hozirgi zamonda ravojlangan ilmiy sohalaridan biri- aloqa o‘rnatish (İrtibotot) dir. Bu sohaning birinchi va muhim ta‘limoti insonlar o‘zlarining tashqi va ichki a‘zolari, hissiyot, ong va tafakkuri bilan ‘aloqa qurib, badanlarida o‘rnatilgan har bir ‘uzvning kuchini sinab ko‘rishdir. (5:4).

Navoiy, bu masa’lani faqat ikki so‘z (tarfa hol) bilan xulosa qilib, odamiylik qadrini bilish va Haq (Tengri) dan uyolish ustida ta’kid qiladi. Navoiy nazaridan inson jahldan yiroqlashib ikki ochiq quloq bilan pand-o‘git tinglashi kerak:

Kel qo‘yubon jahl xiradmand bo‘l Bir nafasi mustama‘i pand bo‘l
Ko‘r senga Haq’din ne karamlar durur Ne qadar ihsonu na‘amlar durur
Bu ki seni Xoliqi kavnu fasod
Qilmay hayvonu nabotu jamod
(70:6)

Navoiy, Tengri tamonidan insonga berilgan ni‘matlar va ko‘rssatilgan ihsonlarni eslab hayvon, o‘simlik va jamod jumlasidan bo‘lmaganlik uchun insonlarga shukr ihsonni bilishlik vojiblikni bildiradi.

Lutf ayladi inson seni
Din yo‘lida qildi musulmon seni
Berdi ko‘rar ko‘zu eshitar qulog‘
Oyitur til atrini anglar dimog‘
Andoq ilik dog‘i tutgay ta‘om
Andoq ayoq dog‘i ki qilg‘ay xirom.
(70:6)

Navoiy, insonlikni birinchi va musulmonlikni ikki o‘rinda qo‘yib, inson badanida o‘ratilgan ko‘z, quloq, burin, qo‘l va ayoq kabi ‘uzvlarni birma-bir eslab

bularning bir tamonda qo‘yib va aql javharining yena bir tamonda qo‘yadi; chunki insonlarga aql bo‘lmaganda badan uzvlari ham o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajaraolmasligi aniqdir. Shuning uchun ham zakko ajdodimiz: «aql bo‘lmasa jon azobda» deganlar.

Bu bori in‘omu ‘ato bir taraf
Javhar-i ‘aql o‘ldi yena
(70:6)

Navoiy, insonni qasrga o‘xshatib, qasrdagi besh ravzaning o‘rni, bajarayotgan vazifasi va bor qobiliyatlarini o‘ta tafsil bilan bayon qiladi:

Qasrda besh ravza muhayyo anga
Bo‘lg‘oli har sori tamosho anga
Lek bu besh ravzada besh kordon
Bir-biridek har biri bisyordon
Har biri bir ravzada topib mahal
O‘z fannida bir-biriga yo‘l badal
(23:6)

Navoiyga ko‘ra, qasrning quyidagi besh ravzasi juda ham muhim:

Biri nazar ‘ilmini idrok etib
Ayn safodin nazarin pok etib
Biriga ish bu ki eshitgoch samo‘
Qilg‘ay ani diqqat ila istimo
Biriga qilmoq bo‘lubon ta‘m dark
Nush hayot o‘lsun agar nish marg
Biriga bir royha aylab asar
Xoh quruq nofa u gar mushk-i tar
Biriga gul u xor mu’assir bo‘lub
Sovuq-isiqdin muta’ssir bo‘lub
(23:6)

Yuqoridagi besh baytda ko‘z, quloq, burin, og‘iz va teri vazifalari tartib bilan bayon qilinib, quyidagi baytda eslangan uzvlarning ‘Arancha tengdoshi keltirilgan:

Bosira u somi‘a u lomisa Zoyiqa u shomiha bil xomisa
(23:6)

Navoiy, eslangan beshta tashqi hissning zohiriy besh havosligini ta’kidlab ulur o‘z ishlarida usto, yo‘l biluvchi va ishbilarmon deydi:

Har ne ki zohir yuzidin besh havos
O‘z ishi kunhida bo‘lub rahshunos
(23:6)

Yuqoridagi baytlar mazmunini yuzlamaki tekshirganimizda ham Navoiy’ning Biologiya ‘ilmining puxta bilishiga amin bo‘lamiz. Alisher Navoiy, insonning beshta

tashqi ish vazifalarini izohlagandan so‘ng, insonning eng muhim va qutlug‘ fazilati-imon haqqida to‘xtaladi:

Kim ki jahon ahlida inson irur
Bilki nishoni anga imon irur
(105:7)

Navoiyga ko‘ra jahondagi insonlarning insonlik bilgisi-imondir; chindan ham imon bo‘lmaganda insonlik so‘roq ostida qoladi; Nega deganda Tengri har bir insonning fitrati va zamirida mavjuddir; shuning uchun insonlar din va aqidalaridan qat‘i nazar balo va musib va qiyinchilik bilan duch kelgan paytlarida hama nersadan umidlari uzilgach faqat Tengri’ga sig‘inib va undan yordam va najot so‘raydilar. Quyidagi baytlarda inson va hayvon orasidagi farqlar haqqida bahs qilingan. Navoiyning aytishicha mantiqqa suyanib so‘zlashuvchi jonzod inson zumrasidandir:

Ul ki had u rasm qo‘yar mantiqi To ki bu hayvonni bila notiqi
İkkisi insonga bo‘lub had tom
Zumraiy inson aro aylar xirom
(105:7)

Tengri bir xelni so‘zlashuvchi hayvon (Notiq hayvon) va yena bir xelni so‘zlashuvchi inson (Notiq inson) qilib yaratgan:

Nav‘ini notiq bila hayvon qilur
Notiq u hayvonni inson qilur.
(105:7)

Navoiy, so‘zlashuvchi hayvon (Notiq hayvon) va so‘zlashuvchi inson (Notiq inson) orasidagi farqlarga tushunmay ikkisini inson sifatida tan olganlarni «hayvon» deydi:

Sen dog‘i inson muni qilsang gumon
Bilk ki hamon sen san u hayvon hamon
(105:7)

Alisher Navoiy Tengri kalomiga tayonib insonlar bir-biridan farqli ekanlarini bayon qiladi:

Muni ki inson mutafovut irur
Tengri kalomi xabar andin berur
(106:7)

Navoiyga ko‘ra insonlarning orasida noqis va komil va ‘olim va johil bor; insonlik yolg‘iz gavda bilan isbotlanmaydi, balki insonga o‘xshaganlarning yaxshi-yamonini bir-biridan ajratib farqiga boish kerak:

Bas kishi jazm aylasa inson oni
Yaxshi yomon ichra tafovut qoni
Bo‘lmadi bu noqis-u komilga farq
Topmag‘ay el ‘olim u johilda farq

(106:7)

Navoiyning ta‘biriga asosan inson bo‘lish uchun uchta fazilat kerak; bu fazilatlar esa chidam, shukr va hayodir:

Bas ani inson atagil biriyo
Kim ishidur sabr ila shukr u hayo
(106:7)

Qisqasi shu ki imoni kuchli bo‘lgan kishi Navoiyning nazaridan haqiqiy insondir:

Bas ani inson demak o‘lg‘ay ravo
Kim ishi imon bila topqay navo
(106:7)

Alisher Navoiy, insonning jismoniy xususiyati va ba‘zi bir axloqi fazilatlarini tafsilot bilan bayon qilgandan so‘ng Quron va hadisga tayonib to‘g‘ridan to‘g‘ri «Omantu Billoh…» ning sharh qilishga urinadi:

Ay ki sango ayladim insonni sharh
Emdi eshit kim qilay imonni sharh
Oltidurur shar‘da bilgil ‘adad
Har ne ki mu’minga kerak mu‘taqad
(106:7)

İmoning avvalgi va eng muhim bo‘limi Tengri borligiga ishonishdir:

Oltin avvalgika maqsud irur
Bilmak irur haqni ki mavjud irur
(107:7)

İmonning kkinchi bo‘limi firishtalar borligiga ishonishdir:

Oltidan ikkinchi maloyikni bil
Barchaga tasdiqi vujud aylagil
(108:7)

İmonning uchinchi bo‘limi esa Tengri tamonidan payg‘ambarlarga yuborilgan osmoniy kitoblar (Zabur, Tavrot, İnjil, Quron) ga ishonishdir:

Anga uchinchi kutub-i osmon
Tengri so‘zi bila borisi bigumon
(109:7)

İmonning to‘rtinchi bo‘limi Tengri tamonidan insonlarning tog‘ri yo‘lga yo‘llash uchun ta‘yin qilingan paug‘ambarlarga imon keltirishdir:

Bil yena to‘rtinchi rusul ma‘shariy
Har biri bir bahri safo gavhariy
(110:7)

İmonning beshinchi bo‘limi yer yuzida hayot tugab qiyomat yo azob kuni kelishi muqarrarligi va insonlar yaxshi va yomon qilmishlariga asosan mukofot va jazolanishlariga chin ko‘ngildan ishonishdir:

Keldi beshinchi yena yavmul-hisob
Dema hisob ayt ki yavmul-azob
(111:7)

İmonning eng so‘ngi va axirgi bo‘limi azali taqdir va xayr u sharga bo‘y so‘nishdir:

Sodis anga keldi hadis qadar
Bilk i azaliy sabtni kim xayr u shar
(112:7)

Mir Alisher Navoiyning imon borasida yozilgan barcha baytlarini qunt bilan o‘qib chiqsak bu oli janob insonning katta fiqih va din olimi bo‘lganligiga to‘liq ishonch hosil qilamiz. Navoiyning imon borasidagi baytlarining mazmunini Quron-i Sharif oyalari va Hazrat-I Muhammad (s) ga mansub hadislar bilan solishtirib ko‘rsak, zikr qilingan baytlar mavzuini tasdiqlovchi o‘nlab oyat va hadisga ko‘zimiz tushadi; lekin so‘z cho‘zilmasligi uchun bu borada tafsilot bermaslikka qaror qildik; biroq Quron va hadisning o‘qib yaxshi tushinuvchi tekshiruvchilar bu borada intilishlari mumkin.

Alisher Navoiy, imonning olti bo‘limini naqliy va aqliy, diniy va falsafiy hujjatlar keltirish bilan izohlagandan keyin, insonlarga bog‘liq boshqa bir dolzarb mavzuga to‘xtaydi; bu esa Tengrining ishi sahv va xatosiz amalga oshishi va insonning qilmishi va fi‘l u atvoriga sahv va xatoning yo‘l topishidir:

Haqning irur sahvsiz ish lozimiy
Sahv irur lozimaiy odamiy
(137:7)

Navoiy, Hayratulabrorning ayrim bo‘limlarida inson shaxsiyatining turli qirralari borasida bahs qilib haqiqiy inson simosining yorug‘ tasvirini chizib ko‘rsatishga urinadi. Navoiy, inson vujudida ayb va kamchilik borligini tan olish bilan birga insoni komil bahsining olg‘a suradi:

Zumraiy inson aro ham komili
Keldi mushaqqat yukining homili
(261:7)

Komil insonlar bormi yo‘qmi? Degan so‘roq topilganda Navoiy yo‘lini yo‘llab, bevosita Quron va hadisga muroja‘at qilib javob izlashimiz kerak. Quron va hadisga: İnson uch xil nafs (Ammora, lavvoma, mutmainna)ga ega; eng so‘ngi nafs (mutmainna/xatoga yo‘l qo‘ymaydigan) sohibi bo‘lgan kishi komil inson deb ataladi.

Komil inson İslomiy irfon va tasavvufning asosiy mavzularidan birini tashkil beradi; tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra: «Tasavvuf ta‘limoti markazida inson mohiyatini

tushinib olish, uni tubanlikdan qutqazib, ruhidagi ma‘navi tamonlarini yuksaltirish va komil inson darajasiga ko‘tarish g‘oyasi yotadi… tasavvufda komil insonning kimligi va uning hayotda tutgan o‘rni masalasi, diniy jihatdan xilqat (yaratilish) falsafasiga bog‘liq. (399, 377:3).

Alisher Navoiy, komil inson bahsining yakunlangandan so‘ng insonning yena bir muhim xususiyatini yoritishga intiladi; Navoiy, inson bilan hayvon orasidagi katta farq-ongli ravishda so‘zlashish deydi. Xalq maqoliga muroja‘at qilib aytganda: avval o‘ylash, keyin so‘ylash haqiqiy insonning qilig‘i; yo‘qsa tutiy ham so‘zlashishga qurbi yetadi. Shuning Navoiy insonni rozga to‘la konga o‘xshatadi:

Tengri insonni qilib ganj-i roz
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz
(58:7)

Navoiy, qo‘ling quruq bo‘lsa ham tiling chuchuk bo‘lsin deydi. Qo‘l bilan birovga manfa‘at yetkiza olmagan kishi tili bilan naf‘ yetkizishi mumkin:

Xayr muyassar gar emas el bila
Naf‘ yetkurmak ham o‘lur til bila
Ganj berib bo‘lmas ekan tutsa ko‘z
Ulcha qilur vaqtida bir yaxshi so‘z
(262:7)

«Yaxshi so‘z bilan ilon inidan, yamon so‘z bilan pichoq qinidan chiqadi» (133:2) deganlar zakko ajdodimiz; anashu sababli so‘z bilan kofir musulmon u hayvon bo‘lishi ham tabi‘iy hodisadir. Navoiy so‘z fazilati borasida ham o‘z fikrini bildirib insonlik konining injusi va odamiylik gulshanining hosili ham so‘z degan:

So‘z bila kufr ahli musulmon bo‘lub
So‘z bila hayvon degan inson bo‘lub
Ma‘dan-i inson guhari so‘zdurur
Gulshan-i odam samari so‘z durur
(262:7)

«Qovunning alasi yuzida, odamning alasi ichida» kabi maqqol mazmuniga chuqur boqsak chindan ham insonni tonimoq va uning ichki hissiyoti va tuyg‘ularini tagiga yetish unchalik oson tulmaydi; shuning uchun «Orqadan dushman, yuzingdan do‘st» (47:10) kabi faroziyolojik iboralar O‘zbek xalqi va boshqa millatlar orasidagi keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Navoiy, turxi insonga o‘xshagan hama insonni inson deb o‘ylaydi:

Kimni ki inson desang inson emas
Shaklda bir fi‘lda yakson emas
(360:7)

Navoiyning Hayratulabror asarida insonshunoslik bobidagi baytlar va mujassamlashtirilgan inson tasvirlari shunchalik ko‘p ki ularning hamasini o‘qib-

o‘rganish va mag‘zini choqish oson savdo emas; Navoiy inson va insonlik ezgu maqomiga bosh egib insonning yena bir muhim fazilatiga ishora qiladi:

Odiy ersang demagil odamiy
Oni ki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami
(362:7)

El dardini o‘z dardini deb bilmagan va hiss qilmagan odam; Navoiyning fikriga binoan odamiylik yo‘lidan adashgan dardsiz kimsadir. Navoiy inson va insoniy xislatlar va fazilatlar haqqidagi manzum so‘zlari ne qadar teran va chiroyli ifoda qilingani uning o‘zi chin inson, ko‘z va ko‘ngli va qo‘li ochiq insonsevar oli janob zot bo‘lganligidan darak beradi.

Xulosa:

Eng so‘ngi natija sifatida quyidagi satrlarning qo‘shimcha qilib yozishga ulgurdek:

- ✓ Navoiy, O‘zbek kllasik adabiyotining ser mahsul ve tengsiz ilmiy-adabiy shaxsiyatidir;
- ✓ Navoiy, O‘zbek dabiy tilining yuksak pog‘onalarga ko‘tarib jahon miqyosida tonitgandir;
- ✓ Navoiy, she‘r va adabiyotning ko‘plab sohasida ejod etib mustaqil asarlar o‘zidan miros qoldirgan;
- ✓ Navoiy, O‘zbek adabiyotida xamsachilik ananasini asos qo‘yib, lkbor O‘zbek tilida xamsa yaratgan;
- ✓ Navoiy asarlari o‘z tiriklik payti va vafotidan so‘ng Xuroson va Movarounnahrdan bo‘lak uzoq va yaqin ulkalarga tarqatilgan;
- ✓ Navoiy asarlarining bosh mazvulari inson va insonlikka bag‘shilangan;
- ✓ Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganib butunlay o‘zlashtirish uchun qanchalik urinish mumkin bo‘lsa, yo‘l ochiq va maydon kengdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. İshonch, Zikrullaoh va Muhammad Olim Kuhkan. (1374), **O‘zbek Adabiy Tili Farhangi,** Toshqin Bahoiy ihtimomi bilan, Foryob: Davlat Matba‘asi.

2. Aymoq, Fayzulloh. (1387), **Xalq Durdonalari,** to‘rtinchi bosqi, Jahon hamkorlikar idorasining nashri, Mazor-I Sharif: Mirzo Ulug‘bek Bosmaxonasi.

3. Shar‘iy Javzjoniy, Abdulhakim. (2012), **Tasavvuf va İnson,** Kobul: Sa‘iyd intshoroti.

4. Fonus, Mir Aziz Ahmad. (1397), **İrtibot-i Mafhumi Fardiy va Hamagoniy,** chop-i panjum, Kobul: İntishorot-i Homid Rasolat.

5. Mallayev, Natan. (1392), **Tarix-I Adabiyot-I Turkiy O‘zbekiy (İkkimchi jild,** ikkinchi chop, Fors Tilida o‘giruvchi: Burhonuddin Nomiq, Noshir: Bunyod-I Farhangiy Shahid Sibg‘atulloh Zakkiy, Kobul: Matba‘iy Korvon.

6. Navoiy, Alisher. (1369), **Xamsa,** Abdulg‘affor Bayoniy ihtimomi bilan, Afg‘onistan jumhuriyati İlimlar Akodamisining nashri, Kobul: Davlat Matba‘asi.

7. Navoiy, Alisher.(2020), **Xamsa/Hayratulabror,** Nashirga tayorlovchi: Vahob Rahmov, Toshkent: G‘afur G‘ulom Nomidagi Nashriyot-Matba‘a ijodi uyi.

8. Navoiyi Alisher. (1988). **Alisher Navoiy Hikmatlaridan,** Toshkent: Oydin Kutubxonasi va chet ellardagi vatandoshlar bialn madaniy aloqa bog‘lash O‘zbekiston vatan jam‘iyati.

9. Navoiy, Alisher. (1387/2009), **Ayyom-i Visol O‘ldi Yena (Boqiy satirlar),** qayta ishlab nashirga tayorlovchi: Muhammad Olim Kuhkan, Nashr etuvchi: Turon İjtimoiy va Madaniy Bunyodi, Kobul: Ahmad San‘ati va Tabo‘ati Matba‘asi.

10. Yorqin, Muhammad Halim.(1392/2013), **O‘zbek Faroziyolojik So‘zligi,** Nashr etuvchi: Xuroson İntishorot Muassisasi, Bosilgan Yeri: Tahron, Kobul.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTROPOSENTRIK MAQOLLARDA QADRIYATLAR TIZIMI

Ilmiy rahbar: **Majidova Ra'no Urishevna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor, Umumiy tilshunoslik kafedrasi
Komilova Go'zalxon Oybek qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqol xalq og'zaki ijodining muhim janri bo'lib, o'zida xalqning urf-odatlari, madaniyati, tarixi va qadriyatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda maqollar ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda antroposentrizm tushunchasi va antroposentrik maqollarda ifodalangan milliy qadriyatlar, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: maqol, antroposentrizm, mentalitet, qadriyat.

Abstract: A proverb is an important genre of folklore which reflects the traditions, culture, history and values of the nation. Today a lot of scientific research is being conducted on proverbs. This article is aimed to show the role of anthropocentrism in English and Uzbek proverbs and the similarities and differences between national traditions expressed in anthropocentric proverbs.

Key words: proverb, anthropocentrism, mentality, traditions.

KIRISH

O'zbek tili – imkoniyatlarga boy til. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari o'sha tilning qimmatini belgilaydi. O'zbek tilining tasviriy ifodalarga boyligi, bo'yoqdorligi maqollarda ham aks etadi. Maqollarda milliy madaniyat, mentalitet, so'z boyligi, xalqning turmush tarzi namoyon bo'ladi. Maqol atamasi arabcha "qavlun" – "gapirmoq", "aytmoq" so'zidan olingan bo'lib, xalqimiz orasida uni "otalar so'zi" deb ham atashadi. Maqollarda ajdodlarning hayotiy tajribalari, qadriyatlari, jamiyatdagi munosabatlari, qarashlari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda xilma-xil. Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, do'stlik, ahillik, mehmondo'stlik, sog'lik, sevgi-muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, insonga xos salbiy hislatlar, yolg'onchilik, dangasalik to'g'risida ko'plab maqollar yaratilgan. Maqollar tilimizning ajralmas qismi, shu boisdan ularni o'rganish, tahlil qilish har qaysi zamon tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqollar mavzusida ko'plab olimlar, tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borgan va bu jarayon hozirgi kunda ham jadal davom etmoqda. Maqolada T. Mirzayev, A.

Musoqulov, B. Sarimsoqovlarning “O’zbek xalq maqollari” kitobidan foydalanildi. Ushbu to’plamda maqollar o’zbek xalqining ezgu qadriyatlarini tarannum etuvchi turli xil guruhlarga ajratilib tahlil qilingan. Shuningdek, K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” kitobidan ham unumli foydalanilgan. Unda ingliz, o’zbek va rus tillaridagi 6000 ga yaqin maqollarning ekvivalentlari keltirib o’tilgan bo’lib, ishda aynan shu manbadan olingan o’zbek va ingliz tillaridagi antroposentrik maqollarning semantik tahlillari qilingan, bu orqali esa o’zbek va ingliz maqollarini qiyosiy o’rganish asnosida har ikkala xalqning madaniy va milliy odatlarini tilga qay daraja aks etganini ifodalab, xalqlarning mentalitetidagi o’zaro o’xshash va farqli tomonlari isbotlab berilgan. Ushbu manbalardan foydalanilgan holda, inson obrazi markaziy rol o’ynagan maqollarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlari atroflicha ochib berilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun maqoldan foydalanish, unga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish hamma zamon so’z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa o ‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar borligini guvohi bo’lishimiz mumkin. Bundan tashqari tarixda maqollar asosida yaratilgan asarlarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi Mahmud Koshg‘ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devoni lug‘otit turk» asari bunga yorqin misol bo‘la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ulaming aksariyati bugungi kunda ham tilimizda ishlatilmoqda. Shuningdek, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o‘zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir.

Maqollar xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, tarixi, dini, urf-odatlari, orzu-maqsadlarini ifodalovchi, insonlarni yaxshilikka undovchi pand-nasihatlardir. Har qaysi millat va tildagi maqollarni qiyoslasak ular o’rtasida o’zaro o’xshashliklar va farqlarni ko’rishimiz mumkin.

Avvalo antroposentrizm tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak, “antroposentrizm” (yunoncha «antropos» - «inson» so`zidan olingan, lot. «sentrum» - «markaz») - bu ilmiy yo`nalishda uning asosiy muammosi olam markazi bo`lgan insondir. Atropotsentrizm bu olamda insonning markaziy mavqeini tasdiqlovchi ta'limot. Ushbu fikr oqimi ostida inson hamma narsaning o'lchovi va markazidir. Axloqiy nuqtai nazardan, faqat inson manfaatlari axloqiy e'tiborga ega bo'lishi kerak va ular hamma narsadan ustundir, deb hisoblashadi. Antroposentrik maqollarda esa inson va

uning faoliyati bilan bog'liq barcha narsalar markaziy o'rinda turadi. Masalan, *"Mard yigitning labi yog'lik, dangasaning boshi qonlik"* maqolida "*mard yigit"* va *"dangasa"* kabi shaxs otlari va ularga xos xususiyatlar maqolning asosini tashkil etadi. Ingliz tilidagi *"Like mother, like daughter"("Onasini koo'rib qizini ol")* maqolida *"mother"* va *"daughter"* kabi shaxs otlari maqolning markazi hisoblanadi.

O'zbek va ingliz xalq maqollarida antroposentrizmni ifodalashning turli ko'rinishlari mavjud. Bunda shaxs otlaridan, ismlardan, otlashgan sifatlardan va hayvon otlaridan, ularning ko'rinishi, xarakteriga xos xususiyatlardan foydalanish mumkin. O'zbek xalq maqollarida, asosan, odam, kishi, yigit, do'st, ota-ona, farzand, qo'shni kabi shaxs otlaridan, yaxshi, yomon, mard, yalqov, aqlli, nodon kabi otlashgan sifatlardan keng foydalaniladi va maqollar asosan ikkinchi va uchinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi.

Kishining qo'lidan ishini olsang og'zidan oshini olasan;

Bir yigitga qirq hunar oz;

Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim;

Onangni otangga bepardoz ko'rsatma;

Bolali uy – bozor, bolasiz uy - mozor;

Qo'shning tinch – sen tinch;

Yaxshiga yondosh, yomondan qoch;

Yalqovning maqtanishi ish boshiga borguncha

Ingliz antroposentrik maqollarida esa man, Jack, friend, children kabi otlardan, he olmoshidan, blind, wise, fool kabi otlashgan sifatlari qo'llaniladi.

Men may meet but mountains never. (Tog' tog' bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashar)

He that fears every bush must never go a-birding (Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas)

Jack of all trades, master of none (Har narsaning ishqibozi, hech narsaning ustasi)

Fool's haste is no speed (Ahmqoning shoshqaloqligi tezlik emas)

Ingliz antroposentrik maqollarining o'ziga xos xususiyati shundaki, inson obrazi va unga xos xususiyatlarni ifodalashda hayvon otlaridan ham keng foydalaniladi

The early bird catches the worm. (Erta turganinng rizqi bo'lak)

The leopard cannot change its spots. (Bukrini go'r to'g'rilaydi)

Fish begins to stink at the head. (Baliq boshidan sasir)

Yuqorida aytib o'tkanimizdek, maqollar har qaysi xalqning qadriyatlarini, urf-odatlari va yashash tarzini ifodalovchi til birligidir. O'zbek va ingliz xalq maqollari o'xshash va ayni damda farqli qadriyatlar tizimiga ega. Har ikki millat maqollarida ham yaxshilik, insoniylik, to'g'ri so'zlik kabi umuminsoniy qadriyatlar tarannum etilsada bu millatlargagina xos bo'lgan, dini, mentaliteti va hayot tarzini ifodalovchi

antroposentrik maqollarda turlicha qadriyatlar aks etadi. O'zbek xalqi mehmodo'stligi, saxiyligi, bolajonligi bilan nom qozozngan millatdir va bu qadriyatlar maqollarimizda ham o'z aksini topgan, yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mehmon, saxiy va baxil inson, bolalar kabi shaxs otlari va ularga xos xususiyatlar shu mavzudagi maqollarda markaziy tushunchani ifodalaydi.

Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan

Mehmon otangday ulug'

Baxilning bog'I ko'karmas

Bolali uy – bozor, bolasiz uy- mozor

Ona bilan bola – gul bilan lola

Bolaning ko'ngli poshsho

Ingliz antroposentrik maqollarida esa tadbirkorlik, ishbilarmonlikka ko'proq urg'u beriladi va shu kabi maqollarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

He laughs best who laughs last. (Oxirgi kulgan zo'r kuladi)

He is lifeless that is faultless. (Xato qilmagan yashamapti)

Believe not all that you see nor half what you hear. (Eshitganingga ishonma, ko'rganingni yarmiga ishon)

Quyidagi jadvalda o'zbek hamda ingliz antroposentrik maqollari qanday qadriyatlarni ifodalab kelishiga ko'ra semantik guruhlarga ajratilgan

	O'zbek xalq maqollari	Ingliz xalq maqollari
Do'stlik	Do'st kulfatda sinalar	A friend in need is a friend indeed
Vatanparvarlik	O'z uying – o'lan to'shaging	East or West, Home is best
To'g'riso'zlik	Yolg'onchining to'g'ri so'ziga ham ishonishmaydi	Liar is not believed when he speaks the truth.
Mehnatsevarlik	Mehnat qilgan xor bo'lmas, do'st-dushmanga zor bo'lmas	The receiver is as bad as the thief.
Ahillik	Ko'p kallada ko'p aql	Many men, many minds

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, maqollar har ikki tilning ham katta qismini tashkil etadi va ulardan foydalanish orqali qisqa so'zda ko'p ma'no anglatishga erishiladi. Biroq har ikki tilda mavjud bo'lgan bir xil maqollar ba'zan ikki xalq

tomonidan bir xil, ba’zan umuman boshqacha ifoda bilan o‘zining xususiyatlarini ochib beradi. Buning sababi shundaki, xalqda bor narsa uning tilida ham ifodalanadi. O’zbek va ingliz tillaridagi maqollarda antroposentrizmning ifodalanishida o’xshashliklar va farqli jihatlari bo’lganidek, ushbu maqollarda yoritib berilgan qadriyatlar ham mavzu jihattan ba’zan o’xshash, ba’zan esa farqli. Bunda ushbu millatlarning dini, urf-odatlari, madaniyati, hayot tarzi, qarashlari, orzu-maqsadlari o’z ifodasini topadi va maqollarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, 1978.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O`zbek xalq maqollari. - T.: Sharq, 2005. -508 b.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. - T.: Sharq, 2010. - 207b.
4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs. Maqollar. Poslovis. –T: Mehnat. - 2010. -400 bet.
5. Honeck. R. (1997). A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. USA: Lawrence Erlbaum. – 1997

BOSHLANG’ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA NAQSH VA BEZAKLAR MAVZUSINING AMALIY METODLAR ORQALI YORITILISHI

Xalilova Zarina Bahodirovna
Qashqadaryo viloyati 5-sonli maktabning Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi
halilova308@mail.com
Nizomova Sarvinoz Nomozovna
Qashqadaryo viloyati 5-sonli maktabning Musiqa madaniyati fani o’qituvchisi
Anvar Joxbarovich Umarov
Kitob Tuman Xalq ta'limi bo'limi maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish sho'basi mudiri

"Dunyoni go'zallik qutqaradi"! Shubhasiz, go'zallik ko'zni quvnatib,dilni yashnatadigan, qalblarga iliq taassurot qoldiradi Fe'l atvori, tashqi va ichki dunyosi go'zal insonlar mukammal xarakterdagi, atrofdagilarga faqat ezgulik ulashadigan bebaho insonlardir.

Alloh yaratgan tabiat go'zalliklari insonlar tomonidan parvarishlanib, asrab avaylab avloddan avlodga meros bo'lib kelmoqda. Inson qo‘li bilan ne ne go'zalliklar yaratilmagan! Tikuvchilar tikkan liboslariga,duradgor ustalar yasagan eshik romlariga, ustun-u binolarning qoshlariga inson aqli shoshadigan, xavasi ortadigan darajada naqsh bezaklar bilan go'zallik kiritishadi!



Naqsh (arab. — tasvir, gul) — qismlari (taqsimlari) muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo‘ladigan handasiy shakllar, o‘simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak (gul)dir. Yosh avlodga ota bobolarimiz meroslarini o’rgatib borish, amaliy bezak san’atini rivojlantirish maqsadida davlatimiz tomonidan ta’lim dasturiga tasviriy san’at

darslarida “Naqsh”,”Bezaklar” haqida mavzular kiritilgan. Narsaning sirtini bezayotgan naqsh uning tuzilishini yuzaga chiqaradi va uning badiiy sifatini oshiradi.Boshlang’ich sinf o’quvchilari tasviriy san’at darslarida ko’pincha qush,o’simlik uslublaridagi rasmlardan namunalarni bir necha etaplar orqali chizadilar.

Kichik yoshdagi bolalar uchun oddiy naqsh chizish jarayonlariga nisbatan biror buyum sirtini bezash jarayoni ayniqsa qiziqarli kechadi. Rang berish vaqtida bolalarning fantaziyasi rivojlanadi. Nafaqat darsga, balki, atrof muhitga, amaliy san’at merosimizga mehr muhabbat tuyg’ulari uyg’onadi. Bolalar narsa buyumlarga berilgan bezaklarga ham e’tibor berishni boshlashadi va bu orqali amaliy bezak san’ati kelajak avlod tomonidan ijobiy o’zgarishlar bilan rivojlanishiga sabab bo’ladi. Naqsh yo mavhum shakllardan tuziladi, yo aniq mavzulardan uslublashtiriladi. Ishlanayotgan xom ashyosiga ko‘ra, naqsh ishlashning turli-tuman uslub va usullari mavjud:

1) o‘yma (ganch, yog‘och, mis, tosh, marmar va boshqalar);
2) bo‘yama (qog‘oz, mato, ganch, yog‘och, sopol va boshqalar);
3) chok yordamida tikma (kashtado‘zlik, zardo‘zlik va boshqalar);
4) zarb qilib, quyib (zargarlik, miskarlik va boshqalar);
5)to‘qima (gilamchilik, to‘qimachilik va boshqalar);
6) qadama (inkrustatsiya, panjarasozlik va boshqalar) va boshqalar.

Boshlang’ch sinf o’quvchilarining yoshlariga “Bo’yama” va “Chok yordamida tikma usul”lar juda mos keladi. Tasviriy san’at darslarida “Bo’yama” usullaridan, texnologiya darslarida esa “Chok yordamida tikma usuli”dan foydalaniladi.





Naqshning paydo bo‘lishi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiydir. Arxeologik materiallar naqshning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Metall, sopol buyum, idish, qurollar paleolit, neolit davrlarida oddiy handasiy shakllar qatorida o‘simliksimon naqshlar bilan ham bezatilgan. Naqsh turli o‘lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o‘simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta’sirida turlicha rivoj topgan. Masalan, Shimol o‘lkalari naqshlarida archa, chorvadorlarda mol shoxi, dehqonlarda uzum bargi va g‘ujumi, o‘troq aholida gul, anor, bodom, qalampir tasvirlari ko‘p uchraydi.

Yosh avlodga naqsh, bezaklar tarixi bilan tanishtirish jarayonida jonli,hayotiy misollar keltirish bu yo’nalishni ularning ongiga yaxshiroq singdirishga olib keladi.

Masalan: a) qashqar rubobi musiqiy cholg’usida hayvonlarning shoxlari aks etganligi;





b) yigitlarimizning namangan do’ppisida qalampir yoki bodom naqshlari aks etganligini ko’rsatishimiz mumkin;





O‘zbekistonning turli viloyatlaridagi me’moriy yodgorliklar, idish, buyum, mehnat qurollaridagi naqshlarda umumiylik ko‘zga tashlansada, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Toshkent va boshqa joylarda shu yerlarning o‘ziga xos naqsh uslublari vujudga kelgan. Naqsh avloddan-avlodga o‘tgan, shogirdlar ustozlaridan o‘rgangan naqsh namunalarini iste’dodlari darajasida boyitib borganlar, naqshni rivojlantirganlar. O‘zbekiston hududi (turli mintaqalari)da o‘ziga xos bo‘lgan Naqsh maktablari shakllangan. Shunga ko‘ra, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona vodiysi, Toshkent naqshni ayrim o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. XX-asr o‘rtalaridan naqsh bezak mujassamotlariga tasvirlar (me’moriy obi-dalar, kishilar portretlari va boshqalar) ham kiritila boshlandi. Jumladan, kandakori

buyumlar bezagida me’moriy obidalar, chinni buyumlar bezagida esa atoqli kishilarning portretlari va boshqa bezaklar o‘z ifodasini topdi. O’zbekistonda Naqsh va Bezaklar shunday go’zal tarixga ega ekan biz ularni yosh avlodga o’rgatib, avloddan avlodga yetkazishimiz maqsadga muvofiqdir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.R. Ismailova 2-sinf Tasviriy san’ati darsligi. Toshkent: 2023
2. R.R.Ismailova 3-sinf Tasviriy san’ati darsligi. Toshkent: 2023
3. D.Karimova A.Mansurov, 5-sinf Musiqa darsligi. Toshkent: 2001
4. “Naqsh” Wikipedia https://uz.m.wikipedia.org>wiki
5. “Naqqoshlik” Wikipedia https://uz.m.wikipedia.org>wiki
6. “So’zana” https://tbc-ornaments.uz/

THE CONCEPT OF HOMELAND IN THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD OF THE POET SERGEI YESENIN

Abdulakhadova Shokhida Ravshanovna
Zulfiya Odiljonovna Karimova
Lecturer, Department of Russian Literature and Methods of Teaching,
Jizzakh State Pedagogical University
karimova.zulfiya1104@gmail.com

Annotation. The article deals with the analysis of linguistic means of verbalisation of the concept "homeland" in the works of S. Esenin. This is one of the key concepts in S. Esenin's linguistic picture of the world, the distinctive features of which are basic for this poet and essential for making the most complete picture of the national picture of the world as a whole. The concept 'homeland' in Sergey Yesenin's poetry includes such semantic fields as 'nature', 'space', 'people', 'history', 'culture', 'religion' and others. They, constantly interacting with each other, overlap and form a single linguistic whole.

Key words: concept, ethnolinguist, conceptosphere, linguistic personality, Rus, poet, music of words.

The concept "Motherland" began to attract the attention of linguists in the late 90s of the twentieth century, while the most urgent were the problems of national identity and their reflection and expression in language. The works of A. Vezhbitskaya, I. Sandomirskaya, V.N. Telia, S.M. Tolstoy, and the circle of ethnolinguists united by E. Bartmiński in Poland are devoted to the analysis of the concept "Motherland". These works were carried out with the help of different research techniques, the number of which cannot be considered exhausted.

The cultural concept "homeland" continues to attract the attention of researchers, as it is closely connected both with ethnic self-consciousness and with the state ideology, which influences the individual with the help of various text genres, first of all, political propaganda texts.

The national image of any country is a diverse conceptosphere, including various concepts (peace, love, homeland, good, nation, etc.). In the conceptosphere of the "national image of Russia" the concept "motherland" occupies a key place in the Russian linguistic picture of the world and represents the unity of linguistic and cultural content.

The concept "homeland" is one of the most important in the Russian national consciousness, is included in the list of "1000 most used Russian words" and is on a

par with such moral categories as goodness, love, friendship, patriotism, freedom and will.

The national linguistic picture of the world is reflected directly in the mentality of a nation, which reflects the reference concepts, notions, images, symbols peculiar to a certain nation. It can be said that a concept is "a concept immersed in culture".

The problem of linguistic personality and linguistic picture of the world of some authors in recent decades is of particular interest to linguists and philosophers. This is due to the vivid reflection of the creative individuality of poets in the works they create.

In the centre of linguistic personality some researchers put emotions, which are transmitted to the reader through semantic and linguistic features of the lyric text.

Under the linguistic personality many linguists understand "a set of human abilities", which directly influence the character of texts created by them, differing in the degree of complexity of structure and semantics, depth of recreation of the real surrounding world and target orientation.

Throughout his life the poet forms his individual image of the world, which is expressed in actual world pictures and in a special, linguistic picture of the world.

The concept "homeland" in Sergey Yesenin is very complex. On the one hand, it reflects the history of the formation of Russian society (Russia's past, way of life, culture, etc.), subjective perception of the present and ideas-dreams about the future, on the other - this concept includes specific objects, phenomena of reality (nature, society, etc.).

The greatest emotional tension undoubtedly distinguishes Yesenin's poems addressed to the motherland, Russia. "The feeling of the homeland is the main thing in my work," - testifies the poet. The theme of the native land in his lyrics is very often solved by exclamatory intonation, causing bright alliteration.

Musical sounding of speech in these cases enhances the emotional expressiveness of the verse:

My krai, my beloved Rus and the Mordva!

Or:

Untold, blue, tender.....

The whole system of artistic and figurative means of Yesenin, his poetic images, tropes is inseparable from musical consonances, from the wonderful sound images created by the poet. Among the various techniques of Esenin's artistic mastery, the sound organisation of poetry plays an exceptional role. The marvellous music of words, born of his talent, largely determines the originality of individual Esenin timbre, which once dreamed of the poet.

Sergei Esenin combines the words constituting the concept "homeland" in the following way. In the analysed texts, the word Rus occurs more often than other lexemes forming the concept "homeland".

The most frequent associative dominant to the toponym Rus in the works of S. Esenin is the noun sadness.

The method of continuous sampling from all lyrical texts of the poet revealed 6 onyms and 88 word-uses. Studying the texts of the poems, we see that the most used lexeme verbalising the concept "homeland" is the funeral word "Rus". The second place is occupied by the word "motherland".

Being a nominative name, this lexeme can pass into the proper names and become a choronym in the text.

proper names and become a funeral name in the text. To reveal the concept "homeland", one of the central concepts in the poetry of S. Esenin, the key names are Rus - Motherland - Russia, which convey a diverse range of connotations, have a bright individual-author semantic environment, a variety of additional evaluative meanings. Often the lexemes forming the core are put in the title, which once again emphasises their significance.

The poet expands the concept of homeland, introduces an additional nomination in the form of the lexeme Raseya (Rasseya). According to the dictionary, "Raseya is a colloquial, dialectal form of the Russian language (most often the territory up to the Urals); deep, patriarchal, backward, backward, kondovye, trackless Russia".

The concept 'homeland' in Sergey Yesenin's poetry includes such semantic fields as 'nature', 'space', 'people', 'history', 'culture', 'religion' and others. They, constantly interacting with each other, overlap and form a single linguistic whole.

The lyrical hero of the poet often confesses his love for the motherland, honours and respects it. Such verbs as to believe, pray, love, think ("O Rus, my resting corner, // I love you, I believe in you", etc.) allow us to convey this attitude. With the poet's characteristic tendency to animate all living things, everything around him, he also addresses Russia as his favourite, dear loved one: "Hoy you, Russia, my dear one". The attitude of the lyrical hero to his native land is evidenced by the definitions chosen for the words Rus, edge, homeland, side, land. To the word Rus the poet chooses such definitions as native, dozing, blue, wooden, birch, favourite, homeless, etc. Esenin calls the land native, beloved, abandoned, pensive, tender, etc. The homeland for the poet is sweet and meek. To the word side he chooses definitions distant, Asian, etc. He calls the Earth unsolved, beautiful, out-of-the-way, etc.

The formation of the concept "homeland" in the poetic system of S. Esenin

is connected with the biography and origin of the poet, with his worldview.

The analysis of the meanings of the concept "homeland" has shown that in the poet's world picture the concept "homeland" includes 4 concepts:

1. Motherland - mother (family);
2. Motherland - the state;
3. Motherland - "small" motherland;
4. Motherland is a geographical object.

For Esenin, the Motherland is a multifaceted image that cannot be interpreted unilaterally. S. Esenin is rightly called the people's poet. He, being a bearer of national culture, native language, reflected in his work. the spirit of the people and the time.

The study of Esenin's creative heritage has shown that the analysed concept is closely related to other concepts. They allow to show more fully the linguistic picture of the world of the poet Sergei Esenin.

List of literature:

1. Karasik V. I. About the categories of linguoculturology // Linguistic personality: problems of communicative activity. - Volgograd, 2001. - 3-16 p.
2. Karaulov Y. N. Russian language and linguistic personality. - M., 2006. - 264 p.
3. Likhachev D. S. Conceptosphere of the Russian language // Russian literature. From the theory of diction to the text structure: an anthology / ed. by V. P. Neroznak. P. Neroznak. - M., 1997. - 281 p.
4. Marchenko, A. M. Poetic world of Esenin / A. M. Marchenko. - 2nd ed., supplement. - M.: Soviet Writer, 1989. - 304 p.
5. Prokhorov Y. E. In search of a concept. - M., 2008. - 17 p.
6. Stepanov Y. S. Constants: Dictionary of Russian Culture. - M.: "Academic Project", 2001. - 43 p.
7. Telia V. N. Russian phraseology. Semantic, pragmatic and linguocultural aspects. - M., 1996. - 96, 215 p.
8. Eventov I. S. Sergei Esenin. - M., 1987. - 159 p.

THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN THE FIELD OF INSURANCE ACTIVITY: PROSPECTS FOR UZBEKISTAN

Olimova N.Kh.
Candidate of Economics, Associate Professor of FSU, Fergana
Tuychiyeva Sh.A.
master of FSU, Fergana

Abstract. The international processes of globalization and integration certainly affect the development of insurance activities in Uzbekistan, as well as the formation of state policy in this area. In this regard, the issues of exchanging experience and borrowing the best international practices are very relevant. The article examines the world experience of developed countries in the field of insurance of economic sectors and the ways of their application in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: insurance, public-private partnership, special funds, perspective, economy, economic growth.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING SUG‘URTA FAOLIYATI SOHASIDAGI TAJRIBALARI: O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR

Olimova N.X.
i.f.n., dotsent, FDU, Farg‘ona
To‘ychiyeva Sh.A.
magistr, FDU, Farg‘ona shahri

Annotatsiya. Xalqaro globallashuv va integratsiya jarayonlari O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatining rivojlanishiga, shuningdek, ushbu sohada davlat siyosatining shakllanishiga ta`sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan tajriba almashish va eng yaxshi jahon amaliyotini o‘zlashtirish masalalari juda dolzarbdir. Maqolada rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyot tarmoqlarini sug‘urta qilish sohasidagi jahon tajribasi va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash yo‘llari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, davlat-xususiy sheriklik, maxsus fondlar, istiqbol, iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish.

ОПЫТ РАЗВИТЫХ СТРАН В СФЕРЕ СТРАХОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Олимова Н.Х.
к.э.н., доцент ФерГУ, г.Фергана
Туйчиева Ш.А.
магистр ФерГУ, г.Фергана

Аннотация. Международные процессы глобализации и интеграции безусловно влияют на развитие страховой деятельности в Узбекистане, также на формирование государственной политики в этой сфере. В связи с этим весьма актуальны вопросы обмена опытом и заимствования наилучшей мировой практики. В статье исследуется мировой опыт развитых стран в сфере страхования отраслей экономики и пути их применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: страхование, государственно-частное партнёрство, специальные фонды, перспектива, экономика, экономический рост.

Introduction. Insurance, along with other market instruments, ensures the stability of economic development and serves as a stimulator of economic growth, accumulating savings in the form of insurance premiums and converting them into investments, thereby increasing the efficiency of the entire financial system of the country.

For the development of the insurance market, the study of world experience and the introduction of norms and methods of insurance accepted by the world community are of no small importance. Often in developed countries, where insurance has long been a requirement of the time and the norm of life, various schemes and products are used, the existing forms of which are determined in the process of practical application. They take into account the identified shortcomings, consumer requirements and the desire to balance price and quality.

Methods. However, it should be taken into account that the positive experience of other countries, transferred to another political and economic environment, may not give appropriate results. Therefore, the most optimal option for such interaction is a combination of international and domestic experiences by supplementing [15].

According to the forecasts of analysts of the international reinsurance company Swiss Re, taking into account the global cataclysms and geopolitical conflicts that put pressure on economic growth, in particular in Europe, the dynamic development of the insurance industry in Asia is expected. For example, in the next decade, India will become one of the fastest growing markets in the world (Table).

Table

Top 20 countries by total insurance premiums in 2022 [4]

№	Country	The volume of premiums, in US dollars	How much has increased/decreased, %
1	USA	2 718 699 000 000	8,1
2	China	696 128 000 000	6,1
3	Japan	403 592 000 000	-2,6
4	Great Britain	399 142 000 000	16,7
5	France	296 380 000 000	24
6	Germany	275 779 000 000	5,9
7	South Korea	193 008 000 000	1,5
8	Italy	192 481 000 000	11,5
9	Canada	161 289 000 000	15,8
10	India	126 974 000 000	13,5
11	Taiwan	113 423 000 000	0,1
12	Netherlands	92 986 000 000	5,7
13	Spain	73 571 000 000	9,4
14	Australia	72 576 000 000	15,5
15	Hong Kong	72 227 000 000	-1,0
16	Irish	64 696 000 000	31,3
17	Brazil	62 082 000 000	7,2
18	Switzerland	57 793 000 000	1,2
19	South Africa	51 215 000 000	24,6
20	Luxembourg	48 287 000 000	30,9

According to experts' analyses, in 2022 the USA became the world leaders in the total volume of insurance premiums - 2.7 trillion dollars. In second and third place were China and Japan - 696.1 and 403.5 billion dollars, respectively. These three markets accounted for almost 56% of global premiums (Fig. 1).




Fig. 1. The share of the top 3 countries in total insurance premiums in 2022 [4]

If you look at the insurance market of Kazakhstan, one of our neighbors, then in Kazakhstan, according to the National Bank of Kazakhstan for 2022, the total volume of premiums for all types of insurance amounted to 899.59 billion tenge (1.9 billion dollars at the exchange rate for 2022), which is 24.5 times less than Luxembourg,

which is located at 20 the line of the rating of the largest insurance markets. Nevertheless, there is a stable annual growth in the Kazakhstan market. For 6 months of 2023, the total volume of insurance premiums amounted to 588 billion tenge ($ 1.3 billion), which is 30% more compared to the same period last year. Such a growth rate of premiums is due to the active digitalization of the service and the integration of life insurance with other partner products, as well as the introduction of tax benefits under NCW programs [4].

Foreign experts believe that Kazakhstan's insurance market will reach an average annual growth rate of more than 12% during 2023-2027.

Results. Based on the analysis of experts, we will separately consider the features of insurance activities in the following countries: USA, China, Japan. At the same time, we will try to identify aspects that are suitable for our domestic market.

The US insurance market. There are two types of insurance companies in the USA: joint stock companies; mutual insurance companies. There are no state insurance companies. Both individuals and legal entities can purchase shares of joint - stock companies. Insurance companies carry out three types of insurance: commercial (a wide range); citizens' property (buildings, cars, etc.); personal or backfits (life and health insurance, medical, pensions, savings, etc.). Personal insurance has received the greatest development in the USA. It is divided into:

- life insurance (death insurance and deposit insurance);
- annuity or pension insurance;
- insurance against diseases and accidents.

A characteristic feature of the US insurance system is the participation of various intermediaries in insurance - the insurance policy is not accepted directly, but through an insurance agent or broker.

The activities of all US insurers are carefully analyzed by three consulting companies: A.M.Best, Moody's, Standart&Poors, which publish quarterly catalogs on their work. They publish official ratings of insurance companies on reliability for the client and data on the state of their solvency. The main factors for which the analysis is performed are:

- financial position (level of losses, income and profit ratio on investments and level of accounts receivable);
- payment of claims and the level of service;
- safety and loss prevention;
- flexibility in the company's work;
- the cost of services.

The insurance industry in the United States is the only industry that does not fall under the country's antitrust laws. One of the most important features of the largest US life insurance organizations is the fact that, due to the high authority of insurance

organizations, multibillion-dollar funds belonging to various pension funds are transferred to their management. The task of insurance companies in this case is to ensure not only the safety, but also the growth of trusted funds through an effective investment policy (a commission fee is charged for the management of the organization's funds). Even moderate amounts (0.1% of the amounts taken into management) bring millions of dollars in revenue. Huge investment resources turn insurance organizations into one of the influential centers of financial control in relation to industrial corporations [2].

China insurance market. For 37 years until 1986, there was a monopoly on insurance in China: the only company on the market was PICC, the People's Insurance Company of China. The lack of competition led to the stagnation of the industry, which began to develop actively only after the liquidation of the monopolist. China's insurance market is based on two pillars: a strong economy and the influence of the state. The country's economy is the second in the world in terms of GDP after the United States, in the first quarter of 2018, the indicator grew by 6.8% compared to last year. The stability of the economy gives the state the opportunity to subsidize insurance and develop the industry.

The basic law, which has been regulating insurance activities in the country since 1995, is the "Law on Insurance of the People's Republic of China". After its adoption, the Chinese Insurance Supervision Committee was established as the main regulator: it implements laws, issues licenses, and controls insurers. The adoption of the law on insurance and the creation of a regulatory body led to the stabilization of the country's insurance market. After joining the WTO in 2001, the Chinese market became open to foreign insurance companies, which brought it closer to the world insurance market. China's insurance market is the most promising and fastest growing among the markets of developing countries, although it also has drawbacks. The country managed to achieve such success due to state reforms and a stable economy. The peculiarity of China is that each region has its own contribution rates for compulsory social insurance.

Insurance market of Japan. The insurance market in Japan is the third largest insurance premium collection in the world. This market has a number of features:

Firstly, until recently, the Japanese market was practically closed to foreign insurers. And abroad, Japanese industrial TNCs insure the risks of their branches and "daughters" in Japanese insurance corporations. Only the reforms of recent years have brought an atmosphere of openness and competition. As in many other countries with limited access to foreign participation, the liberalization of the Japanese insurance market contributed to Japan's accession to the WTO. Despite the fact that Japan has formally been a member of the GATT since 1955, restrictions on the ownership of financial companies for foreign corporations and restrictions on the

forms of their commercial presence were lifted in the country only by the end of 1999 in accordance with the agreement on expanding the presence of foreign insurance companies in the national market, signed in December 1997 [1]. *Secondly,* the Japanese market is a strictly state-regulated system of relations between the client and the service provider, up to the determination of the amount of the insurance premium, which allows all insurance companies to develop without taking into account their competitiveness. *Thirdly,* strict state regulation of the activities of insurance organizations restricts the activities and does not stimulate the spread of large Japanese TNCs around the world. Low competitiveness and government regulation make Japan's TNCs less successful in the global financial system. *Fourth,* the peculiarity of the Japanese market is the preservation and maintenance of established national traditions on it, up to the point that life insurance is paid in all cases, even in case of suicide. National preferences lead to the fact that almost all Japanese are insured in national companies, avoiding foreign ones.

The Japanese insurance model is characterized by the priority of life insurance, compared with other types. Life insurance provides 80% of the insurance premium fees. A big role in this is played by the state, which has de facto become a guarantor of the liquidity of insurance companies [1].

Discussion. The high share of life insurance in the total insurance premium is a feature of the insurance sector not only in Japan, but also in most Asian countries. The high degree of development of this segment is explained by two main reasons.

Firstly, the increase in the standard of living and the quality of medical care is accompanied by a low birth rate, a decrease in the proportion of children in the population of the country and an even greater increase in the high proportion of elderly people and an increase in demographic aging of the population. Thus, the proportion of people aged 60 years and older in relation to the entire population in Japan is more than 20%. The share of the able-bodied population only slightly exceeds the number of pensioners, and this excess is rapidly decreasing [3].

Secondly, the use of accumulative life insurance contracts as an asset management tool ensures a high level of return on invested capital. An important feature of the Japanese insurance market: Tokyo, as the capital of the second largest after the North American insurance market, is actually the center of the Asia-Pacific region [16].

Another important feature is the highest degree of concentration and security. The concentration of financial power allows this sector to play an important role in the country's economy, as can be judged by its high share in GDP: the share of total insurance premiums in GDP is currently 18%, whereas in the countries of Central and Eastern Europe only 2-6% with GDP per capita from 9 to 20 thousand.

An analysis of the international experience of other countries also shows that modern insurance activities are successfully developing and working effectively only with the introduction of digitalization and the use of advanced global systems in the field. Currently, in countries where the digital economy is not given due attention, the development of all other sectors of the economy, namely in the service sector, is slow and haphazard. The most optimal policy is risk sharing based on the principle of partnership between the private and public sectors. At the same time, private insurance companies not only assume all operating costs, but also quickly adapt to the digitalization of this area by introducing new technologies and techniques. In our opinion, public-private partnership allows the state to minimize insurance costs and focus on meeting the global requirements of insurance activities in order to take its place in the international insurance market: creating a solid infrastructure according to world standards for the development of the insurance system of economic sectors, developing new methods of regulating the activities of insurance companies, increasing the number of users of insurance services in the country.

Based on the above, we conclude that in many countries with existing state programs in the field of insurance, strong state legislation is being implemented that protects the rights of insurance market entities aimed at improving the reliability of insurance companies in the country. At the same time, the objects of the insurance market have independence in the implementation of new systems and methods of development of the sphere. To date, many governments have realized that insurance of economic sectors is a significant financial instrument that ensures the stability of the social standard of living, economic sectors, production, services, etc.

The above-mentioned countries use the experience of creating an investment policy to ensure not only the safety, but also the growth of trusted funds in the country or carry out reinsurance of risks with the participation of the state, which also needs to be used by public authorities in Uzbekistan.

Conclusions. Summarizing foreign experience, it is recommended to apply the following measures to improve the activities of the insurance sector in Uzbekistan based on the existing economic and political conditions in it, namely:

- development of a strategy for the development of investment policy in the insurance sector to ensure public power of attorney;
- pooling financial resources by creating a special disaster fund or conducting reinsurance operations with state guarantees;
- creation of consulting companies that research and publish official ratings of insurance companies on reliability for the client and data on the state of their solvency;
- creation of a single reliable electronic platform about statistics of insurance companies in the country;

- creation and approval of all procedures that directly relate to insurance and loss settlement;
- training and retraining of representatives of insurance organizations, public authorities with modern specific knowledge in the field of insurance.

References:

1. Адамчук Н.Г., Юлдашев Р.Т. Обзор страховых рынков ведущих стран Азии (на примере Китая и Японии). М.: Издательство «Анкил», 2001. С. 77.
2. Архив студенческих работ. Особенности развития страхового рынка. https://vuzlit.com/61133/osobennosti_razvitiya_strahovogo_rynka
3. Булатов А.С. Мировая экономика. М.: 2005. С. 129.
4. Казахстанский портал о страховании - ALLINSURANCE.KZ. https://allinsurance.kz/news/mezhdunarodnyj-rynok/20839-20-stran-s-samym-bolshim-obemom-strakhovykh-premij
5. Олимова, Н. Х. (2019). Инновационные методы исчисления показателей эффективности и использование инновационных технологий в обеспечении конкурентоспособности продукции предприятия. In *Тенденции развития мировой торговли в XXI веке* (pp. 69-73).
6. Olimova, N. X., & Djuraboyeva, D. M. (2023). Korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirishning yangi manbalari va zahiralaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni boshqarish. *Ijodkor O'qituvchi*, *3*(32), 40-47.
7. Olimova, N. X., & Sotvoldiyev, N. N. (2023). Tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarini kreditlash siyosatini takomillashtirish masalalari. *Ijodkor O'qituvchi*, *3*(32), 33-39.
8. Олимова, Н., & Нажибулло, Н.С. (2023). Давлат бюджетини самарали бошқаришда уни даромадларини прогнозлаштиришнинг истиқболи. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, *2*(5 Part 3), 159-166.
9. Олимова, Н. Х., Каримова, М. И., & Юрсунова, М. А. (2022). Сфера обслуживания: новые реформы в системе медицины-новые возможности для населения. *CETERIS PARIBUS*, (4), 27-30.
10. Olimova, N. (2022). Priority directions of digital economy development in the real sector of Uzbekistan. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Олимова, Н. Х. (2022). Оценка эффективности антикризисных мер реализуемых на предприятиях. In *Государственное и муниципальное управление в России: состояние, проблемы и перспективы* (pp. 169-174).
12. Олимова, Н. Х. (2021). Состояние внешнеэкономических связей промышленных предприятий страны и пути повышения их экспортного потенциала (на пр. ООО" Los Gigantes textiles"). *Архивариус*, *7*(2 (56)), 46-49.

13. Олимова, Н. Х. (2021). Анализ развития и факторов конкурентоспособности промышленных предприятий региона. *Cognitio rerum,(7),* 32-35.

14. Олимова, Н. Х., & Сотволдиев, Н. Н. (2021). Денежно-кредитная политика государства в обеспечении пропорционального развития реального и финансового секторов экономики. *Cognitio rerum,(7),* 35-39.

15. Павелко Н.И. Государственное управление. Электронный вестник Выпуск № 37. Апрель 2013 г.

16. Рабаданов Р.М. Воздействие глобализации на страховой рынок как часть мировой финансовой системы. Экономический журнал. 2008 №3 (13)

GELMINTOZLAR MUAMMOSI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Mirzahmedova Muharram Sadritdin qizi
Respublika OITSga qarshi kurash markazi, vrach epidemiolog
Nishonov Azizbek Abdumutalli o‘g‘li
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat
salomatligi qo‘mitasi raisining yordamchisi
Quranboyev Siroj Berdiboy o‘g‘li
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Urganch filiali Umumiy gigiyena kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada gelmintozlar muammosi bo'yicha zamonaviy qarashlar keltirilgan. Bolalarda somatik patologiyaning shakllanishi bilan yuqumli jarayonning asoratlari rivojlanishining tarqalishi, infektsiya yo'llari, patogenezining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Eng ko'p uchraydigan gelmintozlarning klinik ko'rinishi, shuningdek, kasallikni tashxislash mezonlari keltirilgan. Ta'kidlanishicha, gelmintik invaziyalarni to'g'ri tashxislash va davolash har bir bemor uchun ham, umuman aholi salomatligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Bolalarda gelmintozni davolashning zamonaviy usullari tasvirlangan. Ommaviy gelmintozni davolashda qo'llaniladigan zamonaviy mahalliy dori vositalari tavsiflanadi; antigelmintdan foydalanish uchun ko'rsatmalar va dozalari berilgan. Kasallikning oldini olishning nospesifik va o'ziga xos choralari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: gelmintozlar, askaridoz, enterobioz, bolalar, davolash, profilaktika.

THE PROBLEM OF HELMINTISES AND MODERN METHODS OF TREATMENT

Mirzakhmedova Mukharram Sadritdin qizi
Republican AIDS Center, epidemiologist
Nishonov Azizbek Abdumutalli o’g’li
Assistant to the Chairman of the Sanitary-Epidemiological
Peace and Public Health Committee
Kuranboev Sirozh Berdiboy o’g’li
Assistant at the Department of General Hygiene,
Urgench Branch of Tashkent Medical Academy

Annotation: The article presents modern views on the problem of helminthiasis. We have considered the prevalence, ways of infection, pathogenesis features of the

development of infectious complications with forming of somatic pathology in children. The clinical picture of the most common helminthes, as well as the diagnostic criteria of the illness has been covered. Correct diagnosis and the treatment for helminth invasions does matter not only for each patient but also for public health care on the whole. The article describes present-day approaches to the treatment for helminthiasis in children and characterizes up-to-date domestic medical drugs applied for the treatment of mass helminthiasis. It gives indications and doses for antihelminthic drugs and deals with non-specific and specific measures of prevention against the disease.

Keywords: helminths, ascaridiasis, enterobiasis, children, treatment, prevention.

ПРОБЛЕМА ГЕЛЬМИНТОЗОВ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ

Мирзахмедова Мухаррам Садритдин қизи
Республиканский центр СПИД, врач-эпидемиолог
Нишонов Азизбек Абдумуталли ўғли
Помощник председателя комитета санитарно-эпидемиологического мира и общественного здоровья
Куранбоев Сирож Бердибой ўғли
Ассистент кафедры общей гигиены Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии

Аннотация: Представлены современные взгляды на проблему гельминтозов. Рассмотрены распространенность, пути заражения, особенности патогенеза развития осложнений инфекционного процесса с формированием соматической патологии у детей. Изложена клиническая картина наиболее распространенных гельминтозов, а также критерии диагностики заболевания. Отмечается, что правильная диагностика и лечение глистных инвазий имеет большое значение как для каждого отдельного пациента, так и для общественного здравоохранения в целом. Описаны современные подходы к лечению гельминтозов у детей. Охарактеризованы современные отечественные лекарственные препараты, используемые для лечения массовых гельминтозов; приведены показания к применению и дозы антигельминтиков. Изложены неспецифические и специфические меры профилактики заболевания.

Ключевые слова: гельминтозы, аскаридоз, энтеробиоз, дети, лечение, профилактика.

Parazitozlar dunyo aholisi orasida keng tarqalgan bo'lib, dunyoda 4,5 milliarddan ortiq odamga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, gelmintozlar barcha invaziyalarning taxminan 99% ni tashkil qiladi [1-3]. Mashhur gelmintolog akademik K.I. Skryabin "parazit qurtlar begunoh yo'ldoshlardan uzoqda, ammo o'z uy egalariga juda patogen ta'sir ko'rsatadigan zararli parazitlar" deb hisoblardi. O’zbekistonda har yili gelmintlar bilan kasallangan 2 millionga yaqin odam rasmiy ro'yxatga olinadi, ammo tuzatish omillarini hisobga olgan holda ularning haqiqiy soni kamida 22 millionni tashkil qilishi mumkin [4-7]. So'nggi o'n yilliklarda dunyoning turli mamlakatlarida gelmintozlar bilan kasallanishning ko'payishi kuzatilmoqda. Gelmintozlar bilan kasallanishning ko'payishi - chiqindi suvlarni oqizish natijasida gelmint tuxumlari bilan atrof-muhitning yuqori ifloslanishi, aholi migratsiyasining kuchayishi, odamlarning hayvonlar bilan aloqasi kuchayishi, turmush darajasining past ijtimoiy-iqtisodiy darajasi, aholi immunitetining zaiflashishi oqibatidir, iqtisodiy ahvolning yomonlashishi (shu jumladan, dori-darmonlar narxining oshishi), shuningdek sog'liqni saqlash organlari tomonidan ushbu patologiyaning inson salomatligiga ta'sirini etarlicha baholamaslik. Bu muammolarning barchasi bugungi kunda barcha postsovet mamlakatlari, shu jumladan O’zbekiston uchun ham dolzarbdir. Bundan tashqari, O’zbekiston va boshqa davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va sayyohlik aloqalarining kengayishi tufayli respublika va boshqa MDH mamlakatlariga xos bo'lmagan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan gelmint infestatsiyasining olib kelish xavfi mavjud [2]. Umuman O’zbekistonda ham, alohida hududlarda ham yuqumli va parazitar kasalliklarning tarqalishi notekisdir, bu bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan bog'liq [4].

2020 yilda Urganchda sohasida gelmintozlar bilan kasallanish butun respublikaga nisbatan yuqori bo'ldi. 2020 yilda Urganch viloyatida gelmintozlar bilan kasallanish 5,6% ga kamaydi va 100 000 aholiga 195,3 ni tashkil etdi (2018 yilda - 206,9). Gelmintozlar bilan kasallanish tarkibida enterobioz ustunlik qiladi, bu umumiy invaziyalar sonining 82,4% ni, askariozda 14,4%, trixosefalozda 1,0%, biogelmintozlar (opistorxoz, difillobioz) 1,3% ni tashkil qiladi. Urganch viloyatida enterobioz bilan kasallanish 6,8 foizga kamaydi va 2018 yildagi 171,9 aholiga nisbatan 100 ming aholiga 160,2 nafarni tashkil etdi. Shu bilan birga, o'rtacha hududiy ko'rsatkich respublika ko'rsatkichidan (133,3) 20,2 foizga yuqori. O'rtacha mintaqaviy darajadan yuqori enterobioz bilan kasallanish Bog’ot, Gurlan, Qo’shko’pir, Shovot, Urganch, Xazorasp tumanlarida qayd etilgan. Askaridoz bilan kasallanish 6,2% ga kamaydi va 100 000 aholiga 28,0 ni tashkil etdi (2017 yilda - 29,9). Shu bilan birga, askaridoz bilan kasallanishning mintaqaviy darajasi mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan (100 000 aholiga 21,5) 23,2% ga oshadi.

Askaridozning mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lishi Xiva, Xonqa, Yangiariq tumanlarida qayd etilgan.

Har bir parazit qurt ontogenez jarayonida uchta majburiy bosqichdan o'tadi: tuxum, lichinka, jinsiy etuk parazit. 1931 yilda K.I.Skriabin va R.S.Shults tomonidan ishlab chiqilgan epidemiologik tasnif lichinkaning yashash muhitini aniqlashga asoslangan. Shunday qilib, hozirgi vaqtda qurtlarning rivojlanish siklini amalga oshirish va tarqalish yo'llariga qarab, gelmintozlarning uchta guruhi ajratiladi:

•**geogelmintozlar** - invaziyalar bo'lib, qo'zg'atuvchilari muhitda (oraliq xo'jayin ishtirokisiz) rivojlanadi va odamga invaziv tuxumlar (lichinkalar) bilan ifloslangan muhit elementlari (tuproq, sabzavotlar, rezavorlar va boshqalar) orqali yuqadi. Geogelmintozlarga misollar askaridoz, trixosefaloz, strongiloidoz va boshqalar;

•**biogelmintozlar** - qo'zg'atuvchilari oraliq xo'jayinlar ishtirokida rivojlanib, odamga oziq-ovqat (go'sht, baliq), o'simlik ovqati va suv orqali yuqadigan invaziyalar. Bu guruhga teniarinchiaz, teniaz, opistorxoz, trixinoz, echinokokkoz va boshqalar kiradi;

•**kontaktli gelmintozlar** - bu invaziyalar bo'lib, ularning patogenlari oraliq xostlar ishtirokisiz to'g'ridan-to'g'ri bir odamdan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Bularga enterobioz, gimenolepiaz, ayrim hollarda strengiloidoz va tsisterkoz kiradi.

Insonning gelmintlar bilan infektsiyasi turli yo'llar bilan sodir bo'lishi mumkin:

✓ ***oziq-ovqat*** - gelmint tuxumlarini yuvilmagan sabzavotlar, mevalar va boshqalar bilan yutish natijasida, shuningdek, gelmint lichinkalari bo'lgan oraliq xo'jayinlarning go'shtini iste'mol qilishda;

✓ ***suvda*** - gelmint lichinkalari mavjud bo'lgan suv omborlaridan suv ichishda;

✓ ***teri orqali*** - ba'zi gelmintlarning lichinkalarining qon so'ruvchi hasharotlar chaqishi (masalan, filariya) yoki yalangoyoq yurganda, erda yotganda va boshqalar bilan aloqa qilish orqali tanaga kirib borishi (ankolitlar, shistosomalar).

✓ ***platsenta orqali*** (juda kam uchraydigan infektsiya yo'li).

Parazitologik monitoring ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda deyarli har bir inson hayoti davomida parazitar kasallikka duchor bo'ladi va ko'pincha bolalar azoblanadi. Maktab o'quvchilari va yosh bolalar gelmintik infestatsiyalarning 80% gacha.

Gelmintoz bilan kasallanish uchun xavf guruhlari:

▪ko'p bolali va ijtimoiy nochor oilalar farzandlari;

▪uyushgan bolalar guruhlariga (bolalar bog'chalari, maktablar) boradigan bolalar;

▪bir vaqtning o'zida 7 yoki undan ortiq disembriogenez stigmasi bo'lgan uzoq muddatli va tez-tez kasal bo'lgan bolalar;

▪shishadan ovqatlangan bolalar (ayniqsa, moslashtirilmagan);

▪aqliy zaif va aqliy zaif, shaxsiy gigiena ko'nikmalari past bo'lgan bolalar;

▪uy hayvonlari bilan doimiy aloqada bo'lgan bolalar;

▪yer bilan aloqada bo'lgan bolalar (qishloq joylarda yashash, qumda o'ynash va boshqalar).

Pediatriya amaliyotida gelmintioz muammosining ahamiyati ikki sabab bilan izohlanadi: yuqori tarqalish va bolalar salomatligi holatiga sezilarli ta'sir. Shunday qilib, 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra, Urganch viloyatida 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar enterobioz bilan kasallangan barcha bemorlarning 90,4 foizini, askaridoz bilan 79,3 foizini, tri-xosefaloz bilan 55,5 foizini tashkil qiladi. Rossiyalik olimlar shunga o'xshash ma'lumotlarni keltiradilar: barcha zararlangan bolalar orasida enterobiozning 92,3%, askariozning 71,1%, trixosefalozning 61,5% va toksokarozning 66,2% ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik maktab o'quvchilari ko'pincha gelmintozalardan ta'sirlanadi [5,6]. Bola ikki yoki undan ortiq turdagi gelmintlar bilan kasallanganda poliinvaziya muammosi ham mavjud [7]. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarda ikki yoki undan ortiq turdagi gelmintlarning kombinatsiyasi 74% hollarda kuzatiladi [8]. Bolalikda eng ko'p uchraydigan kombinatsiyalar enterobioz + giardiasis, enterobiasis + askarioz, askarioz + trichosefaloz; enterobioz + lamblioz + toksokaroz [9]. Poliinvaziyalar nafaqat noqulay epidemiologik vaziyat, birlamchi invaziyalarning kech tashxisi, balki turli xil gelmintlar o'rtasidagi ma'lum bir simbioz bilan ham tushuntirilishi mumkin, bunda bitta parazit immunitetni zaiflashtiradigan, parazitar antijenlarga qarshi immunitetni bostiradi [6].

Maxsus profilaktika choralari orasida infektsiya xavfi bo'lgan bolalar uchun eng keng tarqalgan gelmintiozning (enterobiaz, askarioz, trixosefaloz) kimyoviy profilaktikasi, shuningdek, umumiy qon testida (bir necha oy davomida) doimiy eozinofiliya bilan og'rigan bolalar uchun. JSST ekspertlari yiliga 1-2 marta, yaxshisi bahorda (qor erishidan 1-2 oy o'tgach) va kuzda, sovuq boshlanganda kimyoprofilaktikani o'tkazishni tavsiya qiladi. Profilaktika kursi davolovchi bilan bir xil; keng spektrli ta'sirga ega antigelmint dorilar qo'llaniladi. Masalan, Vermox kattalar va ikki yoshdan oshgan bolalar uchun (tana vaznidan qat'iy nazar) 1 tabletkadan (100 mg) ertalab va kechqurun 3 kun davomida buyuriladi.

Profilaktika chora-tadbirlari tizimi tibbiyot xodimlarining malakasi, mas'uliyati, yuqori kasbiy mahorati, shuningdek, bolalar populyatsiyasi kasalliklarining oldini olish va kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlarisiz samarali bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, shifokor, ayniqsa, bolalarda gelmintiozning yuqori xavfi haqida doimo yodda tutishi kerak. Laboratoriya tomonidan tasdiqlanmagan taqdirda ham, ma'lum klinik ko'rinishlar va tegishli epidemiologik tarix mavjud bo'lganda, zamonaviy antiparazitar dorilarni tayinlash tavsiya etiladi [9].

Gelmintozlar dolzarb global muammo bo'lib qolmoqda. Gelmintozlar bilan kasallangan aholining qisqa vaqtda barcha darajalardan o’tishi hatto nogironlikka olib kelishi ushbu kasalliklar guruhining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilaydi. Gelmint infektsiyalariga qarshi kurashda muvaffaqiyatga kompleks yo'l bilan, jumladan, nospetsifik profilaktika choralari, endemik o'choqlarda ham individual, ham ommaviy degelmintizatsiya qilish imkonini beruvchi yuqori samarali va arzon antigelmintik preparatlarni amaliyotga joriy etish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dorovskix, G.N. Dorovskix G.N., Stepanov V.G. Insonning yoshi bilan parazitlarning tarkibiy jamoalari tarkibidagi o'zgarishlar // Ekologiya. -2018 yil. - № 3. - S.227-232.
2. Kuropatenko, M.V. Bolalarda bronxial astma va parazitoz / M.V. Kuropatenko, L.A. Jelenina // Allergologiya. - 2019. - 2-son. - S.28-33.
3. Fayzullina, R.A. Bolalikdagi gelmintoz / R.A.Fayzullina, E.A.Samorodnova, V.M.Dobrokvashina // Amaliy. dori. -2019 yil. - № 3. - S.31-36.
4. Yangi va takrorlanuvchi parazitozlar. INFEKTSION va immunitet. - T.2, № 1-2. - 2012. - S.350-386.
5. Zayats, R.G. Umumiy va tibbiy parazitologiya asoslari: darslik / RG Zayats, IV Rachkovskaya, IA Karpov. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2002.-- 222 p.
6. Zaxarova, G.A. Noyob gelmintozlar bilan hozirgi vaziyat / G.A. Zaxarova, Yu.V. Nesterova, A.D. Bartkova // Salomatlik. Tibbiy ekologiya. - T.52, 2-3-son. - S.82-85.
7. Gelmintozlarning dinamikasi. Gelmintozalarning tuzilishi [Elektron. manba]. - Kirish rejimi: http://medicalplanet.su/180.html
8. Zaprudnov, A.M. Bolalardagi gelmintozlar: Amaliyot. shifokorlar uchun qo'llanma / A.M.Zaprudnov, S.I.Salnikova, L.N.Mazankova.125 b.
9. A comparison of the efficacy of single doses of albendazole, invermectin, and diethylcarbamazine alone or in combination against Ascaris and Trichuris spp / VYBelizario [et al.] // Bull. WHO, 2002. - Vol.80 (1). - P.35-42.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTROPOSENTRIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIC-TEMATIK GURUHLARI

Muzaffarova Farangiz Jo'raxon qizi
IIV Surxondaryo akademik litseyi katta o'qituvchisi
muzaffarova.farangiz1999@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5324-4162

Annotatsiya: Frazeologik birliklarni antroposentrizm nuqtai nazaridan tadqiq etish, insonning his-tuyg`ulari, emotiv-hissiyotlari singari xususiyatlarni tavsiflovchi frazeologik birliklarni lingvokulturologik o`rganish dolzarblik kasb etadi. Ingliz va o`zbek tillarida antropotsentrik frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari insonning ichki emotiv-hissiyoti va tashqi ko`rinishini xarakterlovchi quvonch, hayrat, qiziqish, hayajon, ajablanish, samimiyatlik, botirlik, dadillik, halollik, poklik, sodiqlik, aqllilik, zehnlilik, qat`iyatlilik singari emotsional kontseptli frazeologizmlar asosida batafsil semantik tavsifi yaratilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, antroposentrizm, ijobiy baho-munosabat, lingvomadaniyatshunoslik, konsept.

Bilamizki, tilimizning frazeologik tarkibi ko`pligi va rang-barangligi, turli xil ma`no ottenkalarini ifodalashi bilan xarakterlanadi, shu bilan birga emotsional-ekspressivlikka boy hamdir. Darhaqiqat, tilimizning frazeologik tarkibini kuzatsak, ularning ba`zilari biror narsa, hodisalarni, yoxud kishilar xarakterini atabgina qolmasdan, ayni paytda so`zlovchining shu hodisaga, xarakterga o`z bahosini, munosabatini ham bildiradi. Bu munosabatlar ijobiy yoki salbiy tarzda yuz beradi.

Masalan, tilimizdagi *dili-g`uli, dardi-bedavo, dami baland, og`zidan bol tomadi, aflotun miya, qo`y og`zidan cho`p olmagan, bir qamchi yo`rg`asi bor, ammamning buzog`i* kabi birliklar o`zlarining nominativ vazifasidan tashqari, anglatgan tushunchalarga nisbatan so`zlovchining ijobiy yoki salbiy emotsional-ekspressiv munosabatini anglatish, baholash xususiyatiga ham egadir.

Bag`ri keng, bahosi yo`q, qo`li ochiq, dili baland, og`zidan bol tomadi, labidan bol tomadi, yigitning sultoni, yigitning guli, musichadek beozor, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday, onasi o`pmagan, qaymog`i buzilmagan kabi ijobiy ma`no ottenkasiga ega bo`lgan; *damida osh pishmoq, dabdaba qilmoq, bino qo`ymoq, beti qattiq, beti yo`q, betga chopar, bekorchi xo`ja, bez bo`lib turmoq, bargida yurmoq, baloi nafs, alifni kaltak deya olmaslik, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otmoq, og`zing qani? desa, qulog`ini ko`rsatmoq, uchuga chiqqan, qo`li egri, erga ursa ko`kka sapchimoq, sirkasi suv ko`tarmaydi, tirnoq orasidan kir izlamoq, qildan qiyiq qidirmoq, er ostida ilon qimirlasa biladi, ilonning yog`ini sanagan, xudo urgan*

badbaxt, tili boshqa-dili boshqa, og`ziga kuchi etmagan, tili achchiq, yumshoq supurgi bo`lmoq, yakka maxov, xom kalla, to`nini teskari kiymoq, surpasidan sichqon xazar qiladi, egarlangan otday* kabi salbiy ma`no ottenkasiga ega bo`lgan frazeologizmlar o`zlarining nominativ funktsiyasidan tashqari, o`zlari ifodalayotgan tushunchaga nisbatan so`zlovchining salbiy subektiv bahosini ham ko`rsatib turadi. Masalan *sodda dil* birikmasi muayyan tushunchani neytral bildiradi. *Dali-g`uli yoki *bir qop yong`oq* birikmalari esa *sodda dil* frazeologizmi anglatgan tushunchani anglatishi bilan birga, bu tushunchalar belgilarining ortiq darajada ekanligini kuchli va obrazli ifodalaydi. Ayni paytda so`zlovchi predmetga loqayd qaramay, unga ortiq darajada ijobiy munosabatda ekanligini ham anglatadi. Bundagi *bir qop yong`oq* frazeologizmi *sodda dil* frazeologizmi anglatgan tushunchani anglatishi bilan birga, bu tushunchalar belgilarining ortiq darajada ekanligini kuchli va obrazli ifodalaydi. Ayni paytda so`zlovchi predmetga loqayd qaramay, unga ortiq darajada ijobiy munosabatda ekanligini ham anglatadi. Bundagi *bir qop yong`oq* frazeologizmi *sodda dil* tushunchasidan tashqari so`zlovchi tomonidan kuchli darajada ijobiy emotsional-ekspressiv baholanish elementiga ham ega.

Yigitning guli, yigitning sultoni, musichadek beozor, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday, qo`y og`zidan cho`p olmagan va shu kabi frazeologizmlar ham ijobiy munosabatni yuqorida aytilgan usulda ifodalaydi.

Xuddi shunday holatni salbiy munosabat bildiruvchi emotsional-ekspressiv frazeologizmlarda ham ko`rish mumkin. Masalan, *damida osh pishmoq* birikmasi o`ta dimoqdor kishiga bo`lgan kuchli va salbiy emotsional-ekspressiv munosabatni anglatsa, *bir qamchi yo`rg`asi bor* frazeologiyasi esa salbiy munosabatini anglatadi. *Ammamning buzog`i* birikmasi o`ta tortinchoq, loqayd kishiga bo`lgan salbiy emotsional-ekspressiv munosabat anglatadi. SHuni ham ta`kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan frazeologizmlar ayni bir paytda so`zlovchining predmetga, voqea-hodisaga u yoki bu tarzda bahosini ham anglatadi. Masalan, *og`zidan bol tomadi* birikmasi ijobiy emotsional-ekspressiv munosabat anglatishi bilan birga so`zlovchining shu predmetga bo`lgan kuchli ijobiy bahosini ham ifodalaydi. Yoki *baloi nafs* birikmasi o`ta ziqna, xasis kishiga munosabat bildirish bilan birga, unga baho ham beradi. Bu ko`p qirrali ma`nolar shu tipdagi frazeologizmlarning aslan tarkibida mavjud bo`ladi.

Ma`lumki, frazeologizmlar yaxlitligicha yoki komponentlaridan birining ko`chma ma`nosi, ya`ni metaforik asosiga qurilgan bo`ladi. Bu esa frazeologizmlarda yorqin emotsional-ekspressiv bo`yoqdorlikning yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Bilamizki, ma`noning predmetlar, voqea-hodisalar o`rtasidagi nisbiy o`xshashlik asosida ko`chishi metoforaning muhim belgisini tashkil etadi. Ayniqsa predmet va uning harakati nomlarining kishilarga nisbatan ishlatilish (hayvon nomlari, insonning tana a`zolarining nomlari, predmetlarning nomlari) so`zlovchining nutq obektiga nisbatan ma`lum sub`ektiv emotsional-ekspressiv baho munosabatini ifodalaydi.

Masalan, *musichai beozor* birikmasidagi toj ma`noli so`z *musicha* qushlar oilasiga tegishliligi ma`lum. Bu qush turi beozor va zararsizligi bilan xarakterlanadi. Musichaning bu xususiyati kishilarga nisbatan ko`chirilishi tufayli birikmada odamga xos bo`lgan yuvoshlik, zararsizlik kabi xislatlar obrazli, yorqin, ijobiy emotsional ma`no tarzda baholanadi.

Shunday holatni *ammamning buzog`i* birikmasida ham kuzatish mumkin. Toj ma`noli so`z hisoblangan buzoqga xos lallayish xususiyati kishilarga nisbatan ishlatish asosida birikmada obrazli, salbiy emotsional ma`no paydo bo`ladi.

Ayrim predmetlarning xususiyatlarini kishilarga ko`chirish hisobiga ham birikmalarda kishilarning u yoki bu yorqin, obrazli emotsional-ekspressiv baholovchi ma`nolar hosil bo`ladi. Masalan: *yumshoq supurgi* birikmasidagi *supurgi* har tomonga egiluvchanlik xususiyatiga ega. Bu xususiyat kishilarga nisbatan ishlatilishi asosida kishilardagi qat`iyatsizlik, ikkiyuzlamachilik kabi obrazli, emotsional-ekspressiv ma`noni ifodalash imkonini beradi.

Bir qop yong`oqday shaldiramoq* ko`ngilchan, ochiq ko`ngil, ko`nglida kiri yo`q, xushchaqchaq, samimiy kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bu frazeologizm obrazli o`xshatish asosiga qurilgan. Ma`lumki, yong`oq mevasi shaldirashi bilan xarakterlanadi, ayniqsa, bu holat qopga solganda ochiq-oydin yuz beradi. Kishilardagi ochiq ko`ngillik samimiylikni yong`oqdagi shu xususiyatga o`xshatish asosida yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Bu birikma tarkibida toj ma`noli so`z *yong`oq dir. Qolgan komponentlar esa shu so`z atrofiga birlashadi. Ammo frazeologizmlarning yana bir xususiyati shundaki, komponentlarining umumiy ma`nosi asosidan kelib chiqib ularning grammatik vazifasi aniqlanadi. Bu frazeologizm kishilarning sifat ko`rinishlarini ifoda etadi. SHu ma`noda bu frazeologizmni leksik-grammatik xususiyatiga ko`ra sifat frazeologizm hisoblanadi.

Tilimizdagi *bahosi yo`q, bag`ri keng* frazeologizmlari ham leksik-grammatik xususiyatiga ko`ra sifat frazeologizmlar hisoblanib, kishilarning sifat ko`rinishlarini va xarakterlarini ifodalaydi. *Bag`ri keng* frazeologizmi aqlli, farosatli, mulohaza qiluvchi, mehmondo`st, bosiq kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bu birikma obrazli o`xshatish asosiga qurilgan bo`lib, ma`noning ko`chma ma`noda ishlatilishi birikmada yorqin emotsional baho-munosabat ottenkasini keltirib chiqaradi. Leksik-grammatik xususiyatiga ko`ra sifat frazeologizmi sanaladi. Kishilardagi ijobiy xarakterni ifodalash uchun tilimizdagi *qo`li ochiq* frazeologizmi nutqda ko`p ishlatiladi. Leksik-grammatik xususiyatiga ko`ra sifat frazeologizm bo`lib, kishilardagi ijobiy xarakterni ifodalaydi.

Aqlli, bilimdon, farosatli kishilarning shu kabi ijobiy xarakterini ifodalash uchun tilimizda *aflotun miya* birikmasi keng miqyosida so`z ustalari tomonidan ishlatiladi. Ta`kidlaganimizdek, frazeologizmalar ma`lum ma`no taraqqiyotini kechiradi. Bu frazeologizmning kelib chiqishi, tarixiy shaxs, filosof va olim Aristotel nomi bilan

bog`lagan. Aristotel o`ta bilimdon, olim, filosof bo`lganligi ma`lum. Ana shu ijobiy xislat kishilarga nisbatan ishlatilishi asosida ushbu frazeologizm yuzaga kelgan.

Didi baland frazeologizmi esa aqlli, farosatli, o`z ishiga mas`uliyat bilan qaraydigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Birikma leksik-grammatik tasnifiga ko`ra sifatlashgan, to`laligicha ko`chma ma`noda ishlatilishi asosida birikmada yorqin emotsional, baho-munosabat, obrazlilik ottenkalari yuzaga keladi. G`ulg`aki shuncha ishqiboz ekan, aftidan *didi o`tkir* yigitga o`xshaydi,- dedi keksa brigadir Ortiqov (R.Fayziy). Kiyinishidan nozik tabitaligi, *baland didliligi* ko`rinib turardi. (R.Fayziy).

Mard, jasur, qo`rqmas kishilarga nisbatan *yigitning sultoni* yoki *yigitning guli* birikmasi keng ishlatiladi. Bu frazeologizmlar qaratqich qaralmish modelida tuzilgan bo`lib, emotsional, baho-munosabat ottenkasiga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksik-grammatik xususiyatiga ko`ra otlashgandir.

Tilimizdagi *tog`ni ursa tolqon qiladigan* frazeologizmi ham mard, jasur, qo`rqmas kishilarga nisbatan ishlatilib, fikrning ta`sirchan, emotsional, obrazli bo`lishini ta`minlaydi. Leksik-grammatik tasnifiga ko`ra sifat frazeologizmdir.

Yuvosh, bezarar, ochiq ko`ngil kabi kishilarning xarakterini ifodalash uchun tilimizda *qo`y og`zidan cho`p olmagan* birikmasi keng qo`llaniladi. Bu birikma tarkibida emotsional-ekspressiv ottenka mavjud, chunki kishi xarakterini neytral ifodalamasdan, balki ob`ektga so`zlovchining sub`ektiv munosabatini, emotsional bahosini ham ifodalaydi. Ob`ektga bo`lgan munosabat yuksak darajada sodir bo`lganligini o`ta yuvoshlikni, o`ta beziyonlikni ham anglatadi.

Leksik-grammatik tasnifiga ko`ra sifat frazeologizm sanalgan *bir qoshiq suv bilan yutsa bo`lur* juda xushro`ylikni, suluvlikni, go`zallikni emotsional tarzda ifodalaydi. Bu birikmadan tashqari *onasi o`pmagan, qaymog`i buzilmagan* frazeologizmlari ham yuqorida qayd etilgan ma`nolarni emotsional-ekspressiv tarzda ifodalaydi. Ammo bu birikmalarning semantik tarkibida kinoya ham mavjud. Bu birikmalarning asl ma`nosi matnda kengroq reallashadi.

Ijobiy emotsional baho va munosabat bildiruvchi frazeologizmlar kishilardagi barcha ijobiy xarakterlarni, ularning sifat ko`rinishlarini emotsional-ekspressiv tarzda ifodalaydi. Kishilardagi samimiyatlik, botirlik, dadillik, halollik, poklik, sodiqlik, fidokorlik, aqllilik, zehnlilik, faollik, qat`iyatlilik kabi ijobiy fazilatlarni ifodalovchi frazeologizmlarni ifoda-maqsadiga ko`ra semantik-tematik qatlamlarga ajratib o`rganishga harakat qildik.

**A) Samimiyatlikni, ochiq ko`ngillikni ifodalovchi frazeologizmlar:** *yuragini ochmoq, yuragini yormoq, yuragini bo`shatmoq, yuragini to`kib solmoq, yuragini yorib gaplashmoq, dardini ochib solmoq, ochiq yuz bilan, gapning po`st kallasini aytmoq, dali-g`uli, odamning ustida o`lib bo`lmoq, yuragi keng, yuragida kiri yo`q, yuragi toza* va boshqalar.

B) Botirlik, dadillikni ifodalovchi frazeologizmlar: *o`limga tik qaramoq, ko`ksini qalqon qilmoq, o`zini qo`lga olmoq, tap tortmaslik, jon olib, jon bermoq, yuragida o`ti bor, ko`zida o`t yonmoq, jonini jabborga bermoq* va boshqalar.

V) Halollik, poklik, sodiqlikni ifodalovchi frazeologizmlar: *jonini tikmoq, jonini fido qilmoq, ko`ngli toza, dili toza, ochiq ko`ngil, jonini ayamaydigan, qo`y og`zidan cho`p olmagan, diyonati pok, vujudi pok, yuragi toza, imonati salomat* va boshqalar.

**G) Aqllilik, zehnlilik, qat`iyatlilikni ifodalovchi frazeologizmlar:** *aqli etadi, aflotun miya, mag`zini chaqmoq, etti o`lchab bir kesmoq, aqli butun, didi baland, bahosi yo`q, yuragi keng, og`zidan bol tomadi, shirin so`z, tili shirin, bir so`zli, kesib gapiradigan* va boshqalar.

Tilning lug`aviy tarkibi ob`ektiv borliqdagi barcha predmet va hodisalarni, jarayonlarni anglashga xizmat qiladi. Binobarin inson fikr almashish jarayonida borliqqa, atrofdagi narsalarga, voqea-hodisalarga o`z munosabatlarini ifodalashga intiladi. Fikr almashish jarayonida so`zlovchi tilda mavjud bo`lgan so`z yoki frazemalardan birini tanlab ishlatadi. Bu albatta, so`zlovchining u yoki bu fikrni qanday tarzda yoki qanday vaziyatda bayon qilishiga bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Asosiy adabiyotlar ro`yxati

1. Abdullaev Sh. Tarjima asarlarida frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o`zbekcha tarjimasi asosida): Filol.fan.nom. diss...avtoref. – T., 2006. –B.55.

2. Azimova I.A. O`zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertseptsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom.... dis. avtoref. – Toshkent: O`zDJTU, 2008. – 24 b.

3. Almamatova Sh. O`zbek tili frazemalarining komponent tahlili: Filol.fan. nomz.dis...avtoref. – T., 2008. – B.53.

4. Bozorboev K. O`zbek so`zlashuv nutqi frazeologizmlari: Filol.fan.nomz.diss...avtoref. –Samarqand,2000. – B.52.

5. Begmatov E. Antroponimlar – antropotsentrik tadqiq ob`ekti // O`zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 35-39.

6. Begmatov E. Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.: Fan, 1985. –200 b.

7. Boymirzaeva S.O`. O`zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. d-ri... dis. – Toshkent: O`zR FA TAI, 2010. – 320 b.

8. Vafoeva M. O`zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol. fan. nom.... dis. – T., 2009. - B.127.

II. Foydalanilgan lug`atlar ro`yxati

9. Raxmatullaev Sh. O`zbek tilining frazeologik lug`ati. – T., 1992,-B.375.;

10. Sodiqova M. Qisqacha ruscha-o`zbekcha barqaror iboralar lug`ati. – T.,1994,-B.228.;

11. Yo`ldoshev B., Bozorboev K. O`zbek tilining frazeologik lug`ati (so`zlik). – T.,1998,-B.327.;

12. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O`zbek tili o`xshatishlarining izohli lug`ati. – T., 2013,-B.278.

ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ И ОСНОВЫ ЭПИДЕМИОЛОГИИ

Кличев Бехзод Тургунбаевич
Преподаватель Сурхандарьинского академического лицея
Министерства Внутренних Дел

Аннотация: В статье поясняется, что в современной эпохе существуют ряд инфекционных заболеваний и что нам очень необходимо знать о них. Кроме того, любое инфекционное заболевание может стать причиной эпидемии, и в случае возникновения эпидемической ситуации возникнет ряд проблем.

Ключевые слова: эпидемия, инфекция, болезнь, вирус, иммунитет.

Введение

В сегодняшних сложных условиях нашей главной задачей должно стать обеспечение продолжения начатых в нашей стране комплексных реформ, тех смелых шагов, которые мы предпринимаем на пути построения нового Узбекистана. Необходимо обеспечить экономическую и политическую стабильность в условиях глобального кризиса, решить существующие местные проблемы, поддержать наших соотечественников, нуждающихся в помощи, реализовать мечты и надежды нашей молодежи.

Согласно анализам Всемирной организации здравоохранения, угроза пандемии может сохраняться еще долгое время. Итак, никто не может точно сказать, как долго продлятся испытания на заре человечества. По прогнозам ООН, Всемирной организации здравоохранения и влиятельных экспертов, пандемия может усилить такие проблемы, как кризисные ситуации, социальная напряженность и бедность во всем мире.

Литературный анализ и методология

Всем нам ясно, что социально-экономический ландшафт мира обязательно изменится после пандемии. Накопленный опыт показывает, что страны с сильной и эффективной системой управления смогут своевременно преодолеть угрозу пандемии и преодолеть ее. Это подтверждает и опыт Узбекистана по борьбе с пандемией.

Наш президент Ш.Мирзияев в Послании этого года сказал, что главным требованием в реализации этих очень важных задач является обеспечение эффективного сотрудничества между государственными и общественными институтами, повышение эффективности и качества в этом процессе.

В наше время существует ряд инфекционных заболеваний и нам очень важно знать о них. Вспышка любого инфекционного заболевания вызовет

эпидемию. Эпидемия – это широкое распространение инфекционных заболеваний в стране, регионе или стране. Число больных будет в 510 раз больше обычного.

Источниками эпизоотий особо опасных заболеваний являются наводнения, паводки, земляные работы без согласования с государственной ветеринарной службой, завозные животные, продукты питания, корма и другие средства, места скопления диких птиц, прилетающих из-за границы, где наблюдаются вспышки особо опасных заболеваний.

Обсуждение и результаты

Большинство заболеваний являются инфекционными. Их происхождение связано с попаданием живых возбудителей в организм человека и их размножением при определенных условиях, а также возвращением во внешнюю среду. В результате инфицированный человек становится источником заболевания, распространяя микроб (возбудитель) заболевания на других.

Инфекционные заболевания вызываются микроскопическими организмами, которые невозможно увидеть, а именно вирусами. Хотя у них очень простое строение, они дышат, питаются и размножаются, как и другие живые организмы.

Одной из характерных особенностей возбудителей инфекционных заболеваний является то, что они, попадая в организм и размножаясь, выделяют токсины (яды) и нарушают деятельность клеток тканей.

Каждый болезнетворный агент имеет свой внешний вид и вызывает «свое» заболевание. Разные возбудители вырабатывают разные токсины, которые по-разному действуют на организм и имеют свою «среду обитания» в организме человека, то есть для размножения болезнетворный микроб выбирает наиболее комфортную ткань. Эти характеристики, относящиеся к одному виду микробов, называются видовыми характеристиками.

Эти специфические характеристики возбудителей определяют наличие того или иного инфекционного заболевания. Например, потовая бактерия вызывает только потовый стоматит. Поэтому любое инфекционное заболевание обусловлено попаданием в организм живого специфического возбудителя и его размножением. Если бы не было препятствий для размножения вирусов, люди бы умирали от воздействия выделяемых ими токсинов. Однако организм человека обладает способностью бороться с микробами, то есть убивать их и нейтрализовать (обезвреживать) выделяемые ими яды. Эта способность представляет собой устойчивость или иммунитет к инфекционным заболеваниям. Различают врожденный и приобретенный виды иммунитета. Врожденный иммунитет – это устойчивость к заболеванию, которая

наследуется только у определенного вида, то есть животного или человека, что определяет устойчивость к определенным заболеваниям. Например, чумой свиней заражаются только свиньи. Человек и другие виды животных не подвержены этому заболеванию.

Приобретенный иммунитет формируется после заражения определенным инфекционным заболеванием или после специальной вакцинации.

Вакцинация – искусственное введение в организм человека убитых или ослабленных возбудителей инфекции или их обезвреженных токсинов (ядов).

После вакцинации возбудитель нейтрализуется антителами, вырабатываемыми против этого возбудителя в организме.

Вирусы могут передаваться от больного человека или животного здоровому человеком следующими путями:

1. *Контактный путь* - передача за счет попадания возбудителя из части тела в результате нахождения рядом с инфицированным человеком или использования предметов инфицированного человека (предметов, на которые попадала моча, кал и мокрота).

2. *Алиментарный путь* – передача заболевания через рот при употреблении в пищу продуктов, загрязненных фекалиями, мочой, мокротой и т.п.

3. *Воздушно-капельный путь* - заражение вследствие попадания микробов в организм через органы дыхания в виде капель, выделяющихся при чихании, кашле, разговоре больного человека.

4. *Трансмиссивный* – передача вследствие попадания микробов в организм в результате укуса клеща или другого насекомого.

Заключение

В заключение, население Республики должен не допускать распространения любого инфекционного заболевания, поскольку оно представляет серьезную угрозу для жизни и здоровья людей, окружающей среды и развития нашей страны. В результате образ жизни людей препятствует экономическому развитию страны. Поэтому, прежде всего, каждый должен соблюдать правила личной гигиены.

Использованная литература:

1. А.Б. Белов, П.И. Огарков, Наш взгляд на теорию эпидемического процесса, Эпидемиология и инфекционные болезни, 2005, С. 51-55.

2. В.В. Далматов, В.Л. Стасенко Современная эпидемиология: предмет, метод, цель, Эпидемиология и инфекционные болезни, 2008, С. 8-14

3. Л. Маджидов В. М., Инфекционные болезни, Т., 1996, Шовахобов Ш. Ш., Основы инфекционных болезней и эпидемиологии, Т., 1997.м.

4. Национальная энциклопедия Узбекистана, Государственное научное издательство, ТАШКЕНТ, 2013

5. О.Р.Юлдашев, Ш.Г.Джабборова, О.Т.Хасанова. Безопасность жизни. Учебник-Т.: «Ташкент-Экономика», 2014, 268 с.

ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ АҲИСКА ШЕВАСИГА ТАЪСИРИ

Носирхонов Муҳаммадхон
ТДИУ Тўрткўл факултети Бухгалтерия ҳисоби ва аудит
3 курс талабаси
mnosirxonov@gmail.com

Аннотация: Мақолада ўзбек тилининг Аҳиска шевасига таъсири унинг фонетик ва лексик хусусиятлари, шунингдек ўзбек тилининг бу шевага таъсири ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Ўғуз тиллари, сингармонизм, лаб гармонояси, унлилар, лексик, грамматик.

Аннотация: В статье рассматривается влияние узбекского языка на диалект ахыски, его фонетические и лексические особенности, а также влияние узбекского языка на этот диалект.

Ключевые слова: огузские языки, сингармония, гармония губ, гласные, лексика, грамматика.

Abstract: The article examines the influence of the Uzbek language on the Ahiski dialect, its phonetic and lexical features, as well as the influence of the Uzbek language on this dialect.

Key words: Oghuz languages, synharmony, lip harmony, vowels, lexicon, grammar.

Маълумки, Ўзбекистонда 130 дан ортиқ миллат вакиллари яшайди. Шулардан бири Аҳиска туркларидир. Аҳискаликлар Ўзбекистондан ташқари Қирғистон, Қозоғистон ва Озарбайжон республикаларида ҳам истиқомат қилишади.

Аҳиска (Месхети) турклари 1944 йили Ўрта Осиё ва Қозоғистонга сургун қилинган сургунгача улар Грузиянинг Адиген, Аспиндз, Ахалкалак, Ахалцих районларида яшашган. [Ф.Фарли, 1973: 1].

Маълумки, Собиқ шўро даврида кўпчилик миллат вакиллари кўп тилли бўлганидек, аҳискаликлар ҳам кўп тиллидир. Улар ўз она тилидан ташқари яна ўзбек ва рус тилларини ҳам яхши биладилар. Аҳиска турклари ўзбек тилини мукаммал билишади.

Маълумки, турк тили ҳам ўзбек тили каби туркий тиллар оиласига киради. Мазкур тиллар фонетик, лексик ва грамматик жиҳатдан бир-бирига яқин.

Ўзбекистондаги аҳискалар шеваси ҳозирга қадар тадқиқ этилган. Биз ушбу мақоламизда турк тилининг Аҳиска шевасини фонетик ва лексик хусусиятлари, шунингдек ўзбек тилининг бу шевага таъсири ҳақида фикр ёритамиз.

Аҳиска шевасининг кўплиги турк адабий тилининг унлилари билан бир хил. Лекин адабий тилда учрамайдиган, фақат Аҳиска шевасида учрайдиган унли товушлар ҳам бор. Биз ана шулар ҳақида фикр юритамиз.

ȁ бироз лабланган а товушининг бир тури. bɔş “бош”, bɔġ “боғ”, bɔluq “балиқ”, yɔmɔn “ёмон”, hȁlol “ҳалол”, yuḫɔri “соқори”, ɔġır “оғир”, bɔllɔr “болалар”. Бу товуш туркий тиллар оиласидан фақат ўзбек тилида мавжуд. Бизнингча, Аҳиска шевасига ўзбек тилидан ўзлашган.

ä қаттиқ, тил орқа а нинг юмшоғи, кент бир унли. Масалан, dȁva “туя”, ȁt “гўшт”, ȁv “уй”, ȁkmak “нон”, bȁrf “ ” kőpȁk “ит”, hȁlȁ “ҳозир”, rȁnk “ранг”, belȁ “бундай”, gȁlűr “келур”. “Юмшоқ а турк тилида йўқ”.[Erkilasun, 1990: 73]. Маълумки, ўзбек тилида “aka”, “ука” каби сўзлардаги каби юмшоқ ȁ кўп учрайди. Фикримизча, Аҳиска шевасида юмшоқ ȁ, ўзбек тилининг тасирида пайдо бўлган.

Маълумки, турк адабий тилида ўзбек адабий тилига нисбатан сингармонизм яхши сақланган. Лекин Аҳиска шевасида қаттиқлик-юмшоқлик, умуман сингармонизм турк адабий тилидаги каби мустаҳкам эмаслигини айтиш мумкин. Масалан, içmiyuruq, demɔqçı “демоқчи”, temizlamaḫ “тозаламоқ”. Олинма сўзларда: misliman, “мусулмон”. Ўзакда унли ўзгаришга асосланган қаттиклик-юмшоқлик мослиги: bene “менга”, sänȁ “сенга”, teref “тараф”. Лаб гармонияси ҳам мустакам эмас. Аслан лаб унлилари ҳам баъзан танглай унлиларига айланган: ḫɔtın>ḫātūn.

Аҳиска шевасида лаб гармониясининг бузилиш ҳоллари ҳам учрайди:

oluyır “бўлади”, oturuyer “ўтиради”, gȁlűr “келади”, ayluq “ойлик”, yastuq “ёстиқ”, bɔluq “балиқ”, тор, лабланган унлилар билан тугаган сўзларда ҳам бузилишни кузатиш мумкин: kőpi “кўпи”, bőri “бўри”, őzi “ўзи” каби.

Аҳиска шевасида қуйидаги фонетик ҳодисаларни кузатиш мумкин:

Жуфт унлилар: y, ğ ундошларининг тушиши натижасида жуфт унлилар бўлиши мумкин: gȁliir “келади”, yiirmi “йигирма”, diir “дейди”, gediir “кетади”, yatıır “ётади”, taşıır “ташийди”.

Кенг унлиларнинг торайиши: kimsi (адабий тилда:kimse), çiçen (адабий тилда çeçen).

Тор унлиларнинг кенгайиши: ő>ű: bőyűk “катта”, eyi “яхши”, degȁn “деган”.

Лабланмаган унлиларнинг лабланиши: u>ı: buyuḫ лабланган унлиларга айланиши: i>ű: Kőmir, Gűrcistan.

Унли тушиши: ўрта бўғиннинг урғусизлигидан ҳосил бўладиган унли тушиши: bȁllar.

Сўз охирида: газет, дўл.

Унли ортиши: Ўрус/урус, истакан/исталин, хайир.

Турк адабий тилида учрамайдиган ундошдир: ң ундоши. Бу ундошининг ўзбек тилидагидек тил орқа ва тил орқа вариатнлари бор. Юмшоқ унли ёнида юмшоқ ң, қаттиқ унли ёнида қаттиқ ң, келади. дўңуз.

Х ундоши. сирғалувчи, чуқур тил орқа ундошдир. Бу товуш х>ķ тарзида пайдо бўлган: чох, йох, бах, охуш, тырнах. Базан ҳ нинг х га айланиши кузатилади: хала.

Қ ундоши. чуқур тил орқа, жарангсиз товуш: буқа, қамиш.

Ундош ўзгаришлари: т>д: тайы, тал, тувар, турдуғуна, тойар.

Одатда турк адабий тилида мазкур сўзлар “т” эмас “д” билан бошланади. Умуман, бошқа туркий тилларда “т” билан бошланувчи сўзлар ўғуз тиллари ва шеваларида асосан “д” товуши билан бошланиши одатий ҳодиса.

Аммо, Аҳиска шевасида йуқорида келтирилганидек бунинг акси.

Ўғуз тилларида Аҳиска шевасидаги каби “д” товуши ўрнида “т” ишлатилишини Маҳмуд Кошғарий ҳам қайд этган. У шундай ёзади: “Туркий қабилаларнинг кўпгина сўзларидаги د ҳарфи ўғузлардаги ت бўлади. Масалан, ханжарни турклар بكدا бўгдä десалар, улар **بكتا** бўктä дейдилар. Жийдани турклар **چكدا** jігдä десалар, ўғузлар **چكتا** jіктä дейдилар. Шунга ўхшаш яна кўпгина сўзлар бор. Улар ҳаммаси шу жойдадир. Биз уларни ҳаммасини айтиб ўтирмадик. [М.Кошғарий. 1960: 67].

Қизиғи шундаки, М.Кошғарий мазкур жумлалардан олдин, сўз, ўғузларда ҳозирги ўғуз тилларидек бошқа туркий тиллардаги т ўрнида “д” ишлатилишини таъкидлаган. У ёзади; “Сўздаги **ت** ни ўғузлар ва улар яқинидагилар **د** га айлантирадилар, чунончи туяни **تقع** тəwəj десалар, ўғузлар” **روى** dəwəj дейдилар. Турклар тешикни **اوت** őт десалар, улар **اود** őд дейдилар” [М.Кошғарий. 1960: 67].

Демак, бундан минг йиллар олдин ўғузларда бўлган **د** -т ҳодисаси ҳозир ҳам баъзи ўғуз шевалари, жумладан Аҳиска шевасида сақланиб қолган.

Бундан бошқа яна қон-қариндошлик терминлари, инсон организми узвлари, касаллик, зология, сайёралар номларини билдирувчи терминлар бор. Бази қон-қариндошлик терминлари турк адабий тилида учрайдиган қариндошлик терминларидан фарқ қилади. Масалан, абла “янча”, нана “момо”, эми “амаки”, тайи “тоға”, ҳала “хола” кабилар.

Аҳиска шевасида архаизмлар ҳам учрайди: булус “кўйлак”, тавар “қўй”, тал “орқа” кабилар.

Мазкур шевадаги сўзларини қуйидаги гуруҳдаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

I Туркча сўзлар. II Бошқа тиллардан ўзлашган сўзлар:

1.Арабча сўзлар. 2. Форсча сўзлар. 3. Европа тилларидан олинган сўзлар. 4. Рус тилидан олинган сўзлар. 5. Ўзбек тилидан ўзлашган сўзлар. Аҳискалар ўзларининг шеваларидан ташқари рус ва ўзбек тилини мукаммал билишади.

Аҳискаликлар деярли саксон йилдан бери Ўзбекистонда яшайдилар. Мактабда асосан ўзбек тилида ўқишади. Ану шу омиллар туфайли ўзбек тили Аҳиска шевасига таъсир қилган. Ўзбек тилидан бу шевага анчагина сўзлар ўзлашган. Уларга мисол сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин: қишлоқ, қўпол, ёмон, яхшиламоқ, ишламак, бўри, уруш кабилар.

Аҳиска шеваси ўзбек ва рус тилларидан бошқа грузин, арман, грек, тилларидан ҳам оз-моз сўзлар ўзлаштирилган.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Фазлуоглу Фарли. Лексика речи турсукого населения Казахстана. Афторефарат. Алма-ата, 1973. – Б. 1.

2. Tűrkęnin ses bilgisi ile ilgili kurallar// Tűrk Dili ve kompozisyon bilgileri. Ankara, 1990, - S.73.

3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. Т.: - 1960. – Б. 67.

QRIM QARAG'AYI NIHOLLARINING KO'CHATXONA SHAROITIDA KASALLIGINING MAVSUMIY RIVOJLANISHI

Siddiqova Nodira Kamildjonovna
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annototsiya. Maqolada krim qarag'ayi yetishtirish maydonlarda nixollarda ildiz chirish kasalligi qo'zg'atuvchisi Fusarium zamburug'i va kasallikni mavsumiy rivojlanishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Iqlim, xarorat, vegetatsiya, omillar, aprel, zamburug', patogen, ildiz chirishi kasalligi, fuzarioz so'lishi, vertitsillez vilti, Fusarium.

Annotation. The article provides information on Fusarium, the causative agent of root rot disease in seedlings, and the seasonal development of the disease in Crimean pine growing areas.

Keywords. Climate, temperature, vegetation, factors, April, fungus, pathogen, root rot disease, fusarium wilt, verticillium wilt, Fusarium.

Andijon viloyati sharoitida ignabargli o'simliklar kasalliklarini rivojlanishini taxlil qilish natijasida kasalliklarning mavsumiy rivojlanishi nafaqat iqlim sharoitlariga balki o'simliklarning vegetatsiyasi va boshqa omillarga bog'lik ekanligi aniqlandi.

Nina bagrli o'simliklarda (vingir archasi va qrim qarag'ayi) ildiz chirish kasalligining mavsumiy rivojlanishi dinamikasini butun vegetatsiya (aprel oyidan noyabrgacha, har o'n kunda) davomida kuzatildi.

Ignabargli o'simliklarda Fusarium va ildiz chirishi kasalligi qo'zg'atuvchisi zamburug'li patogen hisoblanib, tuproqda ildizlarda rivojlanadi. Fusarium nafaqat qoraqarag'ay va qarag'aylarning nihol va ko'chatlari uchun, balki kasallik kattalar o'simliklari uchun ham xavfli bo'lib, so'lish (vilt) kasalligini namoyon qiladi, yosh nihollarning unib chiqqandan keyin 1-2 hafta o'tgach kasallik kuzatiladi, 2-3 oydan oshgan nihollar zararlasa, nihollar yotib qolmaydi, ular so'lib qoladi. tashqi kasallik alomatlaridan, daraxtlarning ignalari qizil tus olib, to'kilib ketadi. Kuzatishlarimizga ko'ra, shoxlarda ham so'lish belgilari aniqlandi. Shuni aytish mumkinki, ilzil bo'g'izi yaqin joylarda shoxlar so'ligan bo'lsa fuzarioz so'lishi, vertitsillez vilti o'simlikning yuqori va o'rta shoxlar quriganligi aniqlandi.

Andijon viloyati o'rmon xo'jaligi ko'chatxonada Qrim qarag'ay ko'chatlarining ildiz chirishining rivojlanishi aniqlangan. Qo'llaniladigan texnologiyaga ko'ra, ko'chatxonalardagi urug'lar aprel oyining boshida ochiq dalaga yeklgan va 1-2 hafta ichida unib chiqqan. Ma'lumotlardan ko'ra, ildiz chirishining maksimal rivojlanishi bahorda kuzatiladi. Shunday qilib, 2018 va 2019 yillarda maksimal foiz rivojlanish

aprel oyining oxiri - may oyining boshida qayd etilgan, keyin kasallikning namoyon bo‘lishi butunlay yo‘qolgan. Katta yoshdagi o‘simlik ko‘chatlarida vilt rivojlanishida biroz boshqacha qayd etildi.

Olingan ma’lumotlarni taxlil qilganda, ildiz chirish kasalligi nihollar unib chiqqandan aprel oyining birinchi va ikkinchi dekadalarda rivojlanishi kuzatildi. Shunda 2018 yil 11 aprel kuni ko‘rsatgichi 3.4 % tashkil etgan, oyning 3-dekadada 17,5 % ga ko‘tarilgan. May oyiga kelib kasallik rivojalanishi paysashi kuzatilgan. May oyining oxiri va yoz oylariga kelib kasallik rivojlanishi to‘xtagan, sababi ildiz chirish kasalligi ko‘p holda faqat nihol davrida o‘simliklarning ildiz qismini zararlaydi.

2019 yil kuzatuvlariga e’tibor berilganda, aprel oyining 2 chi va 3chi o‘n kunliklarida 4,2% dan 5,7 % gacha rivojlana boshlagan, may oyining birinchi o‘n kunligida 16,1% ga ko‘tarilib, oy oxirida 13,4 % ni tashkil yetgani aniqlangan. O‘simliklar rivojlanishi qarab kasallik rivojlanishi pasayib boradi va may oyining oxiri, iyun boshlariga kelib kasallik rivoji to‘xtagani aniqlandi.

Qrim qarag‘ayi 2-3 ko‘chatlarining ko‘chatxona sharoitida so‘lish kasalligining rivojlanishi dinamikasi 2018 yil olingan natijalarga ko‘ra, qrim qarag‘ayi kasalligi tufayli zararlanishi aprel oyida 3,4-5,9 %ni, may oyining birinchi, ikkinchi o‘n kunligida 15,1-17,5%ni, yoz oyilarida kasallik o‘simliklarda kasallikning rivoji pasayganligi aniqlandi. Bunda 7,7 % may oyining oxirida, iyun oyiga kelib 7,0 % dan 3,7% rivojlanishi pasaygan, yozning ikkinchi oyida zamburug‘ning rivojlanishi 2,3% tashkil qilgan bo‘lsa, oyning oxirida 1,0 %gacha pasayganligi aniqlangan. Kuzga kelib o‘simlikning vegetatsiyasi o‘zgarganligi sababli kasallik 6,0% rivojlanishi ko‘tarilganli kuzatilgan.

Xuddi shunday kuzatuvlarini 2019 yil ham olib borildi. Aprel oyida 2,3-3,1% ni, may oyining birinchi va ikkinchi o‘n kunligida 15,7-17,1% tashkil etib, eng yuqori foizni tashkil qilgan. May oyining oxirgi o‘n kunligiga kelib kasallik rivoji 9,5 % gacha pasayganligi kuzatildi. Yoz oylari boshlanishida 8,7 % ni ko‘rsatgan bo‘lsa, yozning oxirlarida 2,0 % gacha rivojlanish pasaygan. 2019 yil sentabr oyida 5,4 % ni tashkil etdi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Горленко М.В. Выживаемость в почве фитопатогенных грибов и бактерий в связи с их происхождением.–М.: МГУ, 1978.–С. 324.

2. Мирзаитова, М. К., Сиддикова, Н. К., & Абдуллаева, Г. Д. К. (2019). МОНИЛИОЗ НА КОСТОЧКОВЫХ ПЛОДОВЫХ КУЛЬТУРАХ. Вестник науки и образования, (24-3 (78)).

3. Dilshodkizi, A. G., Kamildjanovna, M. M., & Kamoldinovna, D. D. (2020, August). RESEARCH OF THE HAZARDOUS OF THE MELPHILE APHID ON

SOY IN THE CONDITIONS OF THE ANDIJAN REGION. In Archive of Conferences (Vol. 3, No. 3, pp. 41-45).

4. Kamiljanovna, S. N., Kamilov, S. G., & Kamiljanovna, M. M. (2020). FUSARIUM OXYSPORUM AND DEALING WITH THEM. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 3658-3662. Agriculture, (2-2).

5. Сиддикова, Н. К., Мирзаитова, М. К., & Абдуллаева, Г. Д. (2019). Грибные болезни хвойных. Вестник науки, 1(12), 257-259.

6. Абдуллаева, Г. Д. К., Мирзаитова, М. К., & Сиддикова, Н. К. (2019). Вредители шиповника. Вестник науки и образования, (24-3 (78)).

7. Сиддикова, Н. К., Нуралиев, Х. Х., & Абдуллаева, Г. Д. (2020). ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕРЫ БОРЬБЫ С ЛЕСНЫМИ БОЛЕЗНЯМИ. Life Sciences and Agriculture, (2-2).

8. Камилов, Ш. Г., & Сиддикова, Н. К. (2020). Защита сеянцев хвойных культур от корневой гнили. Защита и карантин растений, (5), 17-18.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДОМ» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ РУССКОГО ЯЗЫКА

Шерефетдинова Зарема Рустемовна
студент магистратуры 70111501 – Русский язык и литература
Кокандского ГПИ имени Мукими,
Преподаватель кафедры мировых языков
Кокандского Университета

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию представления концепта "Дом" в лингвокультурологическом аспекте изучения фразеологических единиц русского языка. В статье рассматриваются особенности ассоциативного и семантического поля данного концепта, а также его роль в формировании образа жизни и мышления народа.

Ключевые слова: концепт, лингвокультурология, фразеологическая единица, картина мира, культура, язык, аспект.

Annotation: This article is devoted to the study of the representation of the concept “Home” in the linguocultural aspect of the study of phraseological units of the Russian language. The article examines the features of the associative and semantic field of this concept, as well as its role in shaping the way of life and thinking of the people.

Key words: concept, linguoculturology, phraseological unit, picture of the world, culture, language, aspect.

Фразеология – это самостоятельный раздел лингвистики, изучающий устойчивые словосочетания, которые приобретают специфический смысл, отличный от лексического значения компонентов. Каждый язык имеет свои уникальные фразеологические единицы, которые часто отражают особенности культуры, традиций и менталитета народа. В рамках этой статьи мы рассмотрим концепт «дом» в лингвокультурологическом аспекте изучения фразеологии русского языка. Концепт «Дом» является универсальным концептом, он представляет собой одну из ключевых культурных констант.

Концепт "дом" в русском сознании отражается не только на уровне языка, но и на более глубинных культурных и философских уровнях. Русская культура традиционно ценит семейные ценности, приватность и защиту собственного пространства. Дом считается священным местом, где человек может укрыться от внешних неприятностей и наслаждаться спокойствием и уютом. Связь дома с семьей также отражает важность семейных уз и близости в русской культуре.

Дом является местом, где члены семьи могут быть вместе, поддерживать и укреплять свои отношения. Он символизирует единство и гармонию внутри семьи. В контексте русской культуры дом также имеет символический смысл, связанный с идеей связи с Вселенной. В русском фольклоре и мифологии дом часто представляется как место связи между миром живых и миром предков или духов. Это отражает глубокую духовную связь русского народа с природой и космосом. Исследование средств репрезентации концепта "дом" на различных языковых уровнях позволяет погрузиться в особенности русской культуры, ее отношение к пространству, семье и духовной сфере. Эти средства репрезентации отражают глубокие ценности, представления и убеждения, которые формируют сознание и существование русского человека.

Анализ семантического поля лексемы "дом" позволяет исследовать их вклад в концепт "дом" и выявить различные нюансы и оттенки этого понятия. В данном контексте можно отметить, что семантическое поле слова "дом" характеризуется наличием множества исключительных выражений и вариантов для описания данного концепта. В качестве примера, можно привести различные синонимы, такие как "берлога", "изба", "землянка", "логово", "очаг", "угол" и т.д., которые могут быть как нейтральными по стилистическому оттенку, так и маркированными. Среди маркированных синонимов можно выделить слова с позитивной эмоциональной оценкой, такие как "гнездо", "кров", "приют", "пристанище", "обитель", "убежище" и т.д., которые обычно связаны с представлениями о безопасном и защищенном пространстве. Также есть слова, имеющие отрицательную коннотацию, например "клетушка", "конура", "свинарник", "халупа" и т.д., а также слова с ассоциациями "ветхий", такие как "лачуга", "развалюха", "хижина", "халупа", "хибара" и т.д., или "временный", как "барак", "временка", "дача", "землянка", "зимовка", "сторожка" и т.д. Экспликаторы концепта "дом" с отрицательными оттенками связаны с неблагоустроенностью жилых помещений и отсутствием комфорта и уюта.

В лингвокультурологическом аспекте изучения фразеологии русского языка, концепт "дом" является одним из основных и наиболее распространенных концептов. Он отражает не только физический объект - здание, в котором живут люди, но и широкий спектр значений, связанных с родовым понятием "дом" в культуре и менталитете русского народа, традиции, обычаи и представления о жизни. Он объективируется в языке значительным количеством лексических и словообразовательных единиц, фразеологизмов и паремий, в семантике которых находят своё отражение релевантные для русскоязычной культуры характеристики данного концепта. В русском языке много фразеологических выражений, связанных с домом, которые отражают

его роль как символа уюта, комфорта, безопасности и семейного благополучия. Например, выражение "как дома" означает, что человек чувствует себя комфортно и свободно, словно находится в своем собственном доме. Это выражение отражает важность дома как места, где человек может быть самим собой и чувствовать себя защищенным. Фразеологическая единица "открытая дверь" указывает на гостеприимство и дружелюбие, как и в русском общении, так и в русских домах. Кроме того, фразеологические единицы, связанные с домом, могут отражать и социальные аспекты русской культуры. Например, выражение "закрыть двери" означает отказаться от общения с кем-либо или изолироваться от окружающего мира. Это выражение отражает русскую традицию сохранять свою личную жизнь и приватность, не позволяя посторонним вмешиваться в свои дела.

Исследование номинативного поля концепта "Дом" в русском языке показывает, что у этого понятия изначально имеется традиционная связь с жильем, семьей и прошлым. Пословицы и поговорки, связанные с этим концептом, подчеркивают важность достатка, спокойствия, любви и уважения в семье для обеспечения благополучия. Особую важность имеет умение рационально управлять хозяйством, что требует от человека сообразительности, активности и усилий. Правильное поведение приводит к тому, что дом становится "полной чашей", символизирующей освоенное пространство, где человек чувствует себя в безопасности. Не случайно существуют поговорки, которые говорят о том, что "В гостях хорошо, а дома лучше" и "Дома и стены помогают".

В английской культуре концепт "Дом" реализует статус владельца и в первую очередь выступает как предмет частной собственности. В этой культуре концепт "Дом" также неразрывно связан с концептом "Privacy" (личная, частная жизнь), поскольку дом обеспечивает защиту личной жизни от внешнего мира.

В испанской культуре значение концепта "Дом" включает в себя не только универсальные аспекты, такие как "строение", "семья", "хозяйство", "член семьи", "родина", "организация", но и "эмоциональный" и "характерный" аспекты. Анализ текстов испанской литературы показывает, что часто акцентируется на размере жилого строения и его освещении. Крупные светлые дома в испанской культуре обычно ассоциируются с положительными оценками. Также важным является наличие или отсутствие сада при доме. Следует отметить, что в испанской и русской культуре есть общая метафорическая модель, согласно которой дом ассоциируется с кораблем.

Таким образом, из вышесказанного можно сделать вывод, что универсальный концепт "Дом" является ценным ключом к пониманию

культуры, так как отражает разные стороны русской культуры, традиций, ценностей и отношений, особенности образа жизни и мышления народа.

Список использованных источников:

1. Фразеологический словарь современного русского литературного языка : в 2 т. ; под ред. А. Н. Тихонова ; сост. А. Е. Королькова, А. Г. Ломов, А. Н. Тихонов. -М.: Флинта : Наука, 2004. Т. 1-2. (ФССРЛЯ).
2. Валеева Д.Р. «Репрезентация концепта "дом" в русской языковой картине мира»: Автореф. дис… канд. фил. наук: 10.02.01. -Казань, 2010.
3. Слепцова, Е. В. Концепт дом в русской языковой картине мира и в тетралогии «Братья и сестры» Ф. А. Абрамова / Е. В. Слепцова: автореф.дис.. канд. филол. наук : 10.02.01 / Е. В. Слепцова. — Владивосток, 2009.
4. Слышкин, Г. Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г. Г. Слышкин. М.: Академия, 2000.
5. Свицова, А. А. Лингвокультурная доминанта «Дом — Родина — Чужбина» в русских и английских пословицах : автореф. дис.. канд. филол. наук : 10.02.19 / А. А. Свицова. Киров, 2005.
6. Маслова, В. А. Лингвокультурология : учеб. пособие / В. А. Маслова. -М.: Академия, 2001.
7. Телия В.Н. «Фразеология современного русского языка». Москва, 2002.
8. Липка С.Н. «Фразеология современного русского литературного языка». Саратов, 2009.

KOMPLEKS ANALIZDA BA'ZI KONFORM AKSLANTIRISHGA DOIR MISOLLAR

Xudaybergenova Gulrabo Komiljanovna
UrDU Fizika-matematika fakulteti "Matematik tahlil" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompleks analizning muhim va ko'p uchraydigan masalalaridan ba'zi sohalarning yuqori yarim tekislikka konform akslantirishga doir misollar yechimlari bilan keltirilgan.

Аннатация. В данной статье представлены некоторые важные и часто встречающиеся задачи комплексного анализа с примерами решения конформного отображения некоторых областей на верхнюю полуплоскость.


Annotation. This article presents some important and frequently encountered problems of complex analysis with examples of solving the conformal mapping of some domains onto the upper half-plane.

Kalit so'zlar: Akslantirish, konform, soha, yuqori yarim tekislik, to'gri chiziq, doira, aylana.

Ключевые слова. Отображение, конформ, областьб, верхняя полуплоскость, прямая линейн, окружность, круг.

Key words: Mapping, conformal, region, upper half-plane, straight line, circle, circle.

Konform akslantirish (lot. conformis — o'xshash) — bir sohani (sirtning bir bo'lagini yoki fazoning bir qismini) ikkinchi sohaga shunday o'zaro bir qiymatli akslantirishki, bunda birinchi sohaning soha chegarasida yotmaydigan uchi biror a alfa burchak ostida kesishuvi ixtiyoriy (har qanday) ikkita chizig'i ikkinchi sohaning (obrazning) shu a burchak ostida kesishuvchi ikkita chizig'iga o'tadi. Bunda cheksiz kichik figuralar o'zlariga o'xshash cheksiz kichik figuralarga almashinadi. Konform akslantirishdan xaritagrafiyada shar sirti bir qismini tekislikka tasvirlashda qadimdan foydalanib kelinadi. Konform akslantirish borasidagi ta'limot (kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasining bo'limlaridan biri) gidrodinamika va aeromexanika, elastiklik nazariyasi va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.



Quyida ba`zi murakkab komform akslantirishlarga doir misollarni ko'rib chiqamiz:

1-Masala. Ushbu $D = \{z \in J : |z| < 1, |z - i| > 1\}$ sohani yuqori yarim tekislikka konform akslantiruvchi

$w(z)$ funksiyani toping.

Yechish: Ushbu $E_1 = \{z \in C: |z| < 1\}, E_2 = \{z \in C: |z - i| > 1\}, D = E_1 \cap E_2$ belgilashlarni olaylik.

Ikkita $\partial E_1 = \{z \in J : |z| = 1\}$, $\partial E_2 = \{z \in J : |z - i| = 1\}$ aylanalarni kesishish nuqtalarini topamiz:

$$\begin{cases} |z| = 1 \\ |z - i| = 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x^2 + y^2 = 1 \\ x^2 + (y-1)^2 = 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{matrix} x^2 + y^2 = x^2 + (y-1)^2 \\ 2y = 1 \\ y = \frac{1}{2} \end{matrix} \qquad \begin{matrix} x^2 + \left(\frac{1}{2}\right)^2 = 1 \\ x = \pm\frac{\sqrt{3}}{2} \end{matrix} \qquad \begin{cases} z_1 = -\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2} \\ z_2 = \frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2} \end{cases}$$

w_1 akslantirishni shunday olaylikki z_1 nuqta 0 ga, z_2 esa cheksiz uzoqlashgan nuqtaga akslansin.

$$w_1 = \frac{z - z_1}{z - z_2} = \frac{z - \left(-\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2}\right)}{z - \left(\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2}\right)}$$

$z_1 = -i \in E_1$, $z_2 = 0 \in E_2$ nuqtalarini olaylik. Bu nuqatalar uchun ushbu


$$w_1(z_1) = w_1(-i) = \frac{-i - \left(-\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2}\right)}{-i - \left(\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2}\right)} = \frac{\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{3i}{2}}{-\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{3i}{2}} = \frac{3i - \sqrt{3}}{3i + \sqrt{3}} = \frac{\left(3i - \sqrt{3}\right)^2}{\left(3i + \sqrt{3}\right)\left(3i - \sqrt{3}\right)} = \frac{-9\left(-\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{3i}{2}\right)}{-9 - 3} =$$

$$= \frac{i - \sqrt{3}}{-12} = \frac{1}{2} + \frac{\sqrt{3}}{2}i$$

$$w_1(z_2) = w_1(0) = \frac{0 - \left(-\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2}\right)}{0 - \left(\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{i}{2}\right)} = \frac{i - \sqrt{3}}{i + \sqrt{3}} = -\frac{1}{2} + \frac{\sqrt{3}}{2}i$$


munosabatlar va ikkita aylana uchun ham $z_1 \in (E_1 \cap E_2) \to 0$ yani $w_1(z_1) = 0$ tengliklar o'rinli bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki $D = \{z \in J : |z| < 1, |z - i| > 1\}$ soha w_1 akslantirish yordamida quyidagi $D_1 = \left\{\frac{\pi}{3} < \arg W_1 < \frac{2\pi}{3}\right\}$ sohaga akslanadi.




$w_2 = \overset{-\frac{\pi}{3}}{\bullet} w_1$ akslantirish yordamida D_1 sohani

$D_2 = \left\{ W_2 \in \mathrm{J} : 0 < \arg w_2 < \frac{\pi}{3} \right\}$ sohaga akslantiramiz



$w = (w_2)^2$ darajali funksiya esa D_2 sohani $D = \{W \in \mathrm{J} : \mathrm{Im} W > 0\}$ sohaga akslantiradi




Demak

$w = (w_2)^3 = \left(e^{-\frac{\pi}{3}} w_1 \right)^3 = e^{-\pi i} w_1^{\,3} = e^{-i\pi} \left(\frac{2z + \sqrt{3} - i}{2z - \sqrt{3} - i} \right)^3$ ya'ni

$w = e^{\pi} \left(\frac{2z + \sqrt{3} - i}{2z - \sqrt{3} - i} \right)^3$ akslantirish

$D = \mathrm{E}_1 \cap \mathrm{E}_2 = \{ z \in \mathrm{J} : |z| < 1 \}$ sohani

$D^* = \{ w \in \mathrm{J} : \mathrm{Im} W > 0 \}$ yuqori yarim tekslikga akslantiruvchi konform akslantirishdir.




2-Masala. Ushbu $D = \{ z \ \mathrm{O} \ \mathrm{J} : |z + 1| > 1, |z - 2| > 2 \}$ sohani yuqori yarim tekislikka konform akslantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping.

Yechish: Ushbu

$E_1 = \{ z \in \mathrm{J} : |z+1| > 1 \}$, $E_2 = \{ z \in \mathrm{J} : |z-2| > 2 \}$, $D = E_1 \ \mathrm{I} \ E_2$ belgilashlarni olaylik.


Ikkita $\partial E_1 = \{ z \in \mathrm{J} : (z+1) = 1 \}$ $\partial E_2 = \{ z \in \mathrm{J} : |z-2| = 2 \}$ aylanalarni qaraylik. Bu aylanalar $z_1 = 0$ kesishadi.




$w_1 = \frac{1}{z - z_1}$ akslantirishlarni qaraymiz.


Bu akslantirish ∂E_1 aylananini $u_1 = -\frac{1}{2}$ to'gri chiziqqa ∂E_2 aylanani $u = \frac{1}{4}$ to'g'ri chiziqqa akslantiradi.

$w_2 = w_1 + \frac{1}{2}$ akslantirish $u_1 = -\frac{1}{2}$ to'g'ri chiziqni $u_2 = 0$ to'g'ri chiziqqa, $u_1 = \frac{1}{4}$ to'g'ri chiziqni $u_2 = \frac{3}{4}$ to'gri chiziqqa akslantiradi.



$w_3 = e^{i\frac{\pi}{2}} w_1$ akslantirish $u_2 = 0$ to'g'ri chiziqni $v_3 = 0$ to'g'ri chiziqqa, $u_2 = \frac{3}{4}$ to'g'ri chiziqni $v_3 = \frac{3}{4}$ to'g'ri chiziqqa akslantiradi. Ya'ni $w_3 = e^{i\frac{\pi}{2}} w_1$ akslantirish D_2 to'plamni $D_3 = \left\{ z \in \mathrm{J} : 0 < \operatorname{Im} w_3 < \frac{3}{4} \right\}$ to'plamga akslantiradi.





$w = e^{\frac{4\pi}{3} W_3}$ akslantirishni qaraylik. Bu akslantrish D_3 to'plamni $D^* = \{ z \in \mathrm{J} : \operatorname{Im} w > 0 \}$ ya'ni yuqori yarim tekislikka akslantiradi.

Demak $w = e^{\frac{4\pi}{3} W_3} = e^{\frac{4\pi i}{3} W_2} = e^{\frac{4\pi i}{3}} \left(\frac{1}{z} + \frac{1}{2} \right)$ ya'ni $w = e^{\frac{4\pi i}{3}} \left(\frac{1}{z} + \frac{1}{2} \right)$ akslantirish $D = \{ z \, \mathrm{O} \, \mathrm{J} : |z + 1| > 1, |z - 2| > 2 \}$ sohani $D^* = \{ z \in \mathrm{J} : \operatorname{Im} w > 0 \}$ yuqori yarim tekislikka konform akslantiradi.

Mustaqil ishlash uchun misollar.

1. $D=\{|z|>1,\ \mathrm{Im}\, z>0\}$ yarim doirani $G=\{|w|<1\}$ doiraga konform akslantiruvchi va quyidagi shartlarni qaanoatlantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping. $w(\frac{i}{2})=i,\ \ \arg w'(\frac{i}{2})=\frac{3\pi}{2}.$

2. $D=\{|z|>1,\ \mathrm{Im}\, z>0\}$ yarim doirani $G=\{|w|<1\}$ doiraga konform akslantiruvchi va quyidagi shartlarni qaanoatlantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping. $w(1)=1,\ \ w(-1)=-1,\ \ w(0)=\infty$

3. $|z|>1,\ |z-i|<1$ sohani yuqori yarim tekislikka konform akslantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping.

4. $|z|>2,\ |z-\sqrt{2}|<\sqrt{2}$ sohani yuqori yarim tekislikka konform akslantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping.

5. $D=\{z\in \mathrm{J}\ :\ |z-1|>1,\ \mathrm{Re}z>0\}$ sohani yuqori yarim tekislikka konform akslantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping.

6. $D=\{z\in \mathrm{J}\ :\ |z-i|>1,\ |z-2i|<2\}$ sohani yuqori yarim tekislikka konform akslantiruvchi $w(z)$ funksiyani toping.

7. $y=x$ va $y=x+b$ to‘g’ri chiziqlari orasidagi yo‘lakni yuqori yarim tekislikka konform akslantiring.

8. Jukovskiy funksiyasi yordamida quyidagi to‘plamlarning aksini toping.

$|z|=\frac{1}{2}$

9. Jukovskiy funksiyasi yordamida quyidagi to‘plamlarning aksini toping.

$\frac{\pi}{4}<\arg z<\frac{3\pi}{4}$

10. Jukovskiy funksiyasi yordamida quyidagi to‘plamlarning aksini toping.

$\frac{\pi}{4}<\arg z<\frac{3\pi}{4},\quad z\notin[0,i]$

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.Xudoyberganov, A.Vorisov, H.Mansurov "Kompleks analiz". Toshkent, "Universitet" 1998.

2. Б.В.Шабат "Введение в комплексный анализ". Москва, "НАУКА" 1985.

3. T.T.To‘ychiyev, J.K.Tishabayev, D.X.Djumabayev, A.M.Kitmanov "Kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi fanidan mustaqil ishlar". Toshkent, "Mumtoz so‘z" 2018.

4. Л.И.Волковыский, Г.Л.Лунц, И.Г.Араманович “Сборник задач по теории функций комплексного переменного” Учебник пособие. Физматлит, 2002. 312 с

РИТОРИКАДА НОТИҚҚА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

Феруза Якубова
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси

Нотиқлик мураккаб соҳа булиб, ҳам санъат сифатида, ҳам ижтимоий фанларнинг бир йуналиши сифатида ўрганилган. Мазкур мақолада мазкур соҳанинг ижтимоий йўналиши, хусусиятлари ҳамда лисоний аспекти моҳиятан ёритилган. Нотиқлик санъатининг ўзига хос лисоний бирликлари, омма қаршисида нутқ сўзлашда нималарга эътибор қаратиш лозимлиги, ўзини қандай тутишгача бўлган билимлар акс этган.

Калит сўзлар: таъсирчан нутқ, нотиқлик санъати, нотиқликнинг лисоний-услубий воситалари, нутқ сўзлаш илми.

REQUIREMENTS FOR A SPEAKER IN RHETORIC

Feruza Yakubova
University of Journalism and Mass Communication of Uzbekistan
Department of Uzbek Language and Literature Senior Lecturer

Oratory is a complex field that has been studied both as an art and as part of the social sciences. This article examines the social direction, features and linguistic aspect of this area. Specific linguistic units of public speaking are reflected in the knowledge of what to focus on when speaking publicly, how to behave.

Keywords: effective speech, public speaking, linguistic and methodological means of public speaking, the science of public speaking.

Кириш

Сўз – инсоннинг энг кучли қуроли, деган эди машҳур файласуф Аристотел. Инсондаги ҳеч бир нарса сўзчалик кучли таъсир кучига эга эмас. Сўз бўлганда ҳам ҳар қандай сўз эмас, балки бадиий, адабий тил меъёрларига амал қилган сўзлар уни маҳорат билан гўзал тарзда етказиб берувчи нотиқ тилида дунёдаги энг даҳшатли техник қуролдан ҳам катта кучга эга бўлади. Инсонларнинг фикрларини ўзгартириш, уларнинг қалбига осонликча йўл топиш учун нотиқ бўлиш кифоя. Жамият тараққиётида нотиқлик нутқига эҳтиёж кун сайин ошиб бормоқда. Бу мутахассисларни бошқалар билан бўладиган мулоқотида, иш фаолиятида, дам олишда, оила шароитида, маънавий-маърифий ишларни бажариш жараёнида ва шу каби ҳаётий шароитларда кўзга ташланади.

Нотиқлик санъати инсондан ҳаёт фаолиятининг муҳим жараёни сифатида нотиққа хос хусусиятларни билишни талаб қилиб бормоқда.

Нотиқлик санъати грекчада риторика (грек. рҳеторике — ўзбекчада нотиқлик санъати) деб аталади. Риторика — бу яхши нутқ ва сифатли матнни тайёрлаш, бошқаларга етказиш билан боғлиқ илмий фан ҳисобланади (Қодиров, 2019).

Ҳар ким ҳам омма олдида ишонч билан гапира олмайди. Баъзилар учун бу шунчаки иложсиз иш. Аммо, нутқингиз ишончли бўлиши, тингловчилар олдида ўзингизни дадил тутишингиз, муҳим маълумотларга ишонтириш ва тўғри тақдим эта олишингиз учун эса нотиқлик санъатини билишингиз керак.

Аксарият ҳолларда кўпчилигимиз иккиланамиз, фикр билдиришга ожизлик қиламиз. Бу эса ўзимизга нисбатан ишончсизликни намоён этади. Шунингдек, омма олдида ҳаяжон босиб, ўз нуқтаи назарини ифодалай олмайдиганлар бор. Уларда жўяли фикр, истиқболли таклифлар бўлса-да, одамлар ҳузурида баён этишга ожизлик қилишади. Дейл Карнеги ўз-ўзига ишонч ҳосил қилиш ва омма олдида сўзлашнинг турли йўлларини очиб берган.

Маъруза ёки оммавий нутқ анъанавий равишда жонли аудиторияга тўғридан-тўғри, юзма-юз гаплашиш ҳаракатини англатади. Омма олдида нутқ сўзлаш турли мақсадларда қўлланилади, лекин кўпинча ўқитиш, ишонтириш ёки ўйин-кулги аралашмасидир. Уларнинг ҳар бири бироз бошқача ёндашув ва усулларга асосланган.

Усуллар ва манбалар

Тўғри ва яхши ёзиш, чиройли гапириш учун мантиқий фикрлаш лозим. Нутқ маданиятини эгаллаган киши тўғри фикр юритиб, тингловчиларга таъсир эта олади. Санъатшунос Л.Хўжаевнинг фикрича, «Нутқ маданияти - фикр маданияти» демакдир, миллий ўзига хос, фикрлари аниқ, грамматик тўғри тузилган, мантиқий мунтазам ва бадиий ифодали нутқгина маданийдир.

Ҳозирги пайтда жаҳоннинг турли мамлакатлари, жумладан, Америка, Англия, Япония, Германия каби давлатлардаги олимларнинг эътиборида нутқ маданияти ва нотиқлик алоҳида ўринда туради. Бунга Пол. Л.Сопер, Эдгар И.Уиллис, Д. Карнеги, М. Беркли-Ален, Крис Стюард, Майк Уилкинсон кабиларнинг ишларини мисол килиб кўрсатиш мумкин [Карнеги,].

Бу масалани тилшуносликнинг мустақил соҳаси сифатида ўрганишга рус тилшунослигида 20-30 йилларда киришилди. В.А.Артёмов, В.В.Виноградов, К.И.Чуковский, Л.В.Успенский, Д.Э. Розенталь ва бошқаларнинг бу муаммога оид қатор тадқиқотлари юзага келади. 60-70 йилларда қатор олимларнинг, жумладан, Е.А.Адамов, Л.П.Гроссман, А.И.Ефимов, А.Ф.Кони, А.Ф.Лосев, Е.А. Ножин, А.Спиркин, Е.М.Ярославский кабиларнинг нотиқлик санъатига ижтимоий-лисоний нуқтаи назардан ёндошиш монографик тадқиқотларида

баён этилади, бу муаммонинг долзарб масалага айланиб бораётганлигидан далолат беради. Рус тилшуносларининг нутқ маданияти, нотиқлик санъатига оид тадқиқотлари Э.Бегматовнинг баъзи ишларида атрофлича таҳлил килинган.

Ўзбек тилшуносларидан Э. Бегматов, С.Иномхўжаев, Л.Хўжаева, Т.Қудратов, Х.Жалилов, Р.Қўнғуров, Ё.Тожиев, Б.Ўринбоев, А.Солиев, М.Мукаррамов ишларида нотиқликка оид баъзи изланишлар олиб борилган. Кейинчалик мустақиллик йилларида М.Исраил, Л.Тошмуҳамедова, С.Шомақсудова, Р.Жуманиёзов, М.Йўлдошев ва бошқа олимлар нотиқлик санъати, хусусан, оғзаки ва ёзма нутқ талаблари, нотиқ ва бошловчи ўртасидаги фарқли ҳамда ўхшаш жиҳатлар, нотиқ нутқининг ўзига хос хусусиятлари масалаларида илмий изланиш олиб боришди. Шунга қарамасдан, «нутқ маданияти ва нотиқлик, нотиклик санъати тушунчалари орасидаги умумийлик ва фарқли томонларни тадқиқ килиш, нотиқлик санъатида нутқий маданиятнинг ўрни ва ролини белгилаш» долзарб муаммолардан бири саналмоқда.

Натижалар

Риториканинг иккита асосий йўналиши мавжуд. Биринчиси мантиқий, унинг мақсади маълумотни ишонтириш ва самарали тақдим этишдир. Иккинчиси эса, адабий сўзларнинг (ибораларнинг) бойлиги ва гўзаллигини уларнинг таъсирчанлигидан устун қўяди (Пол, 1995).

Нутқ самарадорлигини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг 10 та усули қуйидагилардан иборат:

1.Дикциянгиз устида ишланг. Матндаги ҳар бир сўзни секин ва жойлашув билан аниқ талаффуз қилишга ҳаракат қилинг. Буни иложи борича тез-тез бажаринг ва жумлани бир нафасда такрорлашга ҳаракат қилинг.

2.Овоз чиқариб ўқишга вақт ажратинг. Биз матнни жимгина ўқиганимизда, биз фақат битта идрок органидан - кўришдан фойдаланамиз. Нутқ аппаратини ёқиш орқали биз эшитишимизни ҳам фаоллаштирамиз, бу бизга материални яхшироқ эслаб қолиш ва шу билан бирга нутқни машқ қилиш имконини беради.

3.Материални қайта айтиб беринг. Бир вақтнинг ўзида бир нечта саҳифаларни ўқишнинг ҳожати йўқ, 5-6 жумла етарли бўлади. Уларни ўқинг ва иложи борича сўзма-сўз такрорлашга ҳаракат қилинг, кейин эса фақат уларнинг маъносида фойдаланинг.

4.Оғзаки фикрлашни ривожлантириш. Ҳақиқий нотиқ ҳеч қачон ўзини стереотип ва монотон тарзда ифода этмайди. Бирорта фикрни ўйланг ва уни доимо янги усуллардан фойдаланган ҳолда турли йўллар билан ифодаланг.

5.Ҳикоянгизни қизиқарли ва ҳаёлий тарзда айтиб беринг. Ушбу маслаҳат ишбилармонлик мулоқотидан кўра кўпроқ кундалик мулоқотга тегишли.

Дўстларингиз ёки танишларингизга айтиб берадиган ҳикоянгиз, ҳатто ўзи жуда ҳаяжонли бўлмаса ҳам, тинглаш учун иложи борича қизиқарли бўлиши керак.

6.Расмий хабар ёзинг. Машқ қуйидагича: ҳар қандай мақоладан кичик парчани олинг, ундан калит сўзларни танланг ва уларга асосланиб, ўзингизнинг матнингизни бир нечта вариантларда ёзинг.

7.Фактларни далиллашни ўрганинг. Хоҳишингизга кўра фикрингиз бўлган бирор мавзуни танлаб, 5 дақиқа давомида нутқ тайёрланг. Нутқ самарали бўлиши учун сиз калит сўзлардан фойдаланишингиз, уларни синонимлар билан ўзгартиришингиз керак.

8.Хотирангизни машқ қилинг. Бу нотиқ учун жуда муҳим маҳоратдир. Бунинг учун жуда кўп машқлар мавжуд, сиз шеърларни, китоблардан парчаларни ёдлашингиз ёки (бу янада самарали ва фойдали) чет тилини ўрганишингиз мумкин.

9.Нутқни тайёрлашда танаффус қилинг. Агар сизда 2 кун вақт бўлса ва уни ёдлаш учун 2 соат керак бўлса, кунига 1 соат тайёргарлик кўрганингиз маъқул. Шундай қилиб, танаффус пайтида олинган маълумотлар онгсиз даражада яхшироқ бирлаштирилади.

10.Чалкашмаслик ва ҳеч нарсани унутмаслик учун нутқингиз режасини тузинг.

Жаҳон андозасидаги нутқ қуйидаги схемада кўринади:

Ахборот тўплаш;

Керакли маълумотларни танлаш ва уларни тизимлаштириш;

Материални ўйлаб кўриш;

Калит сўзлар рўйхатини тузиш;

Ахборотнинг асосий қатламининг стилистик дизайни;

Кириш ва хулоса қисмини ишлаб чиқиш;

Якуний таҳрирлаш;

Ёдлаш ва такрорлаш.

Муҳокама

Нутқ талаблари қуйидагилардан иборат:

Тақдимотнинг соддалиги ва равшанлиги (кўча ва ўта мураккаб иборалардан қочиш керак, шунингдек, тушунарсиз атамаларни ишлатмаслик керак).

Тушунтиришнинг изчиллиги ва равшанлиги.

Тақдим этилган далилларнинг ишончлилиги ва мантиқийлиги.

Мақсадли нутқ (маърузачи нима демоқчи эканлигини олдиндан билиши ва шунга мос равишда аргументларни танлаши керак).Биз кўпинча яккама-якка мулоқот қилишда кўз билан алоқа қилишнинг аҳамияти ҳақида гапирамиз,

лекин баъзида тингловчилар билан мулоқот қилишда кўз билан алоқа қилиш муҳим эмаслигини унутамиз.

Омма билан мулоқот етишмаслиги ҳам нутқнинг самарадорлигига путур етказади. Бунда бир неча жиҳатларга эътибор беришлари зарур.

Бир нуқтага. Бу нуқта қаерда бўлмасин, бутун нутқингиз давомида бир жойга қарасангиз, бу омманинг сиз ҳақидаги таассуротига ёмон таъсир қилади. Бир нуқтага қараган одам ғайритабиий ва ғалати кўринади. Бундан ташқари, бир нуқтага қараб, сиз ўзингизни саҳнада тўлиқ ҳаракат қилиш имкониятидан маҳрум қиласиз, бу ҳам муҳимдир.

Аудиториядан ташқарига. Кўпинча, маърузачилар бир нуқтага эътибор бермайдилар, балки деворга, шифтга ёки томошабинлар бўлмаган бошқа жойга қарашади. Бу, одатда, оммавий нутқдан қўрқиш билан боғлиқ. Агар сиз залдаги одамларнинг юзига эмас, балки бирон бир жойга қарасангиз, уни бажариш осонроқ бўлади. Аммо бу сизнинг нутқингиз самарадорлигига салбий таъсир қилади.

Биринчи қаторга. Олдинги қатор билан кўз билан алоқа қилганингизда, ўзингизни ҳамма учун чиқишдан кўра, бу одамлар гуруҳи билан мулоқот қилаётгандек ҳис қиласиз. Биринчи қатор буни ижобий баҳолайди, аммо қолган жамоатчилик буни билиши даргумон. Агар сиз нутқ қилаётган залдаги қаторлар кўтарилаётган бўлса, унда биринчи қаторга қараганингизда, охирги қатор бошингизнинг юқори қисмини томоша қилади. Бутун нутқ давомида уларни бунга маҳкум қилманг.

Қаерга қараш керак? Аудитория билан мулоқотингизда бир қатор кўз контактлари бўлиши лозим. Яъни, сизнинг нигоҳингиз бутун зални айланиб чиқади ва кўз билан қараш пайдо бўлганда, сиз бироз чўзишингиз керак. Нутқ давомида сиз кўп одамлар билан кўз алоқасини ўрнатасиз ва бу тингловчиларга ижобий таъсир қилади. Шунингдек, нотиқ нафақат ўз нутқини, балки новербал мулоқот тили ҳисобланмиш ўз жестларини ҳам диққат билан кузатиши керак. Чунки нотиқнинг аудитория билан муносабати самарадорлиги уларга ҳам боғлик. Новербал воситаларни онгли, ифодали ишлатиш қоидалари яхши муомала қоидалари билан ўхшаш: улар билан туғилмайди, улар ўрганилиб, ҳаётий меъёрга айланади. Нотиқ ҳис-туйғуларининг муҳим кўрсатгичи бу унинг юз ифодаси, мимикасидир (Апресян, 1977). Мимика эшитувчиларга нотиқни яхши тушуниш, қандай ҳиссиётларни бошдан кечираётганини англашга имкон беради. Мимика кўпгина туйғу ва кечинмаларни узата олади: хурсандчилик, ғам, нафрат, таажжуб, ҳайрат, иккиланиш. Юз ифодаси нутқ характерига мос келиши керак. Нотиқ юзидаги зерикарлилик ва совуққонлик оммага салбий таъсир кўрсатади. Нотиқ чеҳраси эшитувчиларга нисбатан чарақлаб туриши лозим. Мимика ўзгараётганини ва у керакли ҳис-туйғу

бераяптими, йўқми кузатиш керак. Шуни ёдда тутиш лозимки, «илҳомбахш» нотиқ мимикаси – аудитория ҳиссиётини жумбушга келтирувчи яхши воситадир.

Хулосалар

Нотиқлик санъатининг яхши эгаллаган инсон сўз қудратидан фойдаланиб, одамларни ўзига қарата оладиган ҳақиқий йўлбошчига айлана олади. Бу эса, юқорида айтганимиздек, осон иш эмас. Римнинг буюк нотиғи Цицерон шундай деган эди: “Сухандонлик шундай сифатки, унга осонликча эришиб бўлмайди ва у жуда кўп билим ва меҳнатдан туғилади” (Мухамеджанова, 2018). Бу сўзлар ҳеч қачон долзарблигини йўқотмайди. Нотиқлик назариясини билиш, одамлар психологиясини ўрганиш, нутқ сўзлашни доимий машқ қилиштва сўз устида жиддий ишлаш одамларга таъсир ўтказиш, уларнинг диққат-эътиборини жалб этиш имкониятини беради.

Ҳозирги кунда юқори билим, маданият ва маънавиятга эга кадрларнинг янги авлодини тайёрлашнинг ечимини топишда самарали натижаларга эришилди. Ёшларимизда нотиқлик санъати ва нутқ маданиятининг юксаклиги, сўзамоллик, жамоатчилик олдида нутқ сўзлай олиш каби хислатларни янада шакллантириш билан боғлиқ бўлган бир қатор вазифалар нутқ маданияти аспектларини турли тиллар доирасида чоғиштирма таҳлилини амалга ошириш лозимлигини кўрсатмоқда. Республикамизда ёшларга оид давлат сиёсатининг олиб борилиши, жумладан, «…руҳий ва интеллектуал ривожланган, мустақил фикрлайдиган, қатъий ҳаётий нуқтаи назарига эга бўлган ёшларни тарбиялаш»га қаратилган стратегик вазифалар ҳам нутқ маданияти мавзуси доирасида чуқур изланишлар олиб борилишини талаб қилмоқда. Дунё тилшунослигида ҳамда маънавий ва маданий йўналишда кишиларнинг бирдамликка интилиши, ўзга халқлар маданияти, тилини ўрганишга бўлган қизиқиши, ифодали ва таъсирчан нутқ сўзлай олишга бўлган иштиёқининг доимий равишда ўсиб бориши шу ўринда нотиқлик аспектини тадқиқ этишга бўлган эҳтиёжни юзага келтиради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Қодиров Р. Т. Нутқ таълимоти, унинг аҳамияти ва вазифалари / Р. Т. Кодиров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 21 (259). — С. 602-604. — URL: https://moluch.ru/archive/259/59583/ (дата обращения: 22.10.2023).

2. Арипова А. Нотиқлик нутқининг лисоний-услубий воситалари. Филол.фан.номз.дис. - Тошкент, 2002.

3. Д.Карнеги. Как вырабатывать уверенность в себе и влиять на людей, выступая публично.-Т.: Шарк, 1992.

4. Пол Л.Сопер. Основы искусства речи. -М.: Яхтсмен, 1995.
5. Апресян Г. Ораторское искусство.-М.: МГУ, 1977. -С.63.
6. Мухамеджанова Л. Нотиқлик ва нутқ маданияти бошқарув жараёнидаги муҳим воситаси сифатида. //Сўз санъати, 2018. №2. Б.45.

INDUSTRIAL ROBOTIC CONTROL SYSTEM USING HARDWARE AND SOFTWARE CO-VERIFICATION

Rimboyev Nodirbek Ilhomboyevich
Tashkent State Technical University
named after Islam Karimov

Abstract: As a general trend in industrial robotics, an increasing number of safety functions are being developed or re-engineered to be handled in software rather than by physical hardware such as safety relays or interlock circuits. This trend reinforces the importance of supplementing traditional, input-based testing and quality procedures which are widely used in industry today, with formal verification and model-checking methods. To this end, this paper focuses on a representative safety-critical system in an ABB industrial paint robot, namely the High-Voltage electrostatic Control system (HVC). The practical convergence of the high-voltage produced by the HVC, essential for safe operation, is formally verified using a novel and general co-verification framework where hardware and software models are related via platform mappings. This approach enables the pragmatic combination of highly diverse and specialised tools. The paper's main contribution includes details on how hardware abstraction and verification results can be transferred between tools in order to verify system-level safety properties. It is noteworthy that the HVC application considered in this paper has a rather generic form of a feedback controller. Hence, the co-verification framework and experiences reported here are also highly relevant for any cyber-physical system tracking a setpoint reference.

Keywords: Formal Verification, Co-Verification, Model Checking, High-Voltage Controller (HVC), Robots, Cyber-Physical Systems (CPS).

Introduction. The liberation of industrial robots from traditional metal cages and steadily increasing number of co-bots working side by side with humans are illustrative examples of a general trend in industrial robotics. In the wake of this, more and more safety-critical functions are now being developed to be handled by software and/or firmware components instead of hardware safety relays or interlock circuits. Modern industrial robots are heavily dependent on software-implemented safety signals to monitor and control various critical subsystems such as current/voltage supervision and emergency stop or short circuit interrupts. This trend brings several distinctive advantages such as cost-reduction and increased flexibility. Nevertheless, it also introduces or reinforces negative side-effects, most notably in the form of higher system complexity, vulnerability and dependability

Related Work. The survey on safety-critical robot systems in [1] identifies seven areas that need further focus and research in order to develop safe, dependable robotic systems. It is notable that at least five of these areas are relevant in the context of this paper, namely: adaptive safety monitoring, modeling and simulation for safety analysis, formal methods for verification, correct-by-construction control, and certification. A recent survey [17] maps and lists the current challenges, used formalisms, tools, approaches, as well as limitations when considering formal specification and verification of autonomous robotic systems.

Concluding Remarks and Future Work. Co-simulation, e.g., effectively combining various types of models and simulation tools in order to reach system-level results, is a rather well-known and established industrial practice that has received recent attention [61]. This paper advocates extension of the same school of thought and practice into the formal verification domain. Centering the focus around the paint robot HVC application, this paper guides the reader through an industrial use-case of co-verification where modelling and verification results from different tools are lifted into a unifying framework, thereby allowing the verification of system-level properties. In our case study, we have used RoboChart for modelling the software, and Simulink for hardware modelling. RoboChart models are typically of a higher abstraction level than those used for dynamic 30 simulation. Therefore, abstractly capturing the behaviour of low-level software, like that of the HVC, can be challenging, especially for practitioners who are more familiar with dynamic simulation. Another aspect of practical concern is finding the right level of abstraction to achieve computationally tractable results for model-checking. Simulink, on the other hand, is convenient for modelling and simulation of dynamics, but is limited in the ability to perform verification. Continuous blocks need to be discretized for use with SDV, and, on a more practical level, it is not always clear whether counter-example generation is feasible.

References:

1. B. Selic, S. Grard, Modeling and Analysis of Real-Time and Embedded Systems with UML and MARTE: Developing Cyber-Physical Systems, Morgan Kaufmann Publishers Inc., 2013.

2. N. Amálio, R. Payne, A. Cavalcanti, J. Woodcock, Checking SysML models for co-simulation, in: K. Ogata, M. Lawford, S. Liu (Eds.), Formal Methods and Software Engineering, Vol. 10009 of Lecture Notes in Computer Science, Springer, 2016, pp.

3. C. Bernardeschi, A. Domenici, P. Masci, A PVS-Simulink integrated environment for model-based analysis of cyberphysical systems, IEEE Transactions on Software Engineering 44 (6) (2018) 512–533. doi:10.1109/TSE.2017.2694423.

4. S. Owre, S. Rajan, J. M. Rushby, N. Shankar, M. K. Srivas, PVS: combining specification, proof checking, and model 32 checking, in: Computer Aided Verification, 8th International Conference, Vol. 1102 of Lecture Notes in Computer Science, Springer, 1996, pp. 411–414. doi:10.1007/3-540-61474-5_91.

5. M. Webster, D. G. Western, D. Araiza-Illan, C. Dixon, K. Eder, M. Fisher, A. G. Pipe, A corroborative approach to verification and validation of human-robot teams, Int. J. Robotics Res. 39 (1) (2020). doi:10.1177/0278364919883338.

6. M. Z. Kwiatkowska, G. Norman, D. Parker, PRISM: probabilistic symbolic model checker, in: T. Field, P. G. Harrison, J. T. Bradley, U. Harder (Eds.), Computer Performance Evaluation, Modelling Techniques and Tools 12th International Conference, Proceedings, Vol. 2324 of Lecture Notes in Computer Science, Springer, 2002, pp. 200–204.

7. C. A. R. Hoare, J. He, Unifying Theories of Programming, Prentice-Hall, 1998.

8. S. Foster, J. Baxter, A. Cavalcanti, J. Woodcock, F. Zeyda, Unifying semantic foundations for automated verification tools in Isabelle/UTP, Science of Computer Programming 197 (2020) 102510. doi:10.1016/j.scico.2020.102510.

9. J. Woodcock, A. Cavalcanti, S. Foster, A. Mota, K. Ye, Probabilistic semantics for RoboChart - A weakest completion approach, in: P. Ribeiro, A. Sampaio (Eds.), Unifying Theories of Programming - 7th International Symposium, UTP 2019, Dedicated to Tony Hoare on the Occasion of His 85th Birthday, Vol. 11885 of Lecture Notes in Computer Science, Springer, 2019, pp. 80–105. doi:10.1007/978-3-030-31038-7_5.

10. K. Ye, A. Cavalcanti, S. Foster, A. Miyazawa, J. Woodcock, Probabilistic modelling and verification using RoboChart and PRISM, Software and Systems Modeling (online) (October 2021). doi:10.1007/s10270-021-00916-8.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN UZUNLIK O'LCHOV BIRLIKLARI

Rustamova Nazokat Raxmataliyevna
Namangan shahri "AL – XORAZMIY" xalqaro iqtidorli bolalar maxsus maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik o'lchov birliklari haqida tushunchalarini shakillantirish maqsadida qisqacha ma'lumotlar, va yosh avlodning fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida uzunlik o'lchov birliklari ishtirok etgan misol hamda masalalarni yechilishi haqida namunalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Metr, millimetr, santimetr, kilometr, detsimetr, to'g'ri to'rtburchak, perimetr.

Insonlar uchun ma'lumki har bir fanda kattaliklar, miqdorlar yani o'lchov birliklari mavjud. Aynan hayotimiz davomida o'zimizga sezilmasligi mumkin lekin deyarli har kuni taqqoslash ya'ni chamalash orqali o'lchovlardan foydalanamiz. Bunga misol qilib chelakda turgan suvni chamalash orqali miqdorini aytishingiz, boradigan manzilingiz masofasi, yoki yo'l chetida ketayotgan ikki bolachaning qaysi birininig bo'yi balandroq ekanligini taqqoslashingiz mumkin bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Matematika fanida qo'llaniladigan asosiy miqdor uzunlik o'lchov birliklari haqida quydagicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Qadimda insonlar biror bir qisqaroq masofani qadamlar bilan, uzoqroq masofani esa quyoshning chiqishi hamda botishi vaqti yoki kunlarni sanash orqali hisoblashgan. Hozirgi kunga kelib esa har qanday uzunlik ya'ni masofani aniq bir qiymatda o'lchay olish imkoniyatlari mavjud. Masofani o'lchash uchun eng qisqa o'lchov birligi bu ″mm″ kabi ko'rinishda yoziladi ″millimetr″ deb o'qiladi. Keyingi millimetr o'lchov birligidan kattaroq bo'lgan masofa o'lchov birligi bu ″sm″ ko'rinishida yoziladi ″santimetr″ deb o'qiladi. Qolganlari ham o'zidan oldingi o'lchov birliklaridan qandaydir bir masofaga kattalashib boradi hamda ″dm″ ko'rinishda yozilib ″detsimetr″, ″m″ ko'rinishida yozilib ″metr″, ″km″ ko'rinishda yozilib esa ″kilometr″ deb o'qiladi. Quyidagi uzunlik o'lchov birliklari kichigi kattasidan qancha masofaga farq qilishi necha barobar kattaligi yoki kichikligi haqida quydagi ma'lumotlar orqali bilib olishingiz mumkin.

1santimetr = 10millimetr
1detsimetr = 10santimetr
1metr = 10detsimetr
1kilometr =1000 metr

Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqqan holda eng kichik masofa o’lchov birligimiz millimetr o’zidan kattaroq bo’lgan uzunlik o’lchov birligi santimetrdan 10 martta kichikligi, detsimetr esa santimetrdan 10 barobar kattaligi, metr masofa o’lchov birligidan 10 barobar kichikligini bilib olishimiz mumkin. Kichik masofa o’lchov birligidan katta masofa o’lchov birligiga o’tishni quydagi misol hamda masalalar orqali o’rganib olishingiz mumkin bo’ladi.

1.Misol

1) 8 sm necha mm ga teng?
2) 3 dm necha sm ga teng?
3) 7 m necha dm ga teng?
4) 4 km necha m ga teng?

Yechish

1) 8sm = 8×10mm = 80mm. Yuqorida ko’rsatilgan malumotga ko’ra sm masofa o’lchov birligimiz mm masofa o’lchov birligidan 10 barobar kattaligi bilib olgandik, huddi shu qoidaga asosan 1sm = 10mm ga shu sababli sm o’rniga 10mm ni qo’yib olamiz va 8 soniga ko’paytirish orqali sm o’lchov birligini mm o’lchov birligida ifodalaymiz.

2) 3dm = 3×10sm = 30sm. Ushbu misolimiz ham yuqoridagi misol kabi yechiladi. Bunda 1dm = 10sm bo’lganligi sababli dm o’lchov birligi o’rniga 10sm o’lchov birligini qo’yib olamiz.

3) 7m = 7×10dm = 70dm
4) 4km =4×1000m = 4000m

2.Misol

1) 15sm necha m ga teng?
2) 2dm necha m ga teng?
3) 150m necha km ga teng?
4) 2mm necha dm ga teng?

Yechish

1) 15×0,1m = 1,5m. Kichik uzunlik o’lchov birligidan kattasiga o’tish uchun sm o’lchov birligini m o’lchov birligiga o’zgartirib olamiz 1sm = 0,1m ko’rinishidagi ifodasi bilan misolni yechamiz.

2) 2dm = 2×0,1m = 0,2m
3) 150m = 150×0,001km = 0,15km
4) 2mm = 2×0,01dm = 0,02dm

1.Masala

Bir tomoni 8sm, ikkinchi tomoni esa birinchi tomonidan ikki marta kichik bo’lgan to’g’ri to’rtburchakning perimetrini toping?

Yechish

To’g’ri to’rtburchakning perimetri uning tomonlari yig’indisiga teng bo’lganligi sababli, to’g’ri to’rtburchakning tomonlari yig’indisini hisoblaymiz.

P = 2×8sm+2×4sm = 24sm.

2.Masala

Velosipedchi qishloqgacha 20km, qishloqdan keyin esa bosib o’tgan masofasidan 4 marta kam bo’lgan masofani bosib o’tdi. Velosipedchi hammasi bo’lib necha kilometr masofani bosib o’tgan.

Yechish

Demak velosipedchining qishloqgacha bosib o’tgan masofasi 20km, keyingisi esa 4 marta kam bo’lsa, keyingi masofani topish uchun qishloqgacha bo’lgan masofani 4 ga bo’lishimiz kerak bo’ladi. Demak 20km÷4 = 5km.

Velosipedchining umumiy bosib o’tgan yo’lini topish uchun avvalgi va keying bosib o’tgan yo’llarini yig’indisini topishimiz kerak bo’ladi.

Umumiy masofa = 20km+5km =25km.

Xulosa:

Quyidagi maqolada berilgan uzunlik o’chov birliklari haqidagi ma’lumotlarni o’zlashtirib olishingiz o’zingiz uchun juda ham muhim ahamiyatga ega. Matematik uzunlik o’lchov birliklaridan hayotingiz davomida doimiy foydalanishingiz mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Repyova Irina Vladimirovna. ‹‹Novda Edutainment›› Toshkent – 2023
2. B. Xaydarov. ‹‹Matematika›› huquq va jamiyat nashriyoti. Toshkent – 2020
3. https://packpdf.com
4. https://azkurs.org

MUSIQALI TEATR AKTYORLARINI TARBIYALASHDA ADABIY PARCHALARNING AHAMIYATI

Bobur Xusanov
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Musiqali teatr san'ati" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashda, adabiy,nasriy,musiqali parchalar qolaversa hikoya,qissa asosida ishlanib kechinma san'ati maktabinig egallanishida parchalarning naqadar ahamiyati yuksakligi haqida ma`lumot berilgan. Shuningdek aktyorning o'z ustida ishlashi va rol ustida ishlash haqida fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: musiqali teatr, parcha, kechinma, nasriy asar, so'z tug'ilishi, hatti-harakat mantig'i, ijodiy muhit, qochirim, muallif so'zi.

Аннотация: в данной статье представлена информация о роли вокального искусства, на какие особенноси следует обратить внимание в процессе исполнения песни, романтических арий, совмещая вокальную технику с национальным тоном. Также есть упражнения, необходимые для формирования голоса исполнителя, представлений о жизни и чувствах в песне.

Ключевые слова: музикальная драма, вокал, диафрагма, строй, интонация, дикция, артикуляция, восклицание, стоны.

Annotation: this article provides information on the role of vocal art, what features to pay attention to during the performance of songs, romances, arias, connecting the vocal technique with the national tone. There are also exercises necessary for the formation of the performer`s voice, attention to the accuracy of pronunciation, ideas about living and feeling in the song.

Key words: musical drama, vocals, diaphragm, tuning, intonation, diction, articulation, exclamation, moaning.

Ikkinchi kursning birinchi yarmida badiiy adabiyotlar bo'yicha pachalar ustida ishlashga o'tar ekanmiz, avvalo,bo'lajak aktyorlarni tarbiyalash jarayonini aniq uslubiy yonalishda davom ettirish, endigina yozgi ta'tildan qaytgan talabalarni yana ijodiy jarayonga kiritib olish uchun kursda ijodiy muhitni tiklab olish zarur. Ayniqsa ikkinchi kursdan boshlab talabalarning muallif tomonidan berilgan matnlarga duch kelishlarini inobatga olsak, bu o'ta muhim talablardan biridir.Birinchi kursda etyudlardagi kamso'zlilik talabaning tilidagi, talaffuz madaniyatidagi ba'zi nuqsonlarni ko'zga tashlanishiga yo'l qoymasada, ikkinchi kursda bu jihatlar yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Albatta qisqa muddat bo'lsa ham birinchi kursning oxirgi darslariga qaytish, o'tilganlarni takrorlash va albatta turli xil mashqlarni davom

ettirish orqali ikkinchi kurs materiallariga o‘tish uchun o‘ziga xos ko‘prik tashlanadi. Bunda etyudlar ustida ishlash jarayoniga e’tiborni kuchaytirgan ma’qul. Chunki ikkinchi kursda avvalo nasriy asarlar, undan keyin pyesalardan olingan parchalarga etyud asosida yondashilgan holda ijodiy jarayon davom ettiriladi.Ikkinchi kursning birinchi yarmida ko‘proq talabalar tomonidan tavsiya etilgan nasriy asarlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki talaba o‘ziga repertuar tanlash jarayonida ko‘plab nasriy asarlar hikoya, qissa, romanlarga murojaat qiladi. O‘qigan asaridan olgan ilk taassurotlar og‘ushida o‘ziga qaysi bir personaj yaqin bo‘lsa, qiziqroq tuyulsa, o‘zini o‘sha personajda tasavvur qilsa, o‘sha qahramonni sahnada gavdalantirish ishtiyoqi kuchli bo‘ladi.Shu jihatga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu talaba asardan nimanidir ola boshlaganini, asar uni o‘ziga jalb etganligini, personajlarning hatti-harakati talabani qizdira boshlaganni ko‘rsatuvchi omildir. Demak, talaba asar bilan mustaqil tanishayotgan paytdayoq uning asar to‘grisidagi, unda berilgan muhit va mazmun haqidagi dastlabki taassurotlari bor. Endi bu taassurotlarni kengaytirish,chuqurlashtirish, rivojlantirish o‘quv jarayonida amalga oshiriladigan ijodiy jarayonlarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ba’zan talaba o‘z imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yuborishi, tanlagan asaridagi muhit va mazmun unga og‘irlik qilishi, murakkab shart-sharoitlarni yengish qiyinchilik tug‘dirishini o‘ylab ko‘rmagan bo‘lishi mumkin.Bunday holler tez-tez uchrab turadi. Talaba bilan ishlayotganda sirli jarayon, aktyorlik san’atini egallashning gavhari bo‘lgan “sukunat hududi”da talaba qanday hatti-harakat qilayapti, so‘z tug‘ulishi arayonini tezlashtirib yubormayaptimi, yoki soxta ibora paydo bo‘lmayaptimi-bu jihatlarga jiddiy e’tibor berish zarur. Ustozlarimiz “Tomoshaviylikka shoshilmanglar,oldin so‘zning tabiiy tug‘ilishi, “haqiqiy kechinma” nima ekanligini tushunib olinglar,undan keyin har qancha “tomoshaviylik “ bo‘lsa qilaverasizlar. Eng muhimi, o‘shanda “tomoshaviylikni” ham kechinma san’ati bilan amalga oshirayotganingizni sezmay qolasiz. Komediyani jiddiy o‘ynash lozim, degani shu bo‘ladi.

Sahnada tug‘iladigan har bir so‘z aktyor uchun qadirli bo‘lmog‘i lozim”,- derdilar. Ikkinchi kursdagi nasriy asarlar asosida etyudlar ishlash paytida esa so‘z tug‘ulishi muallif tomonidan berilgan shart-sharoitdan kelib chiqib amalga oshadi. Dastlab talabalar muallif tomonidan qo‘yilgan mavzu-muammoga e’tibor qaratishlari zarur. Odatda adbiy material bilan tanishgandan so‘ng asarning g‘oyasi, uning ikki taraflama harakati va oliy maqsdni belgilashga harakat qiladilar. Ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun bularning hammasini aniqlash zarur. Ammo ikki taraflama harakat va oliy maqsadni belgilashda haddan tashqari shoshma-shosharlik kelgusi ishlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aksariyat asarlarning purma’no g‘oyasi darhol tushunib yetilmaydi. Buning uchun aktyorning erki va emosiyasi faol qatnashishi zarur, asarning tub mohiyatiga sinchikovlik bilan kirib borish kerak.Ikkinchi kursda ikki yo‘nalish-aktyorning o‘z ustida ishlashi va rol ustida

ishlash jarayoni birgalikda olib boriladi.Ular bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlab boradi.Agar talabalar birinchi kursda o‘zlariga tanish bo‘lgan yoki yaqin bo‘lgan shart-sharoitlarda hayotiy mantiq va izchillikni saqlagan holda hatti-harakat qilishgan bo‘lsa, endi ikkinchi kursda ular muallif tomonidan berilgan matnga duch kelishadi, o‘z personajining muallif tomonidan berilgan shart-sharoitidagi hatti-harakatlar, mantig‘iga amal qilishlari zarur bo‘ladi. Ikkinchi kursda ta’lim jarayoninig asosiy maqsadi talabani muallif tomonidan berilgan shart-sharoitida hatti- harakat qilishga o‘rgatishdan iborat. Biz yaxshi bilamizki, ikkinchi kursda oldimizga qo‘yilgan vazifa bo‘lajak aktyorlarni “Muallif bergan shart-sharoitda men” sharti asosida ishlashga o‘rgatishdir. Bu jarayonda ba’zan (ko‘proq ikkinchi kursning ikkinchi yarmida) shunday holatlat paydo bo‘ladiki, ikkinchi kursda bunday qilish mumkin emas, deya ularni chetga surib qo‘yib bo‘lmaydi. Bu holat talabada rolga intilish xususiyatlarining ko‘zga tashlanishi. Talaba hali endigina ikkinchi kursda ta’lim olayotgan bo‘lishiga qaramay, o‘zi bilib yoki bilmay, tabiiy ravishda “Muallif bergan shart-sharoitda mening rolim” sharti asosida ishlay boshlaydi. Uning bu ichki intilishi repetisiyalar jarayonida ko‘zga tashlanib boradi. Bunga nimalar sabab bo‘lishi mumkin? “Tabiat inson bolasiga odamlarga xos bo‘lgan barcha xislatlarni ato etadi. Lekin u ulgaygan muhit, uning qanday tarbiya olgani, qanday odamlar qurshovida o‘sganligi insonning ba’zi xislatlarini rivojlantirib, ba’zi xislatlar uning botinida qolib ketadi. Shunga qarab uning o‘ziga xos bo‘lgan xarakteri, xulq-atvori shakllanadi. Shuning uchun men yaxshi odamlarda,afsuski yomonlik, yomon odamlarda yaxshilik albatta bo‘lishiga ishonaman” Demak, insonda barcha xislat mavjud. Faqat uning xarakteri qanday tarbiya ko‘rganligiga bog‘liq ekan. Sahnada ana shu ovzidagi botiniy xislatlarni uyg‘ota olish, qayta kashf qilish va bunga tomoshabinni faqat iqtidorlilarga nasib etadi. Bu fikrlarga to‘xtalishimizga sabab kutilmaganda ba’zi talabaning “Muallif bergan shart-sharoitda mening rolim” sharti bilan ishlay boshlashidir. Demak, u iqtidorli, qobiliyatli,ijod qila olish xislati bor. Ikkinchi kursning birinchi yarmida talaba bilan dars mashg’ulatlarini olib borish uchun asosiy milliy adabiyot namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqichning birinchi yarmida talabalardan “Muallif bergan shart-sharoitda men” sharti bilan ishlash talab etiladi. Bu jarayonda milliy adabiyot namunalaridagi sharoitlar, muhit, turli vaziyatdagi insonning ovzini qanday tutishi, xulqi, fe’l atvori, urf-odatlar va boshqa jihatlar takabaga tanish, ayni paytda juda yaqin bo‘ladi. Bu jihatlar bo‘lajak aktyorlarni sahnada erkin ijod qila olish xislatlarini ta’minlaydi. Ular ma’lum bir vaziyatda nima qilishini, eng asosiysi qanday xarakat qilishni ozmi-ko‘pmi bilishadi. Muallif bergan sharoitda o‘zlarini tasavvur qilib ko‘rishlari oson kechadi. Ikkinchi kursning ikkinchi yarmida (ma’lum bir talabaning imkoniyatiga qarab) boshqa millatlar adabiyotiga, turli pyesalarga, hatto klassik asarlarga ham murojaat qilish mumkin. Musiqali teatr aktyorligi yo‘nalishi talabalari

ushbu davrga kelib albatta milliy yoki qardosh xalqlar musiqali drama va komediyalaridan olingan parchalar ustida ishlash orqali Stanislavskiy sistemasining usul va tizimlarini, dramatik teatr aktyorligi elementlarini musiqali teatr aktyorligi san’ati elementlari (musiqiy xatti-harakat, musiqiy takt ichida baholash, ariya va duetlar ijrosi, musiqiy tempo-ritmni his qilish va h.k.z.) bilan sintezlashga o‘rganishlari, bu hislatni muntazam ishlash yo‘li bilan yanada mustahkamlashlari va boyitishlari lozim. Bu jarayonga birinchi yarim yillikda ha sekin –asta e’tibor qaratiladi. Ikkinchi bosqichning birinchi yarmida murojaat qilinadigan nasriy asarlarda davr, shart-sharoit, muhit, u yerda ishtirok etayotgan personajlarning bir-biriga munosabati, maqsadi, xulqi, fe’l-atvori ichki kechinmalari, jismoniy va ruhiy holati, hatto baholash jarayonlari, intilishlari va bunga sabablar muallif tomonidan yozma tasvirlab berilgan bo‘ladi. Ana shu kabi ma’lumotlarga tayanib ish ko‘rayotgan talabaga muallif bergan shart-sharoitda o‘zinig yetakchi shart-sharoiti, maqsadi, bu yo‘ldagi ichki intilishlari, yetakchi hatti-harakatini oydinlashtirib olishi yengilroq kechadi. O‘quv yilining ikkinchi yarmida sahnaviy p’esalarga urg‘u berilishi talabaning tahlil qobiliyatini chuqurlashtiradi. Chunki p’esalarning yozilish uslubi bir qancha murakkabliklarni tug‘diradi. Muallif sahnaviy ko‘rinishni qisqacha ta’riflab, joy tasviri, vaqt yoki sahnaviy dekoratsiyaga qisman chizgilar beish bilan chegaralanadi.keyin prsonajlarning diologlariga ko‘chadi, ba’zida remarkalar yordamida personajlarning holatiga, harakatlariga, kirish-chiqishlariga qisqacha ta’rif beradi xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stanislavkiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.3.-M.: Isskustvo. 1965.
2. Inomxo‘jev S.Badiiy o‘qish asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1973.

TA’LIM VA TEATR

Orifjon Qudratov
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarini o‘qitishda kino va teatr san’atining tarixi, uning ahamiyati, san’at va madaniyat sohasida olib borilayotgan islohotlar va san’at va madaniyatga berilayotgan e’tibor haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: teatr, kino, spektakl, rejissor, obraz, xarakter, janr, truppa.

Аннотация: в данной статье рассказывается об истории кино и театрального искусства, его значении, реформах в сфере искусства и культуры и внимании, уделяемом искусству и культуре в воспитании студентов.

Ключевые слова: театр, кино, спектакль, режиссер, образ, персонаж, жанр, труппа.

Abstract: this article talks about the history of cinema and theater art, its importance, reforms in the field of art and culture and the attention paid to art and culture in the education of students.

Key words: theater, cinema, performance, director, image, character, genre, troupe.

Teatr san’ati - aktyorning omma oldidagi ijrosi jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san’atida ham boshqa san’atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Keyinchalik o‘zbek madaniyatining ilg‘or namoyandalari Furqat, Behbudiy, Avloniy va ko‘plab ijodkorlar rus, tatar va ozarbayjon teatr truppalari tomoshalariga qiziqish bilan qarab, mahalliy ziyolilarni ulardan o‘rganishga chaqirdilar. Shu tarzda yangi milliy teatr yaratish harakati yuzaga keldi. 1914-yil Samarqandva Toshkentda ilk marotaba “Padarkush” dramasini sahnalashtirish bilan yangi o‘zbek teatri o‘z faoliyatini boshlaydi. Ayniqsa, A.Avloniy rahbarligida “Turon” teatrining 1915-yil O‘zbekiston shaharlariga qilgan ijodiy safarining ahamiyati katta bo‘ldi. 1916-yil Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo‘qonda teatr tuzdi. Birin-ketin Andijon (1919), Xiva (1922), Buxoro (1922)da teatrlar tashkil qilindi. 1918-yildan Mannon Uyg‘ur “Turon” teatri (hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatri)ga rahbarlik qilib, uning professional teatrga aylanishida, repertuarini tuzish, ijro uslubini yaratishda muhim rol o‘ynadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va

san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, madaniyat va san’at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishda oqsoqlikka yo‘l qo‘yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san’at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarni to‘liq bajarish imkonini bermayapti.

Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish; madaniyat va san’at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati, moddiy-texnik bazasi holatini atroflicha o‘rganish, ularni ta’mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta’minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O‘zbek milliy raqs va xoreografiya san’atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san’at rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli san’atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko‘rik-tanlovlarda yuqori o‘rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash; yoshlarni san’at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o‘zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog‘lari hududida “Nuroniylar maskan”larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

“Seni kuylaymiz, zamondosh!”, “Debyut” kabi teatr san’ati ko‘rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish. “Bahor nafasi” xalqaro san’at

festivali, “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali, “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayllarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyohlarni keng jalb etish; madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash;

O‘zbekistonning yuksak madaniyati va san’atini xalqaro maydonda yanada keng targ‘ib etish, xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san’at namoyandalari keng qatnashishlarini ta’minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish.

So‘nggi yillarda yurtimizdagi teatr san’atimizning fidoiy vakillari jon kuydirayotgan bir vaqtda eng global muammoning ya’ni; “Odamlar teatrdan uzoqlashib ketishdi, spektakllarga nisbatan qiziqishlari qolmayapti…” kabi bir qator muammolar ustida bosh qotirayotganliklarining guvohi bo‘lamiz. Albatta haqiqiy teatr san’atining jon kuyarlari haqida so‘z ketayapti. Xo‘sh bu muammolarning sabablari nimada degan savollarga javoban bir qator omillarni juda ko‘p eshitamiz; Kino san’atining vujudga kelishi va rivojlanishi, axborot texnologioyasining jadal rivojlanib ketishi, internet olamidagi kundan kun ortib borayotgan yangiliklar, yoki teatr repertuarlaridagi sayoz asarlarning ko‘payishi va hokazo… Bu sabablar qanchalik to‘g’ri, qanchalik o‘zini oqlaydi?

Tashqaridan qaraganda bu sabablarning barchasi to‘g’ridek, hattoki bartaraf etib bo‘lmaydigan sabablardek tuyulishi mumkin, lekin masalaga tafakkur qilib chuqurroq mulohaza bilan qaraydigan bo‘lsak ayanchli muammolarni ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi navbatda yuqorida keltirganimiz bir qator muammolarga to‘xtalsak; Kino san'atining vujudga kelishi va rivojlanishi jahon miqyosida qaraydigan bo‘lsak, 1895-yil 28-dekabrda Parijda (ixtirochilar aka-uka Lyumyerlar) tomonidan yuzaga kelgan. Yurtimizda esa birinchi film 1897-yil "Eski jo`va" maydonida ko`rsatilgan. 1908-yildan boshlab Toshkent, Samarqand, Qo`qon va boshqa shaharlarda chet el filmlari namoyish etilgan. O`rta Osiyoda ko`rsatilgan kinolentalar, asosan, Amerika, Fransiyaning Sharq egzotikasi tasvirlangan filmlaridan iborat bo`lgan. O`zbek milliy kino san`ati 20-asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o`zbek kino operatori Xudoybergan Devonov o`zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o`zbek xalqining

hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan. Demak yurtimizga kino san'ati kirib kelganiga bir asrdan, oshgan xo‘sh unda teatr muammosi vujudga kelganiga qancha bo‘ldi?

20-asr oxirigacha teatr san'ati gullab yashnadi va eng ahamiyatlisi kino san'atining asosiy tayanchi ham teatr bo‘lib kelgan, shuni ham keltirib o‘tish joizki, kino san'ati eng rivojlangan davlatlarda ham teatr san'ati o‘z nufuzini yo‘qotmagan. Misol tariqasida, butun dunyoning markazlaridan biri, kino san’atining ham, Teatr san’atining ham eng gullagan go‘shalaridan biri bo‘lgan Buyuk Britaniyaning London shahrida “Teatr festivali” da ijodiy safarda bo‘lib qaytgan, “Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi professor o‘qituvchisi, Hamida Mahmudova bilan suhbatlashganimizda Londondagi taa’ssurotlari bilan o‘rtoqlashdilar; “Teatrlar zich joylashgan bir shaharcha bor ekan, to‘rt kilometrcha radiusda qirqqa yaqin teatr joylashgan (tasavvur qilayapsizmi to‘rt ming qadam kenglikda qirqqa yaqin teatr) biletlari judayam qimmat va birorta teatr yo‘qki o‘z muxlislari bilan to‘lib toshmagan”. Xo‘sh Buyuk Britaniyada kino san’ati rivojlanmaganmi? Har yili butun jahonda yaratilayotgan kinofilmlarning eng kuchli top ro‘yxatida doim ushbu mamlakat kinolarini ko‘ramiz. Demak, kino san'atining rivojlanishi teatr san'ati uchun muammo tug'dirdi degan qarashlar noto‘g’ri ekanligi ko‘rinib turibdi. Shunday ekan muammoni boshqa joydan qidirish zarur.

Yuqorida keltirganimiz sabablardan navbatdagisi; Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, internet olamining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarning kundan kun ortib borishi, bu sohaning rivojlanishi albatta kuchli ta'sir o‘tkazmoqda lekin savol tug'iladi, Teatrning o‘chog'i va hozirgi kunga qadar aslo nufuzini yo‘qotmay kelayotgan, doim muxlislar bilan limmo-lim to‘la Yevropada axborot texnologiyasi orqada qolganmi, yoki Amerikada internet rivojlanmaganmi? Korea Yaponiya Xitoy yoki boshqa rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlarda muammo bormi? aslo yo‘q ular qay darajada ekanligidan barchamiz xabardormiz.

Unda teatrlarda yaxshi spektakllar repertuarda yo‘q ekanda degan savol oldinga chiqishi tabiiy, bu sabab ham unchalik o‘zini oqlay olmaydi bunga birgina O‘zbek milliy akademik drama teatr repertuaridan o‘rin egallagan bir qator namoyishi ketayotgan spektakllardan misol keltiramiz; “Adolat fasli” U.Azim, “Jaloliddin Manguberdi” N.Eshonqul, “Arshin mol-olon” U.Gadjibekov, “O‘zgalar dardi” N.Abbosxon, “Iymon” I.Sulton, “Kunduzsiz kechalar” U.Azim… bu spektakllarning qaysi birini yuqorida aytganimiz yaxshi spektakllar qo‘yilmayapti degan iddaomizga isbot sifatida ko‘rsata olamiz hech birini chunki barchasi, dramaturgiya tarafdan ham, rejissura tomondan ham, ijro jihatdan ham juda yuqori darajada professional ishlangan asarlardir.

Unda asosiy muammo nimada? Muammo tomoshabinlarda, ma'naviyatda, dunyoqarashda. Ming afsuslar bo‘lsinki, xalqimizning aksariyat qismi haqiqiy san'at

qolib, yengil-yelpi, bachkana tomoshalarga o‘ch insonlarga aylanib bormoqda. Shu darajaga kelib qolish uchun biz qayerda xato qildik va xato qilishda davom etmoqdamiz? Muammo yana borib ta’limga tarbiyaga taqaladi. Atrofga e’tibor bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, hozirgi kunda aksariyat o‘smirlar kitob o‘qish eskilik sarqiti degan fikr bilan ulg’ayishmoqda, minglab yoshlar bir donA ham badiiy kitob o‘qimasdan turib, oliygohlarni tamomlab “Oliy ma’lumotli” degan darajaga erishayapti. Shu o‘rinda tadqiqotchilar qaysi davlat aholisi haftasiga necha soat kitob o‘qishga vaqt sarflashini o‘rganib chiqishdi. Natijalarga ko‘ra, eng taraqqiy etgan emas, so‘nggi yillarda tezlik bilan rivojlanayotgan davlatlar aholisi ko‘proq kitobxon bo‘lib chiqdi.

Hindistonliklar faqat kino ko‘radi, desak adashamiz. Ular dunyoda eng ko‘p kitob o‘qiydigan xalq hisoblanadi. 2022-yil avgust holatiga ko‘ra aholisi eng ko‘p kitob o‘qiydigan davlatlarning dastlabki 10 taligi quyidagicha:

Hindiston - haftasiga 10,7 soat, Tailand - haftasiga 9,4 soat, Xitoy - haftasiga 8 soat, Filippin - haftasiga 7,6 soat, Misr - haftasiga 7,5 soat,Chexiya - haftasiga 7,4 soat, Rossiya - haftasiga 7,1 soat, Shvetsiya – haftasiga 6,9 soat, Fransiya - haftasiga 6,9 soat, Vengriya - haftasiga 6,8 soat. Xo‘sh biz qancha kitob o‘qiyapmiz? Bundan keyin qanday qilib teatrga borish haqida fikr tug’ulishi mumkin? Qandaydir sabab bilan borib qolsada toqat qilaolmaydi chunki teatrda ikki gapining birida bachkana, uyat so‘zlardan iborat tomosha ko‘rsatilmaydi, teatr huddiki oyna misoli kabi bo‘ladi, insonni tafakkur qilishga, o‘ziga o‘zi savollar berishga undaydigan bir soha, ibrat oladigan maskandir, ha aynan, o‘zbek dramaturgiya asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganlaridek; “Teatr ibratxonadur”.

Buning yechimi nimada degan savol barchada tug’ulishi tabiiydir. Yechimmi yoki shu yechim uchun harakatmi, ta’limga, tarbiyaga, teatr tushunchasini olib kirish kerak, aslida olib kirish emas qaytarish kerak. Bizdan yoshlari ancha ulug’ ko‘plab insonlardan eshitganman; Biz maktabda o‘qiganimizda drama to‘garaklari bo‘lardi, pyesalarni sahnalashtirganmiz, rollarni ijro etganmiz va hokazo… Aytayotganimiz kishilar faqat shahar odamlari emas balki uzoq bir viloyatdagi qishloq odamlarining gaplari. Bu to‘garaklar nega ta’lim tizimidan yo‘q bo‘lib ketti? Men fikrlashimcha bu to‘garaklar faqat iqtisoslashgan ijod maktablarida emas balkim barcha maktablarda bo‘lishini shunda bolalar hech bo‘lmaganda teatr haqida ozgina bo‘lsada tasavvur bilan ulg’ayishardi. Bir qaraganda oddiy gapdek tuyuladi teatr haqida tasavvur bo‘lsa nima bo‘libdi. Qanday foydasi bor degan savol ham paydo bo‘lishi mumkin. Javob oddiy, teatrni tanigan inson ma’naviyatga itiladi, marifatga burkanadi. Bundan tashqari yoshlarni ko‘proq adabiyotga da’vat etish lozim, kerak bo‘lsa majburlash zarur.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davr insonga moddiy ehtiyojlarini qondirishdek birlamchi ehtiyojlar qatoriga suv va havodek zarur — ilmni ham

qo‘shdiki, shu tufayli u o‘zligini anglab, taraqqiyot sari dadil qadam qo‘ymoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, ummonlar qa’riga sho‘ng‘ish, koinotni zabt etish ham aynan ilmning mahsuli ekanini bugun hech kim inkor eta olmaydi.

Ta’lim, tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. A.Avloniyning bir asr oldin bildirgan ushbu fikrlari bugungi kunga qadar aktual hisoblanadi inson kamol topishi uchun, ta’lim, tarbiya eng katta vazifani bajaradi. Jamiyat rivoji ham bevosita ta’limga bog’liqdir, ilmli bo‘la turib ma’naviyatli bo‘lmasa xalq uchun millat uchun foydasi bo‘lmaydi, yuqorida bejizga ayanchli muammolar borligini ta’kidlamadim. Agar bugun, vaqtida e’tibor qaratilmasa, oldi olinmasa, ertaga “millat”, xalq, ma’naviyat kabi ulug’ tushunchalarning ustidan kuladigan olomon vujudga kelishi hech gap emas!...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunboyev S. Teatr tarixi. -T.: O‘qituvchi. 2007.
2. Yorbekov E., Muhammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. -T.: Fan ziyosi. 2020.

MILLIY MA'NAVIYATIMIZDA NIKOH VA OILAGA DOIR AXLOQIY QADRIYATLAR

Raximova Saida Durdiyevna
Toshkent davlat agrar universiteti assistenti

Annotatsiya: Quyidagi maqola orqali siz, milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga bog'liq bo'lgan axloqiy qadriyatlar, nikoh hamda oilaning qanday muqaddasligi, oilada tug'ilgan farzandlarga qanday axloqiy tarbiyalar berish kerakligi haqida tushunchalarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Oila, manaviyat, axloq, nikoh, qadriyat, axloqiy qadriyat, milliy, kamtarlik, hayolilik, vatanparvarlik, insoniylik, islomiy muhit, madaniyat, dalolatnoma, rostgo'ylik.

Insonlarning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirishda hamda yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri muhim ahamiyatga ega. Chunki insonning ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oilada ota onasining bag'rida shakllanib boradi. Oila bu nikoh orqali ikki jinsli insonlarning birga istiqomat qilishlari uchun tuzilgan kichik bir guruhdir. Oilalarda milliy qadryatlarimiz bo'yicha axloqiy tarbiyalar berib kelinmoqda. Ota-onaning oiladagi o'z farzandlariga berib boradigan axloqiy tarbiyalari bilan farzandlar kattalarni hurmat qilishni, kichiklarga izzatda bo'lishni o'rganadi. So'ngra olgan axloqiy tarbiyalari bilan hayotda o'z o'rniga ega bo'lib, xalqining fidoiy insonlaridan biriga aylanib boradi.

Oila kishilik jamiyatining muhim poydevoridir. U nikohdan boshlanadi. Nikoh erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, dinimiz bo'yicha islomiy ilmga ega bo'lgan domlalarning nikoh duosini o'qish, nikoh tugunlarini tugish kabi amallarini bajarish orqali yigit hamda qizni bir birlari uchun halol bo'lishiga aytiladi. Nikoh Alloh tomonidan bandalariga o'zlaridan halol, pokiza zurriyodlarini qoldirishligi uchun berilgan farzdir. Albatta yigit hamda qizni nikohlashgacha bo'lgan davrda, yigitning ota onalari yigitga oilani qanday boshqarishlikni, bo'lajak ayoliga qanday munosabatda bo'lishni, oilani moddiy tomonlama ta'minlash kerakligi haqida nasihat qilishi yoki ″qush uyasida ko'rganini qiladi″ iborasiga muvofiq, ota onaning o'zlari o'rnak bo'lishlari lozim. Bo'lajak kelinning ota onalari ham o'zlarining farzandiga yangi bir honadonga borganda, turmush o'rtog'ini hamda uning ota onasni hurmat qilishni xonadonni saranjom-sarishta tutishni, xushmuomala bo'lishni ta'kidlab, nasihatlar qilib borishi kerak bo'ladi.

Nikoh faqat diniy udumlarni qilishlik bilan emas, balki qonuniy xujjatlar bilan tasdiqlangandagina haqiqiy hisoblanadi. O'tmishda diniy rasm-rusumlarga binoan

nikoh tuzib kelingan, hozirgi kunda u kabi diniy nikohlar huquqiy ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Nikoh tuzishga oid munosabatlar O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan, Nikoh tuzishga majbur qilish qonun bilan ta’qiqlanadi.

Milliy qadiryatlarimiz bo’yicha qadimda sharq xalqlarida, shu jumladan o’zbeklarda nikohlanuvchi shaxslar roziligisiz to’ylar qilingan. Yigit va qizning ota onalari o’zaro kelishgan holda o’z farzandlarini nikohlab qo’yishgan degan fikrlar ko’p uchraydi. Vaholanki, ayrim oilalarda shu kabi nikohlanib yashab o’tgan hamda yashayotgan oilalar mavjud. Rivoyatlarga ko’ra payg’ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) uylariga sovchi kelganida qizlari rozi bo’lmasa kelgan sovchilarga rad javobini berib yuborganlar. Payg’ambarimizning qizlari bo’lmish Fotima onamizga, Xazrat Ali tomonidan sovchilar kelgandagina, Fotima onamiz roziligini bildiradi. Ushbu rivoyatdan shunday xulosa chiqarish mumkin bo’ladi, farzandlarni nikohlashda ularning roziliklarini olishlik musulmonlar uchun sunnat bo’lib qolgan ekan.

Oilaning mustahkam bo’lishi, oila a’zolarining axloqiylik darajasi va undagi muhit bilan uzviy bog’liq bo’ladi. Qaysi oilada sog’lom muhit bo’lsa bu kabi oilalarning kelajagi porloq bo’lib boraveradi. Sog’lom muhit deyilganda biz faqat oiladagi insonparvarlik, halollik, rostgo’ylik kabi xislatlarni emas, balki milliy qadriyatlar va an’analarga asoslangan zamonaviy urf-odatlar zamirida shakllangan tushunchalarni ham anglashimiz kerak bo’ladi. Aynan ana shu ikki xil turmush tarzi oila kelajagi bilan uzviy bog’liq. Eskicha milliy qadiryatlarimiz bo’yicha yashaydigan insonlarning ko’pchiliklari payg’ambarimiz sunnatiga muvofiq islomiy qonun qoidalar bilan hayot kechiradilar. O’z oilasida tavallud topgan farzandlari, hamda ulardan tug’ilgan avlodlarini ham islomiy bilim hamda tarbiyalar bilan voyaga yetkazadi. Albatta bunday tarbiya olgan yosh avlodlarda rostgo’ylik, kamtarlik, hayolilik, insoflilik, xushmuomalalik, vatanparvarlik kabi axloqiy xislatlar shakllanib boradi. Bunday oilalarda istiqomat qilib, tarbiya olayotgan yoshlar, ota onasini, aka ukasini, opa singlisini qadrlaydi, va oilaviy sharoitlarga moslashuvchan hamda oilaning qanday muqaddasligini qalban his qila oladigan bo’lib ulg’ayadi. Aksincha bo’lgan oilalarda esa islomiy bilim hamda tarbiya haqida ma’lumoti yoq bo’lgan ota onalar o’z farzandlarini tarbiya qilishda qiyinchiliklarga duch keladi yoki bola tarbiyasiga e’tiborsiz bo’ladi. Albatta bu kabi muhitda ulg’ayib voyaga yetgan yoshlarda ota onaga bo’ysunmaslik, ularni kamsitish, haqorat qilish yoki jamiyatga havf keltiradigan ishlar bilan mashg’ul bo’lishlik holatlari paydo bo’ladi.

Axloqiy qadriyatlarimiz ko’pincha din bilan bog’liqligi sir emas. Imonli insonlar muqaddas kitobdagi so’zlarga ishonchsizlik, etiborsizlik bilan qarashmaydi. Hamda unda berilgan qonun-qoidalar bilan yashashda davom etadi. Oila hayoti hech qachon sidirg’asiga shodu-hurramlik, baxt-saodatdan iborat bo’lmaydi. Turmushda ixtilof va

tashvishlar qiyinchilik va yetishmovchiliklar musibat va g’am-anduhlar keragicha uchraydi. Oila hotirjamligi uchun esa milliy, axloqiy tushunchalarni anglash eng muhim vazifa hisoblanadi. Shu hislatlar bilan sug’orilgan oilalardagina tinchlik, hotirjamlik, osoyishtalik hukm suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher ″Axloqshunoslik″. Toshkent: 2010.
2. M. L. Ashuraliyevna, O. D. Ortiqovna, O. F. Abdullayevna, M. G. Kamilovna. ″ Professional etika va etiket″ Toshkent: 2018
3. http://azkurs.org
4. https://cyberleninka.ru

TO‘TI YUSUPOVA IJODIDA MILLIY QAHRAMONLIK TIMSOLI

Eldor Xushvaqtov
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek teatri va kinosiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan ijodkor, O‘zbekiston xalq artisti To‘ti Yusupovaning ijod yo‘li haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: teatr, ijod, spektakl, rejissor, obraz, xarakter, janr, komediya, drama, tragediya.

Аннотация: в данной статье рассказывается о творческом пути Тоти Юсуповой – творца, внесшего большой вклад в узбекский театр и кино, народной артистки Узбекистана.

Ключевые слова: театр, творчество, спектакль, режиссёр, образ, персонаж, жанр, комедия, драма, трагедия.

Abstract: this article talks about the creative path of Toti Yusupova, a creator who made a great contribution to Uzbek theater and cinema, People's Artist of Uzbekistan.

Key words: theater, creativity, performance, director, image, character, genre, comedy, drama, tragedy.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ma’naviyat va ma’rifat masalalri jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shaxs kamolotiga erishish har qnaday millat va mamlakatning kelajagi uchun qo‘yilgan mustahkam poydevor ekani o‘zining amaliy tasdig‘ini topdi. Zero, “O‘zining tarixiy, madaniy va intelektual merosini asrab-avaylashga, boyitish va ko‘paytirishga, shuningdek, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadryatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e’tibor qaratmaydigan, har tomonlama uyg‘un rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z qarash va yondashuviga, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxsni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydigan har qanday davlat va jamiyat tarix va taraqqiyot yo‘lidan chetda qolib ketishga mahkum ekanini biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilib kelganmiz va yaxshi tasavvur etamiz”. [1. B-2]

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, madaniyat, man’aviyat, davlat, jamiyat va millat tarixida doimo ustuvor ahamiyat kasb etgan. Boshqacha aytganda, yoshlar ma’naviyatga, ta’lim-tarbiyasiga e’tibor aslida kelajakka e’tibor hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ham u o‘zining vorislik tamoyilini yo‘qotgani yo‘q.

Masalaga yanada aniqroq yondashadigan bo‘lsak, ma’naviyat va madaniyat mustaqillikni mustahkamlovchi, jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi, taraqqiyotga yo‘l ochuvchi omil va poydevordir.

O‘tgan yillar mobaynida jamiyatimizning barcha yo‘nalishlarida bo‘lgani kabi kino va teatr sohasida ham yoshlarni milliy qadriyatlar ruhiga hamohang kamol topishlari yo‘lida qator ezgu va hayrli ishlar amalga oshirildi.

Bular eng avvalo, teatr va kino aktyor, aktirisalarimiz tomonidan yaratilgan yoshlar qalbida vatanga muhabbat, ajdodlarga sadoqat tuyg‘ularini tarannum etuvchi barkamol obrazlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Sahna va ekranlarda milliy qahramonlik ruhida talqin etgan rollari bilan yoshlar tarbiyasi va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgan fidoiy kasb egalari anchagina. Shulardan biri O‘zbekiston xalq artisti To‘tixonim Yusupovadir.

To‘ti Yusupova 1936-yili Samarqand viloyati Turkman qishlog‘ida tug‘ilgan. U 1949-yilda Ushunskiy nomli xotin-qizlar bilim yurtiga o‘qishga kiradi. O‘qish davrida san’atga bo‘lgan qiziqish uni tark etmadi. O‘zini san’at olamida sinab ko‘rish maqsadida 1951-yili hali o‘qishni tugatmay turib Hamid Olimjon nomidagi musiqali drama teatriga boradi va u yerda faoliyat yurita boshlaydi. Teatrda ish boshlaganidan keyin u o‘zi uchun to‘g‘ri yo‘l tanlaganligini anglab yetadi.

Bu boradagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida 1953-yilda A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent tetr va rassomlik san’ati instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti) ning aktyorlik fakultetiga o‘qishga kirishga muvaffaq bo‘ladi. O‘qish jarayonida To‘ti Yusupova ustozlaridan aktyorlik san’atining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganadi.

1957 yil institutni tamomlagan To‘ti Yusupova yo‘llanma bilan Hamza nomidagi O‘zbek davlat (hozirgi O‘zbek Milliy) akademik drama teatriga ishga qabul qilinadi. Teatrda o‘z faoliyatini boshlagan aktirisamiz hozirgi kunga qadar shu teatrda faoliyat yuritib kelmoqda. Shu davr ichida u ko‘plab spektakllarda turli xil qiyofadagi qahramonlar obrazlarini yaratdi. To‘ti Yusupova ijro etgan rollarni ko‘rar ekanmiz uni bir qolibga moslashib qolmaganini, turli xil qahramonlarning ichki holatini, o‘y kechinmalarini ochib berishga intilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu borada ustozlar Aleksandr Ginzburg, Toshxo‘ja Xo‘yayevlar ko‘makdoshlar bo‘ldilar.

A.Roblesning “O‘limdan kuchli” asari asosida rejissyor T.Xo‘jayev sahnalashtirgan spektaklda aktrisa Ona rolini ijro etdi. U bu rolga shu qadar kirib bordiki, onaning ichki hissiyotlari, qalb tug‘yonlarini to‘laqonli ochib berishga intiladi.

Aktrisa ijrosida Xonzoda (Hamza “Boy ila xizmatchi”) o‘z maqsadi yo‘lida hech kimni ayamaydigan, uning yo‘liga to‘g‘anoq bo‘luvchilarni bir zumda yo‘q qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Hatto Gulbahorning farzandini o‘ldirayotganda u bu ishi uchun afsuslanmaydi. Boshqalar oldida o‘zini hech narsa bilmagandek vazmin tutadi.

Bu bilan unga faqat boyning puli kerakligini, boylik uchun u barcha ishga tayyorligini ko‘rishimiz mumkin. Uning so‘zlash ohangida, ko‘z qarashlarida ham bu holat sezilib turadi. Tomoshabin Xonzodani kuzatar ekan, uning naqadar razil kimsa ekanligidan hayratlanadi.

To‘ti Yusupova xalq orasida o‘zining Sotti (Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘aloni”) obrazi bilan yaxshi tanish. Ayollarga xos bo‘lgan qiziquvchanlik kabi hislatni aktrisamiz Sotti obrazi orqali yanada bo‘rtirib ko‘rsatadi.

Aktirsamiz “Abdullajon” filmdagi Xolida obrazi tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. U bu obraz orqali o‘zbek ayolining bolajonligini, uning sodda va samimiyligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Filmda uning so‘zlash ohangi, to‘poriligi kulgu uyg‘otadi. Shuningdek, “Ufq” asarida Jannat xola obrazida ona siymosini gavdalantiradi. Mazkur asarlarda o‘zbek ayolining qanday yuksak fazilatlar sohibi ekanligi o‘zining asl isbotini topadi.

To‘ti Yusupova o‘zbek san’atining rivoji uchun qilayotgan mehnatlari evaziga “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvoni bilan taqdirlandi. 2000-yilda esa “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlandi.

Aktirisa yaratgan rollarni tahlil qilar ekanmiz, biz ularning barchasi xarakterli ekanligini, qanday rol ijro etmasin u xoh komediya bo‘lsin, xoh drama, ijro etayotgan obrazining xarakterini izlashda uning o‘ziga xos jihatlarini, ichki psixologiyasini, dinamikasini ochishga va shu rol orqali tomoshabinni to‘g‘ri yo‘lga boshlashni, ularning to‘g‘ri xulosa chiqarishlarini istaydi.

Aktrisamiz tomnidan yaratilgan “Nodirabegim” asaridagi Uvaysiy obrazini chinakam milliy qahramonlik timsoli sifatida ko‘rishimiz mumkin. Asar bugungi o‘smirlik ostonasida turgan qizlar uchun chinakam tarbiya maktabini o‘taydi deb ayta olamiz.

Mazkur asar har bir ayol-qizning oilada, ko‘cha-ko‘yda, umuman olganda hayotda qanday bo‘lishligini juda mohirona tasvirlangan.

Bugun ayrim qizlarga e’tobor beradigan bo‘lsak, hayot sinovlari oldida matonatsiz, yengil-yelpi. Boshqacha qilib aytganda “zavqli hayot” tarafdori. Oilaga, do‘stlikka, yorga sadoqat, milliy qadriyat, ajdodlarga hurmat tuyg‘ulari yo‘q ayrimlarida. Misol uchun, aktyorlik san’atida olaylik. Ayrim tengdoshlarimiz mashhurlikni kelishgan qad-qomat bilan belgilaydi. Chinakam mashhurlik mehnat, mehnat va yana mehnat bila topiladi. Asar mana shunday hollarga barham berib, yoshlarni chinakam o‘zbek ayollariga xos va mos tarbiyalashlari bilan ham qimmatli.

Ayniqsa hozirgi “ommaviy madaniyat” avj olgan pallada milliy o‘zligimizga, milliy mentaletimizga putur yetkazadigan qusurlarni bartaraf etish har birimizning qilishimiz lozim bo‘lgan muhim vazifalarimizdan. Bu xususida hurmatli Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaydiki, “Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizm, g‘oyalarini

tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadryatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Mana shunday sharoitda har bir xalq o‘zligini saqlab qolishga harakat qilmasa, asrlar davomida shakllangan meros millat hayotidan asta-sekin o‘chib keta boshlaydi”.

Biz bugunning yoshlari hamisha, har onda tinimsiz intilish va izlanishda bo‘lishimiz kerak. Nega endi biz ming yillardan beri suyak surib kelgan an’ana va urf-odatlarimizni “chet el madaniyati”ga almashtirishimiz kerak.

Yaratilgan Uvaysiy obrazi mana shunday savollarni tahlil etishga ko‘maklashadi. Har bir bugungi qizlarini To‘maris, Barchinoy, Uvaysiy, Nodiradek bo‘lishga undaydi. Ularni ezgu va hayrli maqsadlari yo‘lida kuchiga-kuch, shijoatiga-shijoat qo‘shadi.

Kino san’ati bo‘lsinmi, teatr san’ati bo‘lsinmi uning ham yoshlar man’aviyatini shakllantirishda yetarlicha hissasi bor. To‘ti Yusupovaning milliy qahramolik ruhida yaratgan asarlari misolida aytish mumkinki, teatr san’ati, To‘ti Yusupova ijrolari bugungi yosh avlodni barkamol avlod shaxs bo‘lib unib-o‘sishlariga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi. // 2014. 16 may.
2. Usmonov J. “To‘ti Yusupova va teatr”, -Toshkent. 2011.

XATTI-HARAKAT KO‘RINISHLARI VA ZIGMUND FREYD NAZARIYASI

Fayoz Turg‘unboyev
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada teatr san’atida xatti-harakat ko‘rinishlari, xatti-harakat shakllari, bu shakllarning Zigmund Freyd nazariyasi asosidagi talqini xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: harakat, mexanik, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy, atom, aktyor, sahna, teatr.

Аннотация: в данной статье рассматриваются формы поведения в театральном искусстве, трактовка этих форм на основе теории Зигмунда Фрейда.

Ключевые слова: действие, механическое, физическое, химическое, биологическое, социальное, атом, актер, сцена, театр.

Abstract: this article deals with the forms of behavior in theater art, the interpretation of these forms based on Sigmund Freud's theory.

Key words: action, mechanical, physical, chemical, biological, social, atom, actor, stage, theater.

Harakat – borliqning ajralmas xususiyati bilan o‘zgaruvchanlikni ifodalovchi falsafiy kategoriya. Harakat tushunchasi imkoniyatlarning voqelikka aylanishini, ro‘y berayotgan hodisalarni, olamning beto‘xtov yangilanib borishini aks ettiradi. Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo‘ladi. [1.]

Harakat shakllari:

1. Mexanik harakat – jismlarning fazodagi o‘rni vaqt o‘tishi bilan boshqa jismlarga nisbatan o‘zgarishi;
2. Fizik harakat – elementar zarralar, atom yadrosi va atomning harakatdan tortib, olamning fundamental kuchlari, issiqlik, elektr va maydon harakatigacha, yorug‘likdan tortib koinotning gravitatsiya kuchigacha barchasi shu harakat shakliga bog‘liq;
3. Kimyoviy harakat – bunga molekulalar, ionlar harakati, moddaning muzlashi va kristallanish jarayonlari, kimyoviy reaksiyalar, sintez va parchalanish, yonish va oksidlanish kabi kimyoviy jarayonlar kiradi;
4. Biologik harakat – hayotiy jarayonlar. Rivojlanishga qarab biologik harakat bo‘lsa, inqirozga qarab geologik harakatlar mavjud. Chunki yer yuzida

jonli organizmlarning halok bo‘lishi oqibatida katta-katta materiklar, marjon orollar vujudga keladi;

5. Ijtimoiy harakat – jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo‘lishi. [1.]

Harakat – mavjudlik bo‘lsa, harakatsizlik – sokinlik, yo‘qlikka mos keladi. Shuning uchun ham teatr san’atida harakatning ko‘rinishi doimo faol va fe’l bilan ifodalanadi.

Aktyorlik san’atining asosi xatti-harakat hisoblanadi. Ya’ni, aktyor o‘z mahorati orqali zimmasiga yuklangan maqsad-vazifani xatti-harakatda bajaradi. Aktyor bir maqsadga yo‘naltirilgan, faol, organik harakat orqali obrazning ichki va tashqi jihatini, shu orqali esa asarning maqsad-g‘oyasini ifoda **e**tadi. Organik xatti-harakat sahnada aktyorning tabiiy, jonli, haqiqiy ijod qilishi demakdir. Aktyor sahnada obraz timsolida, haqiqatan ham, hayotdagidek ko‘rishi, eshitishi, his qilishi, fikrlashi, harakat qilishi lozim. U badiiy maqsad talablari va sahna hayotiga muvofiq tarzda to‘g‘ri qaror qabul qilishi, baholashi va shu asosda harakatni amalga oshirishi zarur. Hayotda xatti-harakat ichki talab va maqsad, real hayotiy vaziyatga muvofiq o‘z-o‘zidan sodir etilsa, sahnada inson harakati va uning sabablari rejissor, dramaturg va aktyor tomonidan avvaldan o‘ylangan, aniqlangan bo‘ladi. Natijada hayotiylik, samimiylik kamayadi va sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga aktyorning tabiiy munosabat bildirishi qiyin kechadi. Bu ayniqsa, bir rolning ko‘p marotaba qayta-qayta ijro etilishida yanada murakkab tus oladi. Sahnada organik harakatni amalga oshirish jarayoni tabiiy hayotdan begona – sahnada, ko‘p sonli tomoshabinlar ko‘z oldida aktyor uchun yanada qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun ham aktyor sahnada tomoshabinlar oldida, pyesa hayoti bilan yashashi, obraz xarakterini haqqoniy, ishonarli tarzda ifoda etmoq uchun sahna qonun-qoidalarini, talablarini avvaldan o‘rganishi, sahnada yashashga, ijod qilishga o‘zini avvaldan tayyorlab borishi kerak bo‘ladi. Aktyorlarning bu yo‘ldagi qiyinchiliklarni bosib o‘tishida ikki xil tushuncha bor. Kechinma san’atida xatti-harakat ma’lum maqsad asosidagi jonli organik jarayon bo‘lsa, taqlidiy san’atda esa tasviriy vositaning tashqi shaklidir. Ko‘plab yosh aktyorlar bu ikki yo‘l mashaqqatlarini adashtirib yuborishlari, tashqi shtampni mahorat va san’at deb qabul qilishlari mumkin. Lekin, bu o‘ta bilimsizlik natijasida kelib chiqadi. [2. B.34.]

Bo‘lajak aktyorlarga sahnaviy xatti-harakat bajarish ko‘nikmasini o‘rgatishda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutidagi “Sahna harakati va jismoniy madaniyat” kafedrasining o‘rni muhimdir. Bu borada institutimiz dotsenti Dilshod Ismoilov shunday deydi – “Nazarimda bo‘lajak talaba-aktyorlar harakatni o‘zlashtirishni asosan ikki yo‘nalishda olib borishadi. Birinchi va kengroq tarqalgan yo‘nalish bu o‘ziga berilgan vazifalarnigina takomillashtirish. Masalan,

raqs, gimnastika, plastika, akrobatika, sahna qilichbozligi va sahna harakati fanlarining o‘quv dasturlarida berilgan aniq ko‘rsatmalar. Bularni muntazam mashq qilish orqali talaba akrobatika va gimnastika harakatlarini mahorat bilan egallaydi, xanjar va yopinchiqlarni aniq ishlata oladi. Bu so‘zsiz foydali, lekin talaba aniq bir yo‘nalishdagi ko‘nikmaga o‘rgangan xolos, ammo u ancha oddiyroq harakatlarni bajarolmaydi, chunki uning fikrlashi va mushaklari faqat o‘rgatilib ko‘nikma hosil qilgan harakatlarni bajaradi. Demak, dars olishning bu metodikasi o‘quv mashg‘ulot chegarasidan nari o‘tmaydi. Ikkinchi yo‘nalishdagi aktyor-talabalar u yoki bu aniq mashg‘ulotlarni o‘zlashtiribgina qolmasdan, asosan kelajakda zarur bo‘lgan ijodiy fikrlash, tasavvur etish, o‘zgaruvchan sahna shart-sharoitida improvizatsiya salohiyati, vaqt va atrof muhitni tez baholash, yangi-yangi harakat, tempo-ritm, mizansahnalarni o‘rganishni o‘z vazifalari deb biladilar.” [3.] Aytilgan sifatlar aktyorga juda zarur, chunki turli xil rollar ustida ishlar ekan u boshqa sahna vaziyatlari talabiga binoan odatiy xatti-harakatlardan voz kechishiga to‘g‘ri keladi. Taklif etilayotgan u yoki bu sahna harakati sharoiti, mizansahnaning plastik yechimini mustaqil topish chorasini ko‘rishga majbur etadi, bu esa kompozitsiyani his etishni rivojlantiradi.

Organik xatti-harakat. Aktyor ijodiy jarayonga ichki tayyorgarlik, partnyorni his qilish, sahnada faol xatti-harakatni amalga oshirish uchun o‘zini ham ruhan, ham jismonan tayyorlashi lozim. Aktyor ana shu talablar asosida ijod qilishni o‘zlashtirishida bir qancha mashqlar ishlab chiqilgan. Jumladan: “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi professori Nasrillo Qobilovning aktyor sahnaga uzoqdan chopib kelish mashqi, yoki aksincha, aktyor sahnada turgan nuqtasida ichki hissiyotini qo‘zg‘ash, uzluksiz fikrlash oqimini o‘zlashtirishga qaratilgan mashqlar. O‘yin tarzida esa partnyorlar bir-birini qitiqlab, kuldirish orqali tanani uyg‘otish mashqi. Nutq borasida esa “Sahna nutqi” kafedrasi professori v.b. G.Xoliqulovaning aktyorni xatti-harakatda tez aytish mashqlari, yoki partnyorlarga koptok uzatish orqali munosabatga kirish mashqlari. Eng avvalo, bu o‘yin va mashqlar aktyorda sahna uchun kerakli bo‘lgan barcha fazilatlar: diqqat, ziyraklik, topqirlik, partnyorni, jamoani his etish kabilarni tarbiyalashga qaratilgan.

Bundan tashqari, mashqlar sahnada xatti-harakat qilishga xalaqit beruvchi, to‘sqinlik qiluvchi turli zararli sifatlar: uyatchanlik, hijolat tortish, ortiqcha hayajon, siqiqlikni yengishga, shu bilan birga, tezkorlik reaksiyasi, xatti-harakatiga ichki ishonch kabi hislatlarni tarbiyalashga ko‘mak berish uchun qaratilgan bo‘lishi kerak. Aytib o‘tilgan mashqlar qatoriga pedagog tomonidan oddiy, sodda talablarga asoslangan mashqlar ham kiritiladi. Masalan, bir daqiqa ichida xonada mavjud bo‘lgan o‘nta jihoz nomini aytish (shaharlar va mashhur insonlar nomi ham bo‘lishi mumkin), hayotda sodir bo‘lgan biror-bir kichik voqeani eng mayda

tafsilotlarigacha eslash, mushaklarni bo‘sh qo‘yib, bir daqiqa sukut saqlab, ham jismonan, ham ruhan erkin holatda tin olish kabilar. Bunday mashqlar, birinchi navbatda, aktyorlarga ijodiy erkinlik, topshirilgan vazifani tezlik bilan bajarish, o‘zini ham ruhan, ham jismonan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatga tayyorlash kabi sahna talablarini bajarishga o‘rgatadi. Ushbu mashqlar keyinchalik bundanda murakkabroq, qiyinroq ijodiy vazifani bajarish, unga kirishish uchun muhim hisoblanadi**.** [2. B.36-38.]

To‘qima asosidagi xatti-harakat. Sahnaviy xatti-harakat ma’lum bir muallifning ijod ilhomi natijasida yaratilgan badiiy to‘qima asosida sodir etiladi. Shuning uchun uni real hayot deb emas, balki xuddi hayotdagidek ishonarli qilib ijro etiluvchi jarayon deb atashga haqlimiz. Ma’lumki, kechinma san’ati talabiga ko‘ra aktyor sahnada rol, obraz vaziyat-sharoiti talabida hayotdagidek tabiiy harakat qilishi lozim. Biroq sahnada hayotiy, jonli, ishonarli harakat qilmoq taqlidiy san’atga, ya’ni “teatrlashtirilgan” harakatga qaraganda birmuncha qiyinroq. Chunki sahnada aktyor hayotdagidek o‘z tabiati, xohishiga ko‘ra emas, balki avvaldan dramaturg va rejissor tasavvur etgan mizansahna talabidan kelib chiqib ijod qilishi kerak. K.S.Stanislavskiy ta’biriga ko‘ra, mazkur kechinma san’ati eshigi sehrli “agarda” so‘zi bilan ochiladi. Ya’ni badiiy hayot haqiqiy real hayot deya tasavvur etilib, ijod qilinadi. Buning uchun aktyordan asarda berilgan shart-sharoit asosida hayotiy haqiqatdan kelib chiqib xatti-harakat qilish talab etiladi. Aktyorlik san’atidagi eng qiyin bosqich hayotiy mantiq asosida xatti-harakat qilib, tasavvur va badiiy to‘qimani ifoda etmoq, shu bilan birga, mazkur organik jarayonni kichik elementar bo‘g‘inigacha real hayotdagi inson harakati ko‘rinishida tasvir etishdan iborat. Buning uchun aktyor badiiy to‘qima asosida hayotiy xatti-harakatlar elementini o‘rganishi kerak. Xayoliy to‘qima asosida xatti-harakat qilishga bag‘ishlangan mashqlar turfa xil. Ularning barchasi “agarda” so‘zi asosida bajariladi. Biz ayni ishtirok etayotgan jarayonni “agarda” orqali boshqa sharoit, boshqa mamlakat va boshqa vaqtga ko‘chirsak, albatta, ayni voqeaning ahamiyat va mantig‘i o‘zgaradi, tabiiyki, ishtirokchining unga munosabati, uning asosiga qurilgan xatti-harakat ham o‘zgaradi. Misol uchun, pedagog-rejissor Munavvara Abdullayevaning “Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati” kitobidagi eng oddiy mashqlarni keltiramiz:

Pedagog talabaga “agarda” tishi og‘rib turgan yoki oyoq kiyimi siqayotgan bo‘lsa, og‘riqni yengish va atrofdagilarga bildirmaslik uchun qanday yo‘l tutishi mumkinligi haqida vazifa bersin. Xo‘sh, bunday jarayonda talaba bilan kechuvchi suhbat qanday tus oladi? Mashqning ahamiyati ana shu suhbat xarakterini o‘rganishdadir. Atrofdagi muhit-sharoit, albatta, kishining suhbati, o‘zini tutishiga ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Aktyor uchun biron-bir inson, obraz xatti-harakati,

xarakteri va u ishtirok etayotgan tashqi sharoit o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “H” harfi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.

2. M.Abdullayeva. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. -T.: Tafakkur qanoti. 2014.

3. O‘ZDSMI dotsenti D.Ismoilov bilan 2022-yil 2-martdagi suhbatdan.

ARTIST ROLINING KELAJAGI

Ernazar Yarbekov
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Musiqali teatr san'ati" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: teatr aktyorining shaxs sifatida kamolga yetishi, kechinma san'atiga erishish ijodkordan aktyorlik mahorati va sahna nutqi ta'limini bir biridan ajratmagan holda, uyg'unlikda o'rganishni talab etadi. Bu jarayonda albatta uztozlardan qolgan meros, ularning tajribasiga tayanib ish ko'rgan afzal. Ana shunda mahorat maktabi talabadagi tabiat ato etgan qobiliyatni yanada rivojlantiradi, unga sayqal beradi. Mavzu ijrochilik mahoratini egallashda rol ustida ishlashning ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: so'z hatti-harakati, teatr, aktyor, rejissyor, kechinma, san'at, rol, ijro, tomoshabin, aktyorlik mahorati, ijodkor, xatti-harakat.

Аннотация. Подлинное искусство переживание, как известно, требует слияние мастерство актёра и сценической речи, а слияние закладывается школой, аккумулирующей в себе лучшие традиции и опыт многих поколений. Школа развивает и шлифует природные задатки ученика, дает ему правильное обучение, необходимые знание и навыки, повышает квалификацию. В этой статье говорится о важности работы над ролю в развитии испольнителского мастерства творческой личности.

Ключевые слава: словестное дейтвие, театр, актёр, режиссёр, переживание, представление, искусство, роль, исполнение, мастерство актёра, идея, творец, действие.

Annotation. In ozder to obtain the art of experience it demands confluence of and harmony actor`s mastership and speech of stade. It has preference to be based on heritage of great masters in this prosess. (Projiciency school) Professonal school can help to dwelop student`s capabi litu. Student can get important education. Improve his experience. Representa tives of theatre left great heritage of movement on the stade. This article is about obtaining of capability of perjormance and importance of working on speech.

Key words: theater, actor, director, hero, excitement, imitation, art, role, spectator, conception, acting skills, executive, image, action.

Sahnada rol o'ynayotgan aktyor va uning personaji o'rtasida masofa bormi? Bor, ammo mutlaq emas, bu masofa turlicha. Bizga ma'lumki, faqat to'g'ri va maqsadli hatti - harakatgina har qanday rolning badiiy haqiqatini kashf etadi. Bu esa aktyor va personaj o'rtasidagi masofa bilan ta'kidlab turiladi. Maqsad - ana shu

masofani maksimal darajada qisqartirish. Faqat personaj bilan butunlay qorishib ketish mumkin emas. Bu telbalik bo‘ladi. Demak butunlay qorishib ketishning iloji yo‘q, ammo shunga intilish bo‘lishi zarur.

Rolni to‘g‘ri o‘ynash - bu sahnada turib rol hayoti va unga monand sharoitda to‘g‘ri, mantiqli, izchillik bilan hayotdagidek fikr yuritmoq, xohlamok, intilmoq, hatti - harakat qilmoq demakdir. Agar artist shunga erisha olsa, rolga yaqinlashadi va u bilan bir xilda his qila boshlaydi. Bizning tilimizda bu “rolning kechinmasi” deb ataladi. Bu jarayonda jonli so‘z hatti - harakatiga erishish, uni sahnaviy muloqot vositasiga aylantira olish juda katta ahamiyatga egadir.

Ko‘plab yoshlarni dastlab aktyor bo‘lish, katta sahnaga chiqib rollar ijro etish, kino va televideniye ko‘rinish, el olqishiga sazovor bo‘lish kabi yoshlikka xos bo‘lgan orzular teatr san’ati bilim dargohiga yetaklab keladi. Lekin o‘qish boshlangandan keyingi jarayonda shu narsani anglab yetadilarki, faqat orzuning o‘zi kamlik qilar ekan. Kundan - kunga bilim va tajribasi oshgani sayin aktyorning yelkasida faqat orzular yuki emas, shu bilan birga o‘z ijodi orqali tomoshabinga ibrat yo‘lini ko‘rsatish, yosh avlod tarbiyasiga o‘z hissasini qo‘shishdek yanada og‘irroq va muhimroq yuk turishi kerakligini his qilib borishadi. Birinchi o‘zbek dramaturgi Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr - bu ibratxonadir” degan so‘zlarining ma’nosini ana shundagina to‘liq anglab yeta boshlashadi.

Talabalar o‘quv yillaridayoq teatrga kundalik mayda tashvishlarni tashib keltiruvchi, sahna ortidagi mayda gaplar, g‘iybatlar girdobida yashovchi inson sahnada buyuk g‘oyalarni targ‘ib qila olmasligini tushunib yetishi, Jaloliddin Manguberdi, To‘maris, Spitamen kabi halq qahramonlari, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslar qiyofasini ishonarli tarzda yaratib bo‘lmasligini anglashlari zarur. Chunki eng iste’dodli, mahoratli aktyor ham o‘zi his etmagan, o‘zida mavjud bo‘lmagan insonparvarlik fazilatlarini, qalb beg‘uborligi, millatiga bo‘lgan sadoqat tuyg‘ularini sahnada ishonarli tasvir eta olmaydi. Qahramonning ichki dunyosini yaratish uchun aktyorga intelektual salohiyat, dunyoqarash va emotsional xotiragina ko‘mak bera oladi. Shuning uchun ham o‘z hayotiy tajribasi davomida turli hissiyotlarni boshdan kechirmagan aktyor sahnada aynan shu hissiyotlarni qayta gavdalantira olmaydi. Salbiy qahramon qiyofasini yaratishda ham xuddi shu xislatlar yordamga keladi. Yuksak fazilatli, komil inson bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan aktyor sahnada buning aksi bo‘lgan salbiy xislatli personajni to‘laqonli yaratishi mumkin emas. Chunki qalbiga komillikni singdirgan aktyorgina salbiy personajni o‘zi tushunib tasvirlar ekan, bu jarayon albatta tomoshabinda ushbu obrazga nisbatan ishonchni, istehzoni va nafratni uyg‘otadi. Sababi, aktyor salbiy obraz qiyofasida hatti - harakat qilar ekan, uning bu harakatlari zaminida, so‘zlashuv uslubi, so‘zining rangida o‘zi yaratayotgan obrazga nisbatan pinhoniy nafrat yotadi. Bu pinhoniy munosabat bevosita tomoshabinga ko‘chadi.

Teatr san’ati tarixidan ma’lum, kuchli satirik yoki salbiy personajlarni faqat yuksak ma’naviyatli, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan san’atkorlargina mahorat bilan ijro eta olgan. Ular yaxshilikka intilishni, hamisha insonning og‘irini yengil qilib yashashga urinishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan. Albatta, mazkur fikrlardan “ulug‘ aktyorlarning barchasi salbiy xislatlardan xoli”, degan xulosa kelib chiqmaydi. “Har to‘kisda - bir ayb”, degan naql bor. Lekin komillikka intilish - komil inson bo‘lishning birinchi pillapoyasidir.

Ijobiy qahramon rolini o‘ynayotgan aktyor o‘zining emotsional xotirasiga tayanib o‘z personajining tomoshabinga ta’sirchanligini oshirishi mumkin. Lekin salbiy qiyofani ifoda etayotgan aktyor nima qilishi kerak? U ham o‘z emotsional xotirasiga murojaat etadi. Ammo, aktyor bunday paytda salbiy xislatning nomaqbul ekanligini tushunib yetgan bo‘lishi kerak. Masalan, 2013 - 2017 yillarda tahsil olgan kursning diplom spektakli uchun Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” asari olindi. Men Abdulatif rolini ko‘rinishi shahzodalardek ko‘rkam, iqtidorli talabalardan biriga topshirdim. Asar bilan tanishib chiqqanimizdayoq, suhbat jarayonida men unda bu rolga nisbatan ichki g‘azab paydo bo‘lganini syezdim. Xuddi shunday bo‘lib chiqdi:

- Men bu rolni o‘ynamayman!” - dedi qarorimga qarshilik qilib.
- Nega? - dedim qiziqib.

Shunda talaba Abdulatifning ochko‘zligi, xiyonatkorligi, taxt uchun hatto o‘z otasiga qarshi borishi nafratini qo‘zg‘atishini aytdi. Unga bundan oldingi ishimiz - birinchi diplom spektaklidagi ijobiy xislatli Samandar kabi rollarni o‘ynash, o‘z dardini to‘kib olish juda yoqardi.

- Abdulatif rolini o‘ynasam hamma meni yomon ko‘rib qoladi. Shundan qo‘rqaman, - deb javob berdi u.

Shunda men:

- Agar senda Abdulatifning harakatlariga nisbatan nafrat bo‘lsa, demak sen bu rolni uddalay olasan. Chunki salbiy rolni o‘ynayotgan aktyor doimo bu xislatning noma’qul ekanligini his qilib turishi kerak. Tomoshabin ham buni g‘ayritabiiy holda his etib turadi. Aks holda tomoshabin rolni emas, aktyorning o‘zini yomon ko‘rib qolishi mumkin. O‘ylaymanki, sen bilan bunday hol ro‘y bermaydi, - dedim.

Shunday qilib repetitsiya jarayonlari boshlandi. Talabada esa har doim o‘zining sahnada yaratayotgan roliga nisbatan qandaydir ichki bir nafrat hamrohlik qilib turardi. Ish jarayonida unda hatto Abdulatifni jazolash fikri tug‘ildi. Chunki asar tarixiy mavzuda yozilganligi uchun tarixiy faktni buzmaslik maqsadida bo‘lsa kerak, Abdulatifda o‘z qilmishlaridan pushaymonlik yo‘qdek edi. Talaba menga Abdulatifning afsus - nadomatini ifodalovchi ariya yozdirish taklifini aytdi. Chunki biz “Mirzo Ulug‘bek” pyesasining musiqiy versiyasini tayyorlayotgan edik.

Kompozitor ish jarayonidan kelib chiqib ariya va xorallar yozib kelayotgan edi. Taklifimiz kompozitorga ma’qul tushdi va u ariya emas, arioza yozib keldi.

- Nega arioza? – so‘radik biz.

- Ariya ijobiy qahramonlarga yoziladi. Musiqiy dramaturgiya, klavir yozishning qonun - qoidasi shunday. Arioza kishining afsus - nadomati, xatoliklarni tan olishi ifodalangan musiqiy asar bo‘lganligi uchun ham unga yondashuv o‘zgacharoq kechadi. Tempo - ritm, tovushlar rangi, hatto qaysi cholg‘ularga ko‘proq urg‘u berilishiga ham e’tibor qaratiladi, - dedi kompozitor.

Arioza spektaklning va salbiy qahramon Abdulatif rolining yechimiga mos tushdi. So‘nggi sahna kuchli dramatik qiyofa oldi. Spektakldan so‘ng hamma Abdulatif rolini o‘ynagan talabani tabriklaganda, u hech kim uni yomon ko‘rib qolmaganini, rol muvaffaqiyatli chiqqanligining guvohi bo‘ldi.

Kechinma - sahna san’atining asosiy vazifasini bajarishda aktyorga yordam beradi. Vazifa esa roldagi “inson ruhining hayotini” yaratish, bu hayotni sahnada badiiy ifodalashdan iboratdir. Ko‘rib turibsizki, vazifa faqat rol hayotining tashqi ko‘rinishini ko‘rsatishdan iborat bo‘libgina qolmay, eng muhimi, sahnada gavdalantirayotgan kishimizning ichki hayotini, butun pyesaning hayotini yaratish, o‘z insoniy tuyg‘ularimizni shu begona hayotga moslamoq, qalbimizning hamma organik elementlarini unga topshirmoq, rol va aktyor intellekti, hissiyotlari o‘rtasidagi oraliq masofani qisqartirmoqdan iboratdir. Rol ustida ishlash uslubi asosan uchinchi kursda to‘liq amalga oshiriladi. Lekin ikkinchi kursda badiiy asarlardan etyud va parchalar ishlanishini hisobga olsak, rol ustida ishlash uslubiga murojaat qilmay ilojimiz yo‘q. Faqat bu jarayonga talabalarning hali ikkinchi kurs ekanligini inobatga olgan holda, dastur meэyori doirasida yondashishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Mirziyoyev SH. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.Toshkent.2017.

4. Vazirlar Mahkamasining Respublika “Yosh suxandonlar” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori. 2017 yil 1-fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Respublika “Yosh suxandonlar” tanlovi nizomi.2017 yil 7-fevralьь.

6. Alisher Navoiy. “Hayrat-ul Abror” dostonining So‘z ta’rifida bobidan. -T.: G‘afur G‘ulom.1989.

7. Sayfiddinov.A.S. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. -T.: Fan. 1980.

8. Knebel.M.O. Slovo v tvorchestve aktyora.M.,1964.

9. Muhammedov M. -T.: Nigoh. 2010.

10. Stanislavkiy K.S. Rabota aktyora nad soboy. T.2.-M.: Isskustvo. 1965.

11. Inomxo'jev S.Badiiy o'qish asoslari. -T.: O'qituvchi, 1973.
12. Nosirova A. Jonli so'z san'ati asoslari. -T.: 2005.
13. Xo'jayeva L. Notiqlik san'ati-T.: O'qituvchi, 1967.

КЎЙЛОВЧИ АКТЁР ТАРБИЯЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Рашид Уснатов
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Мусиқали театр санъати” кафедраси доценти

Аннотация: кўйловчи актёр тарбиялашда учрайдиган баъзи бир мулохозалар тўғрисида сўз юритилади. Яъни ариянинг туғилиши, арияда табиий хатти-ҳаракат қилиш, актёрнинг мақсади ва олий мақсади ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: ария, актёр, -хатти-ҳаракат, тамойил, мантиқ, пластика, драматургия, шарт-шароит, товуш, нафас, нота, мусиқа, бастакор.

Аннотация: обсуждаются некоторые аспекты подготовки актера-певца. То есть речь идет о зарождении арии, естественном поведении в арии, предназначении актера и конечной цели.

Ключевые слова: ария, актер, поведение, принцип, логика, пластика, драматургия, условия, звук, дыхание, нота, музыка, композитор.

Abstract: some considerations in the training of a singing actor are discussed. That is, it talks about the birth of the aria, natural behavior in the aria, the actor's purpose and ultimate goal.

Key words: aria, actor, behavior, principle, logic, plasticity, dramaturgy, conditions, sound, breath, note, music, composer.

Жаҳон санъати сингари куйловчи актёрни тарбиялаш мактабига республикамизда йилдан – йилга эътибор ортиб бормоқда. Бунга театрларимизда муваффакият билан ўтган барча мусиқали драма ва опера спектакллари, Ўзбекистон ва бошка кўшни республикаларда ҳам, Европа мамлакатларида ўтган вокал танловларида ҳам бизнинг хонандаларимиз юксак ўринларга ва лауреатлик унвонларига эга бўлганликлари, ниҳоят, мусиқали театрларимиз истеъдодли ёш актёрлар ҳисобига бойиётгани бунинг исботидир.

Бугун биз мана шу ютуқларга сабабчи бўлган куйловчи актёрнинг мактаблари ҳақида гап очмоқчимиз. Бу мактабнинг ҳаётий ҳақиқат тамойили, табиий хатти-ҳаракат, олий мақсад ва тимсолда гавдалантириш ўйлаб топилган нарсалар эмас. Улар бари ҳаётнинг ўзидан, табиатнинг объектив конунларидан олинган. Ушбу мактаб инсон ҳаётидаги жисмоний ва руҳий бирликка асосланган изчил таълимотни, актёрнинг саҳнадаги табиий ҳаёти объектив конунларини яратди, ижодий жараёнга йуналган услуб ва йўлларини ишлаб чикди.

Куйловчи актёр тарбиялаш мактабининг энг муҳим жиҳати табиий хатти-ҳаракат, актёрнинг мақсади ва олий мақсади ҳақидаги фикрдир. Бу таълимотнинг биринчи талаби мантиқий ва изчил фикрлаш, интилиш, ҳоҳиш ва хатти-ҳаракатдир. Куйловчи актёр мактаби – актёрлар техникасининг назарий хулосалари эмас, балки катта актёрларнинг ижодларини, уларнинг тажрибалари ва инсоннинг хулқ-атворини кузатишнинг натижасидир. Куйловчи актёр зарурияти давр таказоси билан пайдо бўлди. Жаҳон киночилигида у аллакачон ўз ўрнини топгандир.

Куйловчи актёрнинг шаклланишида илмий ва педагогик таълимот катта аҳамиятга эга. Агар куйловчи актёр шу таълимот асосида тарбияланган бўлса, унда қушиқдаги ютуқлари авваламбор, актёрлик маҳоратининг ютуқлари ҳисобланади: у саҳнада табиий яшайди, уни ҳеч нарса ижодий жараёндан чалғитмайди, вужуди ортикча сиқиқликдан озод бўлади. Колаверса, актёр ва хонанданинг вазифаларини сунъий равишда ажратиш факат зиён келтиради. Актёрлик маҳоратининг методик машқлари хонанда билан актёрни табиий бирлаштиришга ёрдам беради. Агар талаба ёмон хонанда бўлса, у ёмон актёр ҳам. Агарда у ёмон актёр булса, у хонандаларга бугун қўйилган талабларга жавоб беролмайди. Табиий ҳаётнинг куйда, пластикада, сўзда, саҳна хатти – ҳаракати бирлигида бўлиши куйловчи актёрлар учун муҳим шартдир. Шундай қилиб, талаба тафаккуридан хонандалик ва актёрлик маҳорати иккита фарқли бир-бири билан кўшилмайдиган ўкув фанлари экан, деган фикрлар батамом олиб ташланиши лозим.

Мусиқали театрда куйловчи актёр, авваламбор, драматургиянинг барча шарт-шароитларида комплекс хатти-ҳаракат қилувчи шахсдир. Товуш, нафас, унинг буёқлари, жумлаларнинг оҳанглари, ўзидан-ўзи, ҳеч бир асоссиз бўлиши мумкин эмас. Ҳар бир нота, мусиқали жумла бастакор томонидан маълум бир мақсадда ёзилган. Ижронинг характери, бадиий услуби мана шу мақсад оркали очилиши керак. Айнан ижродаги маънолилик бадиийликнинг белгисидир.

Мусиқали театр инсоннинг калб туйғуларини очиш вазифасини овозга юклайди. Бастакорнинг ғояларини амалга оширувчи биринчи ва асосий восита– овоздир. Саҳна хатти–ҳаракати куйловчи актёрнинг ифода воситалари комплексида очилади.

Эски мусиқали театрда актёр белгиланган ишора билан ғазаб ёки муҳаббат, даҳшат ёки шодлик каби туйғуларни ифодалайди. У саҳнада шунчаки ҳаракат килар эди. Хатти–ҳаракатларида эса туйғунинг ҳақиқийлиги, ҳаққонийлик йўқ эди. Буларнинг ҳаммаси мусиқали театрда фақат куйлаш муҳим бўлганлигидан келиб чиққан.

Замонивий мусиқали театр ўз таркибига куйлашдан ташқари драматик театрнинг ҳамма ютуқларини ҳам киритди. Мусиқали спектаклда актёрлик

ижроси куйлашга қўшимча эмас. Бу актёрнинг саҳнада яшаш шакли бўлиб, бунда куйлаш берилган хатти- ҳаракатнинг жонли оқимига айланади.

Куйлаш табиий жараён бўлиб, инсоннинг нормал руҳий – жисмоний ҳолатида кечиши мумкин. Мусиқа куйловчидан товушнинг равон жаранглаши, залнинг ҳар бир жойида эшитилишини талаб қилиши билан бирга, куйловчи усулни сақлаган ҳолда ижро этилиши, ўз вақтида бошлаш ва оркестдан ажралмасликни ҳам талаб қилади.

Куйловчи актёр нафақат хонанда ижросининг талабларини, балки саҳна талабларини ҳам ҳисобга олиши лозим. Саҳна талаблари эса актёрдан эркин ҳаракат қилишни, қулай ва ноқулай бўлган турли ҳолатларда куйлашни, дирижёр билан эмас, ҳамкор билан муомалада бўлишни, хатти- ҳаракатларнинг нафас олиш учун қулайлигига эмас, балки мантиқий бўлишига эришишни талаб қилади.

Мусиқа билан ҳисоблашмай хатти- ҳаракатларни мантиқ ва ҳақиқатга бўйсундирган актёрга бу талабларни бажариш осон бўлади. Лекин бу ҳолда актёр куйловчи бўлолмайди ва унинг товуши нотекис, тембри ҳар хил бўлиб, оркестрдан ажралиб қолади. Актёр ва куйловчининг ўртасида қарама қаршилик туғилади. Буни бартараф этиш мумкинми? Шубхасиз, мумкин. Вокал - саҳна ҳаракати айнан шунга қаратилган. Куйловчи актёр мусиқани деб, саҳна ҳақиқатидан, саҳна ҳақиқати деб мусиқадан воз кеча олмайди, аксинча, уларни табиий равишда бир – бирига уйғунлаштирсагина, ҳақиқий вокал – саҳна тимсоли пайдо бўлади. Бунда мусиқа ва саҳна бир – бирига ҳалақит бермайди, балки бир – бирини кучайтиради, тўлдиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. К.С.Станиславский Танланган асарлар. 2-жилд,М.,1954 й.
2. К.С.Станиславский. М., «Искусство», 2 т.1960 й.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNI INNAVATSION TARBIYA SAMARADORLIGI

Mullaboyeva Diyoraxon Soib qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti, bilish jarayonlarining rivojlanishi hamda innavatsion tarbiya texnalogiyalarining samaradorligi maktabgacha yosh davridagi bolalarni psixik rivojlanishiga tasiri shaxs xususiyatlari haqida ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirish. Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish.

Kalit so'z va iboralar: Innovatsion tarbiya texnologiyalari faoliyat,,pedagogik tarbiya, psixologik tarbiya ma'naviy-axloqiy sifatlar, o'yin faoliyati, individual, mehnat, muloqot, samaradorlik.

Аннотация: Цель данной статьи - ознакомить учащихся с научной информацией о психическом развитии детей дошкольного возраста, развитии познавательных процессов, эффективности инновационных образовательных технологий, влияющих на психическое развитие детей дошкольного возраста. Формирование теоретических и практических знаний по проблеме психологической подготовки к школе.

Ключевые слова и термины: Инновационные образовательные технологии, деятельность, педагогическое образование, психологическое образование, духовно-нравственные качества, игровая деятельность, личность, труд, общение, продуктивность

Abstract: The purpose of this article is to acquaint students with scientific information about the mental development of children of preschool age, the development of cognitive processes, and the effectiveness of innovative educational technologies, which influence the mental development of children of preschool age. Formation of theoretical and practical knowledge on the problem of psychological preparation for school.

Keywords and terms: Innovative educational technologies, activity, pedagogical education, psychological education, spiritual and moral qualities, game activity, individual, work, communication, efficiency.

Innovatsion texnologiyalar - zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar tufayli ijobiy natijaga erishishga qaratilgan o'qitish usullari, usullari, usullari, ta'lim vositalari tizimi. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'zgartirishi yoki takomillashtirishi

mumkin. Innovatsion texnologiyalar pedagogik faoliyat jarayonida o'z samaradorligini isbotlagan ilg'or ijodiy texnologiyalar va ta'limning stereotipik elementlarini birlashtiradi.

Maktabgacha ta'limda innovatsiyalarning paydo bo'lishining quyidagi sabablarini aniqlash mumkin: ilmiy tadqiqotlar; ijtimoiy-madaniy muhit - maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi pedagogik tizimlarga bo'lgan ehtiyoji; o'qituvchilarning ijodiy o'zgaruvchanligi; ota-onalarning bolalar rivojlanishida ijobiy dinamikaga erishishga qiziqishi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagilar kiradi: Kontseptual asos; Texnologik qism (ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv faoliyatining usullari va shakllari, o'qituvchining ish usullari va shakllari; diagnostika). G.K.ning so'zlariga ko'ra. Selevko, har qanday pedagogik texnologiya muayyan asosiy uslubiy talablarga (texnologik mezonlarga) javob berishi kerak. 3

Kontseptuallik ma'lum bir ilmiy kontseptsiyaga, jumladan, ta'lim maqsadlariga erishish uchun falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslashga tayanishni anglatadi. Mustahkamlik tizimning barcha xususiyatlarining mavjudligini o'z ichiga oladi: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha qismlarining aloqasi, yaxlitligi. Boshqarish imkoniyati diagnostika maqsadlarini belgilash, rejalashtirish, o'quv jarayonini loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish uchun vositalar va usullarni o'zgartirish imkonini beradi.Samaradorlik xarajatlarning maqbulligini, ma'lum bir o'rganish standartiga erishish kafolatini ko'radi. Qayta ishlab chiqarish pedagogik texnologiyani bir xil turdagi boshqa ta'lim muassasalarida, boshqa fanlar tomonidan qo'llash (takrorlash, ko'paytirish) imkoniyatini nazarda tutadi. G. N. Selevko tomonidan olib borilgan pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish asosida maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan quyidagi texnologiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalari, o'yin texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, muqobil texnologiyalar. Zamonaviy maktabgacha pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri eksperimentlarni joriy etishdir. Ushbu tendentsiya bizga zamonaviy bolalarning qiziqishini to'liq qondirishga imkon beradi. Ta’limni differentsiallashtirish va individuallashtirish texnologiyalari. Differensiatsiyani o'rganish - bu o'quvchilarni bir hil (bir hil) guruhlarga tashkil qilish orqali turli qobiliyat va muammolarga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash uchun sharoit yaratishdir. Darajani differensiatsiyalashning mazmuniy asosi o'quv fanlari dasturlarining materialning chuqurligi va hajmi bilan farq qiluvchi bir nechta variantlarining mavjudligidir. Turli xil muammolarga duch kelgan o'quvchilarga adekvat dasturni (variantni) o'rganish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining maqsadli belgilanishi dasturning eng to'liq versiyasini beradigan hamma narsani o'zlashtirishga e'tibor qaratishdan "iloji boricha ko'proq narsani oling va xohlaganingizcha oling, lekin talab qilinganidan kam emas" sozlamasiga o'zgaradi..

Bu quyidagi afzalliklarga ega: Bolalarni tekislash va o'rtachalashtirish bundan mustasno; Kompensatsion ta’lim texnologiyalari. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda umumta'lim maktabiga kirayotgan bolalarning 20 foizigacha turli xil psixosomatik nuqsonlar mavjud. Agar siz talabaga qo'shimcha psixologik va pedagogik yordam ko'rsatmasangiz, bu ta'lim faoliyatining surunkali kechikishiga va keyinchalik ijtimoiy-pedagogik moslashuvga olib keladi. Shu munosabat bilan umumta’lim maktablarida darslar tashkil etilgan kompensatsion ta'lim, taqdim etilgan joyda diagnostika va tuzatish bolalarda rivojlanish nuqsonlarini aniqlaydigan va tuzatuvchi dasturlar, qoloq o‘quvchilarga nisbatan qo‘shimcha pedagogik harakatlar amalga oshiriladi. Reabilitatsiya makonining kompensatsion elementlari (vositalari), birinchi navbatda: bolaga bo'lgan muhabbat (g'amxo'rlik, insoniy munosabat, iliqlik va mehr); bolalarning qiyinchiliklari va muammolarini tushunish; bolani barcha kuchli va zaif tomonlari bilan qabul qilish, rahm-shafqat, ishtirok etish, zarur yordam, o'z-o'zini tartibga solish elementlarini o'rgatish (o'rganishni o'rganing, o'zingizni nazorat qilishni o'rganing). Bilimlarni o'zlashtirishda turli xil pedagogik yordam turlari bir xil darajada muhimdir: majburlashsiz o'rganish (qiziqish, muvaffaqiyat, ishonchga asoslangan); dars reabilitatsiya tizimi sifatida, buning natijasida har bir talaba o'zini oqilona harakat qilish, maqsadlar qo'yish va ularga erishish qobiliyatini his qila boshlaydi va amalga oshiradi; tarkibni moslashtirish, o'quv materialini murakkab detallardan va haddan tashqari xilma-xillikdan tozalash; bir vaqtda ulanish moddiy idrok etish jarayonida eshitish, ko'rish, harakat qobiliyatlari, xotira va mantiqiy fikrlash; foydalanish harakatlarning indikativ asoslari (mos yozuvlar signallari); ta'riflarni shakllantirish belgilangan naqsh bo'yicha, algoritmlardan foydalanish;

Kuchaytirilgan pedagogik yordam sinflari. Kompensatsion ta'limning dastlabki bosqichida tuzatish usullaridan foydalanish ushbu bolalarni quyidagi maxsus usullardan foydalangan holda tashkil etilgan jamoaning bir qismi sifatida o'qitish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi: hisoblash ko'nikmalarini o'rgatish shu jumladan boshlang'ich maktab materiallari; xotirani rivojlantirish mashqlari; pasayish didaktik birliklarni (kattalashtirishdan ko'ra); vizual-majoziy pedagogikaga tayanish, betondan mavhumga ko'tarilish. Aralash yoshdagi guruhlar (RVG). Bu guruh, jamoaviy va individual ta'lim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan maxsus tashkiliy shakldir. RVGga 5-9-sinf o‘quvchilari (turli yoshdagi va rivojlanish darajasi) kiradi. Har bir inson boshqa sinflarda materialni o'rganish huquqiga ega (ba'zi fanlarda u o'z sinfidan oldinda bo'lishi mumkin, boshqalarida esa orqada qolishi mumkin). Sinflar jadval bilan emas, balki individual kartalar bilan tartibga solinadi fan ta'limi, talabalar indikativ jadvallarga muvofiq ularga o'z xohishlariga ko'ra qatnashadilar Davlat maktabida muammoli bolalar bilan ishlash texnologiyasi.

Diksiya (talaffuz, ohang) metodikasi bo‘yicha o‘qitish fan dasturiga kiritilgan. Diksiyadan dars berish usuli ovoz va nafas yo‘llarini sozlash kabilar bir qator o‘quv qo‘llanmalarida bayon etilgan. Diksiyaga oida mashqlar guruh mashg‘ulotlarida va mustaqil tarzda har bir pedagogning o‘ziga xos rejasi asosida olib borilishi lozim. Mashqlardan ko‘zlangan bosh maqsad – yosh aktyorda talaffuz usullarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bundan tashqari aksariyat talabalar talaffuzida alohida kamchiliklar ham uchrab turadi. Talaba uni mustaqil tarzda yengib o‘tishi va olib borayotgan mashqlari borasida pedagogga axborot berib turishi lozim.

Muallif fikrini partnyorga mantiqiy aniq ravishda yetkazib berishning o‘zi so‘zlashuv munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga puxta asos yasaydi. Aktyor tomonidan ana shu asos yaxshi yo‘lga qo‘yilsa tashkil topuvchi so‘zlashuv munosabatiga turli bo‘yoq va sayqal berish mumkin bo‘ladi. Mantiqiy nutq qonuniyatlarini o‘rganishning debochasi - sodda gaplarni taxlil qilishdan boshlanadi. Gaplar mazmuniga ko‘ra so‘roq gap, tasdiq gap, xis-hayajon gap, darak gaplarga bo‘linadi. Gap turlari nafaqat mazmuniga ko‘ra, balki urg‘u ohangiga ko‘ra ham turli ma’no kasb etadi. Biroq, bunday gap turlarida ohang va urg‘uning umumiy qonuniyatiga xos bo‘lgan gaplarni ham uchratish mumkin. Mazkur qonuniyatlar nutq ohangi va musiqiyligi dinamikasi, ritmi, mantiqiy davomiyligi orqali o‘rganib boriladi. Bu kabi xususiyatlarni egallash uchun aktyor gapning mantiqiy ildizini topish, urg‘u qurilishi va koordinatsiyasini o‘rganish, pauzalar, muallif fikrini aniqlash kabi xususiyatlarni egallashi talab etiladi. Ko‘rsatilgan bir qator qonuniyatlar sahna nutqi o‘quv dasturining og‘zaki nutq qonuniyatlari tarkibida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stanislavkiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.3.-M.: Isskustvo. 1965.
2. Tursunboyev S. Teatr tarixi. -T.: O‘qituvchi. 2007.

MUSIQALI SPEKTAKLLARDA DRAMATURG, BASTAKOR VA REJISSYOR IJODIY HAMKORLIGI

Farxod Farmonovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali, teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: musiqali teatrda dramaturg, bastakor va rejissyor ijodiy hamkorligi masalasi muhim omil sanaladi. Bu hamkorlik musiqali teatr san’ati ijodkorlari, dramaturg, bastakor, rejissyor ijodida aks etishi talab etiladi. Qachonki bu ijodkorlar ijodiy hamkorligi mavjud bo‘lsa, yaratilagan spektakl ko‘zlangan natijani beradi.

Kalit so‘zlar: musiqali teatr, dramaturg, bastakor, rejissyor, pyesa, aktyor, spektakl.

Аннотация: вопрос творческого сотрудничества драматурга, композитора и режиссера является важным фактором музыкального театра. Это сотрудничество должно найти отражение в творчестве артистов музыкальных театров, драматургов, композиторов, режиссеров. При творческом сотрудничестве этих творцов созданный спектакль даст намеченный результат.

Ключевые слова: музыкальный театр, драматург, композитор, режиссер, профессия, актер, спектакль.

Abstract: the issue of creative cooperation of playwright, composer and director is an important factor in musical theater. This cooperation should be reflected in the work of musical theater artists, playwrights, composers, and directors. When there is a creative cooperation of these creators, the created performance will give the intended result.

Key words: musical theater, playwright, composer, director, profession, actor, performance.

San’at esa ulkan tuyg‘ular olamidir. U insoniyat tuyg‘ularining jilolari shaklida nomoyon bo‘ladi. Pirovardida inson ruhini oziqlantiradi, ma’naviy dunyosini boyitadi, uni komillik sari yetaklaydi. Haqiqiy san’at asarlari jo‘shqin his tuyg‘u sohiblari tomonidan yaratiladi va u kishilar tomonidan idrok doirasida his etiladi.

Jadal rivojlanib borayotgan bugungi jamiyat hayotida san’atning tutgan o‘rni beqiyosdir. Jumladan musiqali teatr san’atining ham.

So‘nggi yillarda Muqimiy teatri jamoasi tomonidan sahnalashtiril-

gan asarlarga nazar solar ekanmiz milliy musiqali drama janr qonuniyatlarining amaldan chiqib ketayotganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan dramaturg, bastakor va rejissyor ijodiy hamkorligining haminqadarligi, ayrim spektakllarda mavzu va

janrning o‘zoro uyg‘unligi yetishmasligi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi. Sahnalashtirilayotgan asarlarda badiiy haqiqat mezonlarining topilmayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Ayrim spektakllarda bastakor ijodining qiymati, musiqaning ahamyati sezilmayapti.

Bugungi kunda teatr sahnasida ishlanayotgan spektakllarning mukammallikka erisha olmayotganligining asasiy sabablaridan biri dramaturg va rejissyorning ijodiy hamkorligining yetishmayotganligidir. Musiqali teatr san’atida dramaturg va rejissyorning ijodini bir ipga tizuvchi, ular o‘trasida bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi va shuningdek musiqali dramaning tempo ritmini belgilab beruvchi yana bir muhim komponent bu bastakorlik ijodidir. Agar musiqali dramada spektaklning vujudga kelishini bosqichma bosqich o‘rganadigan bo‘lsak avval dramaturg va bastakor ijodiy hamkorligi to‘g‘risida gapirishimiz kerak bo‘ladi. So‘ngra rejissyor ijodining kirib kelishi bilan uchlik hamkorlik ishga tushadi. Musiqali dramada rejissyor yetakchilikni drama teatrlaridagi singari o‘z qo‘liga ololmaydi. Bugungi kun musiqali teatr rejissyorlarining drama teatri rejissyorlaridek yo‘l tutishlari ham musiqali drama qonuniyatini buzib yubormoqda.

Milliy musiqali teatr san’atimizning ravnaqida yetakchilikni o‘z qo‘lida ushlab turishi kerak bo‘lgan Muqimiy teatrida so‘nggi yillarda sahnalashtirilayotgan ba’zi asarlarda bastakorlik ijodining o‘rni sezilmayapti. Misol uchun “Antiqa sovchilar”, “Olifta”, “Aqldan ozish hech gapmas”, “Asl hazina”, “Qaychi qudalar”, “Qaytar dunyo” kabi asarlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Biz sanab o‘tmagan boshqa spektakllarda ham bu holat aksariyat ko‘zga tashlanib turadi. Umuman bugungi kunda barcha teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan spektakllarning badiiy saviyasining tushib ketayotganligi to‘g‘risida tinimsiz teatrshunoslarimiz tomonidan jar solinmoqda. Aksariyat ijodkorlar ijod jarayonidagi o‘zlarining hato va kamchiliklarini payqay olmaydilar. Bu o‘rinda teatrshunoslar ularga yaqindan yordam beradilar. Teatr amaliyotchilarining ishini ko‘rib, uni tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi teatrshunoslik kasbining jamiyat hayotida, xususan teatr sanatining ravnaqida muhim o‘rin tutganligi boisidan ham bu kasbga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Teatrshunoslar teatr ijodkorlarining bahamjihatlikda ish olib borishlariga ham o‘z hissalarini qo‘shadilar. Agar teatr ijodkorlarining barchasi o‘z bilganini qilib, aravani o‘z tomoniga tortaveradigan bo‘lsa, bu arava ilgari yurmaydi, aksincha joyida turishi ham dargumon, har tomonga tortqilanish natijasida borgan sari o‘z ko‘rinishini yo‘qotib boradi.

Teatr san’atining jamiyat hayotidagi ahamyatini kuchaytirish uchun barcha teatr ijodkorlari yagona maqsad, bugungi kun teatr san’tini yuksaltirish yo‘lida birlashishlari talab etiladi. Xususan milliy musiqali teatr san’atimizning asosiy kompanentlarini vujudga keltiruvchi, dramaturg, bastakor, rejissyor va aktyorlar

jamoasi yagona maqsad yo‘lida birlashib, ijodiy hamkorlik, hamfikirlikda ish olib borsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ammo bugungi kunda spektakl tayyor bo‘lganda pyesa syujetining o‘zgarib ketganini ko‘rgan dramaturg rejissyor bilan janjalli holatlarga borishi ham kuzatilmoqda. Bu holat dramaturg va rejissyor ijodiy hamkorligining yo‘qligidan darak beradi. Yoki bo‘lmasa bastakor bir spektakl uchun o‘ndan ziyod (aslida bu ham kam) ariya va duetlar musiqasini yaratganu, spektaklda uning to‘rt, beshtasi ishlatilyapti, xolos. Bu xolatga ham ijodkorlar orasidagi ijodiy hamkorlikning yo‘qligi sabab bo‘ladi. Bastakor musiqani o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib yaratishi ham ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yetarli samara bermaydi. Rejissyor esa asarni sahnalashtirish jarayonida o‘z uslubi va yondoshuvidan kelib chiqib bastakor yaratgan ariya va duetlarni spektaklning tarkibiga joylashtirishda faqatgina o‘z nuqtai nazariga tayanishi ham ijobiy samara bermaydi..

Ayni paytda ba’zi musiqali teatr san’ati ijodkorlaridan, musiqali spektakl eng kamida uchta ariyani o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lishi kerak, degan fikrni eshitib qolamiz. Bu esa uch to‘rtta ariya yoki duetlarni shartli ravishda har qanday pyesaning tarkibiy qismiga joylashtirish bilan uni go‘yoki musiqali spektaklga alantirish mumkin degan tasavvurni vujudga keltirmoqda. Musiqali drama dramatik teatr va opera san’atining o‘rtasidagi oraliq, alohida janr ko‘rinishidir. Istalgan pyesaga uch-to‘rtta ariya-duetlarning joylashtirilishi bilan musiqali drama qonuniyatlariga javob beradigan spektakl yaratish mumkin emas.

Dramaturg, bastakor va rejissyorning birga, hamfikrlikda ish olib borishlari mukammal sahna asarining vujudga kelishi uchun asosiy omil sanaladi. Ular birgalikda ko‘zlangan maqsad yo‘lida, ko‘tarilayotgan mavzuning ochilishi uchun mos janrni tanlashlari va shu asosda ish olib borishlari kerak . Dramaturg pyesa mavzusi uchun drama janrini tanlagan bo‘lsayu, bastakor har bir sahna, har bir ariya va duetlar uchun asar dramatizmining yukini kuchaytirib beradigan musiqa yaratmasa bu xolda dramaturg va bastakor ijodida mutanosiblikning yetishmasligi kuzatiladi. Yoki pyesa komediya janrida yozilgan bo‘lsayu musiqaning ruhiyatidan dramatizm ufurib tursa bu holda ham janr va mavzuning mutanosibligi buzilgan sanaladi. Musiqali spektaklning yahlit, to‘laqonli san’at asari maqomiga ega bo‘lishi uchun eng avvalo dramaturg va bastakor fikrlarining bir o‘zanda oqishi talab etiladi. Dramaturg o‘z holicha, bastakor o‘z holicha ikki joy, ikki vaqtda ijod qilishi ularning har qancha mahorat sohiblari bo‘lishlaridan qat’iy nazar dramaturgiya va musiqaning bir biriga singib, o‘zaro uyg‘unlikka erishishi dargumon.

Dramaturg Xoliq Xursandov pyesasi asosida qayta sahnalashtirilgan “Qaytar dunyo” spektakli misolida dramaturg, bastakor va rejissyor ijodiy hamkorligi o‘z ahamyatini nechog‘lik namoyon qilganligi to‘g‘risida so‘z yuritamiz. Ular ijodida mavzu va janrning mutanosibli masalasiga diqqatimizni qaratamiz.

Bizning fikrimizcha Xoliq Xursandov pyesasi musiqali teatr dramaturgiyasi talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Chunki bu asar aynan musiqali teatr uchun mo‘ljallab yozilmagan. Bu asar ijodiy uchlik bir joyda to‘planib, o‘zaro ijodiy hamfikrlikda yaratilmagan. Ijodiy tarqoqlik hidi gupirib turibdi. Spektaklning ayrim komponentlari rejissyor tomonidan buyurtma asosida vujudga kelgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Oddiy misol. Pyesada ariya, duet, trio, kvartet va xorlarning matni kiritilmagan. Buning uchun rejissyor alohida bir shoirga pyesa uchun moslab she’r yozib berishini so‘rab murojat qilgan. So‘ngra tayyor bo‘lgan matnlarni bastakorga taqdim qiladi. Shunday qilib pyesa ham, ariya va duetlar matni ham, musiqa ham mustaqil fikr va indvidual yondoshuvlar asosida vujudga kelgan. Eng so‘nggida rejissyor tayyor komponentlarni o‘z indvidual yondoshuvi asosida tizib chiqqan.

Musiqali teatr uchun yozilgan pyesa shunday bo‘lishi kerakki, uni rejissyorlar har qancha uringanda ham drama teatri uchun moslashtirib sahnalashtira olmasin. Ana shunda u musiqiy drama yoki musiqiy komediya maqomiga ega bo‘ladi. Buning uchun pyesaning yuki uning musiqiyligi bilan o‘lchanishi kerak. Musiqasiz, ariya, duet, trio, kvartet va horlarsiz pyesaning yahlitligidan asar ham qolmasligi kerak. Bastakor fikri bilan hamfikrlikda yaratilgan pyesagina bunday imkoniyatni qo‘lga kiritishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki teatr san’ati jamoaviylikni talab etadi. Unda barcha ijodkorlar hamfikrlikda, hamjihatlikda ish olib borishlari, ularning yagona maqsad, toshabin uchun bugungi kunning dolzarb masalalarini qamrab olgan spektakllarni xavola etish yo‘lida ijodiy hamkorlikni yaratishlari ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yagona omil bo‘lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxamedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. -T.: O‘zDK, 2008
2. Stanistavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. -T.: Yangi asr avlodi, 2010.
3. Tursunov. T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. -T.: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Shokirov O‘. O‘zbek san’atkorlari. -T.: G‘.G‘ulom. 2010.

O‘ZBEKISTON DAVLAT DRAMA TEATRIDA “XAZINA” SPEKTAKLI

Barno Nurmanova
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Men, buvim, Iliko va Illarion” qissasi asosida sahnalashtirilgan “Xazina” spektaklidagi aktyorlar ijrosi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: drama, dramaturg, spektakl, aktyor, obraz, konflikt, xarakter, rejissyor.

Аннотация: в данной статье рассказывается об игре актеров в спектакле «Хазина», снятом по повести «Я, бабушка, Илико и Илларион» грузинского писателя Нодара Думбадзе.

Ключевые слова: драма, драматург, пьеса, актер, образ, конфликт, персонаж, режиссер.

Abstract: this article talks about the performance of the actors in the play "Treasure", based on the story "Me, Grandmother, Iliko and Illarion" by the Georgian writer Nodar Dumbadze.

Key words: drama, playwright, play, actor, image, conflict, character, director.

O‘zbekiston davlat drama teatrida sahna yuzini ko‘rgan, taxsinga sazovor bo‘lgan spektakllardan yana biri Gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Men, buvim, Iliko va Illarion” romani asosida, Muxtor Reymov inssenirovkasi bilan sahnalashtirilgan “Xazina” spektaklidir. Spektakldagi rollarni: Olga – Aziza Begmatova; Zuriko – Sirojiddin Sattorov; Iliko – Shukrullo So‘fiyev; Illarion – Azamat Hazratqulov; Meri – Yulduz Xaydarova; Sira – Nargiza Bakayeva; Marta xola – Nozima Raimbekovalar o‘ziga xos talqinda va mahorat bilan ijro etishgan.

Rejissyor Muxtor Reymov asar qahramonlari ijrosiga aktyorlarni to‘g‘ri tanlagan. Bu o‘rinda O.Rizayevning fikrini keltirib o‘tish o‘rinli - “Dramaturg va rejissyorning ko‘zlagan maqsadi spektaklda eng avvalo aktyor ijrosi orqaligina ro‘yobga chiqadi. Faqat iste’dodli aktyorgina ifodaviy sahna xatti-harakatlari orqali asarning oliy maqsadiga shakl va jon kiritadi”. [1.B.6.] Aktyorlar o‘ziga topshirilgan rolni shu qadar ihlos bilan ijro etishganki, ularni ko‘rgan tomoshabin xuddi gruzinlardek qabul qiladi.

Aktyorlar – rejissyorning talqinini, badiiy mulohazalarini, sahnaviy reja va niyatlarini, muallifning hayotiy kuzatuvlarini hamda gruzinlarga xos ehtiroslarini sahna harakati va vujudi orqali keng ko‘lamda ro‘yobga chiqara olishdi. Teatrda rejissyor va aktyorlarning hamkorligi, ularning izlanishlari bir-biriga uyg‘unligi

masalalari sahna san’atining asosini tashkil qiladi. Rejissyor tomonidan ko‘rib chiqilgan mizansahnalar aktyorlar tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilganligi, ular o‘ziga berilgan shart-sharoitni anglaganligi, spektaklning muvaffaqiyatini ta’minlagan. Bunga rejissyor M.Reymov mashhur asardan olgan tassurotlarini sahnaviy talqin qilishning badiiy vositalarini to‘g‘ri tanlagani va uning talqinini aniq tasavvur etganligi sabab, spektaklning kompozitsiyasi hamda g‘oyasi tomoshaviylikni ta’minlagan.

Spektakl uchun tayyorlangan dekoratsiya va rekvizitlar gruzinlarning turmush tarzini, kundalik hayotini o‘zida aks ettirgan. Gruziyadagi tog‘li hududning va shahar sahnalarining bir sahnada joylashuvi rejissyorning hamda ssenografning yutuqlaridan yana biridir. Gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening asarlarida milliy g‘ururni ulug‘lash va qadrlash yetakchi o‘rin egallagan. Shuningdek, insonning jamiyatdagi o‘rni, bu hayotda yashashning ma’nosi, hayotiy lavhalar va o‘ziga xos shaxslar xarakteri orqali aks ettirilgan. Dumbadzening bu asari chuqur lirizm bilan sug‘orilgan va dramatizm bilan yumor uyg‘unlashib ketgan. Shu o‘rinda, adabiyotshunos Berdiali Imomovning – “Dramaturgiyasiz teatrning yashashi mumkin bo‘lmaganidek, drama ham teatrdan tashqarida o‘zining butun g‘oyaviy-badiiy jilolarini, salobatini, ta’sirchanligini to‘la namoyish qila olmaydi”, [2. B.5.] - degan fikriga qo‘shilish lozim. Chunki, zamon bilan yonma-yon qadam tashlaydigan dramaturglarni doimo o‘z davrining muammolari, insonlarning ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, jamiyatdagi ziddiyatlar qiziqtirib kelgan.

Asardagi voqealar Gruziyaning tog‘li hududlaridan birida sodir bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishda bosh qahramon Zuriko sahnaga raqs harakatlarini ijro qilib chiqib keladi. Tomoshabinlarga o‘zini tanishtirganidan so‘ng, sahnaga raqqos yigitlar va qizlarning chiqishlari davom etadi va birgalikda raqsga tushishadi. Raqsga Meri degan qiz ham qo‘shiladi. Yoshlar raqs tushishda davom etar ekanlar, ularga qishloqning qariyalari – Olga, Iliko va Illarion ham qo‘shiladi. Bu ko‘rinish orqali Gruzin xalqi o‘z shiddatli raqslari bilan mashhur ekanligi ta’kidlaganadi. Aktyorlar o‘zlarining raqslari bilan gruzin xalqining o‘ziga xos harakatlarini, xarakterini, jo‘shqinligini, hayot uchun kurashish kabi xususiyatlarini aks ettiradi.

Raqsdan so‘ng sahnada faqat Zuriko qoladi. U qishlog‘ini tanishtirishga kirishadi. “Qishlog‘imizning o‘ng tarafida Gubazouli daryosi, chap tarafidan esa, qisqichbaqalar, itbaliqlar va yalangoyoq bolakaylar bilan g‘ij-g‘ij to‘lib yotadigan Lashe degan soy oqib o‘tadi...” deb tanishtirishi bilan sahna ko‘rinishi boshlanadi. O‘zini kitob o‘qiyotganday qilib ko‘rsatayotgan Zuriko buvisi bilan ilm borasida bahslashadi. Buvisining “bu yerda nima qilyapsan?”, degan savoliga, Zuriko – “kitob o‘qiyapman”, deb javob beradi. Buvisi nabirasining kitob o‘qiyotganidan sevinib, uning oldiga yugurgancha keladi va... Olga. Nimalarni o‘qiyapsan bolam?

Zuriko.Fe’l tuslarini.

Olga. Fe’l tuslari..., tus odamda bo‘ladi-yu, bolam.

Zuriko. Bu boshqacha tus...

Mana shu dialogdan ham ko‘rish mumkinki, buvining ilmdan xabari bo‘lmasa-da, ilm olgan kishi qiynalmay turmush kechirishi, hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirish imkoniga ega bo‘lishiga ishonadi. Olga tus deganda, insonlarning hayotdagi tusi, ko‘rinishi, turli xil niqobda bo‘lishlari, hayotda ko‘p uchraydigan ikkiyuzlamachiliklarni nazarda tutadi. Sahnadagi voqea buvi va nabiraning baxsi bilan rivojlanadi. Buvi nabirasini hamisha o‘qishga, ilm olib, dono yigit bo‘lishga undaydi. Zuriko esa, buning aksidir. YA’ni, yoshlarga xos o‘ynoqi. Olga buvi esa sodda ayol bo‘lishiga qaramay, hayotning achchiq-chuchugini tatigan, turmushning qiyinchiliklarini boshdan o‘tkazgan, hayot maktabida tahsil olgan. Buning ustiga sovuq urushning zaxmatini chekkan keksa ayoldir.

Aktrisa Aziza Begmatovaning ijrosiga yuzlanar ekanmiz, Erkin Umarovning – “Xususan aktyorda turli xarakterlar va xususiyatlarning imkoniyatlari bo‘ladi. Yaxshi aktyorgina ongsiz holda o‘z ruhiyatiga murojaat etib, u yerdan obraz uchun kerakli material ola biladi”, [3. B.24.] degan fikrlari bu aktrisaga ham tegishli. U “Checha” nomli sahnaviy obrazi bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lgan. Muxlislar ko‘z o‘ngida uzoq yillar davomida “checha” bo‘lib qolgan aktrisa bu spektaklda umuman o‘zgacha qiyofada sahnada namoyon bo‘lgan.

Gruzin xalqining “Olga”si aktrisaning yana bir yutug‘i deb aytsak bo‘ladi. A.Begmatova o‘z qahramoning gruzincha hissiyotini va fikr-mulohazalarini to‘g‘ri ifodalaydi. Natijada bu obraz uning yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi. Nemirovich Danchenko aytganidek, – “Teatr bu aktyordir. Garchi dramaturg yetakchilik rolini o‘ynasa-da, teatr san’ati avvalo aktyorlik san’atidir”. [3. B.25.] Aktrisa yillar davomida – dramatik, komik va xarakterli rollarning mohir ijrochisi sifatida teatr sahnasida o‘zini namoyon qilib keldi. Aziza Begmatova har bir sahnaviy obrazning talqini jarayoniga kirishishdan oldin asarning mag‘zini chaqishdan, g‘oyaviyligini izlashdan boshlaydi. Shuning uchun dramaturgiya zaif ba’zi rollarining talqinidan har doim ham mamnun bo‘lavermaydi.

Sahnada badiiy yaxlitlikka erishish oson jarayon emas. “San’atda eng muhimi go‘zallikni ko‘ra bilish va tushuna bilish zarur”, [4. B.25.] deydi K.S.Stanislavskiy. YA’ni, bachkanalikdan qochish, mantiqsiz xatti-harakatlar qilmaslik, rolni badiiy meyorda ijro etish va bunga erishish uchun tinimsiz ijodiy mehnat qilish zarurligin anglab yetgan aktyor teatrda xizmat qilishi zarur. Zuriko xarakterini sahnaga olib chiqqan aktyor – Sirojiddin Sattorov edi. Uning yoshi o‘ttizdan oshgan bo‘lishiga qaramay maktab o‘quvchisi, o‘spirin yigit rolini ishonarli ijro etgan. Erkin Umarov aktyorning obraz yaratish borasida shunday deydi - “Agar aktyor o‘z rolini ko‘r-ko‘rona ijro etsa, unga nofaol munosabatda bo‘lsa, uning ijrochilik san’ati hayotiylik,

badiiy barkamollik va nafosatdan mahrum bo‘ladi”. [5. B.29.] Tajribali aktyor S.Sattorovning harakatida hayotiylik, badiiylik va yoshlarga xos nafosat mavjud.

Nodar Dumbadze “Men, buvim, Iliko va Illarion” asari qahramonlari orqali ikkinchi jahon urushi yillaridagi turmush tarzini, odamlarning bir-biriga bo‘lgan muhabbatini, yonidagi insonni qadrlashni, bir-birini yo‘qotishdan qo‘rqish kabi tuyg‘ularni ifodalagan. Zuriko tabiatan sho‘x-shodon, quvnoq, nima bo‘lgan taqdirda ham o‘zini aytganidan qolmaydigan yigit. U o‘z yoshligi bilan Olga, Iliko va Illarion kabi qariyalarning hayotiga mazmun olib kiradigan, ertangi kuniga umid bag‘ishlaydigan yagona ovunchog‘i. Shu sabab Zuriko o‘z atrofidagilarni hamisha xursand qilishga intiladi.

Rejissyor talqiniga muvofiq Zuriko asardagi voqealarni, taqdiridagi o‘zgarishlarni sahnama-sahna izohlab boradi. Spektakldagi yoshlarning bir-biriga bo‘lgan tuyg‘ulari – beg‘araz va samimiy mehr-muhabbatga yo‘g‘rilgan. Zuriko bilan Merining samimiy munosabatlarini ularning tortishuvlar bilan kechadigan sahnasida ko‘rishimiz mumkin. Eng asosiysi Zuriko va Meri bir-birini tushunadilar. Zuriko she’rlar to‘qib Meriga o‘qib beradi. Shunday uchrashuvlarning biriga Illarion ham guvoh bo‘lib qoladi. Ularga tegirmonni ko‘rsatib, uning parragini kishining taqdiriga, undan oqib tushayotgan suvni insonning umriga qiyoslaydi. Ularning samimiy ijrosi tomoshabinlarga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Spektakl uchun tanlangan musiqalarni eshitganda gruzin xalqining turmush tarzi ifodalangan ohanglar og‘ushida qolasiz. Ularni spektaklning tomoshaviyligini ta’minlab beruvchi, uning dinamikasini oshiruvchi vosita sifatida qabul qilasiz. Spektakldagi yevropa musiqasidan keltirilgan qismlari tomoshabinni biroz chalg‘itadi. Ammo bu spektaklning badiiy yaxlitligiga o‘z ta’sirini o‘tkazmaydi.

Nima uchun mashhur asarning nomi o‘zgarib, uni “Xazina” deb nomlashgan? Xazina tushunchasi doim ham pul, moddiy boylik bilan o‘lchanavermaydi, deydi spektaklning rejissyori. Hayotimizdagi ma’naviy hazinalarimiz bu – bizning bobo-buvilarimiz, ko‘pni ko‘rgan qariyalarimizdir. Spektaklning nihoyasida – sen atrofingga qara har tomoningda qadriga yetishing kerak bo‘lgan bebaho insonlar bor, degan fikrni eshitgach, bebaho ekanligini, bu o‘tkinchi dunyoda mehmon ekanliklarini anglab yetishga undovchi umuminsoniy g‘oya borligini anglaymiz. Aslida ham, Zurikoning xazinalari, boyliklari uning – Olga buvisi, Iliko va Illarion amakilaridir. Ular sabab Zuriko sarguzashtlarga boy bolalik yillarini boshdan kechiradi. Maktabni tugatib, shahodatnoma olgach, uning kelajagi porloq bo‘lishi uchun qariyalar birgalikda yo‘nalish tanlaydilar va Zurikoni shaharga o‘qishga jo‘natadilar. Shahardagi o‘qishi davomida ham uni doim qo‘llab-quvvatlaydilar. Qishloqdan kelgan soddagina yigitning oliy ma’lumotli iqtisodchi diplomini olib qishloqqa qaytishi, qariyalarni va tomoshabinlarni quvontiradi.

Iliko va Illarionning munosabatlarida yumor, kesatish, kinoya, bir-birini oshkora tanqid qilish kabi jihatlarni ko‘rish mumkin. Ular o‘zlarini shunday sovuqqon tutsalar ham, ammo, ichlarida bir-birini juda yaxshi ko‘radigan, bir-birini yo‘qotishdan qo‘rqadigan, shu bilan birga bir-biriga sadoqat ko‘rsatadigan kishilardir.

Illarion obrazini namoyon etgan aktyor – Azamat Hazratqulov yosh bo‘lishiga qaramay o‘ziga topshirilgan qariya obrazini mahorat bilan ijro etgan. Yosh aktyor ijrosini ko‘rar ekanmiz, sahna sirlari bilan bog‘liq tasavvur va fantaziyasini ishga solish orqali Illarion obrazida haqiqiy gruzin qariyasini gavdalantiradi. “Tasavvur bor narsani, bor bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsani, bilgan narsamizni yaratadi, fantaziya esa yo‘q narsani, voqelikda uchramaydigan narsani, hech qachon bo‘lmagan va bo‘lmaydigan narsani yaratadi”. [4. B.374.] Demak, aktyorning tasavvuri, fikr yuritishi, sahnada maqsadli xatti-harakat qilishi va kechinmalarini tomoshabinlarga yetkazib berish uchun intilishi personaj xarakterini o‘zlashtirib, uni sahnaviy obraz yaratishi uchun imkoniyat tug‘diradi. Yosh aktyor – qariya Illarion obrazini yaratish uchun butun vujudi bilan ishga kirishganligi uning ijrosida yaqqol namoyon bo‘lgan. Natijada, o‘ziga xos xarakterli shaxsning sahnaviy obrazi vujudga kelgan.

Yolg‘iz o‘g‘li ikkinchi jahon urushiga ketgan, qaytishidan umidvor bo‘lib yashab yurgan Illarion bor mehrini Zurikoga beradi. Uning yonida doim birga bo‘lgan, kunda urushib-talashadigan do‘sti Ilikoga ham mehribon. Illarion urushga ketgan o‘g‘lidan ayrilganidan bexabar. Zuriko shaharda o‘qib yurganida bu gal jamg‘argan pullarini unga olib boradi, holidan xabar oladi va do‘stiga sovg‘a olishni ham unutmaydi, qaytib kelib Zuriko haqida hush xabar beradi.

Har bir sahnaviy obraz aktyordan o‘z tashvishlaridan butkul holi bo‘lishni, personaj xarakteriga va holatiga to‘liq o‘tilishini talab etadi. Bu talabni bajara olmagan aktyor tomoshabinni ta’sirlantira olmaydi. Uning ijrosi ijobiy natija bermay, ma’nisiz harakatga aylanib qolaveradi. Personaj xarakterini asar g‘oyasi bilan badiiy uyg‘unligi hamda aktyorning ijro mahorati spektaklni to‘liq tug‘ilishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy yaxlit spektaklning tug‘ilishi – ijodiy jamoa yaratgan san’at asaridir. “Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mo‘ljaldagi, xohishdagi ya’ni turmushning emotsional-irodaviy tomonlariga munosabat, uning ko‘rinmas, ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar ham muhrlangan bo‘ladi. Shuningdek, badiiy obrazda hayolot, bo‘yoq, tovush, so‘z va ijodiy bilimni ishlatish yo‘li bilan san’at asari yaratiladi”, [7.B.439.] Aktyor Azamat Xazratqulov – Illarion obrazini yaratar ekan personajining xarakterini, siymosini haqqoniy va hayotiy ifoda etishga erishgan. Tomoshabin uning ijrosini ko‘rib haqiqatdan ham uning Gruziyalik qariya ekaniga ishonadi.

Iliko obrazini sahnada gavdalantirgan yosh aktyor – Shukrullo So‘fiyev ijrosida yana bir gruzin qariyasi obrazini ko‘ramiz. Iliko ham yaqinlari uchun bor-budini beradigan, hech narsasini ayamaydigan qahramonlardan biridir. Aktyor sahnada

muayyan bir siymoni yaratar ekan, personajning ichki tug‘yonlarini, kechinmalarini, fikrlash tarzini, vujudini o‘sha inson sifatida his qilib, unga berilgan shart-sharoitda yashashga intiladi. Bunday murakkab vazifani yosh aktyor Shukrullo So‘fiyev uddasidan chiqqan. Uning samimiy kechinmalari, gruzin cholning xarakterini haqqoniy chiqishiga xizmat qilgan. Ikkala yosh aktyorning yaratgan obrazlari – spektaklni san’at asariga aylanishiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Zuriko shaharga o‘qishga kelganida Marta xolaning uyida ijarada yashaydi. Marta xola ham unga biram mehribon, uning hayoti uchun qayg‘uradigan qahramonlardan biridir. Aktrisaning bunday ijrosi ham samimiyligi bilan tomoshabinlar yodida qoladi. Sahnada bir marta ko‘ringanda tomoshabinni esida qolish kamdan kam aktyorlarga nasib qiladi. Marta xola poklonga chiqqanda tomoshabin uni alohida olqishlaydi. Demak, bu sahnaviy obraz ham o‘z vazifasini bajargan.

Talaba Zuriko shaharlik qiz Seri bilan uchrashuv sahnasida g‘ururli qiz uni sevib qolganligini aytadi. Zuriko Serini aldamasdan, uni sevmasligini, qishloqda o‘zi sevgan qizi borligini ochiq-oydin aytib, u bilan xayrlashadi. Mana shu ko‘rinishda gruzin qizining hamda yigitining mardligiga, guvoh bo‘lamiz. Sevib qolganini ochiq ayta olgan Seri rolining ijrochisi ham o‘ziga xos tuyg‘ularining samimiyligi bilan esimizda qoladi. Bu sahnaviy obraz ham spektaklning g‘oyasi ochilishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Spektaklning so‘nggida nabirasini oliy ma’lumotli qilgan inson sifatida niyatiga yetgan Olga buvining o‘limiga tayyorgarlik ko‘rish sahnasida – atrofidagilarni, ayniqsa nabirasini bu musibatga ruhiy tomondan tayyorlaydi. Sababi, nabirasining universitetni tamomlaganiga ishonch hosil qilib, o‘zidan keyin uni qiynalib qolmasigiga, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga amin bo‘lgandan so‘ng omonat jonini topshirish qaroriga keladi. U o‘z o‘limi yaqinligini bilib, avval Iliko va Illarionni xonadan chiqarib yuboradi, keyin nabirasi bilan yolg‘iz qolib, unga nasixatlarini aytib vidolashadi va uni ham xonadan chiqarib yuboradi. Olga yakka o‘zi qolgan holda omonatini topshiradi. Bu qaror yosh yigitning ruhini cho‘ktirmaslik, katta iroda bilan omonatni topshirish, gruzinlarga xos mag‘rurlikni ifodalaydigan falsafiy yechim edi. Bu sahnada Aziza Begmatova inson irodasini qudratini o‘ziga xos sukutda namoyish qiladi. Bu yechim sahnaviy obrazni yaxlitlikka va o‘ziga xos talqinga olib keladi.

O‘zbekiston davlat drama teatrida sahna yuzini ko‘rgan “Xazina” spektakli inson qadr-qimmati, mehr-oqibat, milliy g‘urur kabi tuyg‘ularni o‘zida qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi fazilatlar insonlar o‘rtasida kamayib ketayotgan bugungi jamiyatimiz kishilari uchun teatr ijodkorlarining tuxfasi va insonni asrash lozimligiga da’vat edi.

Xulosa shuki, teatr negizini rejissyor va aktyorlar jamoasi hamkorligi tashkil etgani sababli, sahnalashtirilgan har bir asarning muvaffaqiyatli chiqishi uchun talqin masalasi teatr ijodkorlarining yetakchi maqsadiga aylanishi zarur. Har qanday ijodkor aktyorning kasbiy ta’limi va hayotiy kuzatuvlari asosida yaratgan sahnaviy obrazining talqini namoyon bo‘ladi. Ijodkor aktyorning talqini, dublyorinikidan mutlaqo farq qilishining sababi ularning ichki tempo-ritmi, dunyoqarashi, bilimi va mahorati turli darajadadir. Bu borada rejissyorning talqinidan kelib chiqib ijod qilish aktyorlarning sahnaviy obraz yaratishdagi intilishiga asos bo‘lishini unutmaslik darkor. Rejissyor talqini va aktyor ijrosidagi sahnaviy obrazning mantiqiy talqinini bir-biriga mutanosibligi masalasi teatr san’atining o‘zagidir. Balki shuning uchun badiiy yaxlit spektaklning tug‘ilishi – iste’dodli rejissyorning maxoratiga, asardagi qahramonlarga jon kiritish esa aktyorlarning sahnadagi ijrosiga bog‘lik hodisa ekanligini anglash yildan-yilga dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Demak, teatrda spektaklni san’at asari darajasida tug‘ilishida rejissyorning o‘rni va to‘g‘ri talqinning ahamiyati katta. Shunday ekan, rejissyor teatr jamoasining ijodiy muhitiga javob bera olsagina, aktyorlar asarning g‘oyasini va rejissyor talqinini amalga oshirishga intiladi va badiiy yaxlit spektakllar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rizayev O. Nabi Rahimov: -T.: G‘afur G‘ulom, 1997.
2. Imomov B. Dramaturgik mahorat sirlari. -T.: G‘afur G‘ulom, 1991.
3. Umarov E. Obrazlar dunyosida. -T.: G‘afur G‘ulom, 1979.
4. Stanislavskiy K. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.3. -T.: Badiiy adabiyot, 1965.
5. Umarov E. Teatrda badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari. -T.: Star poligraf, 2011.
6. Stanislavskiy K. Aktyorning o‘z ustida ishlashi.T.3. -T.: Badiiy adabiyot, 1965.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T-6. -T.: O‘zME, 2003.

INKLYUZIV TA'LIM: IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH UCHUN ULARGA CHET TILLLARINI O’RGATISHNING AHAMIYATI

Azizova Durdona Avazbek qizi
Xalqaro Nordik universiteti ingliz tili katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning ahamiyati, o’rni va uning nogirronligi bor bolalar uchun ahamiyati to’g’risida va shunday bolalarning o’qitilish usullari haqida ma’lumotlar beriladi. Ayniqsa chet tilining o’rganishning ahamiyati va muhimligi ham keltirilgan.Inklyuziv ta'lim barcha bolalar qatorida imkoniyati cheklangan bolalarga ham o’zlarini imkoniyatlarini sinab ko’rishga va ulardan unumli foydalanishga o’rgatishga qaratilgan ta’lim turi hisoblanadi va shu ta’lim bolalarning o’z hayotda o’z o’rnilarini topishga yordam berishidir. Imkoniyati cheklangan bolalarga ular boshqa oddiy bolalar kabi yutuqlarga erisha olishlari va uning uchun til, zamonaviy texnologiyalarning o’rni ahamiyati inkluziv o’qitish orqali yetqaziladi.

Kalit so’zlar: inklyuziv, bayonot, YUNESKO, metodologiya, tamoyillar, usullar, chet tili, diskriminatsiya, hamkorlik, qo’shimcha materiallar, zamonaviy texnologiyalar, qiziquvchanlik, rahmdillik.

Kirish

Avvalo inklyuziv usul nima savoliga javob topamiz. Inklyuziv so’zi ingliz tilidan “ inclusion” (qo’shish) so’zidan kelib chiqqan bo’lib, uning ma’nolari - ”adolat” erkinlik berish” kabi atamalarga ham borib taqaladi. Ilk bor maktablarda yakka tartibda inkluziv metodini qo’llashni 1994 yilda ishlab chiqilgan Salamanka bayonoti va Maxsus ehtiyojlar bo'yicha ta'lim bo'yicha harakatlar asosi, YUNESKO iqtibosida ko'rish mumkin. Salamanka hujjatida har bir bola o'ziga qarashli bo’lgan (hududga) maktablarda, ta’limning xilma-xil usullaridan foydalanishi va imkoniyatlarini rivojlantirishi mumkinligi haqida va buni inklyuziyaning me’yoriy tamoyillari qo’llab quvvatlashi haqida so’z boradi (1). 2017-yilda Nilholm va Göransson o’z maqolasida ta’kidlaganidek, inklyuziyaning asosiy kontseptsiyasi faqat ma'lum guruhlar yoki odamlar toifalariga taalluqli deb hisoblashadi, boshqalari esa inklyuziya ta’limi hamma uchun yoki umumiy qo’shib o’rgatish uchun deb hisoblashgan (2).

Shuningdek, 2020- yilda Azorin va Ainscowlarning olg’a surgan go’yalariga ko’ra, inklyuziv amaliyot yoki o’qitish metodologiyasi va rivojlanishini tushunib, uni amalda ta’kidlab qo’llash, turli mamlakatlarda turlicha bo’ladi (3). Shuningdek,

inklyuziv ta'limni tadqiq qilish va uni nima ekanligini tushuntirish ham har xil rivojlanishi mumkin.

Quvonarlisi shundaki, aynan inkluziv ta’limni rivojlantirish borasida ham yurtimizda keng ishlar olib borilmoqda. Aynan shu ta’lim borasida prizidentimiz qonun va qarorlar bilan uni ta’kidlaganliklari, bu ta’lim uchun qo’yilgan eng oliy va birinchi qadam hisoblanadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta;lim tarbiya berishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida” nomli qarori o’z tasdig’ini topdi. Shu qaror natijasida, ko’plab maktablarda va maxsus ta’lim muassasalarida ko’plab ishlar olib borilmoqda (4).

Ushbu maqoladan maqsad, inklyuziv ta’limni yurtimizda yana ham barqarorlashtirish uchun ko’maklashish va shu ta’limning foydali taraflari bilan bo’lishishni maqsad qilgan. Inklyuziv usulda ta’lim berishdan oldin, o’qituvchi uning usullarini bilishlari kerak. Inklyuziv ta’limni o’qitish va undan samarali natija olish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu ta’lim yo’nalishida yaxshi natijalarga erishish uchun avvalo imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqot qilishni takomillashtirish va uning usullariga alohida urg’u berilishi kerak.

Chet tili (ingliz)ni imkoniyati cheklangan bolalarga o’rgatilishi, ularga zamonaviy texnologiyalardan qiyinchiliksiz foylanalishlariga, dunyo bo’ylab berib borilayotgan yangiliklar bo’yicha o’zlarining munosbatlarini biliraolishlariga ham yordam beradi. Eng ahamiyatlisi ingliz tili bilan imkoniyati cheklangan bolalar, huddi sog’lom bolalar kabi ishga va o’qishga qabul qilinishlari mumkin. Shuning uchun ham til o’rgatish ahamiyatli hisoblanadi.

Ushbu maqolada shuningdek, biz chet tilini tadbiq etishda, olti samarali ta’sir etuvchi usullarni ko’rib chiqamiz. Berilgan olti usulida nimalarga ahamiyat berish kerakligi ham keltirib o’tilgan. Ular quyidagilar:

- Qo’shimcha materiallardan foydalanish;
-Hamkorlik;
-Turli xil baholash usullari;
-Tengdoshlarini qo’llab quvvatlash;
-Bir-biriga bo’lgan qiziquvchanlik va rahmdillik;
-Ta’limda ota-onaning va o’qituvchining faol o’rni.

Tahlil va natijalari:

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, imkoniyati cheklangan bolalarning til o’rgatishdagi qiziqishlarini takomillashtirish uchun juda ham ko’p tadqiqotlar olib

borilganli va bu ta’lim zarurligi va yurt ravnaqi uchun muhimligi prezidentimiz qarorlarida ham o’z aksini topganligini ko’rishimiz mumkin. Shuningdek tahlil natijalariga ko’ra, yuqorida keltirilgan sakkiz usul inkyuziv ta’limni rivojlantiorish uchun foydali bo’lib, xizmat qiladi. Ularni quyida kengroq tahlil qilinganligini ko’rishimiz mumkin**.**

Qo’shimcha materiallardan foydalanish bu - nogiron o'quvchilarni o’qitishda ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularga foyda keltiradgan va ishlatishga qulay bo’ladgan materiallardan foydalanishni o’z ichiga oladi. Bu usulda o’qituvchi shunday qo’shimcha materialni tanlashi kerakki, bola uni qo’llashda qiyinchilikka uchramasligi kerak. Masalan, tayyorlangan slaydli yoki videoli materiallarda ranglarni bir biriga mos kelishi va bolalar uchun u ko’rinarli ekanligini ta’minlash.

Hamkorlik: Inklyuziv usulda bolalar o'rtasida hamkorlik va tengdoshlari bilan bir-birini qo'llab-quvvatlashni o’rgatish. Hamkorlikni rivojlantirish uchun, ularda avvalo hammasi teng ekanlligi va qo’shilib bir jamoadek ishlashi mumkinligini tushuntirish. Guruh bo’lib ishlashga undash va loyiha tayyorlashga o’rgatish.

Turli xil baholash usullari:Baholash usullari deyilganda avvalo bolalarni rag’batlantirishni nazarda tutiladi. Darslarga mos keladgan baholash usullarini qo’llash va bolalarning qobilyatini to’g’ri baholashni nazarda tutiladi. Baholash turlariga og’zaki, yozma, va maxsus yorliqlar (stikerlar) dan foydalanish, imkoniyati cheklangan bolalarni o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini ortishiga sabab bo’ladi.

Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash: o’rganishdagi hamkorlik har doim samarali natijalarni ko’rsatgan. Sababi bola, bola tilidan tezroq tushunib oladi va u uchun qayta so’rash yoki tushunmagan atamani yoki holatini ochiq ayta olish tengdoshi bilan qiyinchiliksiz bo’ladi. Ayniqsa, nogiron bolalarda to’g’ridan to’g’ri muloqotga kirishish oson kechmaganligi uchun, tengdoshi bilan hamkorlik- o’qituvchi bilan hamkorlik qilishdan ko’ra osonroq bo’ladi. Hamkorlikdagi ta'lim faoliyati, do'st tizimlari va inklyuziv o'yin vaqti orqali tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar va do'stlikni yo’lga qo’yish va vaqti vaqti bilan uni rag’batlantirish inklyuziv ta’limga samara olib keladi.

Bir-biriga bo’lgan qiziquvchanlik va rahmdillik:inklyuziv ta’limda bolalarning boshqa bolalardan farqli ekanligiga ahamiyat qaratmaslik yani “diskriminatsiya” (bolalarni bir birini ajratishi) ga yo’l qo’ymaslik ham ko’zda tutilgan. Shuningdek, bu usulda ilgari surilgan g’oya asosan,hammamiz tengligimiz va hammamizda bir xil imkoniyatlar va qiziqishlar borligini har bir o’rganuvchiga singdirish hisoblanadi. Shuningdek, bir-birga bo’lgan rahmdillikni, nogironligi sezilarni bo’lgan bolalarga hurmat ko’rsatishni yoki ularni hafa qilmaslik ma’daniyatini o’rgatish ham ayan shu usulda o’z aksini topadi. O’qituvchi bu usulda bolalar o’rtasida qabul qilish, kechirish, rahmdillik, bir- biriga bo’lgan sezuvchanlik va mehribonlikni ko’rsatish ma’daniyati va qadiryati singdirishi usulning samarasi hisoblanadi.

Ta'limda ota-onaning va o'qituvchining faol o'rni: Inklyuziv ta'limda nafaqat bolaning o'zini aktivligi, balki uning yaqinlari. Ayniqsa ota-onasining aktivligi ham muhim ahamiyatni kasb etadi. Faqatgina ta'limda ota-ona, farzand va o'qituvchining uzviy aloqadaligi muloqotdaligi va do'stona aloqalari muvaffaqiyat olib keladi. Ota-onalar bilan bolaning maqsadlari, faolligi, yutuqlari va kamchiliklari ustida birgalikda ishlansa, imkoniyati cheklanganligiga qaramasdan, uni o'zini qobilyatlariga ishontirilsa, inklyuziv ta'lim faqatgina foyda oliub keladi. Imkoniyati cheklangan bolaga eng avvalo uydagi va maktabdagi muhitning qulayligi, yoki unga befarq emasligi juda katta kuch beradi. Aynan shu muntazam faolliklni olib borish uchun ham bu usul ahamiyatli hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'lim usullarini ingliz tilini o'rgatishda qo'llanilishi va undan yaxshi samara olish uchun internet resurslaridan ko'plab tadqiqotlarni ko'rib chiqqan holda inklyuziv usulni rivojlantirish jamiyat rivojiga katta foyda berishini ko'rish mumkin. Masalan, tilni o'rgatishda hamkorlik qilib o'rganilishi va qo'shimcha materiallarni yaxshi tanlab ishlatilishi, bolalarga berilgan imkoniyatlarni yana ham oshiradi.

Xulosa: Keltirilgan fikrlardan shuni xulosalash mumkinki, inklyuziv ta'lim usuli ko'zga tutilgan maqsadlarga erishishi mumkin, qachonki olti usul teng ishlashini muvozanatda ushlansa.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarga tilni o'rgatishda unga qo'shimcha materiallarning berilganligini, bola dars davomida o'zini qanday tutayotganligi yoki qay holda tengdoshlari bilan hamkorlikka kirishayotganda uning faolligiga ahamiyat berish ham ta;limda muntazam samarani ushlab turish uchun sabab bo'ladi. O'qituvchidan talab qilinadgan eng asosiy hususiyat, nogiron bolalarni o'qishga va ta'limga qiziqtirishda sabr- matonatli bo'lishlari va darsga, bolaga mos hamma o'quv qurollarini tayyorlashni ko'zga tutiladi. Bunday bolalarga chet tili (ingliz tili asosan) o'rgatishning ahamiyati, ularning hayotda va jamiyatda yetuk shaxs bo'la olishlariga yordam berolishidir. Bunday bolalar til yordamida, uydan turib yokida oddiy sog'lom bolalar bilan muloqot qilmasdan ham, zamonaviy texnologiyalar yordamida tilni ishlatishlarini ko'rsatib beraolishdir. Imkoniyati cheklanganligiga qaramasdan, til bilgan bola, hayot resurslari uchun va o'zi uchun har bir imkoniyatdan foydalana olishda, inklyuziv ta'limning o'rni va ahamiyati beqiyos. Yuqorida keltirilgan, 2020-yilda Azorin va Ainscowlarning olg'a surgan go'yalariga qo'shilgan holda tilni turli usullarda o'rgatishni qamrab olish kerakligi tarafdoriman. Aynan shuning uchun ham, yuqoridagi olti samarali usulni amaliyotda qo'llanilishini tarafdoriman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. UNESCO. 2020. Towards inclusion in education: status, trends and challenges: the UNESCO Salamanca Statement 25 years on.

2. Nilholm, C., and K. Göransson. 2017. "What is Meant by Inclusion? An Analysis of European and North American Journal Articles with High Impact." European Journal of Special Needs Education 32 (3): 437–451. doi: 10.1080/08856257.2017.1295638

3. Azorín, C., and M. Ainscow. 2020. "Guiding Schools on Their Journey Towards Inclusion." International Journal of Inclusive Education 24 (1): 58–76. doi: 10.1080/13603116.2018.1450900

4. https://lex.uz/docs/-5044711

LINGUACULTURAL SIGNIFICANCE OF METAPHORS USED IN RELIGION

Haydarova Umida
Teacher Fergana state university Applied English department
Mahmudova M.
4th year student Fergana state university Applied English department

Annotation. Metaphors are powerful linguistic tools used to convey abstract concepts and deepen our understanding of the world. They serve as bridges between the tangible and intangible, allowing us to grasp complex ideas through familiar imagery. In the Islamic religion, metaphors play a significant role in communicating profound spiritual and philosophical concepts, enriching the tapestry of Islamic thought and expression.

Keywords: Metaphors, linguacultural significance, hadith, religion.

1. Introduction.

Metaphors are powerful linguistic tools used to convey abstract concepts and deepen our understanding of the world. They serve as bridges between the tangible and intangible, allowing us to grasp complex ideas through familiar imagery. In the Islamic religion, metaphors play a significant role in communicating profound spiritual and philosophical concepts, enriching the tapestry of Islamic thought and expression. This article explores the use of metaphors in Islamic religion and their linguacultural significance.

Islamic religious texts, such as the Quran and Hadith, employ vivid metaphors to communicate spiritual truths. These metaphors often draw upon natural phenomena, human experiences, and cultural symbols, allowing believers to relate to and internalize religious teachings more deeply.

a) Light: Light is a recurring metaphor in Islamic texts, symbolizing divine guidance, knowledge, and spiritual enlightenment. For example, the Quran often refers to Allah as "the Light of the heavens and the earth," highlighting the concept of illumination and the pursuit of divine understanding.

b) Journey: The metaphor of a journey is frequently employed in Islamic literature, representing the spiritual quest for closeness to God. Believers are encouraged to embark on the metaphorical journey of self-discovery, self-improvement, and seeking divine guidance. This metaphor emphasizes the transformative nature of faith and the continuous striving for spiritual growth.

c) Garden and Paradise: The metaphor of a garden or paradise is used to describe the rewards and blessings awaiting believers in the afterlife. These

metaphors evoke images of lush gardens with flowing rivers, symbolizing the ultimate bliss, tranquility, and abundance that await the righteous.

2. Linguacultural Significance of Islamic Metaphors.

Metaphors in Islamic religion not only convey religious concepts but also reflect the cultural and linguistic characteristics of Muslim communities. They provide a rich tapestry of shared symbols and meanings that contribute to the linguistic and cultural identity of Muslims across different regions and languages.

- Arabic as a Language of Metaphors: Arabic, the language of the Quran, is known for its poetic and metaphorical nature. Islamic metaphors are deeply embedded in the Arabic language, shaping the linguistic and cultural landscape of Muslim societies. This linguistic richness allows for multiple layers of meaning and fosters a deeper engagement with religious texts.
- Cultural Specificity: Islamic metaphors often draw upon cultural symbols and practices, reflecting the diverse cultures and traditions of Muslim communities worldwide. For example, metaphors related to desert life, camel caravans, and agricultural practices find resonance in Arab and Bedouin cultures, while metaphors rooted in trade and commerce resonate with the merchant traditions of Muslim societies.
- Universal Appeal: Despite their cultural specificity, Islamic metaphors possess a universal appeal, transcending linguistic and cultural boundaries. The use of metaphors enables Muslims from different backgrounds to connect with shared religious concepts, fostering a sense of unity and understanding within the global Muslim community.
- Divine Names and Attributes: Metaphors are frequently employed in Islamic theology to describe the attributes of Allah. For instance, Allah is often referred to as "Al-Rahman" (the Merciful) and "Al-Rahim" (the Compassionate), highlighting the divine qualities of mercy and compassion. These metaphors allow believers to comprehend and connect with the benevolence and kindness of God.
- Prophetic Metaphors: The teachings and sayings of the Prophet Muhammad (peace be upon him) also make use of metaphors to convey moral and ethical principles. Prophetic metaphors, such as the metaphor of a mirror reflecting one's character or the metaphor of a tree and its fruits representing good deeds, offer practical guidance and lessons for believers.
- Metaphors in Sufi Mysticism: Sufism, the mystical dimension of Islam, utilizes metaphors extensively to express spiritual experiences and concepts. Sufi poets, such as Rumi and Hafiz, employ metaphors drawn from nature, love, and the longing for the divine to convey the ineffable experiences of union with God. These metaphors evoke emotions and invite readers to delve into the depths of mystical contemplation.

•Metaphorical Interpretation: Islamic scholars and exegetes often employ metaphorical interpretation (ta'wil) to elucidate the deeper meanings of Quranic verses. This approach recognizes that some verses contain metaphorical language, requiring interpretation beyond literal understanding. Metaphorical interpretation allows for a nuanced understanding of religious texts, emphasizing the layered nature of divine revelation.

•Metaphors in Islamic Art and Architecture: Metaphors in Islamic religion extend beyond textual expressions and find their way into various art forms and architectural designs. Islamic art frequently employs geometric patterns and floral motifs, which symbolize the divine order and unity of creation. These metaphoric representations serve as visual reminders of the underlying spiritual truths.

•Cultural Adaptation: As Islam spread across different regions, it interacted with local cultures and traditions, resulting in the adaptation of metaphors to reflect the specific linguistic and cultural contexts. Metaphors used in Islamic literature in Persian, Urdu, Turkish, and other languages have their own unique linguistic and cultural nuances, enriching the broader Islamic literary landscape.

3. Conclusion.

Metaphors in Islamic religion serve as powerful tools for conveying profound spiritual and philosophical ideas. They enrich the understanding of Islamic teachings, allowing believers to relate to abstract concepts through familiar imagery. Islamic metaphors also reflect the linguistic and cultural characteristics of Muslim communities, fostering a sense of identity and unity. Through the richness of metaphors, the Islamic tradition continues to inspire and guide millions of individuals on their spiritual journeys, evoking a profound connection to the divine.

Overall, metaphors in Islamic religion and their linguacultural significance serve to deepen the understanding and appreciation of Islamic teachings. They bridge the gap between the abstract and the concrete, allowing individuals to connect with profound spiritual concepts. These metaphors not only shape the linguistic and cultural identity of Muslims but also foster unity, empathy, and a shared understanding among believers worldwide.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yunusova Z., Haydarova U. The Semantics and Use of the Verb „Open "in Different Spheres of Uzbek Language //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 121-123.

2. Haydarova U., Mo'Minova G. Kognitiv lingvistikada metafora masalasi va ularning yapon mumtoz manbalarida ifodalanishi //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 59-63.

3. Abduolimova M. N. Q. Kognitiv metafora nazariyasi: yangi yo ‘nalishlar //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 153-161.

4. Sotvoldiyeva H., Haydarova U. Yoshimoto banana asarlarida xursandchilik ma'nosini ifodalovchi sifatlar semantikasi //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 3.

5. Haydarova U., Sotvoldiyeva H. «Tugumi» asarida qo ‘llangan xursandchilikni ifodalovchi sifatlar semantikasi //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 21.

6. Haydarova U., Dumachova O. The description of the worlds which are related to “water” in english literature //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 5.

7. Umida H. Ingiz adabiyotida suv konsepti (uilyam shekspir asarlari misolida) //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – №. 1. – C. 26-29.

8. Sarvinoz A., Maftuna A. Linguocultural pecularities of the uzbek geortonym navruz //ijodkor o'qituvchi. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 180-186.

9. Abduolimova M., Kosimov A. The importance of conceptual metaphors and modern problems in cognitive linguistics //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 282-287.

10. Haydarova U. SEMANTIC FEATURES OF “WATER” AND RELATED CONCEPTS USED IN ENGLISH CLASSIC LITERATURE “BEOWULF” //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 14.

11. Haydarova U. INGLIZ MUMTOZ ADABIYOTI “BEOVULF” DA QO’LLANGAN “SUV” VA U BILAN BOG’LIQ TUSHUNCHALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 9. – C. 447-451.

12. Umida H. TURLI TILLAR MADANIYATIDA METAFORA VA SUV TUSHUNCHASI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 190-193.

IJODKOR SHAXSNING BADIIY DID VA AXLOQIY MADANIYATI

Feruza Karayeva
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Dramatik teatr va kino san'ati" o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada aktyor tarbiyasidagi eng murakkab bo'lgan badiiy didi va axloqiy madaniyatini tarbiyalashga e'tibor qaratilgan. Yuksak did va olijanob maqsadgina jamoadagi barqaror estetik muhit va samarali faoliyatni ta'minlashga imkon yaratadi.

Kalit so'zi: badiiy did, axloqiy madaniyat, trening, aktyor, rejissyor, teatr, kechinma, taqlid, san'at, rol, ijro, timsol, tomoshabin, aktyorlik mahorati.

Аннотация: данная статья посвящена вопросам воспитания художественного вкуса и нравственной культуры, что является наиболее сложным аспектом актерского воспитания. Только высокий вкус и благородная цель позволяют обеспечить стабильную эстетическую обстановку и эффективную работу в коллективе.

Ключевые слова: художественный вкус, нравственная культура, подготовка, актер, режиссер, театр, опыт, подражание, искусство, роль, спектакль, символ, зритель, актерское мастерство.

Abstract: this article focuses on the cultivation of artistic taste and moral culture, which is the most complex aspect of actor education. Only a high taste and a noble goal make it possible to ensure a stable aesthetic environment and effective work in the team.

Key words: artistic taste, moral culture, training, actor, director, theater, experience, imitation, art, role, performance, symbol, audience, acting skills.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tuzish yo'lini tanladi. Davlatimiz rivojlanishining asosiy shartlaridan biri kadrlar tayyorlash milliy tizimini takomillashtirish bo'lib, bu bilan natijada jamiyatning boshqa sohalari - iqtisod, ta'lim, san'at, madaniyat, texnika va texnologiyani rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limning bosh vazifasi – chuqur fundamental bilimli va amaliy jihatdan to'laqonli bilimga ega, ko'p qirrali mutaxassislarni tayyorlashdir. San'at va madaniyat sohasida shakllanadigan ijodkor mutaxassislar badiiy ijodning asosiy qonuniyatiga, ya'ni, hayotni anglash va tasvirlash tamoyiliga amal qilmoqlari lozim. Zero, hayotni yaxshi bilmay turib, to'laqonli ijod qilib bo'lmaydi. Hayotni anglash jarayoni ikki tomonlama olib boriladi. Binobarin, anglash, avvalo, aniq dalillarni his qilishdan boshlanadi. Bu bizning nigohimizga bog'liq, jonli xayollarimiz orqali ko'rinadi. Bu narsa

kuzatuvlarimiz orqali boyib, ko‘payib boradi. Bunda o‘z bilimimiz kamlik qilsa, ustozlar tajribasidan, shuningdek har xil manbalardan: badiiy-tasviriy, tarixiy, hayotiy xodisalardan foydalanamiz. Dalillarni to‘plash jarayoniga voqelikni ichki fikrlash, jarayonlarni tahlil qilish, tajribalarni umumlashtirish qo‘shiladi. Ana shu ikkala jarayonning umumlashmasi orqali anglash omili ro‘yobga chiqadi. Bu birlamchi bosqich bo‘lsa, ikkinchi muhim bosqich - aktyorlarning ijodiy fikrlash omilidir. Bu ikki bosqich orqali badiiy obrazning shakliy ifodasi paydo bo‘ladi. Demak u, ijodkorning ongida paydo bo‘ladi, keyin esa uning ijodi mahsuliga aylanadi. Ijodkorlarning maxsuli tug‘ilishiga, birinchi navbatda aktyorlik san’ati maktabida ijodkor shaxsning badiiy didi va axloqiy madaniyatini tarbiyalash muhim axamiyat kasb etadi.

“Har bir insonning badiiy saviyasi, didi, axloq-odobi, ma’naviy qiyofasi g‘oyaviy tamoyillardan hosil bo‘ladi. Ammo birgina axloq-odobning o‘zi shaxsning «badiiy saviyasi» yuksakligidan dalolat bermaydi. Badiiy saviya - ijodkorni o‘zini qurshab turgan muhitga nisbatan munosabatlar yig‘indisidir. Bu munosabatlar shahsiy hususiyatga ega bo‘lib, u tabiat, jamiyat va inson, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy, etik va estetik qarashlardan iboratdir. ” [1.B.7-8].

Teatr san’atida aktyorning didi chuqur bilim hamda yuksak estetik hissiyotdan tashkil topadi. Teatr san’ati umumjamoaning ijodi bo‘lib, aktyorga umuminsoniyat bilan bog‘liq burchni yuklaydi. Bunda uning jamoa uchun, jamoaning aktyor uchun javobgarligi e’tiborga olinadi. Shu sababli ham azaldan teatr san’atining buyuk darg‘alari yosh aktyorlarni tarbiyalashda axloqiy, estetik tarbiyani birlamchi hisoblaganlar.

Bo‘lg‘usi ijodkor teatr sahnasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilishi, o‘z bilimdonligi, dunyoqarashining teranligi bilan boshqalarni o‘z orqasidan muayyan maqsad sari yetaklashi, mukammallikka intiluvchi shaxs sifatida shakllanishi kerak. M.Uyg‘ur, YE.Bobojonov, M.Muhamedov, N.Aliyeva, L.Xo‘jayeva, A.Hidoyatov, SH.Burhonov, O.Xo‘jayev, Z.Hidoyatova, S.Eshonto‘rayeva, N.Rahimov, L.Sarimsoqova, R.Hamroyev, H.Umarov, T.Ja’farova, M.G‘ofurov, A.Abdurahmonov va boshqalar o‘zlarining ijodlari bilan nafaqat o‘zbek teatri tarixini, balki jahon teatr san’ati maktabini yanada boyitib, uni yanada badiiy yuksak darajaga ko‘tardilar.

Teatr rejissyorlari A.Ginzburg, I.Radun, M.Uyg‘ur, Y.Bobojonov, T.Xo‘jayev, R.Hamroyev, R.Boboxonov, B.Yo‘ldoshev, B.Nazarov, T.Azizov, M.Abdullayeva, J.Mahmudov va boshqalar o‘zbek teatrida o‘z rejissura maktabini, K.Yormatov, SH.Abbosov, M.Muhammedov, H.Fayziyev, L.Fayziyevlar kino va televideniyeda o‘z rejissyorlik maktabini yaratib, boy madaniy meros qoldirdilar.

Talaba, avvalo, go‘zal xulq-atvorli, yuksak madaniyatli, ko‘p qirrali, bilimdon inson bo‘lishi bilan birga, san’at, teatr maktabi qonun-qoidalarini chuqur

o‘zlashtirgan hamda san’at etikasini – axloqiy madaniyatni o‘zida mujassamlashtirgan shaxs bo‘lishi shart. Bu – davrning, san’at ta’limotining birlamchi talabidir. Shu bois mukammallikka intilgan har bir ijodkor ana shu talabni o‘zida tarbiyalashi shart. Unda buyuk g‘oyalarni targ‘ib qilish tuyg‘usi tarbiyalangan bo‘lishi lozim. Yetuk aktyorda badiiy xotira kuchli va hissiyotli bo‘lishi kerak. Chunki ichki hissiyotni, hislat va fazilatlarni tashqi tasvir texnikasi orqali ifodalab bo‘lmaydi. Qalbiga yuksak g‘oyalarni jamlay olgan va uni o‘ziniki deb hisoblaydigan aktyorning yaratgan obrazi tomoshabinlarda ham haqiqiy va samimiy munosabat uyg‘otadi. U xoh salbiy, xoh ijobiy obraz yaratar ekan, muxlislarida unga nisbatan mehr yoki qahr uyg‘onadi.

“Biz yashab turgan zamonamizda ideal, mutlaq barkamol insonlarning yo‘qligi aniq fakt. Ammo barkamollikka intiluvchi insonlar mavjud. Aktyor qaysidir bir obraz qiyofasini yaratar ekan, o‘zining emotsional xotirasiga murojaat qilishi tabiiy. Albatta, dastlab u o‘zidagi ushbu hislatlarni tushunib yetmog‘i shart. Har bir insonda salbiy, ijobiy emotsional xotira mavjuddir. Ammo unda salbiy hislatlar ko‘plab topiladi. Ularni ta’kidlovchi vosita ong hisoblanadi. O‘z emotsional xotirasidan foydalangan ijodkorgina sahnada yuksak san’at asarlari yaratadi. Bunday muvaffaqiyat asosida eng ezgu maqsad yotadi”.

Demak, teatr ijodkori teatr binosiga yaxshi hislat, yaxshi kayfiyat, yaxshi niyat bilan qadam qo‘ymog‘i lozim. Ijodga xalal beruvchi g‘iybat, arzimas orzu-tashvishlarni, yomonliklarni, hasad va ig‘vo, mayda-chuyda gaplarni olib kirmasligi shart. U halol va yuksak didli, ma’naviy barkamol qiyofada o‘z jamoasiga kirishi lozim. Bu jarayonda o‘ziga xos individual munosabatni yo‘lga qo‘ygan holda talabaning qalbiga yaqinlashamiz. Bu esa o‘z navbatida talaba va ustoz munosabatida samimiylik, mehr-oqibat, pokdomonlik munosabatini shakllantiradi. Buning oqibatida yaxshi fazilatlar: sodiqlik, mehr-oqibat, qadr-qimmat hislatlari rivojlanadi. Buning uchun talabani yo‘naltirish, uning bilan mashqlar, terninglar ustida tinimsiz ish olib borish zarur. “Qo‘shiqchilarga–vokaliz, raqqoslarga– ekzersis, sahna artislariga - trening va ta’lim-tarbiya kerak bo‘ladi” [2. B. 98].

Badiiy didni shakllantirishda atrof-muhitga, atrofdagilarga bo‘lgan munosabat ham muhim ahamiyatga egadir. Talaba o‘zida badiiy did va axloqiy madaniyatni shakllantirar ekan, u o‘rnak bo‘lishdek darajada boshqalardan ajralib turishi lozim. Shunda u o‘z atrofidagilarni ortidan ergashtira oladi. Boshlovchi qay darajada go‘zal nutqli, bilimdon, madaniyatli, ma’naviy yetuk bo‘lsa, uning badiiy didi ham namunali bo‘ladi. “Mana bu odam chiroyli gapirar ekan, qani o‘shanga o‘xshasang”, deb bekorga aytilmaydi-ku.

Teatr san’ati tarixidagi allomalarning hayotiga nazar tashlasak, oddiylik, kamtarlik va soddalik ulardagi bebaho insoniy fazilat bo‘lgan. Ana shunday hislatlari bilan el og‘ziga tushganlar va hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lganlar. Aytish

mumkinki, bu fazilatlar ularning yuksak axloqiy madaniyatga ega bo‘lganidan guvohlik beradi. Masalan, SH.Burhonov, O.Xo‘jayev, L.Sarimsoqova, S.Eshonto‘rayevalar teatrdagi hayotlarini, ya’ni sahnadagi, obrazdagi hayotlarini teatr binosidan chiqishlari bilan esdan chiqarganlar. Ular hayotda oddiy insonga aylanib, xushmuomala, kamtar, sodda bo‘lganlar. Xalq orasida o‘zini “Men – artistman” demaganlar. Ammo ular o‘zlarining nozik badiiy didlari darajasini hamisha saqlaganlar. Bu insonlar muloqotda kamtar, muomalada shirinsuxan, sodda va tabiiy bo‘lganlar. Ular bilan muloqotda bo‘lgan insonlar san’atkorlarimizning olijanob, halol insonlar ekaniga lol qolganlar va ularni ichki qalb bilan hurmat qilganlar.

Buyuk san’atkorlarning ijodiy, hayotiy tajribalarini o‘rganish har bir ijodkorning badiiy didi mukammallashishida, aktyorlikning axloqiy madaniyatini o‘zlashtirishda juda qo‘l keladi.

Ustoz–murabbiyning o‘zida, avvalo, badiiy didning asosi bo‘lgan nazariy bilimlar va estetik did uyg‘unligi mujassam bo‘lishi kerak. Ana shundagina u o‘quv jarayonida o‘zi istagan natijaga erishadi. Ustoz mashg‘ulot davrida qilingan ishni to‘g‘ri tahlil qilishi lozim. Nojo‘ya dakki yoki haddan tashqari maqtov talabani noto‘g‘ri tarbiyalashga olib keladi. Noo‘rin dakki talabalarga foyda emas, zarar yetkazishi mumkin. Tarbiyada, ayniqsa, san’at jabhasida haqiqat asosiy mezondir. Shu bois ustoz talabadagi to‘g‘ri fikrni quvvatlashi va uni yanada rivojlantirishi kerak. Uning ishida hayotiy haqiqat aks etmasa, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi shart.

Ma’lumki, aktyor o‘z kasbi bilan davr mafkurasining targ‘ibotchisi hamdir. Bu uning muayyan g‘oya uchun kurashuvchanligida namoyon bo‘ladi. G‘oya targ‘ibotchisi sifatida aktyor xalq oldida, davlat oldida, o‘z jamoasi oldida, pyesa muallifi oldida, sahnadoshi oldida, va o‘zi oldida mas’uliyatni his qila bilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Mahmudov..X.Maxmudova . Aktyorlik mahorati. –Toshkent, 2014.
2. K.S.Stanislavskiy. Saylanma, “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. T.Xo‘jayev tarjimasi. – T., 2010.

O‘ZBEK REJISSURASI VA AKTYORLIK MAKTABLARI

Qahramon Madrimov
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti "Dramatik teatr va kino san’ati" kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola bugungi kundagi rejissyorlar va aktyorlarning o‘zbek badiiy kinosining tahlil qilish jarayonida ularning yutuq va kamchiliklari o‘rganilgan, zarur taklif-mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga hozirda o‘zbek kinosida rejissyorlar filmlari misolida iqtidorli aktyorlar va operatorlar ijodi ko‘rib chiqiladi. Rejissyorlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy va telenovella filmlari professionalizm nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Badiiy filmlardagi mavjud muammolarni bartaraf etishga oid taklif va mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: rejissura, san’at, kino, obrazlilik, aktyor, dramaturg, sahna, talqin, g‘oya.

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются достижения и недостатки современных режиссеров и актеров в процессе анализа художественного кино Узбекистана, а также вносятся необходимые предложения и комментарии. При этом работа талантливых актеров и операторов рассматривается в узбекском кино как образец режиссерского кино. Художественные фильмы и теленовеллы, созданные нашими режиссерами, анализируются с точки зрения профессионализма. Даны предложения и комментарии по устранению существующих проблем в художественных фильмах.

Ключевые слова: режиссура, искусство, кино, образность, актер, драматург, сцена, интерпретация, идея.

Abstract: this scientific article examines the achievements and shortcomings of today's directors and actors in the process of analyzing the Uzbek art cinema, and makes the necessary suggestions and comments. At the same time, the work of talented actors and cameramen is considered in Uzbek cinema as an example of directors' films. Feature films and telenovelas created by our directors are analyzed from the point of view of professionalism. Proposals and comments on the elimination of existing problems in feature films are presented.

Key words: directing, art, cinema, imagery, actor, playwright, stage, interpretation, idea.

Rejissura va aktyorlik mahorati bevosita teatr hamda kino san’atiga bog‘liq bo‘lgan ijodiy faoliyat turlaridir. Rejissyorning ishi to‘laligicha fidoiylikni talab qiladi. Rejissyor ssenariyni sinchkovlik bilan tanlabgina qolmasdan, balki uni o‘z

dunyoqarashi va nuqtai nazariga moslashtiradi, ya’ni rejissyorlik ssenariysini yaratadi. U bu jarayonda imkon qadar eng yaxshi aktyorlar tarkibini tanlashga, bu bilan filmning obrazini, uning xaqqoniy talqinini yaratishga, har bir obrazga alohida va o‘zgacha tarzda yondashishga harakat qiladi.

Ko‘pgina rejissyorlar o‘z g‘oyalari, fikrlarini batafsil bayon qiladilar, ba’zilari esa aksincha improvizasiyani amaliy rejissuraning bosh quroli deb hisoblaydilar.

Tabiiyki, aktyorsiz rejissyor tafakkur boyligining o‘ziga hos mevasi hisoblangan ijodiy g‘oyalarini amalga oshira olmaydi. Aktyor bilan ishlash ham rejissyorning to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifasiga kiradi va aytish lozimki uning bu vazifasi xali kino yoki televideniye kashf etilishidan avvalroq, qadimgi teatrlar ilk paydo bo‘lgan davrlardayoq paydo bo‘lgan. Aktyor ma’lum rolni ijro etar ekan u o‘z qaxramoning qiyofasiga kirishga, uning xarakterini, ichki dunyosi va his-tuyg‘ularini ifodalashga o‘zining bor mahoratini yo‘naltiradi. Bunda u ssenariydagi mazmunni mukammal o‘rganib chiqqan holda, jonlantirishga kuch va mahoratini sarflaydi.

O‘zbek aktyorlik san’atiga katta hissa qo‘shgan A.Xidoyatov, O.Xo‘jayev, SH.Burxonov, R.Pirmuxammedov, L.Sarimsoqova, Y.Abdullayeva va h.z. kabi aktyorlar nafaqat teatrda, balki o‘zbek kino san’ati tarixi zarvaraqlarida yorqin nom qoldirdilar, o‘zbek kino san’ati aktyorlik maktabiga asos soldilar.

Biroq film tasvirga olishda ayrim rejissyorlar aktyorlar tanlash (proba)larini naqadar muxim ahamiyatga egaligini unutib qo‘yishmoqda. Hozirgi kunda “konfet” deb ataluvchi aktyor yoki aktrisalarning kinoda rol ijro etishlari sababli balki kinoni saviyasi tushishiga ta’sir qilmastan qolmayapti.

2009 yilda tasvirga olingan yosh rejissyor A.Bekturdiyevning “So‘nggi lahza” filmda A.Uzoqov, 2018 yilda rejissyor S.Karimovning “Sarvqomat dilbarim” filmida A.Rajabov hamda J.Ahmedovning “Oling quda bering quda” filmida M.Abulxairovlarning o‘z rollarini maxorat bilan ishonchli ijro etganliklari e’tiborga loyiqdir.

Filmlardagi inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muxabbat va sadoqat tuyg‘usini betakror so‘z, ohang va ranglarda tarannum etilishi taxsinga sazovor. Buyuk shoirimiz CHo‘lpon aytganidek, “Adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”.

Albatta, har qanday ijodiy jarayonda rejissyor va aktyorning ijodiy tafakkuri, qarashlari, asarga nisbatan munosabati to‘laligicha mos kelishi kerak. Shuning uchun ham rejissyorlik kasbi nafaqat ma’suliyatli balki qiyin deb ham aytiladi.

O‘zbekiston kino sohasini rivojlanishida hissa qo‘shgan N.G‘aniyev, K.Yormatov, Y.A’zamov, L.Fayziyev, E.Eshmuxammedov, A.Xamroyev, D.Salimov va SH.Abbosov kabi buyuk rejissyorlar kelajak avlodga oltin meros qoldirishgan deb

baralla ayta olamiz. Sababi, ularning filmlarini namuna sifatida ko‘rib o‘rganganmiz va xali xamon yosh avlodlar ham o‘rganishmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda rejissyorlik kasbiga bo‘lgan ehtiyoj ancha katta va bu masala kundan-kunga yanada dolzarblashib bormoqda. Ko‘pincha ayrim yosh rejissyorlar o‘zlarining naqadar bilimsiz, uquvsiz ekanliklarini sezdirib qo‘yadilar. Ularning orasida hatto N.G‘aniyevning “Tohir va Zuxra”, yoki bo‘lmasa K.Yormatovning “Alisher Navoiy”, SH.Abbosovning “Sen yetim emassan” kabi o‘lmas asarlarini ko‘rmaganlari ham topiladi. Hozirgi taraqqiy etgan, o‘z ustida ishlash va rivojlanish uchun keng imkoniyatlar ochilgan bir vaqtda ba’zi yosh rejissyorlarning ishlari kishini xayron qoldiradi. Ilm-fan, texnika va texnologiyalar rivojlangan, tomoshabinlarning ham dunyoqarashi kengayib, o‘sib borayotgan bir vaqtda qanday qilib shu qadar saviyasiz filmlarni tasvirga olish mumkinligini tushunish mushkul. Buning sababi nimada? Fasebook ijtimoiy tarmog‘ida ijod sohasidan uzoq oddiy bir tomoshabinning zamonaviy badiiy filmlar va seriallar borasida bildirgan firk va mulohazasi e’tiborimni tortdi. U “Milliy” telekanali orqali namoyish etilgan “Iqror” nomli telenovellaga o‘zining munosabatini bildirgan. U film haqida, uning syujeti, ko‘tarib chiqayotgan g‘oyasi va uning tomoshabinlarga, ayniqsa o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy dunyosiga, tarbiyasiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri haqida kuyunib gapirgan. U o‘z izohida ayrim juda hunuk iboralarni ham ishlatgan va ushbu telenovella syujetidagi etika, estetikaga to‘g‘ri kelmaydigan, fahsh va buzuqlikni targ‘ib etadigan elementlar borligiga alohida to‘htalib o‘tgan. Mutaxassis bo‘lmagan oddiy tomoshabin ham bu filmning hatto oddiy san’at talablariga ham mos kelmasligini yaqqol isbotlab bermoqda.

Barchamizga ma’lum, internetda turli hil fikrlar ko‘p bo‘ladi va ularning orasida negativ fikrlar ham oz emas. Ammo, bunday salbiy fikrlarning yuzaga kelishiga ham albatta jiddiy asos bor. Ijodkor inson tomoshabinni umuminsoniy, olijanob g‘oyalar ortidan ergashtirmog‘i zarur. Afsuski, bugungi kunda ko‘pgina “ijodkorlar” tomoshabin ortidan ergashishmoqda, kezi kelganda tomoshabinlar ularga qanday film olish o‘rgatib qo‘yishmoqda. Bunday saviyasizlikning asl negizida baribir birinchi navbatda bilimsizlik, ma’naviyatsizlik turadi deb hisoblayman.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevordir”. Bu so‘zlarga ko‘z yugurtirar ekanmiz biz ijodkorlar bugungi kunda yaratayotgan asarlarimiz bilan ana shu mustahkam poydevorni yarata olyapmizmi degan o‘rinli savol tug‘iladi. Buyuk rus rejissyori, aktyor va pedagog Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy o‘z asarlarida shunday so‘zlarni aytadi: “Agar yozilgan asarning saviyasi past bo‘lsa, sahnani ming bezatmaylik baribir foydasi bo‘lmaydi, biz bu asardan yaxshi spektakl yarata olmaymiz”. Bundan xulosa qilish mumkinki, filmning fundamenti bu – dramaturgiY. Fundament mustahkam bo‘lmasa o‘z ishining

ustasi bo‘lgan rejissyor ham, iste’dodli aktyorlar ham hech narsa qilib bera olmaydi, uni juda mahoratli operator tasvirga olgan bo‘lsa ham foydasi yo‘q.

Jahonning buyuk adiblari, dramaturglari bo‘lmish V.Shekspirning tragediyalarini, J.Molyerning komedik asarlarini o‘qigani sari uning o‘zgacha ma’naviy dunyosiga chuqurlashib boraveradi. Bu asarlarning ma’naviy boyligi, umuminsoniy g‘oyalari shu qadar mukammal va teranki, tahlil qilib tugatib bo‘lmaydigandek go‘yo.

O‘zbek kinossenaristi va kinorejissyori R.Muxammadjonovning ssenariylari asosida yaratilgan “Suyunchi”, “Abdullajon”, “Tangalik bolalar”, “Chinor ostidagi duel”, “Osmon yaqin”, “Sotqin”, “Chol va nabira” filmlari xali ham teleekranlarimizdan tushmaydi. 2006 yilda suratgaga olingan “Chol va nabira” filmiga e’tibor qaratsak, kartina qaxramoni – G‘anisher ismli yetti yoki sakkiz yoshli bola. Bola juda qaysar va bezovta. G‘anisher uchun eng muxim shaxs bu uning buvasi bo‘lib, u buvasining orqasidan bir qadam ham qolmasdan hamma joyda birga yuradi. Onasining o‘limidan keyin u bobosiga yanada ko‘proq bog‘lanib qoladi. Ammo, afsuski, taqdir taqozosi bilan bobosi ham uni abadiy tark etadi...

Filmdagi aktyorlar guruhining to‘g‘ri tanlanganligi, filmdagi muhit janrga mosligi, ssenariyning puxtaligi, albatta, rejissyorga o‘z mahoratini ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlar bergan. 2009 yilda J.Qosimov rejissyorlik qilagan, juda ham ma’noli, tarbiyaviy ahamiyatga bo‘lgan “Suv yoqalab” filmi ham e’tiborga loyiqdir. Ushbu filmda ham xayotiy voqealar aks ettirilgan bo‘lib, bosh qahramon ijrochisi iste’dodli aktyor E.Komilov o‘zining yuksak maxorat egasi ekanligini namoyish etgan. A.G‘aniyevning “Aka” filmini ham tomoshabin iliq kutib olgan. Filmda iste’dodli aktyor U.Qodirov ijro etgan rol juda ham ishonarli tasvirlangan. Qahramonning bolalarcha o‘z ukasini ximoya qilish epizodini, har gal ko‘raganimizda ko‘zimiz yoshga to‘ladi.

Demak, har bir rejissyor davlatimiz tomonidan unga bildirilgan ishonchni sitqidildan, ma’suliyat bilan, did bilan bajarsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘pchilik rejissyorlarimiz sifatli film tasvirga olish uchun mablag‘ni ro‘kach qilishadi. Ammo rejissyorda iste’dod bilan birga, oriyat, burch degan xislatlar ham bo‘lishi kerak. Iste’dodli aktyor, rejissyor, ssenarist CH.Chaplin aytganidek: “Komediya suratga olish uchun menga park, polisiyachi va bitta chiroyli qiz kifoya qiladi” – degan ekan. Ammo siz bilan biz bilamizki CH.Chaplin qanday buyuk asarlar yaratgan. Bundan ko‘rinib turibdiki ijodkorga ko‘p narsa kerak emas ekan. Agar o‘zi san’at uchun ich-ichidan yonmasa, boshqalarni ham yondira olmasligi aniq.

Kinoning tasviriy jixatiga esa operatorlar javob beradilar. Sababi, iqtidorsiz operator ssenariy muallifi fikrini, rejissyor, aktyor, rassom va qator ko‘plab mutaxassislar ishini butunlay chippakka chiqarib yuborishi mumkin. Operatorning vazifasi nihoyatda qiyindir. Hozirgi kunda o‘z sohasiga professional nuqtai nazaridan

qarab ijod qilayotgan kinooperatorlarimiz anchagina. Bunga misol qilib H.Hasanov, I.Meliqo‘ziyev, A.Arziqulov, R.Murodov va h.z.larni misol qilishimiz mumkin.

Jamiyat taraqqiyotini san’atsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaganidek, san’atsiz xam yashay olmaydi. Har bir kishilarning ma’naviy dunyosini boyitishda va estetik didini shakllantirishda xam aynan san’atning o‘rni bekiyos.

Azal-azaldan xalqimiz ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bilan qarashgan. Mana shu xalqimizning ishonchini yo‘qotmaylik. Chunki, ijorkorga Yaratganning o‘zi shunday noyob iste’dod va salohiyat ato etgan, bunday xususiyat, bunday fazilat har kimga ham nasib etmaydi.

Muxtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Zamonamizning haqiqiy qahramonlari bo‘lgan mana shunday quruvchi va muhandislar, dala zahmatkashlari haqida, jonkuyar muallim va shifokorlarimiz, jasur harbiylarimiz, navqiron yoshlarimiz erishayotgan yutuq va marralar haqida sizlar yozmasangaiz, Vatanimiz tarixining badiiy solnomasini sizlar yaratmasangiz, kim yaratadi? Agar biz iste’dod va mahoratimizni shu muqaddas zamin, shu olijanoib xalqimiz uchun safarbar etmasak, hazrat Navoiy aytmoqchi, bu hunarni asrab nima qilamiz, qayerga olib ketamiz uni?

Ha albatta, kino san’ati rivoji uchun barcha sharoitlar yaratilgan bir vaqtda, bu sharoitlardan unumli foydalanishimiz darkordir. Hozirda davr talabi tomoshabinni qalbidan chuqur joy oladigan filmlarni yaratish taqozo etmoqda. Sababi, san’at turlari orasida o‘zining ta’sirchanlik darajasi, kuchli tarbiyaviy axamiyati va ommabopligi bo‘yicha kino san’ati boshqa san’at turlariga qaraganda yuqori o‘rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyeyov Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston.
2. Xaytmatova S., Tursunmetova R. Kinoshunoslik: Kino san’ati tahlili va tanqidi. -T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Meliqo‘ziyev I.M. Kinoteleoperatorlik mahorati. -T.: 2017.
4. jahonadabiyoti.uz
5. ziyouz.z
6. uzas.uz

MILLIY ASARLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Munavvara Abdullayeva
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Dramatik teatr va kino san'ati" professori

Annotatsiya: ushbu maqola barcha talabalarga dasturi amal bo'ladigan, barcha talabalar uchun maktab bo'lmish klassik asarlarni ular tarbiyasidagi o'rni. Asarlar zamonlar osha umuminsoniy qadiryatlarni talabalarga yetkazish ko'tarilgan.

Kalit so'zlar: insoniyat, mahsul, qadriyat, muruvvat, spektakl, rejissor, g'oya, estetika.

Аннотация: в этой статье основное внимание уделяется роли классических произведений в их воспитании, которое является школой для всех студентов, и программа распространяется на всех учеников.

Ключевые слова: человечность, продукт, ценность, изящество, перформанс, идея, эстетика.

Annotation: in this state the main attention is paid to the role of classical proizvedeniy in ix vospitanii, kotoroe yavlyaetsya shkoloy for all students, and the program rasprostranyaetsya on all students.

Key words: humanity, product, value, grace, performance, idea, aesthetics.

Shunday tushunchalar borki, aynan o'sha tushunchalargina insoniyatning bugungi kundagi taraqqiyot mahsuliga erishishiga sabab bo'lgani shubhasiz. Boringki, ibtidoiy tuzumdan ongli tarzda rivojlanish bosqichiga olib chiqqan desak ham bo'ladi. Kimnidir yirtqich jonivorlardan qutqarish uchun qurol o'ylab topilgan, kimnidir uzog'ini yaqin qilish uchun g'ildirak kashf etilgan. Bu vaziyatni mehr-shafqat, muruvvat, insoniylik, vijdon kabi tuyg'ular keltirib chiqaradi. Demakki, bu tuyg'ular umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy shaxslar hayotida aks etishi, ulardan bizga meros bo'lib kelayotganini tarixiy asarlar mutolaasi mobaynida bilib olamiz. Bu qadriyatlarga mufassal to'xtab o'tilgan "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" kitobida umumbashariy qadriyatlar haqida shunday fikrlar bor: "Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushunchalar mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, mutafakkir zotlarning qoldirgan bebaho merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Maxtumquli yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta’bir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni – butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etmoqda”.

Umumbashariy qadriyatlar ichida eng yuqori martabada albatta muhabbat tuyg‘usi turadi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni asosida Xurshid va Sobir Abdulla insenirovkasi bilan xuddi shu nom ostida sahna yuzini ko‘rgan mazkur spektakl, bir so‘z bilan aytganda, mavzuyimizga yorqin misol bo‘la oladi. Bu spektakl Navoiy tavalludi arafasida Muqimiy nomidagi musiqali teatrda Mirza Azizov rejissyorligida namoyish etildi.

Manbalarga ko‘ra, xuddi mana shu afsona syujeti asosida yozma adabiyotning birgina o‘zida bir yuz yigirmaga yaqin asarlar yozilgan. Bu syujetning o‘lmas voqeiyligiga sabab qilib ham aynan umuminsoniy qadriyatlarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Hazrat Navoiyning o‘zi bu dostonini nomai dard deb ataydi. Asardagi asosiy o‘rinlarni qayg‘u-iztirob ranglari tashkil etadi. Klassitsizmga doir aksar asarlar singari bu doston ham sinkretik xususiyatga ega. Unda epos, lirika va dramaga xos xususiyatlar uyg‘unlashgan. Asar syujeti, kompozitsion tizimi, obrazlari va uslubida ayni adabiy turlarga bevosita taalluqli bo‘lgan jihatlar yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek romanchiligining ilk namunasi va o‘zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biri bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani asosida dastlab ikki qismdan iborat, so‘ng qisqartirishlar natijasida bir qismga aylantirilgan film suratga olingan, teatrlarda sahnalashtirilgan. Bu asarning ham g‘oyasi, mavzusi umuminsoniyat tuyg‘ulari bilan bevosita bog‘liqlikni yuzaga keltirgan. Asar syujetidagi ayriliq motivi oshiq va ma’shuqaning so‘ngsiz iztiroblari, ijtimoiy-maishiy turmush fojiasi sifatida beriladi. Ular o‘rtasidagi pokiza muhabbat asosida bunyod bo‘lgan nikoh rishtalari, oila qo‘rg‘onini buzishga chog‘langan kuch va qahramonlar o‘rtasidagi kurash mobaynida biz qalamga olgan umumbashariy qadriyatlar o‘z ifodasini topadi. Masalan, asar bosh qahramoni Otabekka xos bo‘lgan jozib fazilatlarni biz voqealarning ilk qismidanoq anglashimiz mumkin. Otabek Marg‘ilondagi dongdor karvonsaroyga qo‘ngan. Uni otasi Yusufbek hojining marg‘ilonlik do‘sti Ziyo shohichining o‘g‘li Rahmat bilan Homid yo‘qlab kelishadi. Odatdagi salom-alik, hol so‘rashlar orasida syujet sahnasida Hasanali paydo bo‘ladi. Otabek undan dastlab hol so‘raydi, so‘ng ba’zi yumushlar buyuradi.

“– Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

– Qulimiz”.

Inson farosatining, ko‘ngil nozikligini qalban his qilishning, mehr-shafqatning yorqin namunasi bo‘lgan mazkur holatni hech bir e’tirozsiz umuminsoniy qadriyatlar qatoriga qo‘shishimiz mumkin.

Mana shunday tarixiy asarlardan yana biri Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Shayxzoda mazkur asarida bosh qahramonni Temur maqbarasiga murojaat ettiradi, bobosining ruhidan uni ilhomlantiradi, mushkul davr va zulmatli sharoitdan azob chekkan ulug‘ insonning Temur ruhiga sajda qilishini, undan maslahat so‘rashini muallif asoslaydi. O‘ziga xos bu manzara bosh qahramonning ikki jihatini yorqin namoyon qiladi. Birinchidan, Ulug‘bekning ma’naviy barkamolligini ko‘rsatib bersa, ikkinchidan ruhiy fojiasini ochib berishga harakat qiladi.

Shayxzoda bu yerda o‘rinli epizodni qo‘llab, syujetga jiddiy turtki berishi bilan birga bosh qahramonning tub mohiyatini, undagi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalab berishga muvaffaq bo‘lgan.

Shunga o‘xshash hodisa Abdulla Oripovning “Sohibqiron” pyesasida ham juda original shakl kasb etadi va asarga alohida g‘oyaviy-estetik yuk bag‘ishlaydi. Bu manzaraning o‘ziga xosligi shundaki, unda bosh qahramon ruhlar bilan bevosita muloqotda bo‘ladi va ular bilan jiddiy bahslashadi, ulardan yo‘l-yo‘riq so‘rashi bilan birga, o‘zining haqligini isbotlash uchun keskin munozaraga kirishadi. Bu bilan o‘z shijoatini, xalqparvarligini, adolatli ekanligini namoyon qiladi.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy o‘z asarlaridan birida tarixni o‘rganishdan maqsad, tarixda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik va tarixda erishilgan muvaffaqiyatlardan o‘rnak olishdir, degan fikrni aytib o‘tadi. Tarixiy asarlardan ham tomoshabinlar o‘rnak olishi uchun aktyorlar personajning umuminsoniy qadriyatlarini yaqqolroq namoyon qilib berishi masalaning muhim qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hafiz Abdusamatov. Drama nazariyasi. -T.: G‘afur G‘ulom, 2000.
2. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – -T.: O‘zbekiston. 2008.
3. Uzoq Jo‘raqulov. Nazariy poetika masalalari. -T.: G‘afur G‘ulom, 2015.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	3-4 СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ КЎКРАК ҚАФАСИ АЙЛАНАСИ УЗУНЛИГИ СОЛИШТИРМА ТАВСИФЛАШ Мухамматова Сурайёхон Акрамжон қизи, Холмирзаева Мадинахон Акрамжоновна, Ходжаева Азиза	4
2.	КИЧИК МАКТАБ ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА НАФАС ТИЗИМИ КЎРСАТКИЧЛАРИ ДИНАМИКАСИНИ ЎПКАЛАРНИНГ ТИРИКЛИК ХАЖМИ ОРҚАЛИ ҚИЁСИЙ ТАВСИФЛАШ Юсупжонова Гулбодомбегим Акмалжон қизи, Холмирзаева Мадинахон Акрамжоновна, Азизова Дурдона Абдувохидовна	11
3.	МИРНОЕ РАЗВИТИЕ – СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ВЫБОР КИТАЯ Аролов Шерзод Нуриддин угли Н.Э. Каримова	17
4.	THE IMPACT OF CLOTHING ON FOREIGN LANGUAGE TEACHING AND LEARNING: EXPLORING THE ROLE OF ATTIRE IN LANGUAGE ACQUISITION Kholiqova Khafiza	23
5.	THE PHILOSOPHY OF SUFISM IN THE THEOLOGICAL AND RELIGIOUS TEACHINGS OF ABU HAMID AL-GHAZALI AND IBN AL-ARABI Polatov Sayodbek Hasanovich	26
6.	COGNITIVE-LEVEL BILINGUALISM Hasanova Ma'suda	32
7.	ADVOKATLARNING KONSTITUTSIYADA TUTGAN O'RNI Ne'matov Nursulton Shavkat o'g'li Ismoilova Dildora Alisher qizi Mirzayeva Umida Burxon qizi	39
8.	EFFECT OF DIFFERENT FERTILIZER RATE ON WINTER WHEAT PLANT THICKNESS AND WINTER PRODUCTION LEVEL G.Q.Islomova	43
9.	INGLIZ TILI DARSLARIDA VISUAL VOSITALARNING AHAMIYATI VA QO'LLANILISHI Muhayyo Umarova	48
10.	STUDY OF THE PROBLEM OF STRESS IN THE PSYCHOLOGY OF FAR AND NEAR FOREIGN COUNTRIES Radjabov Akmal Abdukhaliqovich	56
11.	САҲНАВИЙ ОБРАЗ ЯРАТИШДА АКТЁРНИНГ МУШКУЛОТЛАРИ Абдуқодирова Шодия	65
12.	REWRITING - МАТНЛАРНИ САМАРАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ВА ЯРАТИШ УСУЛИ СИФАТИДА Наргиза Мирзаева	69
13.	STUDY OF PAREMIAS IN MODERN LINGUISTICS: AS AN EXAMPLE OF THE ANALYSIS OF LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES Akbaraliyeva Khurshida Shavkatjon kizi	80
14.	SINXRON TARJIMANING PSIXOLINGVISTIK OMILLARI Yuldasheva Kamola Saydali qizi	91
15.	PLANIMETRIYADAGI BA'ZI TENGSIZLIKLAR Madraximov T.	96
16.	НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ЖИҲАТДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА МАЪНАВИЙ АСОСЛАРИ Дилфуза Маҳкамова	104

17. TEACHING PRAGMATIC SPEECH ACTS OF COMPLIMENTS AND REFUSALS IN ACCORDANCE WITH CONTEMPORARY METHODS
Sadikov Erkin Tursunovich 109
18. RESEARCH OF LINGUISTIC ASPECTS OF ADVERTISING IN ENGLISH
Sherefetdinova Elvina Rustemovna 113
19. INNOVATIVE APPROACHES OF TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE
Surayyo Abidjanova 116
20. ФАРҒОНА ФИҚҲ МАКТАБИ ОЛИМЛАРИНИНГ ФИҚҲ ИЛМИ АСОСЛАРИ СОҲАСИДАГИ АСАРЛАРИ
Қориев Одилжон Аҳмаджонович 121
21. NAVOIYNING HAYRATUL-ABROIDA INSON SIMOSI
Mohammad Ashraf Sharifi 127
22. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTROPOSENTRIK MAQOLLARDA QADRIYATLAR TIZIMI
Majidova Ra'no Urishevna, Komilova Go'zalxon Oybek qizi 137
23. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA NAQSH VA BEZAKLAR MAVZUSINING AMALIY METODLAR ORQALI YORITILISHI
Xalilova Zarina Bahodirovna, Nizomova Sarvinoz Nomozovna
Anvar Joxbarovich Umarov 142
24. THE CONCEPT OF HOMELAND IN THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD OF THE POET SERGEI YESENIN
Abdulakhadova Shokhida Ravshanovna
Zulfiya Odiljonovna Karimova 147
25. THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN THE FIELD OF INSURANCE ACTIVITY: PROSPECTS FOR UZBEKISTAN
Olimova N.Kh. Tuychiyeva Sh.A. 151
26. GELMINTOZLAR MUAMMOSI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI
Mirzahmedova Muharram Sadritdin qizi
Nishonov Azizbek Abdumutalli o'g'li
Quranboyev Siroj Berdiboy o'g'li 160
27. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTROPOSENTRIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIC-TEMATIK GURUHLARI
Muzaffarova Farangiz Jo'raxon qizi 166
28. ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ И ОСНОВЫ ЭПИДЕМИОЛОГИИ
Кличев Бехзод Тургунбаевич 172
29. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ АҲИСКА ШЕВАСИГА ТАЪСИРИ
Носирхонов Муҳаммадхон 176
30. QRIM QARAG'AYI NIHOLLARINING KO'CHATXONA SHAROITIDA KASALLIGINING MAVSUMIY RIVOJLANISHI
Siddiqova Nodira Kamildjonovna 180
31. РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДОМ» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ РУССКОГО ЯЗЫКА
Шерефетдинова Зарема Рустемовна 183
32. KOMPLEKS ANALIZDA BA'ZI KONFORM AKSLANTIRISHGA DOIR MISOLLAR
Xudaybergenova Gulrabo Komiljanovna 187
33. РИТОРИКАДА НОТИҚҚА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР
Феруза Якубова 193
34. INDUSTRIAL ROBOTIC CONTROL SYSTEM USING HARDWARE AND SOFTWARE CO-VERIFICATION 200

	Rimboyev Nodirbek Ilhomboyevich	
35.	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN UZUNLIK O'LCHOV BIRLIKLARI Rustamova Nazokat Raxmataliyevna	203
36.	MUSIQALI TEATR AKTYORLARINI TARBIYALASHDA ADABIY PARCHALARNING AHAMIYATI	206
37.	TA'LIM VA TEATR Orifjon Qudratov	210
38.	MILLIY MA'NAVIYATIMIZDA NIKOH VA OILAGA DOIR AXLOQIY QADRIYATLAR Raximova Saida Durdiyevna	216
39.	TO'TI YUSUPOVA IJODIDA MILLIY QAHRAMONLIK TIMSOLI Eldor Xushvaqtov	219
40.	XATTI-HARAKAT KO'RINISHLARI VA ZIGMUND FREYD NAZARIYASI Fayoz Turg'unboyev	223
41.	ARTIST ROLINING KELAJAGI Ernazar Yarbekov	228
42.	КЎЙЛОВЧИ АКТЁР ТАРБИЯЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Рашид Уснатов	233
43.	MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNI INNAVATSION TARBIYA SAMARADORLIGI Mullaboyeva Diyoraxon Soib qizi	236
44.	BOSHLOVCHILIK SAN'ATIDA AKTYORLIK MAHORATINING O'RNI Umid Rasulov	242
45.	ДЕМОНСТРАЦИЯ ТЕАТРА ОДНОГО АКТЁРА Хуршид Тўхтаев	246
46.	УНИКАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА Фаёза Маннонова	252
47.	JANR VA IJRO USLUBIYATI Sherzod Muhammadiyev	256
48.	MUSIQALI SPEKTAKLLARDA DRAMATURG, BASTAKOR VA REJISSYOR IJODIY HAMKORLIGI Farxod Farmonovich	260
49.	O'ZBEKISTON DAVLAT DRAMA TEATRIDA "XAZINA" SPEKTAKLI Barno Nurmanova	264
50.	INKLYUZIV TA'LIM: IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH UCHUN ULARGA CHET TILLLARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI Azizova Durdona Avazbek qizi	271
51.	LINGUACULTURAL SIGNIFICANCE OF METAPHORS USED IN RELIGION Haydarova Umida Mahmudova M.	276
52.	IJODKOR SHAXSNING BADIIY DID VA AXLOQIY MADANIYATI Feruza Karayeva	280
53.	O'ZBEK REJISSURASI VA AKTYORLIK MAKTABLARI Qahramon Madrimov	284
54.	MILLIY ASARLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR Munavvara Abdullayeva	289

Eslatma! **“Interpretation and researches”** xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

International scientific journal

“Interpretation and researches”

xalqaro ilmiy jurnal

2023-yil 15-son

© Mualliflar jamoasi, 30.10.2023. 295 bet.
© O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati
© interpretationandresearches.uz